

ОБРАЗОВАНИЕ

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

**Выпуск № 8 (том 1)
(октябрь 2022)**

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

ЧАСТЬ 8 ТОМ 1 ОКТЯБРЬ 2022 год



HAMSHIRALIK-KERAKLI KASB

Farg'ona tumani tibbiyot kolleji

“Terapiyada hamshiralik ishi” kafedrası

Hamshiralik ishi fani o'qituvchisi

Sayyora Nishonova Toyrjonovna

Asab-ruhiy va narkologik kasalliklarda hamshiralik ishi fani

o'qituvchisi Aziza Akbarova Mirkomil qizi

Annotatsiya: maqolada hamshiralik kasbini mohiyati, hamshiraning vazifalari va O'zbekiston Respublikasidagi hamshiralik qasamyodi haqida so'z boradi. Shuningdek, shifokor va hamshiralik tashxisi haqida taqqoslash ma'lumotlari kiritilgan.

Annotation: the article will talk about the essence of the nursing profession, the duties of a nurse and the oath of Nursing in the Republic of Uzbekistan. Also included are comparison data on the diagnosis of the doctor and nursing.

Kalit so'zlar: hamshira, davo, parvarish, burch, vazifa, huquq, bemor, hamshiralik qasamyodi, poliklinika.

Mashhur polyak vrachi Beganskiy: “Insoniy muhtojlikka befarq qaraydigan, yumshoq muomala qilishni bilmaydigan, hamma joyda va hamma vaqt o'zini tuta bilishi uchun iroda kuchi yetishmaydigan kishi, yaxshisi, boshqa kasbni tanlagani ma'qul, chunki u hech qachon yaxshi tibbiyot xodimi bo'la

olmaydi”, deb yozgan edi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoda bu yangi tipdagi oilaviy hamshiralarni tayyorlash boshlang’ich bosqichda turibdi. Biroq oz fursatda rivojlanib, jamiyatda o’z mavqeiga ega bo’lib boradi. Hozirgi kunda bemorga kasalxona yoki javob berilgandan ko’rsatiladigan tibbiy yordam uzluksizligida buzilishlar kuzatilmoqda.

Shu bois oilaviy hamshiraning kasalxona bilan poliklinika o’rtasidagi bog’lovchi halqa bo’lishiga umid bog’lanmoqda. Hamshira bemorni kasalxonadan javob berilgandan keyin uyiga borib ko’radi. Hamda bemorning tegishli shifokor va hamshira nazoratida bo’lishini va ahvoliga ko’ra poliklinikadan zaruriy tibbiy xizmat ko’rsatilishini kuzatib turadi.

Tibbiyot hamshiralarining asosiy vazifa-burchlari inson salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish va bemorlarni dard azobidan imkon qadar qutqarishdan iborat.

Jamiyatda tibbiyot hamshirasi xizmatiga ehtiyoj yuqoridir. Hayotga, inson huquqi va qadr-qimmatiga hurmat hamshiralik ishining ajralmas qismidir. U bemorning millati, irqi, urf-odati, dini, e’tiqodi, yoshi, jinsi, siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazariga qarab ajratmaydi.

Tibbiyot hamshiralari boshqa fuqarolar bilan bir qatorda tashabbuskorlik bilan ish olib borib, jamiyatning tibbiy va ijtimoiy talablarini qondirishdagi javobgarlikni his etadilar.

Tibbiyot hamshirasi ixtisoslashgan tibbiyot muassasalarida ishlayotganida o’z xulq-atvori bilan hamshira kasbiga atrofdagilarning hurmat bilan qarashini ta’minlashga o’z hissasini qo’shadi.

Tibbiyot hamshirasi o’zining bilimi va burchi doirasida javobgarlikni his qilgan, vakolatni o’ziga olgan holda ish tutadi.

Tibbiyot hamshirasi har qanday vaziyatlarda ham hamshiralik parvarishini eng yuqori mezonlar darajasida ta’minlaydi.

Tibbiyot hamshirasi shaxsiy javobgarlikni his etgan holda o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimni doimiy ravishda yangilab boradi.

Tibbiyot hamshirasi kasbiga taalluqli tashkilotlar orqali hamshiralar ijtimoiy-iqtisodiy himoyasi, ishlash sharoitini yaxshilash yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirib boradi.

O'z navbatida bemor ham sog'liqni saqlash ishlarini yaxshilash bo'yicha o'zi davolanayotgan muassasada o'z takliflarini berishi mumkin.

Shu o'rinda, respublikamizdagi bu kasbning barcha qadriyatlari jo bo'lgan Hamshiralik qasamyodini keltirish joiz!

O'zbekiston Respublikasi hamshirasining qasamyodi

Men, _____

hamshiralik kasbini egallab, tibbiy faoliyatga kirishar ekanman o'z hayotimni, bor bilim va mahoratimni insonlar sog'lig'ini muhofaza qilishga bag'ishlashga, hamshiralik faoliyatimda inson hayotiga xavf tug'dirmaslikka, tibbiyot an'alarini asrab-avaylash, rivojlantirish va tibbiyot ishini shaxsiy manfaatimdan yuqori qo'yishga, shifokor sirini saqlashga, bemorning millati, irqi, diniy e'tiqodi, madaniyati, siyosiy qarashi, iqtisodiy, ijtimoiy holati-dan qat'iy nazar, unga g'amxo'r bo'lish va tibbiy yordam ko'rsatishga, hamisha O'zbekiston Respublikasi hamshirasining Kodeksiga tayanib ish ko'rishga qasamyod qilaman. Men hamshiralik burchimni vijdonan bajarish uchun o'z erkim bilan samimiy qasamyod qilaman.

Tibbiyot hamshirasi bemorning obro'si va qadr-qimmatiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'ladi. U bemorga qo'lidan kelgan hamma chora-tadbirlarni ko'rsatadi.

Bemor davolanish davrida zarur bo'lsa davolanish muassasasini, o'zini parvarish qilayotgan tibbiyot hamshirasini tanlashi mumkin.

Ehtiyoj tug'ilganda bemor o'z oila a'zolari, qarindoshlari, do'stlari va ko'ngli tortgan kishilaridan madad yordami olishga haqli.

Tibbiyot hamshirasi eng avvalo hamshiralik parvarishi talab qiluvchi bemorlar oldida javobgardir.

Tibbiyot hamshirasi bemor shaxsigaga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni sir saqlaydi, agar uni biron kishiga bildirishi zarur bo'lsa, u holda oqilona yo'lni tanlaydi.

Tibbiyot hamshirasi bemorni davolash uchun qo'llaniladigan usullarni aytib, uning roziligini oladi. Bemor o'z navbatida unga qilinayotgan muolaja yoki davolash ishlarini rad etishi mumkin.

Tibbiyot hamshirasi bemorning kasalligi, davolanishi, kasallik tashxisi to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlaydi, bemorni davolayotgan vrach sirlarini oshkor qilmaydi.

Tibbiyot hamshirasi o'zining kasbdoshlari bilan kasbga oid va boshqa sohalar bo'yicha hamkorlikda ish olib boradi.

Tibbiyot hamshirasi bemorni himoya qiladi, agar uning sog'lig'iga biror xodim yoki boshqa kishi tomonidan xavf tug'dirilsa, darhol zarur bo'lgan choralarni ko'radi.

Kasalxonada hamshiraning vazifasi qanday? Hamshiralar xodimlarining vazifalari jismoniy mehnat bilan bog'liq. Kingadir hamshiraning ish ta'rifi farroshning ishiga o'xshab ko'rinishi mumkin. Ushbu ikki kasb o'rtasida o'xshashliklar mavjud, ammo birinchi holda, javobgarlik ancha murakkab va mas'uliyatli. Poliklinikada yoki xususiy tibbiyot muassasasida hamshira individual tayyorgarlikdan o'tishi shart. U lavozimga bosh shifokor tomonidan tayinlanadi. Poliklinikada buyurtmachilar tegishli bo'lim styuardessasiga bo'ysunadi. Ular o'z ishlarini ko'rsatmalarga muvofiq bajarishlari kerak:

1. Hamshira o'ziga ajratilgan binolarni nam tozalashni amalga

oshirishi shart.

2. Katta hamshiraga yordam bering (dori-darmonlarni, asboblarni, jihozlarni oling, ularni bo'limga etkazib bering).

3. Bemorlar uchun toza ichki kiyimlarni, uy jihozlarini, yuvish vositalarini qabul qiling, saqlang va ta'minlang.

4. Bemorlarning sog'lig'i, shikoyatlar, shuningdek bo'limdagi muammolar to'g'risida hamshiraga xabar bering.

5. To'shakda yotgan bemorlarga g'amxo'rlik qilish, ovqat berish va idishlarni tozalash.

6. Agar bemor yuqumli kasallikka chalingan bo'lsa, binolarni dezinfeksiya qilish uchun.

7. Bemorlarning ahvolini va shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilinishini kuzatib boring.

8. To'shakda yotgan bemorlar bo'lgan kasalxonada hamshiraning vazifalariga kuryer vazifalari ham kiradi. U og'ir tibbiy bemorlarning jismoniy holati to'g'risida katta tibbiyot xodimlariga xabar beradi, ularga g'amxo'rlik qiladi (yuvadi, yuvadi, tirnoqlarini, taroqlarini kesadi, o'giradi, o'tirishga majbur qiladi). Bundan tashqari, hamshira o'z malakasini muntazam oshirib borishi, kichik xodimlar uchun bo'limda o'tkaziladigan darslarga qatnashishi kerak.

Tibbiyot hamshirasining bemorlar parvarishi bo'yicha vazifalari:-vrach ko'rsatmalarini aniq bajarish, barcha organlarning fynksiyalari ustidan kuzatib borish; -zaiflashgan organizmni yuz berish ehtimoli bo'lgan asoratlardan himoya qilish, bemorlarga sezgir va mehribon bo'lish-bemorlarni parvarish qilish deganda, biz mana shularni tushunamiz: -bemorlarni parvarish qilish davo tadbiri hisoblanadi va "davo" hamda "parvarish qilish" degan ikki tushunchani bir-biridan ajratishi mumkin emas, chunki ular o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi va yagona maqsadga-bemorning sogayishiga qaratilgan. Tibbiyot hamshirasi bemorni mustaqil davolamay, faqat vrach ko'rsatmalarini bajarsada, ularning kuzatuvlari katta ahamiyatga ega, chunki u bemorning yonida bo'lib, uning holatiga, ro'y berayotgan hamma o'zgarishlarni

payqab, unga o'z vaqtida yordam berishi va ularning iztiroblarini yengillashtirish mumkin. Tibbiyot hamshirasining ishi benihoyat mas'uliyatlidir, o'z kasbini sevadigan, bemorlarga sabr-toqat va mehr bilan qaraydigan kishigina yaxshi tibbiyot hamshirasi bo'la oladi.

Shifokor tashxisi	Hamshira tashxisi
- kasallikni aniqlash; -kasallik kechishi davomida o'zgarmasligi mumkin; -shifokorlik amaliyoti doirasida muolaja tayinlash; -odatda, organizmda yuz beruvchi patafizilogik o'zgarishlar bilan bog'liq	- kasallik tufayli organizmning qarshi kurashga qaratilgan maqsadini amalga oshirish; - xar kuni yoki kun davomida, organizmning kasallikka qarshi kurash davridagi o'zgarishlarga qarab o'zgartiriladi; - xamshiralik vakolati va tajribasi doirasidagi aralashuv; - bemorning o'z sog'lig'i xaqidagi tasavvuriga ko'ra

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inomov, Qodirxon Saidmamatovich “Hamshiralik ishi asoslari” Tibbiyot kollejlari uchun darslik
2. E.A. Shomansurova, Ch.D. Bo'tayev OILA TIBBIYOTIDA
3. HAMSHIRALIK ISHI “Oliy hamshiralik ishi” ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun darslik
4. V.M. Buyanov “Birinchii medisina yordami”. Toshkent “Medisina” 1997 yil.

KITOB MUTOLAASI VA KITOBXONLIK MADANIYATI

Dilfuza Kallibekova Tayir qizi

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat instituti

Nukus filiali 3-bosqish talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyati kitobni qanday o'qishni bilish; Kitob o'qiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish kabi ma'lumotlar beriladi

Kalit so'zlar: alifboli-xronologik, bibliografik apparat, kutubxona kartotekalari, format (shakl),

KIRISH

Badiiy adabiyot va u haqdagi fanlar, shuningdek, pedagogika, didaktika, ruhshunoslik rivoji, internet tarmog'ining ijtimoiy hayotimiz ichiga chuqur kirib borishi, jahon ta'lim tizimidagi islohotlar, xalqaro umummadaniy taraqqiyot tufayli bu muammo ta'lim-tarbiyaga aloqador ziyolilar, olimlar oldidagi davlat ahamiyatiga molik dolzarb masalalardan bo'lib qoldi.

2021-yil 19-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida kuchli iqtisodiyot bilan kuchli ma'naviyatni yangi O'zbekistonni barpo etishning mustahkam ustunlari sifatida tilga olishi yoshlar o'rtasida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi. Zero, shaxs ma'naviy kamoloti ko'p jihatdan kitobxonlik va mutolaa madaniyatining to'g'ri uyushtirilishi, boshqacha aytganda, metodologiyasi bilan chambarchas bog'liq. Inson bilimlarining 85%i bevosita kitob mutolaasi orqali egallanishi nazarda tutilsa, ayni muammoning qay darajada muhimligi yanada ravshan tortadi.

ASOSIY QISM

Mutolaa madaniyati juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishib, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lish, shuningdek kitobdan to'la ravishda foydalana bilishda yordam beruvchi ko'nikmalardan iborat. Kitobxonlik madaniyati kitobxonga o'qiyotgan asarini to'laqonli tushunish, undan badiiy-estetik zavq olish, yozuvchi fikri, asar g'oyasini anglash va baholay olish, bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, ma'lumotnoma-bibliografik apparatidan o'zini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Kitob tanlash, uni tez o'qish, o'qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya etish, avaylab saqlash ham kitobxonlik madaniyatining tarkibiy qismlariga kiradi.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi juda keng ma'noda qo'llaniladi. Xususan, bu hodisa asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma'lum tayyorgarlik va saviyani talab qiladi. Bu hodisaning mohiyati kitobni shunchaki varaqlash va undan umumiy foydalana bilishdan to'ijodiy o'qish, kitob muallifiga oshno bo'lib, uning asarini chuqur tahlil qilib mutolaa qilishgacha boradi. Kitob paydo bo'lgan paytdan boshlab hayot darsligi va bilim beruvchi vosita sifatida kishilarning iymonli bo'lishi uchun xizmat qilib, yashash tarzining hayot kechirish qoidalarining qomusiga aylangan. Kitob har bir insonning ayniqsa, yoshlarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Zero, qadriyatlar orasida o'qish, mutolaa va bilim olish alohida o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mutolaa madaniyati juda keng tushuncha va bag'oyat murakkab muammo bo'lib, taxminan quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi: Kitob tanlay olish; Kitobni qanday o'qishni bilish; Kitob o'qiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish; Kerakli ma'lumotlarni qaerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish; Olingan bilimni yoki xabarni qanday yetkazib berish; Qayta o'qish - kitobxonlik ko'nikmasini odatlantirish; Kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilish; Kitobni tez va sekin o'qishni farqlay olish; Kitobni o'qib, uning fusunkor olamiga kira bilish; Kitobni mustaqil o'qiy bilish. Kitob mutolaasi madaniyatiga kitob xarid

qilish va kutubxonani muntazam boyitib borishga alohida e'tibor bilan qarash, kitob saqlash odobi, o'qish jarayoni, o'qiganni o'ziga va hayotga tatbiq eta bilish kabilar ham kiradi.

Kitobni har gal mutolaa qilib bo'lgandan so'ng, javonga terib qo'ygan ma'qul. Kitob javonidagi kitoblarni esa vaqti-vaqti bilan changini artib, tozalab turish kerak. Xona harorati mo'tadil bo'lishi lozim va xonani shamollatib turish kerak. Kitobni quyosh nuri to'g'ri tushadigan joyda saqlash ham noto'g'ri hisoblanadi. Quyosh nuri kitob qog'ozi sifatiga ta'sir qiladi, ya'ni fizik holati o'zgarishiga olib keladi. Bu degani kitob qog'ozi sarg'ayib ketadi va dog' tushadi. Kitobga suv tegsa ham, varaqlar o'z xususiyatini yo'qotadi. Kitob yaxshi yopilmaydi va uni varaqlash noqulaylik tug'diradi. Kitobni har xil nojo'yajoylarda tashlab ketish ham mumkin emas.

Kutubxonashunoslik fanida kitoblarni joylashtirish degan atama bor. Buning mazmuni kitoblarning binoda yaxshi saqlanishini ta'minlashdan, kitobxonga qulay xizmat ko'rsatish va kutubxonaning barcha ish shakllaridan keng foydalanish imkoniyatini yaratib berishdan iboratdir. Kutubxona fondlarini joylashtirish usullari ichida sistemali, alifboli, xronologik, geografik, format (shakl) hamda tillar bo'yicha joylashtirish eng asosiy usullardan hisoblanadi. Alifboliusuldan boshqa usullar mustaqil ravishda qo'llanilmaydi, balki bir-biri bilan birgalikda qo'llaniladi.

Masalan, sistemali joylashtirish, odatda, alifboli usul bilan, jurnal va gazetalarni tokchalarga joylashtirishda esa ko'pincha alifboli-xronologik usul bilan birga qo'llaniladi. Bunda birinchi asosiy usul bo'lib, ikkinchisi yordamchi usul sifatida xizmat qiladi. Sistemali-alifboli usulda joylashtirishda sistemali usul asosiy usul hisoblanadi, chunki u fondni joylashtirishda asosiy tartibni belgilab beradi, alifboli usul esa bu yerda yordamchi usul sifatida xizmat qiladi. Kutubxona fondini joylashtirish usuli fondning katta-kichikligiga, fond tarkibidagi nashrlarning turlariga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda qanday tizim qo'llanishiga qarab belgilanadi.

Shaxsiy kutubxonada kitoblarni joylashtirish tartibiga kelganda shularni ta'kidlash zarur: bu kitoblarni bo'limlarga ajratib joylashtirishdir. Uning taxminiy tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin: Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar; Ilmiy-ommabop adabiyotlar; Badiiy adabiyotlar; Ma'rifiy adabiyotlar; Ma'lumotnoma nashrlari: lug'atlar, ensiklopediyalar; Gazeta va jurnallar. Bordinyu, shaxsiy kutubxonada badiiy adabiyotlar yetarlicha bo'lsa, ularni o'z navbatida nasr, she'riyat, dramaturgiyaga, klassik va zamonaviy adabiyotlarga alifbo bo'yicha alohida-alohida joylashtirish mumkin. Noyob kitoblarga javondan maxsus joy ajratilgani ma'qul. Tez-tez va ko'p foydalaniladigan kitoblar javonning eng ko'rinarli, olinishi oson bo'lgan joyga qo'yilishi ayni muddaodir. Fondi boy kutubxonada ham, kitobi nisbatan oz shaxsiy kutubxonada ham, bor kitoblarga katalog tuzilgani ma'qul. Bu umuman kutubxonalarda ham, shu jumladan shaxsiy kutubxonalarda ham ishni ilmiy tashkil etishning eng qulay va samarali yo'li hisoblanadi sabab bo'lmoqda.

XULOSA

Mutolaa madaniyati tarbiyasiga doir soha mutaxassislarining e'tirof qilishlaricha, kitob o'qishning majburiyat emas, ehtiyoj darajasiga ko'tarilishi kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirishning muhim sharti hisoblanadi. Xulosa va takliflarimiz shundan iboratki, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarkib toptirish, uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichlarida bosqichma-bosqich rivojlantirib borish yaratilayotgan milliy dasturda muhim o'rin tutmog'i lozim.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” 2017-yil, 13-yanvar.
2. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”. –Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019.
3. Ibrohim Haqqul. “Zanjirband sher qoshida”. –Toshkent: “Cho‘lpon”. 1993.
4. Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. 1-kitob. Toshkent:”Yozuvchi”. 1990.
5. Yusuyu Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –Toshkent:”Yulduzcha”, 1990

**ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТИДА ФОЛЬКЛОРИЗМЛАР
ТИПОЛОГИЯСИ ВА УНИНГ Ш.СЕЙТОВ ИЖОДИДАГИ
КЎРИНИШИ**

*ҚМУ Әдебияттануы (Қарақалпақ әдебияты) 2-курс магистранты
Қыпшақбаева Назира Түрикпенбаева*

Annotatsiya. Bu maqolada qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri bo'lgan Sh.Seytov ijodi va uning she'rlaridagi folklorizmlar tahlil qilingan. Uning she'riyati mavzu jihatdan ham, badiiy talqin va tasvir borasida ham o'ziga hos rang-baranglikga ega. Ushbu maqolada shoir ijodining xalq jonli tiliga qanchalik yaqinligi tahlil qilingan. Shuningdek, folklorizmlarning tipologiyasi masalasi ham tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье анализируется творчество одного из видных представителей каракалпакской литературы Ш. Сейтова и фольклоризмы в его стихах. Его поэзия уникальна по тематике, художественной интерпретации и образности. В данной статье анализируется, насколько творчество поэта близко живому языку народа. Также анализируется вопрос о типологии фольклоризмов.

Annotation. This article analyzes the work of one of the prominent representatives of the Karakalpak literature Sh. Seytov and folklorisms in his poems. His poetry is unique in subject matter, artistic interpretation and imagery. This article analyzes how close the poet's work is to the living language of the people. The question of the typology of folklorisms is also analyzed.

Tayanch sózlar. Poeziya, janr, folklorizm, tipologiya, sujet, motiv, xalq og'zaki ijodiyoti.

Ключовое слова. Поэзия, жанр, фольклоризм, типология, сюжет, мотив, народное творчество.

Keywords. Poetry, genre, folklorism, typology, plot, motive, folk art.

Халқ ижодиётининг дастурлари ёзма адабиётда бадий-эстетик мерослардан бири. “Хар бир миллий адабиёт ўзининг бошланиши ва ундан кейинги ривожланиш босқичларида унинг йетакчи дастурларига суянади. Сабаби, бадий ижод процесининг хар бир босқичи инсониятнинг бадий онгининг ўзидан олдинги босқичлари ва унинг ривожланишидан иборат”. [6]

Шунингдек, бу процес даврнинг социал-сиёсий ўзгаришлари ҳам ёзувчи, шоирларнинг фольклорга боғлиқлиги билан давом этади.

Қорақалпоқ адабиётида фольклоршунос олим Қ.Байниязов XX асрда яшаган қорақалпоқ халқ шоирлари А.Мусаев, С.Мажитов, А.Дабылов, С.Нурымбетовлар ҳақида: “...Бу шоирлар ўз ижодида фольклор билан ёзма адабиётнинг ижодий дастурларини синтезлаш орқали халқ оғзаки ижодиёти ва классик поезиянинг ижодий дастурларини давом етиб, қорақалпоқ поезиясини янги мазмун ва формалар билан бойитти” -деган еди. [4] Ҳақиқатдан ҳам, бир қатор халқ шоирлари ўз асарларида фольклоризмларнинг турли намуналаридан фойдаланган ва ҳозирги бадий адабиётимизнинг ривожланишига ўз ҳиссаларини қўша олган.

Қорақалпоқ адабиётшунослик илмида адабиёт ва фольклорнинг боғлиқлиги поэтик асарлар мисолида кенгроқ таҳлил қилинган.

Фольклоризм ва унинг типологияси масаласини кўпчилик рус олимлари анча авваль диққат этиборга олган, улардан А.А.Горелов “Адабиёттаги фольклоризм тушунчасини таҳлил қилиш” деган мақоласида фольклоризмлар типологиясини алоҳида классификация қилган: *органик стилизация, органик емас стилизация, поэтик фольклоризм, жанрли фольклоризм, мифологик ва дунёни англашга қаратилган фольклоризмлар* деб ажратади. [5]

Шунингдек, ўзбек адабиётшунослиги илмида бу масала ўтган асрнинг 80-йилларидан бошлаб айрим мақолаларда сўз етила

бошлади. Масалан, Б.Саримсақов “Фольклоризмлар типологиясига боғлиқ” номли мақоласида ўзбек адабиётидаги фольклоризмларнинг типологияси ҳақида дастлабки фикрларни билдирган. У фольклоризмларни “*содда фольклоризмлар*” ва “*мураккаб фольклоризмлар*” деб типларга ажратади.

Тадқиқотчи З.Бекбергенова бўлса, Т.Жумамуратов, И.Юсупов, Т.Мэтмуратовларнинг ижодидаги нақл-мақоллар ва афоризмларни матнда фойдаланиши ҳақидаги илмий кузатувлари ўзбек адабиётшоноси Б.Саримсақовнинг *содда фольклоризмлар* типига киритиши бу масаланинг қорақалпоқ адабиёти илмида аллақачон тадқиқот объектига олинганлигини билдиради.

Тадқиқотчи Ж.Сагидуллаева Ш.Сейтов яратган образларининг эволюциясини, бадиий хизматини ўрганиб, унинг индивидуаль стиллик хусусиятлари ҳақида фикр билдиради: “...ёзувчининг ижодий лабораториясида бир образдан унумли фойдаланиш процесси бошқа ёзувчиларга ўхшамайди”- деган еди.

Ш.Сейтовнинг образлардан фойдаланиши, ижодий ўзига хослиги унинг кўпчилик фольклор образларини ўзлаштириб ва уларни асарларда тўғри ва бадиий талабларга асосан талқин қила олиши билан кўзга ташланади. Масалан, унинг асарларида мифологик образлардан шайтон, парилар, Хизир Илёс, хумай қуши, аждарҳо сингари образлар ҳам қатнашади. Фольклорда ва ёзма адабиётда бу образлар ўзларининг келиб чиқиш генезиси ва ривожланиш босқичларига ега. Бу масалага оид бир нечта илмий ишлар мавжуд.

Фольклор образларининг ёзма адабиётда стилизация етилиши, бадиий адабиёттаги образлар дунёсини бойитиб гина қўймастан асарлардаги сюжетларнинг ривожланишига имкон яратади. Стилизацияланган фольклоризмлар мураккаб фольклоризмларнинг бир тури бўлиб роман жанрида аҳамиятли функцияларни бажаришда актив фойдаланилади.

Адабиёт ва фольклор бир-бири билан жуда боғлиқ бўлиб, унда халқ ижодининг ҳозирги адабиёттаги ўрни билан бирга, бадий сўз егаси ижодининг поэтик стили, ёзувчилик истедоди ҳам тараннум этилади.

Бадий асарларда фольклоризмлар бадий-эстетик, информацион функцияларни ҳам бажаради. Фольклоризм тушунчаси – бу ёзувчининг ўз халқининг ва жаҳон халқларининг фольклор меросларидан онгли равишта фойдаланишига айтамыз. Шунинг учун ҳам тадқиқотчилар ўз ўрни билан фойдаланилган фольклоризмларни миллий адабиётнинг бадий муваффақияти деб баҳолайдилар.

Адабиётимизда Ш.Сейтовнинг лирик кўшиқлари форма жиҳатдан тадқиқ етилган. Лекин, унинг асарлари мазмун ва сюжет жиҳатидан таҳлил қилинмаган. Биз сўз етмоқчи бўлган шоир поезиясидаги фольклоризм масаласи шу каби заруратлар сабабли тадқиқот объектига олинди.

Адабиётшунос олим И.Султан “Адабиёт деганимиз – турмуштан тасирланиш ва турмуш ҳақиқатлигини теран ўрганишнинг маҳсули”- деган еди. Ҳар бир асар ҳаётдан олиниб, реал вoқеликларга асосланади ва ҳаётдаги айрим ҳодисалардан тасирланиб ёзилади.[7]

Ҳар бир асарнинг сюжетида қандайдир бир мазмун ва асардан кутилиётган натижа яширинган бўлади. Ш.Сейтов ижодида лирик асарларнинг сюжетининг очилишида фольклоризмларнинг ўрни алоҳида. Шу сабали, ижодкор ўз асарининг бадий образи характерини очиб беришда фольклоримиз дурдоналаридан фойдаланган.

Шоир ўз асарларида халқ нақл-мақолларидан ва ўзгариш киритилган нақл-мақоллар тизимидан фойдаланиб, ўз поэтик асарларининг мазмунан бойишига замин яратди. Қуйидаги кўшиқларида Алпомиш достонининг бош қаҳармони Барчинойнинг исми келтирилиб, унинг гўзаллиги, ақл-фаросатлилиги кўшиқ қаторларида қаҳармоннинг образини очиб беришда алоҳида аҳамиятга ега.

Зарпын айралықтың усы әлемде,

Сеннен кўп шеккенлер бармекен хаял,
Гәхи Баршын болып, гәхи Гүлшийра,
Гәхи перзент күтиўи, гәхи яр күтиў

(“Хаял”, 24-б)

Шуниндек, қорақалпоқ халқ достонларидаги “мәстан мама” образы ҳам шоирнинг қуйидаги қўшиғида асарнинг сюжетини очиб беришда ўз ўрнига ега. Лекин, бу сюжетда бу образ ҳаётнинг ғам-ташвишларидан шу ҳолга келган аёл сифатида гавдаланган.

“Мәстан мама...!”демең! –

Ермеклеп оны –

Аңқаў гөдеклерге етпең убыжық ...

Ашығы мың еди, бул еди жалғыз,

Мәстан емес еди, бул еди жалғыз.

(“Мәстан мама”,25-б)

“Қуў!” десең қуўалайын,

Биймезгиль салған нәргиз,

Айралық муңын айтып,

Тас қылып дуўалайын!... (66-б)

Юқорида келтирилган қўшиқ қаторларида фольклор асарларига ҳос бўлган сеҳр ва дуолар билан боғлиқ мазмун қўлланилган.

Яқунлаб айтганда, қорақалпоқ адабиётининг истедодли вакили Ш.Сейтов ижодида фольклоризмлар кўп қўлланилган. Биз бу тадқиқотимизда фольклоризмлар ва уларнинг Ш.Сейтов ижоди билан боғлиқлиги масаласини гина аниқлашга ҳаракат қилдик. Унинг асарларида нақл-мақоллар сингари содда фольклоризмлар мувафақиятли қўлланилганлиги малум бўлди. Кейинги тадқиқотларимизда шоирнинг

ижодидаги нақл-мақол, термалар, эртақлар сюжетидан қанчалик фойдалана олганлигини ҳам таҳлиль қилишимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 1-2-жилдлар. –Тошкент: Фан, 1992.
2. Ахметов С. Эдебияттану терминлериниң қысқаша сөзлиги. - Нөкис, Қарақалпақстан, 1972.
3. Бекбергенова З. Хәзирги заман қарақалпақ поезиясында халық аўызеки поэтикасының дәстүрлери (70-80-жыллар): канд.дисс, - Нөкис, 1995.
4. Байниязов Қ Қарақалпақ халық шайырларының творчествосында аўызеки хәм жазба әдебий дәстүрлер синтези:Филол.илимдокт...дисс.- Нөкис, 2000.
5. Бегмуратова Г. Ғәрезсизлик дәўири қарақалпақ романларында фолклоризмлер. Ph.D. дисс. Нөкис, 2019.
6. Собиров О. Ўзбек реалистик прозаси ва фолклор. Тошкент: Фан, 1979.
7. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1980.

**MTT DA BOLALARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHDA ONA
TILINING AHAMIYATI**

Buxoro pedagogika kolleji

“Nutq o’stirish” fan o’qituvchisi

Shukrullayeva Zulfiya Nasrullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada, MTT da bolalarni har tomonlama tarbiyalashda ona tilining ahamiyati haqida va MTT da bolalarni tarbiyalash yo’llari haqida gap boradi.

Kalit so’zlar: til, nutq, ta’lim, tarbiya, rivojlantirish, nutqiy intellekt, xotira, tasavvur, maqsad, vazifa, so’z boyligi, bog’lanishli nutq, nutqning tovush tomoni, nutqning grammatik tomoni, badiiy adabiyot.

Annotation: This article talks about the importance of the mother tongue in the comprehensive education of children in a preschool education organization and ways of educating children in a preschool education organization.

Keywords: language, speech, education, education, development, speech intelligence, memory, imagination, goal, task, vocabulary, connected speech, sound side of speech, grammatical side of speech, fiction.

Аннотация: В данной статье говорится о значении родного языка в комплексном обучении детей в дошкольной образовательной организации и способах обучения детей в дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: язык, речь, образование, воспитание, развитие, речевой интеллект, память, воображение, цель, задание, словарный запас, связная речь, звуковая сторона речи, грамматическая сторона речи, художественная литература.

Maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya’ni bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina

emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini [nazorat qilishi](#), boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o'stirish fanining o'rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi.

Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqalarga til orqali, til [birliklari orqali bayon qiladi](#), boshqalari fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr muloqazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish metodikasi fanining o'qitilishi, nutq o'stirish usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar nutqini o'stirish vazifalarini to'g'ri hal etish imkonini beradi, bolalarni maktabga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta'minlaydi. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'zbek tili qadimiy til sifatida taraqqiy etgan, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari uchun xizmat qilmoqda.

Respublikamiz mustaqilligi o'zbek tili taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi, tilimiz mustaqillikning mohiyatini ifodalash, ta'lim tizimining barcha bosqichida ona tili ta'limini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish ularga ona tilini amaliy o'rganish demakdir.

Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920 yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi, so'ng mustaqil fan sifatida shakllandi.

Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan "Ilk qadam" tayanch dasturini o'quv

jarayoniga joriy etish, nutq o'zlashtirish metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta'minlaydi, nutq o'zlashtirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo'llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda [til birliklaridan foydalanish](#), o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'g'ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z) nutq meyyorlarini ishiga mos holda o'rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi.

Demak, nutq o'zlashtirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda nutq o'zlashtirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo'nda va obrazli so'zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o'rgatadi, bolalarga ta'lim beradi.

Nutq o'zlashtirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda bolalarni og'zaki nutqini o'zlashtirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarni, so'zlash odobini egallashni shakllantiradi.

Nutq o'zlashtirish metodikasi pedagogik fan sifatida rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Ya'ni usulika bolalar nutqini o'zlashtirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma'naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini to'zlatib boradi.

Nutq o'zlashtirish metodikasi pedagogik fan sifatida bolalar nutqini o'zlashtirishning pedagogik qonuniyatlari, pedagogik faoliyatning shakllanishi va talablarini o'rganadi, nutq o'zlashtirishning eng samarali omillari, [vositalarini](#), usul va usullarini hozirgi zamon pedagogikasining yutuqlari, ilmiy pedagogik talablari asosida ishlab chiqadi, ta'limga, fanga tavsiya etadi. Nutq o'zlashtirish metodikasi ana shu pedagogik vazifadan kelib chiqqan holda pedagogikaning quyidagi asosiy savollariga javob beradi.

Nimani o'rgatish kerak? Bunda maktabgacha ta'lim ishidagi bolalarda qanday nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozimligini nazarda tutiladi. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasining ta'lim mazmunini zaruriy o'zagi hisoblangan ta'lim standarti asosida amalga oshiriladi, bunda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti bajariladi. O'quv yuklamalari meyyorga keltiriladi, tarbiyachi bolalarning o'quv faoliyati darajasi, shaxs sifatlari rivojlanishi, uning nutqiy faoliyatini nazarda tutgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadi.

Qanday o'qitish kerak degan pedagogik savolga javob beradi. Buning uchun maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini o'stirish usul va usullarini qo'llash imkoniyati, o'rni, qo'llangan usullar samarasi nazarda tutiladi, usul va usullarni takomillashtirishga zamonaviy texnologiyani joriy etishga alohida diqqat qilinadi.



“Ta'lim to'g'risi”dagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda noan'anaviy, o'yin usulining qo'llanishi, mujassam mashg'ulotlarni tashkil etilishi, ayniqsa, hozirgi zamon yaxshi pedagogik texnologiyani ta'limda qo'llash kabilar bunga misol bola oladi.

Nima uchun aynan shunday o'qitish kerak? savoliga usulika fani nutq o'stirishning nazariy va amaliy asoslangan omillari, vositalarini qo'llash zarurligini ifoda etadi.

Nutq o'stirish metodikasining asosiy vazifasi tarbiyachilarni maktabgacha ta'limda nutq o'stirishning [ilmiy pedagogik asoslangan](#), eng

samarali natija beradigan omillari, vositalari va usullarini ishlab chiqish, tarbiyachi, pedagog, ota-onalarni nutq o'rtirish usullari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, eng qulay usullardan foydalanish, nutq o'rtirish mashg'ulotlarini tashkil etish samaradorligini oshirishga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Nutq o'rtirish metodikasining mazmuni maktabgacha ta'limda bolalar og'zaki nutqini o'rtirish, bolalarda kattalar, tengdoshlari bilan nutqiy muloqot, muomala qilishni bilishga o'rgatishdir. Maktabgacha ta'lim davrida bolalar 2-3 ming so'z boyligiga ega bo'lish va undan foydalanish, eshitganlarini aytib berish, ko'rganini gapirib berish, suratlarga qarab mazmun bo'yicha hikoya [tuzish va uni aytib berish](#), asosiy tayanch so'zlar yordamida hikoya tuzishga o'rgatiladi. [Shuningdek](#), nutqning ifodaliligi, nutq tovushlarini to'g'ri, aniq talaffuz etish, tilning grammatik shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish, badiiy asarni tinglash, tushunish, mazmunni eslab qolish va so'zlab berish, asar qahramonlari nutqi xususiyatlarini ajrata bilish, obrazli bayon etish kabi amaliy intellektga ega bo'lishni rivojlantiradi, maktabga nutqiy jihatdan tayyorlaydi.

Bu vazifalarni bajarishda nutq o'rtirish metodikasi o'zining usulolohik asosi bolgan pedagogika fani yutuqlariga, g'oyaviy-nazariy asosi bo'lgan milliy g'oya va milliy mafko'ramiz tamoyillariga, kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asoslanadi. Shuningdek, nutq o'rtirish metodikasi maktabgacha ta'limda nutq o'rtirishni tashkil etishda ilg'or pedagoglarning amaliy tajribalari, tajriba-sinov natijalari, ilmiy- uslubiy adabiyotlarda tavsiya etilgan fikr- muloqazalarga asoslanadi natijada yaxshi vazifalarni, muammolarni va tavsiyalarni chuqur talqin etadi, eng maqbulini ta'limga joriy etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ona tilining ahamiyati juda katta, bolalarga o'z ona tilida ko'plab mashqlar va topshiriqlar bajarish uning til boyligini shakllantirishga sabab bo'ladi. Uning nutqini ifodaliligi va o'z fikrini tez va ravon talqin qilishida maktabgacha ta'lim tashkilotida berilgan ona tilidagi ta'limlar qo'l keladi. Bolanida o'z ona tilisida

chiroyli suhbat qura olish, o'z tilida mustaqil va ravon matn o'qish, she'riyat va ifodali o'qishga, nutq madaniyatiga mehr uyg'otish zarur. Bola hayoti davomida faqat nutq ustida ishlashga ham majburlantirilmasligi kerak. Hayot faoliyatida bola faqat o'zligini rivoji uchun harakat qilishi lozim, ungga to'g'ri yo'nalish berish kattalarning qo'lida, ba'zan, bolaning o'ziga mustaqil tanlovni qo'yib berish va uning tanlovini hurmat qilish lozim. Ijobiy tanlovi va mustaqil fikrlashi hurmat-e'tiborga sazovor bo'lganda bola o'ziga ishonchini orttiradi, agarda, buning aksi bo'lsa, bola kelajakda mustaqil hayotga qadam qo'yishdan, mustaqil g'oyaviy fikrlashlardan o'zini doim yiroq tutadi, uning barcha ijobiy yutuqlarini rag'batlantirish lozim, shundagina u hayotidan mamnun va o'zini topishi mumkin.

Bolaga yoshligidan hayotning qiyinchiliklarini qadam va qadam tushuntirib, bunday holatlarda o'zini qanday tutishi kerakligini o'rgatish lozim. Doim ham emas, ammo, u bilan suhbatlashyotganda ungga jiddiy muomala qilish lozim, jiddiy vaziyatlarda jiddiylik, vaqti-vaqtida o'yinqaroqlik ham kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. –T.: O'zbekiston, 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi” qonuni O'.R.Q-595.16.12.2019 yil.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2707-сонли Қарори. 2016 йил, 29 декабрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги 528-сонли Қарори. 2017 йил, 19 июль.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5198-сонли Фармони. 2017 йил 30 сентябрь.

8. «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ги 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312- сон Қарорига 1-илова.

9. «Умумий типдаги давлат ва нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари тўғрисида» Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сонли «Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора тадбирлар тўғрисида»ги Қарорига 1-илова.

10. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Bolalarni boshlang`ich ta`limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to`g`risida 132-sonli 9 mart 2020 yil.

**THE ROLE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION
COMPETENCE IN ENGLISH TEACHING**

Senior teacher: Rakhmonova A.U.,

Scientific advisor: Assoc. Ismailov A.R

Abstract: This article discusses the relationship between linguistic competence and intercultural communication competence and the role of English language teaching in the intercultural communication competence of trainees. The article explores how to develop the intercultural communication competence of English language learners in English language teaching, as well as understanding the important goals of English language teaching.

Key word: Competence, skill, ability, linguistics, communication

If we look at the history of linguistics, the term "competence" was first used by N. Chomsky in the middle of the 20th century, and evaluates it as a set of knowledge, skills and abilities oriented towards activities in the process of language use. Some scientists who are his followers interpreted this concept as a competence approach. In this case, the concepts of competence and competence approach are noted as factors indicating effectiveness in education. Speaking about the competence of intercultural communication, first of all, we should pay attention to the literal meaning of the word competence. Therefore, the concept of "competence" is derived from the Latin word "competere" - to match, and means "suitable, worthy of one's profession".[1] In addition, this word in a broad sense means the ability to apply existing knowledge and skills in practical experience in solving general or specific comprehensive issues. Therefore,

competence is the ability to apply the acquired knowledge, skills and abilities in practice, activities that lead to the expected result.

"Competence" is a description given to the subject and his activity, and it is often used in the lexical-normative literature, which provides various information, as "the knowledge that allows one to think about something, express one's opinion is defined as "deep acquisition". In other words, competence is primarily a knowledge-based level of understanding what is needed to perform a job (achieve a goal). Professional competence is the ability to effectively apply knowledge and skills in practical experience in solving problems related to professional activity. R.P. According to Milrud: "... competence is a special field of activity in which an individual (person) demonstrates a mastered achievement strategy at a high level. Based on experience, existing knowledge, and continuous self-improvement, strategies for how to perform actions in various spheres of the surrounding existence are actions performed in order to acquire skills and practical knowledge. So, competence is the ability to work effectively due to mastering success strategies on the basis of formed skills and acquired practical knowledge [2]. Therefore, the modern understanding of competence includes the ability of a person to use his capabilities and perform certain functions, as well as the existence of mental states that allow him to act independently and responsibly. The problem of applying a competency approach to the educational process It has its own history, and according to its origins, it goes back to the researches of foreign authors such as N. Chomsky, R. White, J. Raven, D. Hymes.

The introduction of the competency-based approach to education in our Republic has led to the improvement of the State Education Standard based on this approach, and changes to the contents of the curriculum and textbooks of all levels of the continuous education system. The State Education Standard, improved on the basis of the competence approach and approved by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on April 8, 2017, specifies the

requirements for the formation of basic and special competencies in accordance with the age characteristics of students at the stage of general secondary education. Communicative competence, information processing competence, self-development competence, socially active citizenship competence, national and general cultural competence, mathematical literacy, awareness and use of science and technology innovations are defined as basic competencies. Today, the types of competence are reflected in the State educational standards for all subjects and competences related to a private subject have been developed. In the state educational standards, in particular, the following competencies are defined for teaching foreign languages:

Linguistic competence means knowledge of language material (phonetics, vocabulary, grammar) and acquisition of skills in speech activities (listening, speaking, reading and writing). Sociolinguistic competence is the competence that allows the speaker to choose the necessary linguistic form and expression based on a speech situation, communicative goal and desire. Pragmatic competence refers to the ability to get out of difficult situations by repeatedly asking, apologizing,

It is expected that these above-mentioned competencies will lead to the formation of students' communicative competences in a foreign language. It can be seen that the communicative competence is the main competence that is based on the basic competences and arises from the set of special competences, which serves to ensure competence. In turn, communicative competence includes such competences as linguistic, sociolinguistic, discursive, strategic, socio-cultural and social competences. Nowadays, the main goal of teaching foreign languages is only to convey linguistic knowledge, skills and abilities, and even it should not consist only of studying the information about country studies as in the brochure. Ter-Minasova's opinion about this is as follows: "...in the pedagogical process, the ability to participate in intercultural communication should occupy the main place. This is especially important now, when "the

intermingling of peoples, languages, and cultures is unprecedentedly widespread - to educate tolerance to other cultures, to arouse interest and respect for them, as well as the excesses and deficiencies of other cultures." or coping with feelings of dissimilarity are cross-cutting. It is in this connection that a comprehensive interest in the issues of intercultural communication arose" [3].

In fact, we can say that the socio-cultural context of teaching foreign languages has changed. At the current stage of teaching languages of international communication, knowing the culture of the country whose language is being studied is important in using the language. Learning language together with culture is the main direction of modern language education, and being able to effectively use it in practice leads to great success. Language cannot be studied in isolation from the culture of the society being studied, language and culture are a whole concept that is always used side by side. Because language is a product of society's development and a carrier of its culture. Even when linguistic competence is sufficient or even at a high level, the effectiveness of communication in a foreign language may decrease due to the lack of knowledge about non-linguistic existence.

A.V. Khutorskoy also studies and differentiates between valuable-meaningful, general cultural, educational, informational, communicative, social-labor, and personal self-improvement competencies. The author states that such a list of basic competencies "is based on the main goals of general education, the structural structure of social experience and personal experience, and the main types of activities that allow the student to acquire the skills of social experience, living and practical activities in modern society"[4] notes that.

Another scientist D.F. And Ilyasov includes the following among the main competencies in learning a foreign language as an academic subject:

- social competence - the ability to act taking into account the views of other people in a society;

- subject competence, that is, the ability to understand language as a means of learning and communication;
- informational competence - the ability to acquire information technologies, the ability to work with any type of information and the ability to use information technologies in language learning;
- projective competence - the ability to create one's own product, to make decisions in individual and collective activities and to be responsible for one's decisions;
- socio-cultural competence - the ability to act in accordance with one's own culture and that of others, using universal etiquette, cultural identity and legal knowledge;
- communicative competence, that is, the ability to understand others and be comprehensible to them using means of communication in a foreign language[5].

Development of socio-cultural competence requires socio-cultural adaptation, integration of a person into a new culture.[6] Most researchers interpret socio-cultural competence in relation to country studies and cultural studies. The emergence of the science of linguistics and cultural studies also confirms the emergence of these views.

N.A. Salanovych states as follows that studying the language together with country studies arouses a strong interest in the study of students and allows solving four issues related to language, folk culture, history of country studies, and traditions in modern education in the process of communication. creates[7].

According to the classification of I. A. Zimnyaya and in accordance with the recommendation of the Council of Europe, socio-cultural competence is a competence related to life in a multicultural society, that is, a group of competences "relating to interactions between a person and the social sphere" [

8]. So, socio-cultural competence is inextricably linked with universal and social competences, and it serves as the main factor in the development of intercultural communication competence.

Intercultural communication aims to develop the component:

- achieving competence in foreign culture;
- know their culture and be able to talk about it;
- achieving intercultural understanding that leads to respect for others and tolerance;
- to have the ability to analyze one's own culture and that of others.

We defined the competence of intercultural communication as follows: competence of intercultural communication - a person communicating in a foreign language is aware of the national-cultural characteristics of the social and speech behavior of the speakers, their traditions, rules of conduct, history and culture, and in the process of communication It is the ability to demonstrate the ability to successfully communicate with representatives of other cultures using this knowledge. Again, we must say that the students' mother tongue and the factors in the socio-cultural environment reflected in it are also of primary importance in forming perceptions about the culture of the country where the language is being studied.

O'zbekistonning jismoniy tarbiya tizimida yengil atletikaning o'рни. O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladigan yengil atletika musobaqa qoidalari Xalqaro havaskorlar yengil atletika federatsiyasi (IAAF) qoidalariga asosan ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi sportchilarining hamma rasmiy musobaqalari, Shuningdek chet el sportchilari ishtirokidagi ochiq musobaqalar ham shu qoidalarga binoan o'tkaziladi. Xalqaro rasmiy musobaqalar olimpiada o'yinlari, jahon chempionati, Evropa, Osiyo, jahon kubogi, kontinental hududiy jamoa chempionatlari yoki o'yinlari (bir necha IAAF a'zolari o'rtasida uchrashuvlar) O'zbekiston zaminida IAAF qoidalari asosida o'tkazilishi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika bo'limlari va ularning turkumlanishi. Yengil atletika besh bo'limdan (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko'p kurashdan) iborat bo'lib, ularning har qaysisi ham xilma-xil turlarga bo'linadi. Yengil atletika turli yoshdagi kishilar uchun ajoyib jismoniy mashqlar hisoblanadi. Yengil atletika shug'ullansa barcha muskullar ishlaydi, organizmdagi yurak-qon tomir, nafas olish va boshqa sistemalar faoliyati kuchayadi, natijada modda almashinishi ortishi va odam organizimiga ta'siri haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika turlari texnikasini o'rgatish. Yengil atletika turlari texnikasini har bir shug'ullanuvchini yugurishning xususiyatlari bilan tanishtirish, kamchiliklarini aniqlash, katta ham, o'smirlar ham o'rganishlari mumkinligi va o'rgatishning asosiy vazifasi yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, kupkurashdan iborat ekanligini tushuntirib beriladi. Yengil atletika texnikasini takomillashtirishda gavda va bosh oyoq qo'l harakatlariga e'tibor berish kerakligi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika bilan shug'ullantirishda umumiy rivojlantiruvchi hamda maxsus mashqlarini bajarishni o'rgatish. Yengil atletika bilan shug'ullanishda avvalom "Badan qizdirish" mashqlari ketma-ketlikda bajarilish lozimdir. Qaddi

qomatga beriladigan mashqlar, Elka va qo'lgaga beriladigan mashqlar, gavda va qo'lgaga beriladigan mashqlar, gavda va oyoqqa beriladigan mashqlarga, harakat uyg'unligiga va chaqqonlikni rivojlantiradigan mashqlar yordamida olib borilish kerakligi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika bilan shug'ullantirish va uni o'rgatish asoslari. Yengil atletika mashqlari shug'ullanuvchilarga kuch kelish miqdori, harkatning shakli va xarakteri jihatidan juda ham har xil bo'ladi. Shuning uchun yengil atletikaning har qaysi turida shug'ullanishda jismoniy mashqlar va gigienik rejimga rioya qilish kerak. Yengil atletika shug'ullanish jarayonida, Shuningdek, yana boshqa tadbirlar vositasida yengil atletika va uni o'rgatish metodikasi fanida axloq ruhida tarbiyalash, iroda va harakaterni chiniqtirish, mehnatsevarlikka tarbiyalash haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Yengil atletika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlarni o'rgatish. Yengil atletika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlar o'rgatish va uni takomillashtirish mashg'ulotlar jarayonining tarkibiy qismidir.

Yengil atletika mashg'ulotini o'rgatish metodikasining umumiy asoslari quyidagilardan iborat. O'rgatish metodlari, So'z metodi, Ko'rsatish metodi, Mashqlarni yaxlit o'rgatish metodi, Mashqni bo'laklab o'rgatish metodi va boshqa metodlar. Bu o'rganiladigan metodlar Yengil atletika mashg'ulotlarini samarali olib borishlariga xizmat qilishi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Ta'lim muassasalarida yengil atletika mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish. Maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida yengil atletika mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish usullari, shakllari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Yengil atletika mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazishda asosiy tashkiliy shakli, guruh bo'lib yoki individual yoki undan ko'proq davom etadigan mashg'ulotlar haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Sportcha yurish texnikasini o'rgatish metodikasi. Sportcha yurish texnikasini o'rgatishning nazariy asoslari. O'rgatishning asosiy vazifasi,

sportcha to'g'ri yurish texnikasini o'rgatish, turli xil siljish tezligida ortiqcha yuklama sarflamay, bemaolol yurishni o'rgatish. Bundan tashqari, har qaysi shug'ullanuvchi uchun optimal tezlikni yurish sur'ati va qadam uzunligini bilan oshirish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yugurish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi. Yugurishni bir qancha turlari mavjud bo'lib bular quydagilardur. Qisqa masofaga yugurish, O'rta masofaga yugurish, O'zoq masofaga yugurish, O'ta o'zoq masofaga yugurish, Marafon yugurish, To'siqlar osha yugurish, turlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Sakrash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi. Sakrashni bir qancha turlari mavjud bo'lib bular quyidagilar. Xatlab o'tish balandlika, To'lqin usulida o'tish balandlika, Yugurib kelib uzunlika sakrash, Yugurib kelib uch xatlab sakrash, Turgan joydan uzunlika sakrash, Langarcho'p bilan sakrash, sakrash turlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Uloqtirish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi. Uloqtirish texnikasiga o'rgatish, Yadro itqitish, Disk, Nayza uloqtirish, Granata uloqtirish, Bosqon uloqtirish turlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Ko'p kurash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi. Ko'p kurash turlariga o'rgatish metodikasi 3,5,7,10 turlarini o'z ichiga oladi uch kurashga 100 metr, yadro va balandlika sakrash turlari. 5 kurashga 60 yoki 100 metr uzunlika sakrash granata uloqtirish balandlika sakrash kross yugurish, 7 kurshaga 100 metr uzunlika sakrash, disk uloqtirish, balandlik sakrash 110 metrga to'siqlar osha yugurish 800 metrga yugurish. 10 kurash 100 metrga yugurish uzunlika sakrash, disk uloqtirish, balandlika sakrash, 400 mertga yugurish 110 metrga to'siqlar osha yugurish yadro uloqtirish, balandlika langar cho'pga sakrash nayza uloqtirish, 1500 mertga yugurish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika bo'yicha o'quv ishlarini tashkil qilish, rejalashtirish va hisobini yuritish. Yengil atletika bo'yicha o'quv ishlarini tashkil qilish, rejalashtirish va hisobini yuritishda talabalarga o'quv ishlarning hujjatlarini yuritilishi va dars mashg'ulotlarining tashkil qilish darsdan tashqari

mashg'ulotlar jarayonining o'tkaziladigan mashg'ulotlarni rejalashtirish va hisobini yuritish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika bo'yicha sport inshootlari, jihozlari va ularni ishlatish Yengil atletika bo'yicha sport inshootlari, jihozlari va ularni ishlatishda va ularga qo'yilgan talablar yengil atletikada sport inshootlarning gigenasi jihozlanishi jihozlardan foydalanish bo'yicha foydalanishad va ishlatishda talabalarga jarohatlanishni oldini olish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish, musobaqalardagi hujjatlar va hakamlik ishi. Yengil atletika bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazishda sport turlari bo'yicha talabnomalarning to'ldirilishi musobaqa nizomi har bir sport turi bo'yicha hakamlik qilish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlarda talabalar turli-xil yengil atletika darsini tashkil qilish va o'tkazishni o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlarda tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Yengil atletika turlari texnikasini o'rgatish Yengil atletika turlari texnikasini har bir shug'ullanuvchini yugurishning xususiyatlari bilan tanishtirish, kamchiliklarini aniqlash, katta ham, o'smirlar ham o'rganishlari mumkinligi va o'rgatishning asosiy vazifasi yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, kup kurashdan iborat ekanligini tushuntirib beriladi. Yengil atletika texnikasini takomillashtirishda gavda va bosh oyoq qo'l harakatlariga e'tibor berish kerakligi to'g'risida ma'lumot beriladi.

2. Yengil atletika bilan shug'ullantirishda umumiy rivojlantiruvchi hamda maxsus mashqlarini bajarishni o'rgatish Yengil atletika bilan shug'ullanishda avvalom "Badan qizdirish" mashqlari ketma-ketlikda bajarilish lozimdir. Qaddi qomatga beriladigan mashqlar, Elka va qo'lga beriladigan mashqlar, gavda va qo'lga beriladigan mashqlar, gavda va oyoqqa beriladigan mashqlarga, harakat uyg'unligiga va chaqqonlikni rivojlantiradigan mashqlar yordamida olib borilish kerak liligi to'g'risida bilim berish.

3. Yengil atletika bilan shug‘ullantirish va uni o‘rgatish asoslari Yengil atletika mashqlari shug‘ullanuvchilarga kuch kelish miqdori, harkatning shakli va xarakteri jihatidan juda ham har xil bo‘ladi. Shuning uchun yengil atletikaning har qaysi turida shug‘ullanishda jismoniy mashqlar va gigienik rejimga rioya qilish kerak. Yengil atletika shug‘ullanish jarayonida, Shuningdek, yana boshqa tadbirlar vositasida yengil atletika va uni o‘rgatish metodikasi fanida axloq ruhida tarbiyalash, iroda va harakaterni chiniqtirish, mehnatsevarlikka tarbiyalashdan iboratdir yengil atletika turlari texnikasini o‘rgatish Yengil atletika turlari texnikasini har bir shug‘ullanuvchini yugurishning xususiyatlari bilan tanishtirish , kamchiliklarini aniqlash, katta ham, o‘smirlar ham o‘rganishlari mumkinligi va o‘rgatishning asosiy vazifasi yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, kupkurashdan iborat ekanligini tushuntirib beriladi. Yengil atletika texnikasini takomillashtirishda gavda va bosh oyoq qo‘l harakatlariga e‘tibor berish kerakligi to‘g‘risida ma‘lumot beriladi.

4. Yengil atletika bilan shug‘ullantirishda umumiy rivojlantiruvchi hamda maxsus mashqlarini bajarishni o‘rgatish Yengil atletika bilan shug‘ullanishda avvalom “Badan qizdirish” mashqlari ketma-ketlikda bajarilish lozimdir. Qaddi qomatga beriladigan mashqlar, Elka va qo‘lga beriladigan mashqlar, gavda va qo‘lga beriladigan mashqlar, gavda va oyoqqa beriladigan mashqlarga, harakat uyg‘unligiga va chaqqonlikni rivojlantiradigan mashqlar yordamida olib borilish kerak liligi to‘g‘risida bilim berish.

5. Yengil atletika bilan shug‘ullantirish va uni o‘rgatish asoslari Yengil atletika mashqlari shug‘ullanuvchilarga kuch kelish miqdori, harkatning shakli va xarakteri jihatidan juda ham har xil bo‘ladi. Shuning uchun yengil atletikaning har qaysi turida shug‘ullanishda jismoniy mashqlar va gigienik rejimga rioya qilish kerak. Yengil atletika shug‘ullanish jarayonida, Shuningdek, yana boshqa tadbirlar vositasida yengil atletika va uni o‘rgatish metodikasi fanida axloq ruhida tarbiyalash, iroda va harakaterni chiniqtirish, mehnatsevarlikka tarbiyalashdan iboratdir.

6. Sportcha yurish texnikasini o'rgatish metodikasi Sportcha yurish texnikasini katta ham, o'smirlar ham o'rganaverishlari mumkin. O'rgatishning asosiy vazifasi sportcha to'ri yurish texnikasini o'rganish, turli xil siljish tezligida ortiqcha kuchanmay, bemalol yurishni o'rgatishdir Bunda tashqari, har qaysi shug'ullanuvchi uchun optimal tezlik to'g'risidagi bilimlarini baholash.

7. Yugurish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi Yugurishni bir qancha turlari mavjud bo'lib bular quydagilardur. Qisqa masofaga yugurish, O'rta masofaga yugurish, O'zoq masofaga yugurish, O'ta o'zoq masofaga yugurish, Marafon yugurish, To'siqlar osha yugurish, turlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini baholash.

8. Sakrash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi Sakrashni bir qancha turlari mavjud bo'lib bular quyidagilar. Xatlab o'tish balandlika, To'lqin usulida o'tish balandlika, Yugurib kelib uzunlika sakrash, Yugurib kelib uch xatlab sakrash, Turgan joydan uzunlika sakrash, Langarcho'p bilan sakrash, sakrash turlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini baholash.

9. Uloqtirish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi. Uloqtirish texnikasiga o'rgatish, Yadro itqitish, Disk, Nayza uloqtirish, Granata uloqtirish, Bosqon uloqtirish turlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini baholash.

10. Ko'p kurash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi. Ko'p kurash turlariga o'rgatish metodikasi 3,5,7,10 turlaini o'z ichiga oladi uch kurashga 100 metr, yadro va balandlika sakrash turlari. 5 kurashga 60 yoki 100 metr uzunlika sakrash granata uloqtirish balandlika sakrash kross yugurish, 7 kurshaga 100 metr uzunlika sakrash, disk uloqtirish, balandlik sakrash 110 metrga to'siqlar osha yugurish 800 metrga yugurish. 10 kurash 100metrga yugurish uzunlika sakrash, disk uloqtirish, balandlika sakrash, 400 mertga yugurish 110 metrga to'siqlar osha yugurish yadro uloqtirish, balandlika langar cho'pga sakrash nayza uloqtirish, 1500 mertga yugurish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini baholash.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yengil atletikada doimiy mashg'ulotlar shug'ullanuvchiga juda kerakli mashg'ulotlar hisoblanadi.

Yengil atletika turlari texnikasini har bir shug'ullanuvchini yugurishning xususiyatlari bilan tanishtirish, kamchiliklarini aniqlash, katta ham, o'smirlar ham o'rganishlari mumkinligi va o'rgatishning asosiy vazifasi yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, kupkurashdan iborat ekanligini tushuntirib beriladi. Yengil atletika texnikasini takomillashtirishda gavda va bosh oyoq qo'l harakatlariga e'tibor berish kerakligi haqida nazariy ma'lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нормуродов А.Н. Енгил атлетика. Тошкент: Ўқув-услубий кўлланма. ТошДШИ 2002 йил.

2. Ниёзов И. Енгил атлетика. Фарғона: Ўқув кўлланма. Фарғона нашриёти 2005 йил.

3. Юнусова Ю.М. Основы методики физической культуры. Учебное пособие Ташкент УзГосИФК 2005 г.

4. Иноземцева Л.А. Легкая атлетика и методика преподавания: Учебнометодические пособие Тошкент: 2001 йил.

5. Синякина О.Ф. Тренировка в беге на 400 метров с барьерами. Методическое указание. Ташкент: УзГосИФК 2005 йил.

6. Туленова Х.Б., Малинина Н.Н., Иноземцева Л.А., Умумривожлантйрувчи машқларни УРМ ўргатиш методикаси. Ўқув кўлланма Тошкент: ТДПУ 2005 йил.

**THE BEST METHODS OF TEACHING ENGLISH AS A SECOND
LANGUAGE**

Usmanova Ruzikhan Bozorovna,

*teacher of the Department of Foreign Languages, Uzbekistan State
University of Physical Education and Sports, Chirchik City, Tashkent region*

Annotations: The article provides The best methods of teaching English as a second language.

Key words: English lessons, teaching, second language, grammar, learning.

Throughout the history of teaching languages a number of different teaching approaches and methodologies have been tried and tested with some being more popular and effective than others. If you're just beginning your TEFL career, it would be beneficial to be familiar with a few of these.

The Direct Method.

If you've ever heard the Direct Method being taught, you may have rightly mistaken it for some sort of military drill, which is not far off as it was first established in France and Germany in the early 1900's to assist soldiers to communicate in a second language quickly. The direct method of teaching English is also known as the Natural Method. It's used to teach a number of different languages not just English, and the main idea of the Direct Method is that it only uses the target language that the students are trying to learn. Its main focus is oral skill and it is taught via repetitive drilling. Grammar is taught using an inductive way and students need to try and guess the rules through the teacher's oral presentation.

Today popular forms of the Direct Method are Callan and Berlitz.

The Grammar Translation Method.

Just like its name suggests, this method of teaching English is grammar heavy and relies a lot on translation. This is the traditional or ‘classical’ way of learning a language and it’s still commonly used when learning some languages. Some countries prefer this style of teaching and the main idea behind this method is that the students learn all grammar rules, so they’re able to translate a number of sentences. This is particularly common for those students who wish to study literature at a deeper level.

The Audio Lingual Method.

The Audio Lingual Method otherwise known as the New Key Method or Army Method is based on a behaviourist theory that things are able to be learned by constant reinforcement. However, just like in the army when someone behaves badly (or in this case bad use of English), the learner receives negative feedback and the contrary happens when a student demonstrates good use of English. This is related to the Direct Method and just like its predecessor it only uses the target language. The biggest difference between the Audio Lingual Method and the Direct Method is its focus of teaching. The Direct Methods focuses on the teaching of vocabulary whereas the Audio Lingual Method focuses on specific grammar teachings.

The Structural Approach.

As the name suggests, the method is all about structure. The idea is that any language is made up of complex grammar rules. These rules, according to this approach need to be learnt in a specific order, for example the logical thing would be to teach the verb “to be” prior to teaching the present continuous which requires using the auxiliary form of the verb “to be.”

Suggestopedia.

This is a behaviourist theory and related to pseudoscience. This method relies heavily on students' belief about the method's effectiveness. This theory is intended to offer learners various choices, which in turn helps them become more responsible for their learning.

It relies a lot on the atmosphere and the physical surroundings of the class. It's essential that all learners feel equally comfortable and confident. When teachers are training to use the Suggestopedia method, there's a lot of art and music involved. Each Suggestopedia lesson is divided into three different phases – 1. Deciphering 2. Concert Session 3. Elaboration.

Total Physical Response.

Total Physical Response, otherwise known as TPR is an approach that follows the idea of 'learning by doing'. Beginners will learn English through a series of repetitive actions such as "Stand up", "Open your book", "Close the door", and "Walk to the window and open it." With TPR, the most important skill is aural comprehension and everything else will follow naturally later.

Communicative Language Teaching (CLT).

The idea behind this approach is to help learners communicate more effectively and correctly in realistic situations that they may find themselves in. This type of teaching involves focusing on important functions like suggesting, thanking, inviting, complaining, and asking for directions to name but a few.

The Silent Way.

The Silent Way emphasises learner autonomy. The teacher acts merely as a facilitator trying to encourage students to be more active in their learning. The main of this way of teaching is for the teacher to say very little, so students can take control of their learning. There's a big emphasis on pronunciation and a large chunk of the lesson focuses on it. This method of learning English follows a structural syllabus and grammar, vocabulary and pronunciation are constantly

drilled and recycled for reinforcement. The teacher evaluates their students through careful observation, and it's even possible that they may never set a formal test as learners are encouraged to correct their own language errors.

Community Language Learning.

This is probably one of the English teaching methods where the student feels the safest as there's a great emphasis on the relationship and bond between the student and teacher. Unlike a lot of the other methods and approaches of teaching English as a Second Language, a lot of the L1 (mother tongue) is used for translation purposes.

Task Based Language Learning.

The main aim of this approach to learning is task completion. Usually, relevant and interesting tasks are set by the teacher and students are expected to draw on their pre-existing knowledge of English to complete the task with as few errors as possible.

The Lexical Approach.

The Lexical syllabus or approach is based on computer studies that have previously identified the most commonly used words. This approach in teaching focuses on vocabulary acquisition and teaching lexical chunks in order of their frequency and use. Teachers of the Lexical Approach place a great emphasis on authentic materials and realistic scenarios for more valuable learning.

Conclusion:

Teaching English as a second language is a valuable and rewarding endeavor. Once you've mastered your skills, you'll find yourself in a fulfilling and meaningful career that will bring you joy on a daily basis. While each teacher has their own style, the above tips will help you establish a good rapport with your students and allow you to set them for success!

Reference:

1. M. Kholdorova, N. Fayziyeva, F. Rikhsitlayeva. "USE OF HELPING TOOLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE" Tashkent: TDPU named after Nizomi, 2005 O'. Hoshimov, I. Yaqubov. "ENGLISH TEACHING METHODOLOGY" (study guide) Tashkent: "Sharq" publishing house, 2003;[1]

2. Bekmuratova U. B. Abstract on "Using innovative technologies in teaching English". Tashkent - 2012 [2]

3. www.ziyonet.uz[3]

4. www.library.uz[4]

TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI

*Namangan shahar 31-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi Namangan davlat universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, ta'lim va tarbiya
nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi MTTB-AU-21-guruh
magistranti
Ismatillayeva Yodgora Abduvahob qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada TIMSS xalqaro baholash tizimi, TIMSS tadqiqoti va uning usullari haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: TIMMS, tadqiqot, tadqiqot xususiyatlari, natijalar, tabiiy fanlar, matematika

KIRISH

Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi TIMSS (ing. TIMSS -Trends in International mathematics and science study) - 4- va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi bo'lib, tadqiqot ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi. TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga

oshirilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, 1995-yildan beri uch marta (oxirgimarta 2015-yilda) maktabning oxirgi sinfidagi o'quvchilarning yutuqlarini o'rganishni o'zichiga olgan "kengaytirilgan" tadqiqot (Advanced TIMSS) o'tkazilgan (O'zbekistondabu 11-sinf, AQShda 12-sinf va boshqalar).

ASOSIY QISM

TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy maqsadi boshlang'ich va o'rta maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim sifatini qiyosiy baholashdan iborat. Tadqiqotda 4-8-sinf o'quvchilarining ta'limdagi yutuqlari, jumladan, ularning nafaqat bilim va ko'nikmalari, balki fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishlari va o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ham baholanadi.

Tadqiqot shunday tuzilganki, uning natijalari 4-sinf o'quvchilari 8-sinfga o'tganlarida, har 4 yilda ishtirokchi mamlakatlarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim tendentsiyalarini kuzatib boradi. Shunday qilib, boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilarining ta'lim yutuqlari, shuningdek, boshlang'ich maktabdan o'rtamaktabga o'tish davrida matematika va tabiatshunoslik ta'limidagi o'zgarishlar nazorat qilinadi.

Tadqiqotni o'tkazish va uni ishlab chiqishda dunyoning ko'plab tadqiqot markazlari va professional tashkilotlari ishtirok etadilar: Ta'lim test xizmati (ETS - Educational Testing Service, AQSH), Kanada StatistikaMarkazi (Statistics Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi Kotibiyati (IEA, Niderlandiya), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining ma'lumotlarni qayta ishlash markazi (DPC IEA — Data Processing Center IEA, Germaniya) va boshqalar. Shu bilan birga, turli mamlakatlar mutaxassislarining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish uchun dunyoning yetakchi ekspertlaridan iborat maslahat qo'mitalari tuzilgan. Barcha tadqiqotlar Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi (TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

O'zbekistonda ushbu tadqiqot Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan tashkil etiladi.

Tadqiqot usullarining xususiyatlari. TIMSS tadqiqot usullarini ishlab chiqish uchun asos sifatida "TIMSS Assessment Frameworks and Specifications" hujjati ishlatiladi. Ushbu hujjatda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim yutuqlarini baholashga, testla rva test topshiriqlarini ishlab chiqishga umumiy yondashuvlar belgilangan, matematika va tabiiy fanlardan tekshirilishi kerak bo'lgan tarkib, shuningdek, o'quvchilar topshiriqlarni bajarishda ko'rsatishi kerak bo'lgan kognitiv faoliyat turlari ham tavsiflaydi.

TIMSS xalqaro tadqiqot usullariga quyidagilar kiradi:

- ijobiy test natijalari;
- so'rovnomalar (o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim muassasasi ma'muriyati, ta'lim sohasidagi mutaxassislar, tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun);
 - uslubiy ta'minot (tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha milliy koordinatorlar uchun qo'llanma, maktab koordinatorlari uchun qo'llanma, test o'tkazish bo'yicha qo'llanma, topshiriqlarni bepul javoblar bilan tekshirish bo'yicha qo'llanma, ma'lumotlarni kiritish bo'yicha qo'llanma va boshqalar);
 - dasturiy ta'minot (sinflar va o'quvchilarni tanlash, ma'lumotlarni kiritish uchun).

Xalqaro testlar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

- o'quv va kognitiv faoliyatning sinovdan o'tgan mazmuni va turlarini yetarli darajada yoritish;
- xalqaro testlar mazmuning aksariyat ishtirokchi mamlakatlarda o'rganilayotgan materialga maksimal darajada muvofiqligi;

- testlarning o'zaro aloqasini ta'minlash;
- tekshirilayotgan mazmunning matematika vatabiatshunoslik ta'limini rivojlantirish nuqtai nazaridan ahamiyati;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi, test ishlab chiqilgan yutuqlarni baholash;
- ommaviy tadqiqotlar uchun talablarga muvofiqligi.

O'quvchilarning matematika va tabiiy fanlarga tayyorgarligini baholash uchun testlar (harbir variantda) ham matematika, ham tabiiy fanlar bo'yicha topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Natijalarni baholash. 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiatshunoslik fanlari bo'yicha savodxonligini baholash uchun test topshiriqlari nazariyasidan foydalaniladi. 4-8-sinf o'quvchilari uchun matematika va tabiiy fanlar bo'yicha xalqaro test sinovlari natijalari alohida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. O'rganish natijalarini statistic qayta ishlash natijasida harbir talabaga matematika va tabiatshunoslik fanlaridan topshiriqlarni bajarish uchun alohida 1000 balllik tizimda ball qo'yiladi. 4 va 8-sinf o'quvchilari uchun xalqaro natijalar shkalasi 1995 yilda tadqiqotda qatnashgan barcha mamlakatlarning o'rtacha ballarining o'rtacha qiymati 100 standart og'ish bilan 500 sifatida qabul qilinganligini hisobga olgan holda tuzilgan. Barcha keying tadqiqotlar natijalari 1995 yil miqyosida ko'rsatilgan, bu natijalarni taqqoslash va ularning o'zgarishi tendentsiyalarini aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida shuni aytish joziki, TIMSS – xalqaro baholash tadqiqot tizimi hisoblanadi. 1995-yildan buyon har to'rt yilda tashkil qilinadigan, maktab yoshidagi, 4-8-sinf, o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilimlarini tekshiradigan tadqiqotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. www.wikipedia.uz
2. <https://timssandpirs.bc.edu/>
3. [O‘zbekiston-xalqaro-timss-tadqiqotida-rasman-qatnashishga-kirishdi](#)

**SOYA O'SIMLIGINING ZARARKUNANDALARI, KASALLIKLARI VA
ULARGAQARSHI KURASH CHORALARI.**

*O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti. O'simliklar
bioximiyasi va molekulyarbiologiya laboratoriyasi.*

Stajyor- tadqiqotchi:

Jasurbek Normurodovich Jo'rayev.

Annotatsiya: Mazkur maqolada soya o'simligining ahamiyati, uning o'sishiga, hosildorligiga yomon ta'sir ko'rsatuvchi turli-xil zararkunandalar, kasalliklar haqida ma'lumotlar berilgan va ularga qarshi kurash choralari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Soya o'simligi, soya doni, dehqonchilik, zararkunandalar, bakterial kasalliklar, virusli kasalliklar, zamburug'li kasalliklar.

Аннотация: В данной статье представлена информация о значении растения сои, различных вредителях и болезнях, отрицательно влияющих на его рост и продуктивность, и мерах борьбы с ними.

Ключевые слова: растение сои, соя, земледелие, вредители, бактериальные болезни, вирусные болезни, грибковые болезни.

Abstract: This article provides information on the importance of the soybean plant, various pests and diseases that adversely affect its growth and productivity, and measures to combat them.

Key words: Soybean plant, soybean, farming, pests, bacterial diseases, viral diseases, fungal diseases.

Soya dunyoning ko'p mamlakatlarida yetishtirilib, u yer yuzida

ekiladigan qishloq xo'jaligi ekinlari ichida oqsil va moydorligi yuqori ko'rsatkichlarga egaligi uchun kundalik ratsionda asosiy o'rin tutadi. «Dunyo qishloq xo'jaligida soya (*Glycine max L.*) eng muhim dukkakli don ekinlaridan biri hisoblanadi va dunyodagi ekin maydoni 121,5 mln. gektarni tashkil etadi»¹. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda dukkakli don ekinlari, jumladan soyaning hosildorligi va sifatini oshirish bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yuqori sifatli, yangi va shu bilan birga hosildorligi barqaror, tabiiy omillarga moslashuvchan, ekologik elastik va texnologik afzalliklarga ega tizma va navlar muhim ahamiyat kasb etadi. Soya o'zining ishlatilishidagi universalligiga ko'ra dehqonchilik tizimidagi barcha o'simliklar orasida tengsizdir. Chunki, uning doni tarkibida yuqori sifatli aminokislotalar bilan ta'minlanganlik jixatidan go'sht, sut, tuxum kabi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan tenglasha oladigan 28-52 foiz oqsil, 18-27 foiz ekologik toza o'simlik moyi, ko'plab mineral tuzlarni, darmondorilarni saqlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa butun dunyoda oqsil taqchilligi hukm surayotgan bug'ungi kunda, soya donining oqsilga boyligi, oqsili tarkibida inson uchun o'rin almashilmaydigan aminokislotalarning barchasini mavjudligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, soya donining ozuqaboplik ahamiyatini yanada oshiradi. Soyaning lizin, metionin, arginin, leytsin va boshqa eng zarur aminokislotalarga boyligi bo'yicha qator oziq-ovqat mahsulotlari bilan tenglasha olishini alohida ta'kidlash zarur. Soya donidagi o'rin almashilmaydigan-noyob aminokislotalarning barchasi to'laligicha mavjud bo'lib, ularning miqdori esa tuxum, suli doni, sigir sutidagi me'yorlardan kam farq qiladi. Tarkibida xolesterin, hayvon eg'larini saqlamaganligi bois ularni iste'mol qiluvchilarni qonlarini triglitseridlardan tozalab, xolesterin miqdorini kamaytirish bilan kishilarda yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olishda alohida ahamiyatga ega va inson salomatligi uchun juda muhim hisoblanadi. Soya oqsili suvda yaxshi erishi va inson organizmiga yuqori darajada singishi bilan ham aloxida kadrlanadi.

Soya o'simligiga ham boshqa o'simliklar kabi turli zararkunandalar ziyon keltiradi, turli xil kasalliklarga chalinadi. Biz mo'l hosil olishni istasak albatta bularga qarshi chora-tadbirlarni ham hisobga olishimiz kerak.

Soyaga zarar yetkazuvchi asosiy zararkunandalar.

Ko'p tarqalgan soya zararkunandalari o'rgimchakkana, bitlar, makkajo'xori tunlamlar, soya mevaxo'ri, bargxo'rlar, ko'sak qurti kabilar xisoblanadi.

Ghlozidea armigeza Nibn, beda kurti-Ghlozidae mazitima Gzhsl lar, o'tlaq parvonasi-Loxestegr sticticalis, makkajo'xori parvonasi-Pyzansta nubilalis Hb lar bo'lib, keltirilgan xasharotlarni qurtlari soyaga iyun-avgust oylarida zarar keltiradi. Ular o'simlik barglarini yeb, fotosintez jarayonlarini yomonlashuviga olib keladi, bedava g'o'za tunlamlari bo'lsa soyani dukkaklari va donlarini ham zararlaydi. Ularga qarshi kurash chorasi sifatida: 25% li siraks preparatidan 0,32 litr ni 25% lik Arrivo, 25 SIPI yoki 40% danadim preparatini gektariga 0,5-1 litr, 30 litr suvga aralashtirib ishchi eritmasi tayyorlanib ishlatiladi.

Soya kuyasi. Bu zararkunanda faqat donni zararlab, kapalaklari yosh yashil dukkaklariga, gul qismlariga tuxum qo'yadi. Qurtlar dukkakni teshib kirib, soya urug'lari bilan oziqlanadi, soya asosan mazkur kuyani ikkinchi avlodidan zararlanadi va soyani ekish kechikishi bilan kuyani zarari shuncha ortadi.

Kulrang lavlagi uzun burini-Tanymecus palliates F, qora uzunburun qo'ng'iz- Psallalium maxillosum F lar ham uchraydi. Bu qo'ng'izlar tuproqda qishlab mart – aprelgacha begona o'tlar bilan oziqlananib, so'ng soyaga zarar keltiradi. Soya barglarini, o'simlikni o'suv nuqtasini, yangi maysalarini yeb zarar keltiradi. Qarshi kurash chorasi sifatida, bitlar soni ko'payganda ularga qarshi 57% Fufanondan 0,5- 1,2l-30l suvda eritib ishchi eritmasi tayyorlanadi, yoki 40% Danadimdan 0,5-11 preparat, 57% Omaytadan 1,3l preparatni 30l suvdagi eritmasini bir gektar maydonga ishlatiladi.

O'rgimchakkana. Qo'zg'atuvchisi Tetzanychus atlanticus Ms Gr egor

eng ko'p zarar keltiruvchi hashoratlardan biri bo'lib, so'rib olgan barglarning rangi to'qsimon sarg'ish-yashilga aylanadi (xlorozga o'xshab) va muddatidan avval to'kiladi va don hosildorligini kamayishiga olib keladi. Qarshi kurashish uchun g'o'za ekilgan maydonlaridan uzoqroqqa soyani joylashtirish tut daraxtlari atrofini vaqtida profilaktik ishlov berish talab etiladi. O'simliklarni vaqtida me'yorida oziqlantirishni tashkil etish kerak. Biologik kurash usuli bilan gabrabraqon, oltinko'z, trixogramma kabi foydali hasharotlar uchiriladi. Kimyoviy preparatlardan Detsis 0.3-0.5 l/ga, 57 foizlik Omaytdan 1,3 l, Danadim 0.5-1 l/ga 30 l suvga aralashtirib eritmasi tayyorlanadi va gektariga purkash orqali sepiladi.

Har-xil tunlamlar, qurt (bargxo'r, urug'xo'r, kuzgi tunlam, ko'sak qurti) lar soyani zararlaydi. Ulardan beda tunlami- Chloridea maritime Grhsi, g'o'za tunlami- Chloridea armigra lar ko'p uchraydi. Ularning qurtlari kulrang yashil rangda bo'lib, dastlab o'simliklarni o'sish nuqtasini keyinchalik esa dukkaklarini teshib donni yeydi. Agar 1m² da 8-10 dona tunlam qurt yoki 1 o'simlikda 2-3 ta mevaxo'r uchrasa, ularga tezlik bilan ishlov berishni boshlash kerak. Ularga qarshi kurashish uchun eng avvalo dala chetlariga, tutlarni tagiga ishlov berish kerak, chunki shu yerdan boshqa dalalarga hasharotlar tarqaladi. Kimyoviy preparatlardan Karate 0.4 l/ga, yoki Lambardo 0,5 l/gadan yoki Titan 0.3-0.4 l/ga, preparatlarni 300 litr suvga aralashtirib, ishchi eritmasi tayyorlab bir gektarga sepiladi.

Soya kasalliklari va ularga qarshi kurash usullari.

Soya ko'p kasalliklarga chalinadi, ayniqsa zamburug'li kasalliklarga. Masalan, AQSHda kasalliklar soyaga katta ziyon keltiradi, shulardan 3 xili bakteriyali, 3 xili- virusli va 19 ta zamburugli kasalliklardir. Zamuburug'li kasalliklardan Xitoyda 6 xil, Rossiyada 32 xil, Ukrainada 16 xil uchraydi.

Barcha kasalliklar 3 ta guruhga bulinadi:

1. Urug', o'simta va maysa kasalliklari

2. O'simlikni har-xil organlarini zararlaydigan

dog'lanishlar 3. O'simlikni so'lish kasalliklari.

Soya o'simligi bizda yangi ekin bo'lgani uchun hozircha uning kasalliklari kam uchraydi, hasharotlardan o'rgimchak kana uchraydi, ayniqsa paxtaga yaqin ekilgan dalalarda bu hasharot soya barglarini so'rib tashlaydi. Shuning uchun dalalar oltingugurt kukuni bilan paxtachilikda qanday kurashilsa, soyachilikda ham shu tadbirlar bajariladi.

Bakterial kasalliklar

Bakterial kasalliklar AQSH, Kanada, Hindiston, Yaponiya, Xitoy, Chexiya, Slovakiya, Germaniya, Bolgariya, Rossiya va boshqa soya ko'p ekiladigan davlatlarda keng tarqalgan.

Bakternoz bilan soyaning urug'i va maysasi zararlanadi. Kasallikni *Xanthomonas phaseoi*, *Pseudomonas glycineum*, *P. solanacearum* chaqiradi. Kasallik belgilari: oqchil, sariq qo'ng'ir tusli dog'lar. Urug'lar yaltiroqligini yo'qotadi. Kasallangan urug'lar chiriydi, unib chiqmaydi.

Zangli bakterioz iqlimi issiq hududlarda ko'p uchraydi. Bu kasallikni bakteriyalar chaqiradi. Bargining yuqori qismida alohida-alohida kichkina, oqish dog' paydo bo'ladi. Keyinchalik ular bir-biri bilan qo'shilib, butun barg yuzasini qoplaydi. Bargning pastki qismidagi dog' deyarli ko'zga ko'rinmaydi. Bora-bora barglar sarg'ayadi, kuchli zararlanganlari to'kilib ketadi.

Bakteriyali kuyush -barglarda yarim tiniq qoramtir dog'lar paydo bo'ladi, atrofida sarg'ish-yashil shishlar bilan o'raladi. Asta -sekin dog'lar qo'shiladi va barglar nobud bo'ladi. Kasallik namlik oshib ketgan sharoitda tez rivojlanadi, barglar to'kiladi. Kasallikka qarshi kurashish uchun quyidagi fungitsidlarlar qo'llaniladi: Topsin-M preparatidan 1.0 kg/ga me'yorida, oxak-oltingugurt qaynatmasi (ISO) 0.5-1 kg/ga, 300 litr ishchi eritma bilan ishlanadi. To'yintirilgan oltingugurt 15-20 kg/ga me'yorida sepiladi.

Havorang dog'lar. Bu kasallikni xam bakteriyalar keltirib chikaradi. Kasallik bargda ko'k va jigarrang dog'lar paydo qilish bilan boshlanadi, asosan bargni, kamdan-kam hollarda poyani va soya dukkaklarini zararlaydi. Barglar qizg'ish-jigar rang tusga kiradi va qurib, to'kiladi. Havo quruq va issiq bo'lishi kasallikning ko'payishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Bakterial burchakli dog'lar. Bargda burchakli mayda dog'lar paydo bo'ladi. Poya va dukkaklarda cho'zinchoq dog'lar yoki chiziqlar paydo bo'ladi. Dukkakdagi dog'lar jigar rangli, moyli bo'ladi.. Bu kasallik namlik yuqori va xarorat yuqori bo'lmagan sharoitda rivojlanadi. Quruq ob-havo boshlanganda rivojlanishi to'xtaydi, hosil ayrimyillari 20-30% ga kamayadi.

Bakterial so'lish (vilt). *Pseudomonas solanaceurum* Smitx R. *Solanaceum* chaqiradi. Krasnodar o'lkasida 1975 yildan beri keng tarqalmoqda. So'lish kasalligi har xil ko'rinishda bo'ladi: bargida 1 sm uzunlikda dog'lar paydo bo'ladi. Bargning zararlangan joylari ushlab ko'rilganda to'kiladi; zararlangan barglarda yashil-qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi. Ayrim vaqtlarda dog'larda jigar-rangli hoshiya bo'ladi, ayrim barglar, shoxlar yoki butunlay o'simlik so'liydi. Bakterial vilt bilan zararlangan o'simliklarda poyalari ingichka, nimjon bulib qoladi. Zararlangan o'simliklarda barg tomirlari bo'yicha uzun qo'ng'ir-jigar rangli dog'lar paydo bo'ladi. Zararlangan maysalar o'sishdan orqada qoladi. Bakterialar bittadan yoki juft bo'lib joylashadi, gohida zanjir kabi joylashadi.

Urug'palla bakteriozi. Urug'palla bakteriozi hosilga katta zarar keeltiradi. Shimoliy Kavkazda hosilni 71% nobud bo'lgan. Krasnodar o'lkasida urug'palla bakteriozdan 50% hosil nobud bo'lgan. Bu kasallik urug' orqali tarqaladi. Urug' yuzasida chuqurlashib joylashgan oqish dog'lar paydo bo'ladi. Zararlangan urug'lar bo'rtish jarayonida yelim kabi massaga aylanadi, yoqimsiz hid chiqaradi. Urug'larning unuvchanligi kamayadi. O'simlikni zararlaydigan barcha bakteriyalar maysalarni ham zararlaydi.

Zamburug'li kasalliklar. Soxta un, shudring urug', maysa, barg va dukkaklarni zaralaydi. Dastlab bargning ustki va ostki qismida yupqa g'ubor paydo bo'lib, sarg'ayadi, keyinchalik to'kilib ketadi.

Fuzarioz bilan zararlanganda unib chiqqan maysaning asosiy qismi chirib nobud bo'ladi. O'sish davrida kasallansa o'sish va rivojlanishdan to'xtaydi.

Ildiz chirish kasalligiga chalingan yosh o'simlik ildizi qo'ng'ir rangga

kiradi, yon ildizlari rivojlanmaydi. Ba'zan yetuk o'simliklar ham kasallanadi. Kasallik tarqatuvchi zamburug'lar tuproqda saqlanadi.

Bakteral va zamburug'li kasalliklardan himoya chorasi sifatida bir tonna urug' 2,5 kg 80 TMTD va fentiuram bilan ekishda bir-bir yarim oy oldin dorilanadi. O'suv davrida 80 impeb 0,4,50 fundazol aralashmasi 600m/ga miqdorda purkaladi. Kasallikning tarqalish darajasiga qarab bir yoki ikki marta purkaladi.

Virusli kasalliklar

Virusli kasalliklar barcha soya ekiladigan davlatlarda uchraydi. Uzoq Sharqda virusli kasalliklar juda katta zarar keltiradi.

Mozaika soya ekiladigan hududlarda keng tarkalgan. Bu kasallik bilan zararlangan soya hosilining 84% gacha bo'lgan qismi nobud bo'ladi. Kasallikning birinchi belgilaribarglarda kuzatiladi. Kasal tekkan bunday barglar buralib, bujmayib qoladi, ba'zan rinojlanishdan to'xtaydi. Barcha navlarda bu kasallik turlicha kechishi mumkin. Kasallangach, ba'zi navlarning barglari sarg'ayib, o'simlik tuqimasi kuchsiz bujmayadi, ayrim navlarning esa barglari biroz sarg'ayadi, to'kilib, juda kamayib ketadi. Kasallangan o'simliklar o'sishdan to'xtaydi, barg kichrayadi, dukkaklari kam bo'ladi, urug'lari mayda va dog'li buladi. Bu belgi donining tovar qiymatiga ta'sir qilib, tozalanishini qiyinlashtiradi

Tamakining xaltsasimon dog'lanish virusi. Bu virusni Nicotianavirus 2.v chaqiradi. Soya ekiladigan barcha hududlarda uchraydi. Ilk bor bu kasallik Hindiston, Yaponiya, AQSH, Kanadada topilgan. Rossiyada bu virus tamaki ekiladigan hududlarda tarqalgan. Bu virus soyani zararlaydi. Rossiyada hosilga katta zarar keltirmagan, ammo AQSHda ayrim yillari 100 % hosil nobud bo'lgan. Bu virus Krasnodar o'lkasida Amerikadan keltirilgan navlarda aniqlangan. Kasallik belgilari tezda bilinmaydi, ancha vaqt yashil rangini saqlaydi. Virus urug'da xalqali pigmentlar hosil qiladi. Don soni 50-80 % ga kamayadi. Bu virus soyadan tashqari ko'k no'xat, loviya, sebarga, tamakini xam zararlaydi.

Beda mozaikasi - Medicago virus 2R/1:1,1/16+0,8/160,7/16:v/v:C Ag. AQSH, Yaponiya, Rossiya soya ekinzorlarida qayd qilingan. Sebarga o'simligida qishlab chiqadi va xasharotlar yordamida dukkakli o'simliklar ekinlariga tarqaladi. Barglarda och-to'q sariq dog'lar paydo bo'ladi, goho barg shakli o'zgaradi. Ammo o'simlik yetilishi mumkin. Harorat 50°S bo'lganda virusning faolligi 10 daqiqada tugaydi. Virus 47 oilaga mansub 305 ta ekin turini zararlaydi. Shiralar ko'payganda ularning yordamida boshqa dalalardan soya ekinzoriga virus tarqaladi. Urug' orqali ham tarqalishi mumkin.

Xulosa qilib shularni aytish mumkinki, zararkunandalar bilan zararlanishdan himoya sifatida, bakteral,zamburug'li va virusli kasalliklarni oldini olish uchun eng avvalo, shu kasalliklarga chidamli navlar ekiladi. Almashlab ekishni to'g'ri tashkil qilish kerak. Yuqoridagi kasalliklarga qarshi kurashda pestitsidlardan foydalanib me'yorida kimyoviy ishlov berish yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.X.N.Atabayeva, N.S.Umarova – Soya biologiyasi, Toshkent-2020y.
- 2.M.Q.Parpiyeva, G.R.Raxmonova. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarito'plami 2018 yil 21 aprel.
3. Abdullayev A.Q., Ataboyeva H.N., Ibragimov F.Yu., Sattarov M.A., Saitkanova R.U., Sadiqova N.I., Tangirova G.N. O'zbekistonda soya yetishtirish bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent. 2013. B. 7-8.
4. Беликов И.Ф. Вопросы биологии и возделования сои - В кн: Биология возделывания сои. Владивосток 1991. С. 12-25.С. Я. Попов, Л. А. Дорожкина, В. А. Калинин. Основы химической защитырастений. Москва 2003. С.13-15.
5. Вавилов П.П., Посыпанов Г. С. Бобовые культуры и проблема растительногобелка. — М.: Россельхозиздат, 1983. С. 256.
6. www.ziyonet.uz

О‘ЗБЕК TILI O‘QITISH MAZMUNI TA‘LIM METODIKASI

Toshkent davlat stomatologiya instituti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Saidova Dildora Baxtiyarovna

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek tili o‘qitish mazmuni, ta‘lim metodikasi, zamonaviy pedagogikada muhim tarkibiy qismlar, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi haqida so‘z yuritiladi

KALIT SO‘ZLAR: kommunikativ layoqatlilik, faollik darajasi, ijodiy faoliyat,

“Talaba — ta‘lim — o‘qituvchi” tizimi, to‘g‘ri talaffuz.

KIRISH

Ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Til darslarida o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa mazkur tajribani o‘zlashtirib boradi, oxir-oqibatda esa shu tildan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lib borishadi. Bunda turli hayotiy vaziyatlarda tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishlari nazarda tutiladi. Tilni bunday tarzda o‘zlashtirishdagi asos ta‘lim jarayonida egallanadigan bilim, nutqiy ko‘nikma va malakalar bo‘lib, ular yaxlitlikda o‘quvchilarning kommunikativ layoqatliligini tashkil etadi. Tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning rang-barang ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya‘ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etishda ular o‘zlarigagina xos bo‘lgan ayirma va tafovutlarga tayanishadi.

Ta'lim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Pedagog olimlar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida "Nimani o'qitish kerak?" degan savolga javob izlash bilan shug'ullandilar va hali-hamon bu savolga to'liq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yo'q. Ta'lim mazmuni bo'yicha berilgan va berilayotgan barcha ma'lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbiyligicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto'xtov ilgarilab boradi. Ta'lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi.

ASOSIY QISM

Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada 4 ta muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi:

I. Talabalar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta'riflar tizimi);

II. Tanlangan ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi;

Ko'nikma — egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, malaka esa muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvidir.

III. Talabalarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish; faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy-ijodiy darajada bo'lishi mumkin;

Qayta xotirlash faoliyati — o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa o'rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi. U izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi. Qisman izlanuvchanlik faoliyatida talaba yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalarining o'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi, uni topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma'lum sharoitlarda qo'llashi lozim.

Ilmiy-ijodiy faoliyatda talaba hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan, kompyuterda) qo'llay olishi, faoliyat uchun zarur bo'lgan, lekin o'zida bo'lmagan bilimlar manbalarini bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqozosiga ko'ra unumli foydalanish usullarini egallashi talab qilinadi. Talabani ijodiy faoliyat tajribasiga qanchalik ko'p asoslanilsa, ta'limning samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

IV. Talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi. Bu munosabatlar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslanmogi lozim.

Ta'lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan hodisalar emas, balki aylanasimon yaxlitlik bo'lib, bu aylananing boshlanish va tugallanish nuqtasi birinchi va to'rtinchi qismlami, aylana doirasi esa ijodiy-amaliy ko'nikmalarni tashkil etadi.

O'zbek tili o'qitish mazmuni — fonetika, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish (qiroat), matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi. “Talaba — ta'lim — o'qituvchi” tizimi yangilangan ta'lim mazmunida yetakchi omildir. Bo'lajak ona tili o'qituvchisi metodika fanini chuqur o'rganishi, kommunikativ savodxonlik me'yorlari bo'yicha DTS talablarini yaxshi bilishi darkor. Shuningdek, o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishning xilma-xil usullarini bilishi, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o'rganishi, egallangan nutqiy ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, rivojlantirish, takomillashtirish, ularni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan izchil ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

XULOSA

O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish;

milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; talaba shaxsini ma'naviy (balog'at va fasohat ilmi bilan) boyitishdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.Shaabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xodjiyev. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent. “O`qituvchi”.1980
2. N.Erkaboyeva. O`zbek tilidan ma`ruzalar to`plami. Toshkent. “Yosh kuch” 2019.
3. O`qituvchilarning moderatsiyalari uchun materiallar. 2007 .
4. Q.Yo`ldoshev Adabiyot o`qitishning ilmiy–nazariy asoslari. –T.: O`qituvchi, 1996. – 151 b
5. M.Umarova, M.Hudoyberganov Bayonlar to`plami.T. “O`qituvchi”,1992

**СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ЛИЧНОСТИ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ**

Абдуганиев Улугбек Саидакбар угли,

*Военнослужащий Министерства Обороны,
старший офицер отдела-юрист*

Аннотация: В данной статье уточняются современные направления обеспечения прав личности в уголовном процессе; освещаются проблемные вопросы, возникающие при этом. Анализируются указанные проблемные вопросы; предложено авторское видение того, как их разрешить. Выводы, представленные в статье, основаны на всестороннем изучении позиций других ученых и действующего уголовно-процессуального законодательства.

Ma'lumki, har bir mustaqil davlat o'zining mudofaa qudratiga ega. Mudofaa siyosatini qay tarzda amalga oshirish imkoniyatlari o'sha davlatning qudratini belgilaydi. Chunki har bir davlat moddiy boyliklarini, texnikalarini, harbiy aharniyatga molik bo'lgan inshootlarini, xalqini himoya qilishda, saqlashda yangi turdagi omillarni yaratadi va ishlab chiqaradi. Shu tariqa davlatlar ichida yangi-yangi qurollar yaratiladiki, bular nafaqat insoniyatga., balki butun jonli tabiatga atrof-muhitga juda katta ziyon yetkazadi. 1990-yilgacha biz dunyoni ikki tizimga (kapitalistik va sotsialistik) bo'lib kelgan edik va har ikkalasida ham umurniy qirg'in qurollari yaratilganligini yaxshi bilamiz. Bunday qurollarni ba'zi birlari ayrim davladar tomonidan sinab ko'rildi ham va hozirgi kungacha ulaming as oratlari to'g'risida eshitib kelyapmiz. Mas alan. 1945-yilda Yaponiyaning Nagasaki va Xerosima shaharlariga AQSHning yadro quroli tashlandi. Keyinchalik Koreyaga, Vyetnamga turli xildagi napalmlar (dirildoq holdagi yondiruvchi modda), oskolkali (parchali), yondiruvchan bombalar tashlandi. Yuqoridagi qurollar yer yuzida mavjud ekan, albatta, har bir davlat bunday qurollardan saqlanish vositalarini izlaydi, omillarini ishlab chiqadi Shuning uchun har bir davlatning mudofaa qudrati asosini fuqarolar muhofazasi

tashkil etadi.

Evakuatsiya ikki xil bo'ladi:

Oldindan o'tkaziladigan evakuatsiyalar;

Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) evakuatsiyalar. Oldindan o'tkaziladigan evakuatsiyalar falokat yoki tabiiy ofat yuzaga kelishi va harbiy harakatlar boshlanishi ehtimoli yuqori darajada ekanligi haqida shoshilinch ma'lumot olingandan keyin o'tkaziladi. Bunga bir necha o'n daqiqadan bir necha kungacha bo'lgan davr orasida FV sodir bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumot olingandan keyin taxminlashga asos bo'ladi. Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) evakuatsiyalar aholi hayoti va salomatligiga xavf tug'iladigan darajada texnogen yoki tabiiy tUSDagi FV yuzaga kelgan yoki harbiy harakatlar boshlanganda, aholining odatiy kun kechirish sharoiti buzilgan hollarda o'tkaziladi. FV rivojlana borishi va harbiy harakatlarning tavsifiga qarab, evakuatsiya qilinadigan aholi soniga qarab, evakuatsiyalar uch xil bo'ladi:

- Cheklangan evakuatsiyalar;
- Mahalliy evakuatsiyalar;
- Mintaqaviy evakuatsiyalar.

Cheklangan evakuatsiyalar shaharning bir qismi yoki qishloq chegarasidan chiqmagan, ko'chiriladigan aholi soni bir necha ming kishidan oshmagan FV larda o'tkaziladi. Bunday holda ko'chirilgan aholi, odatda, FV hududiga tutash aholi yashash joylariga yoki shaharning shikastlanmagan tumanlariga joylashtiriladi. Mahalliy evakuatsiyalar o'rtacha kattalikdagi shaharlar, yirik shaharlarning alohida tumanlari, qishloq tumanlari FV hududiga tushib qolgan hollarda o'tkaziladi. Bunda ko'chiriladigan aholi soni bir necha mingdan o'n minglab kishigacha yetishi mumkin bo'lib, odatda, FV hududi bilan yondosh xavfsiz joylarga joylashtiriladi. Mintaqaviy evakuatsiyalar shikastlovchi

omillar katta hududlarga yoyilib, yirik shaharlarni ham o'z ichiga olgan, aholisi juda zich joylashgan bitta yoki bir necha mintaqa hududini qamrab olganda amalga oshiriladi. Mintaqaviy evakuatsiya FV yuz bergan hududdan transportda, piyoda olib chiqiladigan aholi o'zlarining yashab turgan joylaridan anchagina uzoqqa ko'chirilishlari mumkin. Aholining evakuatsiya tadbirlari bilan qamrab olinganligiga qarab, ikki turi bo'ladi: yalpi evakuatsiya; qisman evakuatsiya.

Yalpi evakuatsiyada FV yuz bergan hududdan hamma aholi olib chiqib ketiladi. Qisman evakuatsiyada esa asosan mehnatga layoqatsiz aholi, maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab, litsey, kollej, texnikum va oliy o'quv yurtlari o'quvchi va talabalari olib chiqib ketiladi.

Aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya qilish haqida qarorga kelish huquqi FM boshliqlariga berilgandir. Ular evakuatsiyaning umumiy rahbarligini olib boradilar. Aholini evakuatsiya qilish ishlarini bevosita tashkil etish va o'tkazishga esa viloyatlar, shaharlar, tumanlarning ma'muriyati va aholini evakuatsiya qilish tashkilotlari rahbarlik qiladi.

Aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish tadbirlarini barcha omillarni hisobga olgan holda rejalashtirishni hamda transport vositalarini, ularning yo'llarini, evakuatsiya qilinadigan aholi boradigan xavfsiz joylarni oldindan tayyorlab qo'yilishini, shuningdek, aholining FV sharoitiga har tomonlama tayyorgarlik ko'rishlarini talab etadi.

Bunday tayyorgarlikni hokimiyat ijro idoralarining va boshqaruv tashkilotlarining fuqaro muhofazasi boshlig'i bo'lgan rahbarlari tashkil etadilar va o'tkazadilar.

Aholini evakuatsiya qilish prinsipi bo'yicha ikki tur xildir:

- ishlab chiqarish-hududiy;
- hududiy bo'lishi mumkin.

Bunda, FV yuz bergan hududdan ishchilar, xizmatchilar, o'quvchilar, talabalar, korxonalar, tashkilotlar, muas-sasalar, o'quv yurtlari bo'yicha, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ishlamaydigan boshqa aholini esa turar joydan foydalanish idoralari, shirkatlar orqali turar joylan bo'yicha transportda yoki piyoda olib chiqilishi nazarda tutiladi.

Muayyan hollarda aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya qilish hududiy turiga ko'ra, bevosita aholi yashab turgan joyidan amalga oshiriladi.

Aholini evakuatsiya qilish usullariga qarab, uch turli bo'ladi:

- transportda;
- piyoda tartibda;

aralash holda.

Aralash usuli samarali va eng maqbul usul hisoblanadi. U mavjud transporter yordamida iloji boricha, eng ko'p ishlovchilar bilan bir vaqtda aholining qolgan qismini ham birga qo'shib olib chiqishni nazarda tutadi. Bunda asosan, piyoda yura olmaydigan, yosh bolali ayollar, maktab o'quvchilari va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilarini transportlarda olib chiqish rejalashtiriladi.

Bu usul aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya qilish tadbirlarini eng qisqa muddatda o'tkazish imkonini beradi.

Evakuatsiya qilingan aholi xavfsiz joylarda maxsus buyruq bo'lgunga qadar vaqtincha joylashtirib turiladi.

Fuqarolar muhofazasi - umumdavlat mudofaa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, iqtisodiyot tarmoqlarini muhofaza qilishda., ularning muttasil ishlashini ta'rninlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, fuqarolar mudofaasi

oldiga qo'yilgan yuqoridagi ishlar 1945-yildan to 1990-yillargacha yetib keldi, lekin shu davrgacha yuqoridagi ishlarni bajarish uchun ehtiyojlar bo'lmadi. Afsuski, bu davrlarda (tinchlik davrlarida) tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari, turli xil halokatlar yuz beradiki, xalqimiz, iqtisodiyotimiz bundan jiddiy zararlanadi. Bunday holatlarda biz bir-birimizga yordam berishga tayyor emas edik. Mustaqillik davridagina favqulodda holatlarda fuqarolar muhofazasi tomonidan yetarli ijobiy ishlar qilina boshlandi. Jumladan, mustaqilligimizning dastlabki davrlarida fuqarolarni va hududlarni tabiiy ofatlaridan, turli xildagi avariylardan muhofaza qilish, fuqarolarning mo'tadil hayot faoliyatini ta'minlash borasidagi vazifalarni hal etish uchun O'zbekiston hukumati tomonidan 1991-yilda fuqaro mudofaa tizimi fuqaro muhofazasi tizimiga aylantirildi. Yangidan tashkil etilgan ushbu tizim O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi fuqaro mudofaa va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi sifatida tinchlik davrlardagi tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish falokatlari va halokatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish vazifalarini bajaradi. Mamlakat fuqarolar muhofazasini rivojlantirishning asosiy konsepsiyasi FVV ning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarini bartaraf etish, fuqarolar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollarda harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va hokazolarga qaratilgan.

Insoniyat o'zining hayotiy faoliyatida turli ko'rinishdagi: tabiiy, texnogen, ekologik va antropogenik xavf-xatarlarga duch keladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) ma'jurnotiga ko'ra, o'tgan asrning 60-yillarida dunyo aholisining 1.6 foizi, 80-yillarda esa 3.5 foizi favqulodda vaziyatlardan aziyat chekkan. Bunday noxushlik bizning asrimizda ham, undan keyin ham kuzatilishi

muqarrardir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrdagi 455-sonli «Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida»gi Qarorida mamlakatimiz hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha turdagi favqulodda vaziyatlar tasniflab berilgan. Favqulodda vaziyat (FV) - ma'lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga, tevarak- atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar yetkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir. Favqulodda vaziyatlar xavfining tarqalish tezligiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

a) tasodifiy FV - yer silkinishi, portlash, transport vositalaridagi avariya va boshqalar;

b) shiddatli FV - yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar;

v) mo'tadil (o'rtacha) FV - suv toshqinlari, vulqonlarni otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariya va boshqalar;

g) Tuman FV - sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg'oqchilik, epidemiyalarning tarqalishi, tuproqning ifloslanishi, suvning kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 427-son Qarori: "O'zbekiston Respublikasida aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida", 1998. 7 10.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 558-son Qarori: "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va xarajat qilish davlat tizimi to'g'risida", 1997. 23.12.

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-son Qarori: "Texnogen- tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida", 1998.

**TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATINI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RESURS BAZASINI
MUSTAHKAMLASH**

Toshkent moliya instituti 1 kurs magistranti

Nilufar Raxmonova Umedovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari, tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirish orqali resurs bazasini mustahkamlash haqida ma'lumotlar keltirilgan

Kalit soʻzlar: tijorat banklari, iqtisodiy islohotlar, resurslar, depozit, hisob varaqasi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish borasida amalga oshirilgan jiddiy oʻzgarishlarga sabab boʻlmoqda. Bu esa oʻz navbatida, yangi shart-sharoitlarga mos pul-kredit siyosatini yuritish va uni sifat jihatdan takomillashtirishni hamda bu yoʻnalishda aniq belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etadi va bunga imkoniyat yaratadi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri boʻsh pul mablagʻlarini mumkin qadar koʻproq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat. Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi.

Bank resurslarini ikki katta guruhga boʻlish mumkin. Bular, banklarning oʻz mablagʻlari va jalb qilingan mablagʻlardir. Jalb qilingan resurslarni ikkiga boʻlinadi – bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurlardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda

ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'lik bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar o'z navbatida banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati to'lovlar amalga oshiriladi, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

Banklarning jalb qilingan mablag'lari asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi. Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yimalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi. Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi (mukofoti) bo'lib hisoblanadi.

Bank resurslarining muhofazasining ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan ham bir qator tadbirlar ishlab chiqilganligini ham inobatga olgan holda, ayrim amaliyotlarga cheklovlarni ham keltirib o'tishimiz mumkin, masalan dahldor shaxslar bilan amaliyotlar hamda bir kredit oluvchiga nisbatan kreditning maksimal miqdorini belgilanishi, hamda kapitalning adekvatligiga qo'yiladilar talablarni ham shu yo'lda qilingan ishlar qatorida olishimiz mumkin.

Bank o'zining depozit faoliyatini amalga oshirishda asosan depozit, kredit va boshqa operatsiyalarini bankning barqarorligini ta'minlashi bo'yicha bog'likligini yanada kuchaytirishga, risklarni kamaytirish uchun resurslarni diversifikatsiya qilinishiga, depozit portfelni turkumlashga, mijozlarni turlari bo'yicha individual yo'nalish olib borishi va xizmatlarning raqobatbardosh bo'lishiga e'tibor qaratishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib resurslar barqarorligi masalalarini ko'rayotganda omonatlarni kafolatlanishiga ham e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Банковская дело. Учебник. Под редакцией О.И. Лаврушина . -М.: Фин. и статистика. 2009
2. Е.Рид, Р. Коттер, Э.Пилл ва Р.Смит «Коммерческие банки» перевод с англ. М. Космополис 1991г.
3. Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дело. Перевод с англ. Москва инфра 2006 г.
4. Банковская дело. Под редакцией О.И. Лаврушина М.Фин. и статистика. 2009 г.

**TA'LIM JARAYONIDA NEYROLINGVISTIK DASTURLASHDAN
FOYLANISH IMKONIYATLARI**

Murtazoyev Azamat Sunnatula o'gli

BuxMTI axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugun dunyoda yoshlarga zamonaviy ta'lim berish va bu orqali mamlakatbarqaror rivojini ta'minlash asosiy muammolardan biriga aylandi. Shiddat bilan rivojlanish kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to'g'ri foydalanishni o'rganish yoshlar oldidagi asosiy maqsadga aylangani ayni haqiqat. Bugun raqamli texnologiyalar bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi talablarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalardan foydalanish hayotimizning muhim ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Kalit so'zlar: dasturlash, neyrolingvistika, neuro, tilshunoslik, xulq-atvor, texnologiya, axborot, innovatsiya.

Annotation Today in the world, providing modern education to the youth and through it the country ensuring sustainable development has become one of the main problems. With intensity It is a fact that in the current period of development, getting information and learning to use it correctly has become the main goal for young people. Today, equipping the education system with digital technologies ensures the quality of classes. Besides, the use of digital technologies has become an important and integral part of our lives.

Keywords: programming, neurolinguistics, neuro, linguistics, behavior, technology, information, innovation.

KIRISH .

Neyro-lingvistik dasturlash amaliy psixologiyaning mashhur va qizg'in muhokama qilinadigan sohasidir. Ushbu mavzuning dolzarbligi bir qator sabablarga bog'liq. Birinchidan, NLP usullari bir nechta fanlarning chorrahasida joylashgan: psixologiya, psixoterapiya, dasturlash va tilshunoslik. Ikkinchidan,

NLP - bu asosan inson hayotida amaliy qo'llashga qaratilgan yangi tadqiqot yo'nalishi. Bundan tashqari, neyro-lingvistik dasturlash ko'pincha akademik hamjamiyat tomonidan tanqid qilinsa-da, ushbu intizom ushbu bo'limning darslarida muhokama qilinadigan juda ko'p foydali va "ishchi" texnikalarni o'z ichiga oladi.

ASOSIY QISM

Neyrolingvistik dasturlashni yaratish bo'yicha qo'shma ish 1960-yillarning oxirida Kaliforniya universitetining bir guruh mutaxassislari tomonidan boshlangan: Richard Bandler, Jon Grinder, Frenk Pucelik, ularning ilmiy maslahatchisi, taniqli antropolog Gregori Beytson boshchiligidagi. NLP tizimi nega ba'zi terapevtlar o'z mijozlari bilan shunchalik samarali munosabatda bo'lishadi degan savolga javob berish uchun ishlab chiqilgan. Muammoni psixoterapevtik nazariya nuqtai nazaridan o'rganish o'rniga, Bandler va Grinder bu psixoterapevtlarning ishining borishini kuzatish orqali qo'llagan usul va usullarni tahlil qilishga kirishdilar. Keyin olimlar o'rganilgan usullarni turli toifalarga ajratdilar va ularni shaxslararo munosabatlarning umumiy naqshlari va odamlarning bir-biriga ta'siri sifatida taqdim etdilar.

Kasbiy tajribasini modelga aylantirishga qaror qilingan mashhur mutaxassislar tanlangan:

- Virjiniya Satir - Oila terapiyasi
- Milton Erikson - Erikson gipnozi
- Fritz Perls - gestalt terapiyasi

Ushbu psixoterapevtlarning amaliy ko'nikmalarini o'rganishning birinchi natijalari 1975 yilda paydo bo'lgan va "Sehrning tuzilishi" asarida nashr etilgan. 1-jild (1975). Keyin modelni o'rganish bo'yicha kengaytirilgan materiallar "Sehrning tuzilishi" kitoblarida taqdim etildi. 2-jild" (1976) va "Oiladagi o'zgarishlar" (Virjiniya Satir bilan hammualliflik, 1976). Ushbu ishning natijasi Meta-model deb nomlangan bo'lib, siz bizning treningimizning birinchi darsidan bilib olasiz. Ushbu model ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qildi va amaliy psixologiyaning butun sohasini yaratishga olib keldi.

Bugungi kunda NLP ochiq metodologiya bo'lib, uni original ishlanmalar bilan to'ldiradigan ko'plab izdoshlari bor.

Xulq-atvorni kuzatishdan kelib chiqqan holda, neyro-lingvistik dasturlash (NLP) shaxsning shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan texnikalar (dissosiyatsiya, qayta ishlash va boshqalar) va usullarning butun majmuasini belgilaydi. Ushbu maqolada siz NLP nima ekanligini, uning tamoyillari, tarixi, foydalari, mashg'ulotning borishi, qanday qilib NLP mutaxassisi bo'lishni, shuningdek, kontrendikatsiyalarni bilib olasiz.

Neyro-lingvistik dasturlash odamlarning xulq-atvor namunalari asoslanib, ma'lum bir muhitda qanday ishlashi bilan bog'liq. Bir qator metodlar va usullar yordamida NLP insonning o'z atrof-muhitini idrok etish usulini o'zgartirishga yordam beradi. Darhaqiqat, har bir shaxs o'ziga xos bo'lgan va uning e'tiqodlari va shart-sharoitlari bilan tartibga solinadigan dunyo xaritasiga ega. NLP ning maqsadi insonga o'z maqsadlariga yanada samarali erishish uchun ushbu xaritaning o'zgartirishidir. Shuning uchun NLP hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun yangi potentsiallarni yaratish uchun shaxsiy va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur vositalarni taqdim etadi.

Boshqacha qilib aytganda, bu bizni stakanni yarmi bo'sh emas, balki yarmi to'la ko'rishga olib keladi. Muvaffaqiyatsizliklar yo'q, faqat bizni o'rgatadigan va rivojlanishimizga imkon beradigan tajribalar bor.

Asosiy tamoyillari

Neyro-lingvistik dasturlash, birinchi navbatda, "Qanday qilib uni yaxshi ishlashi kerak?" "Nega bu ishlamayapti?" o'rniga. "Bu muloqot paytida qabul qiladigan xatti-harakatlarimizni tan olishni va agar xohlasangiz, o'zgartirishlarni kiritishni taklif qiladi.

- "Dasturlash" bizni e'tiqod va xulq-atvor tizimini o'z ichiga olgan muhitimiz tomonidan shartlanganligimizni anglatadi. Hayotimiz davomida har bir inson ongsiz ravishda ijobiy yoki salbiy o'z reaksiyalari va his-tuyg'ularini tartibga soluvchi dasturlarni o'rnatadi.

- "Neyro" bu dasturlar bizning neyron davrlarimizda kodlanganligini anglatadi.
- "Tilshunoslik" tilga ishora qiladi. Og'zaki yoki og'zaki bo'lishidan qat'i nazar, bu biz haqiqatni o'zimizga qanday ifodalashimizni aks ettiradi.

Neyrolingvistik dasturlashning afzalliklari

Neyrolingvistik dasturlash bilan bog'liq nashrlarni ko'rib chiqqandan so'ng, biz ushbu mavzu bo'yicha juda kam tadqiqotlar mavjudligini ta'kidlashimiz mumkin. Biroq, ba'zi tadqiqotlar biz quyida ishlab chiqadigan ma'lum sohalarda uning samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki ta'limda neyrolingvistik dasturlashdan foydalanish bir tomondan muayyan qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarsada boshqa tomondan turli yutuqlarni qo'lga kiritilishiga sabab bo'ladi. O'z sohasida namuna bo'lgan odamlarni kuzatish orqali ular bu odamlarga ushbu mukammallikka erishishga yordam bergan xatti-harakatlarni aniqladilar. Shunday qilib, asboblarni ushbu turdagi xatti-harakatlarni aniq tasvirlash uchun ishlab chiqilgan. Neyrolingvistik dasturlashning qo'zg'atuvchilari boshqa odamlarga bunday xatti-harakatlarga moslashishga imkon beradigan oddiy va tezkor usullarni ishlab chiqdilar. Maqsad, uning kundalik xatti-harakatlarida doimiy o'zgarishlarga erishishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.: 2008.
2. Xayrulla D., Saidjon U., Azamat M. DEVELOPMENT OF LIGHTING CONTROL SOFTWARE FOR "SMART CLASS" //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – С. 18-21.
3. Sunnatula o'gli M. A. et al. TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI //World scientific research journal. – 2022. – T. 4. – №. 2. – С. 28-33.

4. Yuldoshev, S., Savriev, S., Murtazoyev, A., & Khojiev, S. (2022). NUMERICAL SIMULATION OF THREE-DIMENSIONAL TURBULENT JETS OF REACTING GASES. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 2(6), 73-82.

6. **Н.Винер.** Кибернетика. 2-е изд., 1961, гл. I.

7. **Коршунов Ю.М.** Математические основы кибернетики. — М.: Энергоатомиздат, 1972.

**BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING
TIKUVCHILIKKA OID KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
DASTURIY TA‘LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Baxronova Shahlo Islom qizi

*Buxoro davlat Pedagogika instituti Texnologik
ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta‘lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish ko‘rsatilgan. **Undan tashqari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining tayyorlashda omillardan foydalanishning ahamiyati va muammolari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.**

Kalit so‘zlar: dasturiy ta‘lim vositalari, texnologiya, kreativlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, moslashuvchanlik, ravonlik.

Annotation: This article shows the improvement of the methodology of using software in the development of sewing creativity of future technology teachers. In addition, a summary of the content and problems of the use of factors in the training of the future technology teacher is given.

Key words: software educational tools, technology, creativity, creativity, creativity, flexibility, fluency.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim masalalardan biri sanaladi. Shuning uchun ham bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash ijodkor insonlar bilan davra suhbatlarini olib borish har - bir o‘tilayotgan darslarni ijodkorlik bilan tashkil qilish zarur. shu jumladan pedagogik oliy o‘quv yurtlarida Texnologiya fani o‘qituvchilarini

kreativlik qobiliyatini rivojlantirishni rag'batlantiradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish zarur. Bugungi kunda jamiyatning oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o'qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "tsreate"-yaratish, "tsreative"yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

"Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi. Shaxsning ijodiy fikrlashi va kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi shart-sharoitlar mavjud, ijodiy qobiliyatlar va ijodiy motivatsiyaning mavjudligi. Shu bilan birga, agar bu uchta omil bir-biriga

to'g'ri keladigan bo'lsa, ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajadagi namoyon bo'lishi mumkin.

1) aniq belgilangan va qat'iy nazoratdan farq qiladigan to'liq bo'lmagan holatlar;

2) kelgusi faoliyat uchun strategiya va vositalarni yaratish va ishlab chiqish;

3) mas'uliyat va mustaqillikni rag'batlantirish;

4) mustaqil ishlanmalar umumlashmalar, kuzatuvlarga e'tabor berish.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi.

Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:
1. o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;

2. test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;

3. mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

4. o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Multimedia dasturiy vositalari dasturiy mahsulotlarning nisbatan yangi sinfi hisoblanadi. U ma'lumotlarni qayta ishlash muhitining o'zgarishi, lazerli disklarning paydo bo'lishi, ma'lumotlar tarmoqli texnologiyasining rivojlanishi natijasida shakllandi. Sun'iy intellekt tizimlari. Bu sohadagi izlanishlarni to'rt yo'nalishga bo'lish mumkin:

— ijodiy jarayonlarni imitatsiya qiluvchi tizimlar. Ushbu yo'nalish kompyuterda o'yinlarni (shaxmat, shashka va h.k.), avtomatik tajima qilishni va boshqalarni amalga oshiradigan dasturiy ta'minotni yaratish bilan shug'ullanadi;

— bilimlarga asoslangan intellektual tizimlar. Ushbu yo'nalishdagi muhim natijalardan biri ekspert tizimlarning yaratilishi hisoblanadi. Shu tufayli sun'iy intellekt tizimlari ma'lum va kichik sohalarning eksperti sifatida tan olinishi va qo'llanishi mumkin;

— EHMlarning yangi arxitekturasini yaratish. Bu yo'nalish sun'iy tafakkur mashinalari (beshinchi avlod EHMlari) ni yaratish muammolarini o'rganadi;

— intellektual robotlar. Bu yo'nalish oldindan belgilangan manzil va maqsadga erisha oladigan intellektual robotlar avlodini yaratish muammolari bilan shug'ullanadi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarda kreativ fikrlashlarini shakllantirish jarayonida, muammoli ta'lim texnologiyalaridan o'quv, ilmiy va kasbiy pedagogik muammolarni shakllantirish va hal qilishni ta'minlashda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning barcha tashkiliy shakllari va usullarini bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish: ma'ruzalar, amaliy va seminarlar, mustaqil va yakka tartibdagi ishlarga bo'ysundirish hamda ularni jalb qilish zarur. Ma'lumki, muammoli ma'ruza talabalarning o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini uyg'otadi, qo'shimcha ma'lumot izlashda faollik va mustaqillikni rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan taklif qilingan muammolarni hal qilish jarayonida ular tomonidan mustaqil qo'shimcha bilimlar olinadi.

Muammoli ma'ruzalarga quyidagilar kiradi:

ma'ruza-dialog,

ma'ruza-munozara, va boshqalar.

Muammoli amaliy va seminar mashg'ulotlari turli shakllarda o'tkazilishi mumkin, masalan: mavzuning individual masalalari bo'yicha munozaralar shaklida; munozara, debat (qo'shimcha o'quv materialini mustaqil o'rganishni talab qiladigan) shaklida; barcha o'quvchilarning diqqatini faollashtiradigan va dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadigan tezislarni himoya qilish shaklida; kelajakdagi o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradigan kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilish shaklida; mutaxassislarni tayyorlashning faol usuli bo'lgan ishbilarmonlik o'yinlari shaklida, chunki ular tadqiqot, o'qitish va ta'limning ayrim shakllaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan amaliy mashg'ulotlar loyiha usuli asosida tashkil etilishi kerak.

Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchisining kreativligi, bu uning qat'iy chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil haqiqiy g'oyalarni izlab topish layoqatidir. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativ bo'lishi uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqat qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Buning uchun bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari doimo o'z ustida tinimsiz ishlar olib borish shu bilan birgalikda kreativ insonlar bilan yaqindan suhbatlar olib borish kreativlik qobiliyatlarini o'zida shakllantirish kerak. Bu bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari uchun juda muhim bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilariga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Shuning uchun ham bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim masalalardan biri sanaladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagog alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda "pedagogning roli auditoriyada

kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Pedagog bo'lajak o'qituvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Pedagogning bo'lajak o'qituvchilar berayotgan kreativ g'oyalari nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi pedagogtalaba munosabatining muhim qismi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Har bir bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchisi ijodkor bo'lishi va har bir dars davomida ham ijodkor bo'lishi kerak. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi. Texnologiya fani o'qituvchilarini o'z kasbining bilimdoni qilib tayyorlashda oliy o'quv yurtlaridagi talabalar ilmiy tadqiqot ishlari metodologiyasini yaxshi yo'lga qo'yish katta rol o'ynaydi. Bunday ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy jihati hisoblanadi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tadqiqotchilik ko'nikmalarining o'рни muhim. Bularga nazariy o'rganish, kuzatish, muammoni qo'ya bilish, faraz qilish, farazdan kelib chiqib reja tuzish, tajriba o'tkazish, tajriba natijalarini olish, farazga nisbatan tajriba natijasini taqqoslash, nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, amalda qo'llab ko'rish kabilar bilan bog'liq ko'nikmalar kiradi. Aytilganlarning ba'zilari fan asoslarini o'rganishda, ba'zilari amaliyot jarayonida, yana boshqalari izlanish ishlari orqali shakllanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining faoliyatida, muammoni qo'yish uchun tadqiqot vazifasi birinchi o'ringa o'tishi maqsadga muvofiq, chunki unda bajariladigan ishning maqsadi va unga bo'lgan ehtiyoj o'z aksini topadi.

Har bir bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qibo'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi.

Bunda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala

yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.[6]

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda tez suratlarda rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida ko'zga tashlanmasada, biroq bu holat kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llabquvvatlash;

2) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari ning qiziqishlariga e'tibor qaratish

XULOSA: Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari doimo ijodkor bo'lishi kerak shundagini o'z fanining ustasi bo'ladi. Ta'lim jarayonida ham ularni kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratib berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Жураев Х. О., Хамдамова Н. М. Использование альтернативных источников энергии в образовании //Современные гуманитарные исследования. – 2015. – №. 3. – С. 102-105.

2.Каххоров С. К., Жураев Х. О., Хамдамова Н. М. Использование учебных материалов по источникам альтернативной энергии в интеграции на уроках физике //Инновации в науке. – 2019. – №. 5 (93). – С. 17-24.

Khamdamova N. USING OF ALTERNATIVE ENERGY SOURCES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY.

3. Khamdamova N. M. Bukhara State University PhD student of the Department of Physics e-mail: nozimakhamdamova87@ gmail. com // ALLAYAROV SARDOR FRUNZEYEVICH, YUSUPOVA INDIRA RUSTAMOVNA // THE IMPORTANCE OF FINANCIAL LITERACY IN SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN.....

42. – С. 4.

4. Kh J. et al. Developing students' technical creativity through comparative energy sources devices // Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking. – 2021. – Т. 24. – №. 12. – С. 819-825.

5. Muqimovna K. N. DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS IN PHYSICS LESSONS USING DEVICES OF ALTERNATIVE ENERGY SOURCES // American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 4. – С. 27-30.

6. Muqimovna K. N. DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS WITH THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 7. – С. 44-49.

7. Xayrulla D., Saidjon U., Azamat M. DEVELOPMENT OF LIGHTING CONTROL SOFTWARE FOR “SMART CLASS” // Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – С. 18-21.

8. Sunnatula o'gli M. A. et al. TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI // World scientific research journal. – 2022. – Т. 4. – №. 2. – С. 28-33.

9. Yuldoshev, S., Savriev, S., Murtazoyev, A., & Khojiev, S. (2022). NUMERICAL SIMULATION OF THREE-DIMENSIONAL TURBULENT JETS OF REACTING GASES. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 2(6), 73-82.

10. qizi Bakhtiyorova, S. I., & Sharopova, M. F. (2021, April). "IMPROVING THE TEACHING PROCESS OF MATERIALS SCIENCE ON THE BASIS OF FOREIGN EXPERIENCE. In E-Conference Globe (pp. 46-48).

11. Бахтиёрва, С. И. (2021). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ. Наука, техника и образование, (2-2 (77)), 80-83.

12. Bakhtiyorova, S. I., & Namroyeva, X. Y. (2022). Methods of Teaching Materials Science on the Basis of Innovative Educational Technologies. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 7, 133-136.

13. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИНАДИГАН ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.

**QUROQCHILIK VA KASHTACHILIK HUNARMANDCHILIGI
MAKTABLARI TARIXI, RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY
YO'NALISHLARI**

Hakimova Sharofat Abdusattorovna

*Buxoro davlat Pedagogika Instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (texnologik ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada quroqchilik va kashtachilik hunarmandchiligi maktablari tarixi, rivojlanishi va zamonaviy yo'nalishlari haqida shuningdek, kashta va quroq tikish san'ati tarixi va rivojlanish bosqichlari to'g'risida keng ma'lumot beriladi. Xalq hunarmandchiligining ahamiyati haqidagi muhim g'oyalar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: quroqchilik, kashtachilik, hunarmand, hunarmandchilik, quroq tikish san'ati, kashtado'z, zamonaviy kashtado'zlik, zamonaviy quroqdo'zlik.

KIRISH. Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, mas, paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlikgma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqa rivoj topgan.

ASOSIY QISM. Olimlarning fikriga ko'ra, quroq tikish san'ati Angliyada paydo bo'lgan. Bunga asosiy sabab go'zallikka intilish emas, balki oddiy iqtisodiyot edi. Gap shundaki, 16-asrda Hindistonning g'ayrioddiy rangbarang va yorqin matolari Angliyada juda mashhur edi. Ammo yuqori narx tufayli ushbu material faqat jamiyatning imtiyozli va boy qatlamlari uchun mavjud edi. Ko'p o'tmay, elita matolarini olib kirishga taqiq e'lon qilindi va bu katta tanqislikka aylandi. Shuning uchun, eng tejamkor uy bekalari modaga moslashish uchun chiroyli matodan iloji boricha tejamkor foydalanishga harakat qilishdi. Shu tarzda bir vaqtning o'zida bir nechta bo'laklarni birlashtirgan, rangi bilan farq qiladigan mahsulotlar paydo bo'ldi. Keyinchalik asl mato buyumlari jamiyatning barcha qatlamlari orasida mashhur bo'ldi - boy va kambag'al insonlar ham ushbu matolardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Va endi bu san'at Amerika materigiga tushadi va o'zgaradi, kvilingga aylanadi. Agar quroq tikish san'ati turli o'lchamdagi va rangdagi bir nechta mato bo'laklarini bir qatlamga oddiy tikishni ta'minlasa, unda paydo bo'lgan yangi san'at turli xil tuzilishdagi (kamida uchta) bir nechta qatlamlardan mahsulotlar yaratishni o'z ichiga oladi. Hajmi, dabdabasi va qatlamlari - bu mato mozaikasining Amerika texnikasining asosiy xususiyatlari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Qoidaga ko'ra, mahsulotlarni bir necha bosqichda - astar qatlami, yam-yashil qatlamli material va ko'p rangli kombinatsiyalardan yig'ilgan rangbarang bezaklar tayyorlash odatiy holga aylana boshlandi.

Quroq tikish san'ati tarixi juda uzoq vaqtlarga borib taqaladi. Masalan, Qohiradagi Buloq muzeyida eramizdan avvalgi 980 yilga oid hayvon terisi bo'laklaridan yasalgan bezak namunasi mavjud. Tokio kostyumlar muzeyida turli matolardan yasalgan naqshlar bilan bezatilgan Edo Mayoma davri (1569 - 1867) kiyimlari namoyish etiladi. Miloddan avvalgi IV - IX asrlarda ma'badga (qadimgi ipak yo'lida joylashgan ming Budda g'origa) ko'tarilgan ziyoratchilar u yerda kiyimlarini qoldirib ketishgan. Ma'badning ruhoniylari ko'p odamlarning ziyoratini eslatuvchi bu kiyim bo'laklardan gilam yasadilar. Ushbu gilam faqat 1920 yilda arxeolog ser Artur Shtayn tomonidan topilgan. Sharq va

sirli Vizantiyaning yumshoq ranglarida yasalgan Petsam monastirida (19-asr) g'ayrioddiy go'zal dekorativ qoplama saqlanadi. 1540 yil may oyida Genrix VIII (ingliz) ning xotinlaridan biri Ketrin Xovard to'y oldidan qirolning marhamati belgisi sifatida qirollik shkafidan 23 ta quroq namunasi tushirilgan libos oldi. Londondagi yorgan muzeyida Amerikaga birinchi ko'chmanchilarning xotinlari tomonidan yaratilgan ajoyib buyumlar mavjud. Sharqda ayollar juda qat'iyatli bo'lib, quroq ishlari Evropaga, ehtimol salib yurishlaridan keyin, ritsarlar Falastindan kubok bayroqlari, bannerlar, gilamlarni olib kelishganida paydo bo'lgan va g'ayrioddiy chiroyli bo'lgan. 18-asrda Angliya, Gollandiya va Germaniyadan kelgan muhojirlar Shimoliy Amerikaga kela boshlaganlarida, ular kelganlarida og'ir ahvolga tushib qolishdi. Unga yangi kiyim yoki mato sotib olishga pul ham yetmagan. Ammo ayollar bu vaziyatlardan chiqish yo'lini topdilar. Eski kiyimlarning yaxshi joylarini yig'ilib, kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak, choyshab, gilam va boshqalarni tikishda ishlatilgan. Bunday ish o'z uyidan, ildizidan uzilgan odamlarni birlashtirdi. Va paydo bo'lgan ishtiyoq va ilhom haqiqiy asarlar yaratishga imkon berdi. 13-asrda Asta-sekin quroq tikish san'ati Amerika xalq san'atining ifodasiga aylanadi, turli qoidalar, naqshlar, turlar va usullar paydo bo'ladi. Quroqchilik an'analari nafaqat unutilib qolmadi, balki asosan missionerlar tufayli Osiyo, Kanada, Avstraliya, Hindiston, Gaiti, Gavayi orollariga kirib bordi. Biroq, hamma joyda u sof milliy xususiyatlarga ega bo'la boshlaydi. Rossiyada yamoqli choyshablar X-XI asrlarda paydo bo'lgan. Ko'rpalar har doim eski kiyimlardan tikilganiga qaramay, ular ma'lum darajada hashamatli edi. Axir, tabiiy materiallardan tayyorlangan kiyimlar uzoq vaqt davomida kiyilib, avloddan-avlodga o'tib kelgan.



O‘zbek milliy kashtado‘zlik xalq hunarmandchilik san’atining eng qadimiy turlaridan bo‘lib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro‘zg‘or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo‘llaniladi.



2-rasm. Kashtado‘zlik san’ati namunasi

Kashtachiligimiz san’ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O‘zbek chevar ustalari qo‘llari bilan tikilgan kirpich, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg‘ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san’at muzeylarida ko‘p namunalari to‘planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Kashtado‘zlik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san’atning ta’siri katta bo‘lgan. XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalari aks ettirilgan. XII asrga

mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san'atining ta'siri ko'zga tashlanadi. Xitoyda XIV asrdan "syuxua" (ignali tasvir) nomi bilan mashhur bo'lgan kashtali namoyonlar uslub jihatdan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqin. Yevropada Kashtado'zlik Uyg'onish davrida yuqori pog'onaga ko'tarildi. Davrning buyuk rassomlari (Perujino, Bottichelli) kabilar kashtado'zlar uchun andazalar tayyorlab berishgan, bu esa kashtalarning badiiyligini oshirgan. Kashtado'zlikda qimmatbaho toshlardan ham foydalanilgan, ip, jun, ipak, zar va kumush suvi berilgan iplar ishlatilgan. XVIII asr da Yevropada aslzodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayyorlangan. Kashtado'zlik buyumlari keng tarqalgan. XIV-XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar Kashtado'zlikning qadimdan keng rivojlanganini ko'rsatadi. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod "Zafarnoma" qo'lyozmasiga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan. Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi o'zbek kashtado'zlarining katta san'atidan dalolat beradi. Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand Kashtado'zlik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok bilan, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar Kashtado'zlik an'analariga, mahsulotning turlariga ta'sir ko'rsatgan.

XULOSA. O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur va ma'lum bo'lgan nafis san'at maktablarining noyob an'analarini avaylab asrash o'rganish, boyitib borish, milliy tasviriy, amaliy, miniatyura san'atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, nafis san'atlar sohasidagi ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini barpo etish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, akademik ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etildi.(1997 yil 23-yanvar). "Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1997 yil 31-mart)

qaror milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi va Amaliy san'atning ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'alarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazirova N., Ortiqova O. QUROQCHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISHI //Fiziko-texnologik ta'lim. – 2021. – yo'q. 5.

*Namangan davlat universiteti Hayot faoliyati
xavfsizligi kafedrasida stajyor-o'qituvchisi*

Nuraliyev Abdulhamid Oybek o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqola yurtimizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni oldini olishda xorij tajribalarini o'rganish hamda ularni samarali tomonlarini tatbiq etishga bag'ishlanadi.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению зарубежного опыта предотвращения чрезвычайных ситуаций, связанных с высокотоксичными веществами, которые могут возникнуть в нашей стране, и реализации их эффективных аспектов.

Annotation: This article is devoted to the study of foreign experiences in preventing emergency situations related to highly toxic substances that may occur in our country and to the implementation of their effective aspects.

Kalit so'zlar: Avariya, favqulodda vaziyat, kimyoviy modda, shaxsiy himoya vositasi, obyekt.

Ключевые слова: Авария, чрезвычайная ситуация, химическое вещество, средства индивидуальной защиты, объект.

Key words: Accident, emergency situation, chemical substance, personal protective equipment, object.

Kirish. Hozirgi kunga kelib, kimyo texnologiyasining takomillashuviga qaramay, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq bo'lgan avariylarning sodir bo'lish xavfi ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, ushbu avariylar nafaqat KTZMLar ishlab chiqarish va qo'llash jarayonida, balki ularni saqlash va tashish jarayonida ham sodir bo'lmoqda. Dunyo hamjamiyati ham bunday avariylarga bir necha bor guvoh bo'lgan. Jumladan, 1979 yilning noyabr oyida Ontario (Kanada) viloyatida xlor, stirol, propan, toluol va boshqa zaharli moddalar oratilgan poezd halokatga uchradi. Buning natijasida 6 kun davomida 200 ming kishilik aholini evakuatsiya qilishga to'g'ri keldi.[7]. 1966 yili Gorkiy (Rossiya) shahridagi kimyo zavodida avariya oqibatida 27 t $S1_2$ gazi havoga tarqalganligi natijasida 6000 kishi evakuatsiya qilinib, 1500 kishi har xil dozada zaharlanganligini eslatib o'tish mumkin[4]. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, KTZMning atmosferaga chiqib ketishi juda og'ir oqibatlarga olib keladi. Shu sababli ham so'ngi yillarda KTZM lar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholi havfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda[3].

Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar: Atrof-tabiiy muhitga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya hududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar[5].

Bugungi globallashuv davriga kelib, aholini barcha turdagi favqulodda vaziyatlar, jumladan kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda. Bunga erishishning eng samarali usullaridan biri bu soha bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda ular orasidan eng maqbullarini milliy tizimga joriy etishdir[9].

Rossiya Federatsiyasi tajribasi: Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq avariya sodir bo'lganda aholini va hududlarni muhofaza qilishning quyidagi chora-tadbirlari amalga oshiriladi [8]:

1. Atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kimyoviy xavfli ob'ektlarda favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda yuqori tayyorgarlik rejimi joriy etiladi.

2. Rossiya Federatsiyasi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish yagona davlat tizimining *boshqaruv organi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va kimyoviy xavfli ob'ektlar xodimlarini, ularga tutash hududda istiqomat qiluvchi aholini muhofaza qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi va zarur qarorlar qabul qiladi, ular asosida "Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tadbirlar rejasi" belgilanadi.*

3. Kimyoviy xavfli ob'ektlar va unga tutash hududlar bo'yicha:

navbatchi-dispatcherlik xizmati;

atrof-muhit holatini kuzatish va nazorat qilish vositalari;

ob'ektlarni muhofaza qilish kuchlari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalarini yuqori tayyorgarlik rejimiga o'tkaziladi va zarur hollarda bashoratlangan favqulodda vaziyat maydoniga ko'chiriladi.

4. Tezkor xabar berish tizimining shayligi tekshiriladi.

5. FV xavfi to'g'risida aholi xabardor qilinadi. Hudud aholisi shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanadi. RFVT (RSCHS) boshqaruv organi rahbarining qaroriga binoan aholi oldindan tayyorlab qo'yilgan, germetiklangan binoga evakuatsiya qilinadi yoki jamoaviy himoya inshootlariga yashiriladi.

Belorussiya Respublikasi tajribasi: Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholi havfsizligini ta'minlash

bo'yicha, kimyoviy xavfli korxonalarda olib boriladigan muhandislik-texnik tadbirlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariylar natijasida moddiy va sanitar yo'qotishlarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, quyidagilardan iborat [9]:

1. favqulodda vaziyat yuzaga kelganda kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishini oldini qurilmalarni (o'chirish klapanlari, yuqori bosimli klapanlar, haroratni sozlash moslamalari va boshqalarni) o'rnatish;

2. kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar saqlanadigan omborlarni yer ostiga qurish;

3. kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarni ushbu turdagi moddalarni saqlash uchun moslashtirilgan omborxonalariga joylashtirish;

4. avariya va avariya signallarini aniqlash uchun binolar va sanoat maydonchalarini statsionar tizimlar bilan jihozlash.

Korxonalar xodimlari va aholini o'z vaqtida xabardor qilish talofatlar ehtimolini kamaytiradi. Shu maqsadda, kimyoviy xavfli korxonalarda va uning atrofida, korxonalar xodimlari va yaqin atrofdagi aholi uchun mahalliy xabar berish tizimi yaratilmoqda.

Qozog'iston Respublikasi tajribasi: Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha, aholini kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ta'siridan himoya qilishning asosiy usullari [6]:

1. shaxsiy nafas olish organlarini himoya qiluvchi vositalardan foydalanish;
2. fuqaro mudofaasining muhofaza inshootlaridan foydalanish;
3. turar-joy va sanoat binolariga aholini vaqtincha yashirish;
4. zararlanish ehtimoli bo'lgan hududlardan aholini evakuatsiya qilishdan iborat.

Natija va mulohazalar. Barchamizga ma'lumki, favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra, ularning oldini olish anchayin kam mablag' yo'qotishlar talab qilinadi. Shuni inobatga olgan holda, aholi xavfsizligini ta'minlashning eng samarali usullaridan biri ushbu turdagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish hisoblanadi. Tadqiqot olib borish jarayonida xorijiy davlatlarning *soha bo'yicha boy tajribasini o'rganish, o'zimizdagi mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish*, sohaga doir milliy va xorijiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, internet resurslari, ko'plab ilmiy-amaliy jurnallardan olgan natijalarni tahlil qilgan holda kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni oldini olish, yuzaga kelgan taqdirda ularning zararlovchi omillaridan aholini muhofaza qilish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz:

- KTZM bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar asosan kimyoviy xavfli ob'ektlarda sodir bo'lib, bunga ob'ektning noqulay joylashuvi asosiy sabablardan biri hisoblanadi. SHuni inobatga olgan holda kelajakda qurilishi rejalashtirilayotgan, o'zida KTZM ishlatadigan, saqlaydigan, tashiladigan korxonalarini shamol yo'nalishini hisobga olgan holda, seysmik faol bo'lgan hududdan holi zonaga qurish, avval qurilgan korxonalarda olib boriladigan nazorat ishlarini yanada kuchaytirish;

- avariylarni avtomatik to'xtatish tizimini joriy etish, shuningdek ob'ektning xususiyatlaridan kelib chiqib xodimlarni favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga o'rgatish;

- kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar oqibatlarini kamaytirishning eng samarali usuli KTZMni texnologiya uchun eng kam kerak bo'ladigan miqdorga tushirish;

- zaharli moddalar ajralishini texnologik jarayonlarda bartaraf etish. Bunda zaharli moddalarni zaharliligi kamroq moddalar bilan alishtirish yoki umuman havoga zaharli moddalar ajralishi uchun sharoitni qirqadigan yangi

texnologiyalarni joriy qilish mumkin. Masalan, metallarni qo'rg'oshin vannalari o'rniga yuqori chastotali toklar bilan toblash va boshqalar;

- ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq mexanizatsiyalashtirish, ya'ni kimyo zavodlarida idishlarni zaharli moddalar bilan to'ldirish, filtratsiyalash va quritish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish. Natijada qo'lda bajariladigan ishlar yo'qolib, korxonada xodimlarining mehnati osonlashadi, havo muhitini yaxshilaydi, ishchilarni zaharli moddalar bilan muloqotda bo'lishini chegaralaydi;

- nafaqat kimyoviy xavfli ob'ektlarni, balki barcha potensial xavfli ob'ektlarni oliy ma'lumotga ega, malakali kadrlar bilan to'ldirish. Xorijiy tillarni biladigan, sohaga innovatsion yangiliklarni olib kirishga intilayotgan hodimlarni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish;

- avariyalarda KTZMni ob'ekt sanitar himoya zonasidan tashqariga chiqishini chegaralashga xizmat qiluvchi, jahon standartlariga javob beradigan yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish;

- xavfli hududlarda istiqomat qiluvchi aholini va kimyoviy xavfli ob'ekt xodimlarini shaxsiy himoya vositalari bilan to'liq ta'minlash maqsadida ularni mahalliy xomashyolar asosida respublikamiz hududida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. SHunda ularning tannarxi arzonga tushadi, xavfli ob'ektlar rahbariyatida esa yetarlicha SHHVni sotib olish imkoniyati tug'iladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunga kelib, yurtimizda sanoatning zamon bilan hamnafas rivojlanib borishi va ishlab chiqarish jarayonida turli tuman texnika, texnologiya hamda kimyoviy moddalarning keng qo'llanilishi kuzatilmoqda. Buning natijasida kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq bo'lgan avariylarning sodir bo'lish xavfi ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, ushbu avariya nafaqat kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ishlab chiqarish va qo'llash jarayonida, balki ularni saqlash va tashish jarayonida ham sodir bo'lmoqda[2].

Aholini muhofaza qilish choralari imkon qadar oldindan ko'rilishi, avariya xavfi tug'ilganda esa mumkin qadar eng qisqa muddatda amalga oshirilishi lozim. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchiidan, Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish jarayonida sharoit to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, yuzaga kelgan vaziyatni oqilona baholash, to'g'ri qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchiidan, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilganda, favqulodda vaziyatlar davrida ma'lumotlarni tezkor yig'ish va tahlil qilishni tashkillashtirish shtab boshlig'i va joydagi boshqaruv organlariga barcha tUSDagi favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni rejalashtirishda yordam ko'rsatadi.

Uchinchiidan, zaharli gazlar ishlatiladigan sexlardagi eskirgan gazanalizator, signalizator kabi havo tarkibini nazorat qiluvchi asboblarni bosqichma - bosqich zamonaviy tiplariga almashtirish va ularning sozligini doimiy nazorat qilib boorish aholi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchiidan, favqulodda vaziyatlar vaqtida boshqaruv tizimiga GATning qo'llanilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Beshinchiidan, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish harakatlarini rejalashtirish va qarorlar qabul qilishni tezkorligini ta'minlash, ishlarning samaradorligini oshirishda maxsus dastur tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abidova F.A., Abidov A.B. "Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning hususiyatlari". - O'zR FVV FMI: 2013 y. – 530 b

2. A. Boymirzaev, R. Bakirov, A. Dehqonov “Radioaktiv moddalar, ular bilan bog’liq favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilarning harakatlari”. Uslubiy qo’llanma – T.: 2017y. 123 b
3. С.В.Белов и др. «Безопасность жизнедеятельности». Москва, 1999 г. 65 с
4. Nigmatov I., Azimov A., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi fanidan amaliy mashg’ulotlar. Uslubiy qo’llanma. TDTU, 2015 y. 90 b
5. O.Qudratov, T.G`aniev. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. Toshkent, 2004 y. 56 b
6. O.R.Yuldashev,SH.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:“Toshkent-Iqtisodiyot”,2014. 134 b.
7. Turagalov T.J., Ilyosova Z.F. “Favqulodda vaziyatlar”. (qisqacha ruscha-o'zbekcha ensiklopedik izohli lug'at). – T.: FMI. 2016 y. – 220 b.
8. <https://azkurs.org/uzbekiston-respublikasi-sogliqni-saqlash-vazirligi-u-x-xasanov.html?page=35>
9. <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/153/47>
10. <https://lex.uz/docs/-5754355>

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ
АКТИВНОСТИ СЛАБОУСПЕВАЮЩИХ УЧЕНИКОВ В
НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

Абдуллаева Насиба Толибовна

Школа 54, г.Самарканд

Учитель начальной школы

Аннотация: в процессе овладения знаниями ведущим фактором считается интеллектуальное развитие учащегося. С учетом интеллектуального развития ученика мы выделяем два взаимосвязанных звена: процесс мышления – анализ, повторное сложение, сравнение, разделение на группы, изучение сущности процессов обобщения. Изучение сущности процессов мышления является одним из основных факторов, ведущих к ассимиляции детей. В данной статье изучается совершенствование системы повышения активности слабоуспевающих учеников в начальной школе.

Ключевые слова: критическое мышление, скорость мышления, знания, навыки.

**IMPROVING THE SYSTEM OF INCREASING THE ACTIVITY OF
UNDERACHIEVING STUDENTS IN PRIMARY SCHOOL**

Abstract: in the process of mastering knowledge, the leading factor is considered to be the intellectual development of the student. Taking into account the intellectual development of the student, we distinguish two interrelated links: the process of thinking - analysis, repeated addition, comparison, division into groups, the study of the essence of generalization processes. The study of the essence of thinking processes is one of the main factors leading to the assimilation of children. This article examines the

improvement of the system of increasing the activity of underachieving students in primary schools.

Keywords: critical thinking, speed of thinking, knowledge, skills.

Усвоенные знания о процессах мышления воспитывают у учащихся в каждом учебном материале их способность различать главные и второстепенные признаки. Ученик, умеющий различать основные и второстепенные признаки учебного материала, может распознать его, то есть изучаемый учебный материал, среди огромного количества тем. Ведь умение различать главные и второстепенные признаки изучаемого объекта также свидетельствует о развитии развитого мышления; воспитание мыслительных качеств у детей – самостоятельное определение его цели в данном образовательном состоянии, критическое мышление, выбор подходящего термина, сокращение или сокращение их мыслей, выражение отношения, скорость мышления и т.д. - являются атрибутами мыслительного процесса.

Квалификация воспитательной работы разнообразна: составление плана (решаемый вопрос, выполняемое упражнение, подготовка плана для письменного заявления или эссе, планирование собственной повседневной деятельности); контроль результатов самостоятельной и другой деятельности или управление воспитательной работой, выполняемой в вычислительных процессах: контроль результатов учебной работы.

Усвоение по своей сути является комплексной проблемой по своему общечеловеческому содержанию и представляет собой явление, связанное с экономическим положением общества, политическим, образовательным, культурным уровнем граждан страны, знанием школьными учителями современных методов, средств обучения, стремлением и интересом молодежи к науке, технике.

Когда наша Родина обрела независимость, она столкнулась с реальным экономическим развитием: из года в год улучшается благосостояние, благосостояние народа, стали заметны позитивные сдвиги в экономических показателях. В результате проведенных мероприятий в деятельности педагогов произошли творческие изменения: педагогическая технология стала занимать достойное место в практической деятельности педагогов, в образовательный процесс вошли интерактивные методы, в опыте передовых педагогов проблема овладения учебными предметами стала хоть и постепенно, но заметной. Например, узбекские дети участвуют в мировых олимпиадах и занимают почетные места, накоплен опыт выделения грантов узбекской молодежи на обучение в вузах развитых стран. Радикальные изменения в экономическом развитии нашей страны, в мышлении членов общества, в педагогических навыках педагогов, в стремлении молодежи к науке и технологиям создали условия для развития технологий.

В общеобразовательных школах дети изучают общие основы современной науки, техники, технологии, мышления, знакомятся с принципами производства. Общее среднее образование является обязательным, хотя и общим для всех учащихся, оно приобретает каждым из школьников на уровне их индивидуальных способностей. Несмотря на однообразие содержания информации, предлагаемой учащимся, и требований к ее изучению, в усвоении детьми появляется разнообразие. Представьте себе: одно и то же сырье, несмотря на одни и те же требования и стандарты, подрывает рыночную деятельность, когда производственные предприятия начинают производить потребительские товары разного качества. Это в конечном итоге приведет к экономическому упадку общества.

В педагогических исследованиях в центре внимания исследователей стоял вопрос о том, как все учащиеся учит с высокими результатами. В

соответствии с этим была предпринята попытка обосновать систему образования, обеспечивающую достижение детьми высоких результатов в овладении.

Пропагандисты метода обучения исходили из того, что разнообразие методов обучения зависит от разнообразия способностей учащихся к обучению. Действительно, в школах одного типа, например, в начальных классах или в общеобразовательных школах, изучается содержание информации одинаковой сложности и сложности, программа и учебники также практически идентичны, выделены одни и те же учебные часы, образовательное обеспечение и гигиенические условия в классном коллективе одинаковы для всех учащихся, продолжительность обучения (например, в США начальная школа состоит из 6 учебных лет), средства и методы, организационные формы. Несмотря на это сходство, знания, умения и навыки учащихся, формирующих классный коллектив, опыт творческой деятельности и эмоциональная оценка явлений природы, общества, сознания различны.

Образовательный процесс: имеющий целостность; обеспечена связь между компонентами; система действий адаптирована к среде освоения; наивысший результат достигается в тех случаях, когда организационные формы управляются по принципам оптимизации.

В дидактических исследованиях, проведенных Ю.К. Бабанским, предупреждение детей от неуспеваемости анализировалось как комплексная проблема. Он разделил учащихся, не успевающих в освоении, на 8 типов: 1-й тип – от переутомления не успевающих; 2-й тип - недостаточно развитые мыслительные процессы; 3-й тип-не овладевшие способами учебного труда; 4-й тип - не обладающие положительным отношением к учебе; 5-й тип - не придерживающиеся сознательной дисциплины; 6-й тип - не усвоившие ранее пройденный учебный материал; 7-й тип - подверженные негативному влиянию семьи, окружающих людей, детей,

встречающихся на улице, 8й тип - воспитанники, не успевающие в вакууме педагогического воздействия.

Ю.К. Бабанский пишет, что дети не успевают усвоить учебные материалы по следующим причинам:

1) дети с явлениями слаборазвитого мышления. 27% дети отстают в обучении, у них менее развиты формы мышления - анализ, сложение, сравнение, обобщение, самостоятельное мышление;

2) дети с крайне низким уровнем навыка учебных задач, слаборазвитые дети составляют 18%. Это проявляется в том, что в деятельности учащихся сильна

склонность к таким негативным качествам, как медлительность, неорганизованность, неуправляемость;

3) 14% учащихся, у которых сформировано негативное отношение к учебной работе, равнодушны к учёбам, выполняемой в классе и дома, к процессам усвоения, к взаимоотношениям ученика и учителя;

4) 13% учеников, которые не могут айти общий язык с родителями в семейных отношениях, с одноклассниками в школе, с окружающими. Такие ученики упрямы, настойчивы во взаимодействии, у них преобладают негативные аспекты;

5) усвоенные знания составляют 11% учащихся со слабой сформированной квалификацией, большим количеством дефектов. К ним относятся слабые, дефектные участки знаний, затрудняющие усвоение последующих тем;

6) ученики с плохим здоровьем, которые быстро устают, составляют 9%. Они быстро утомляются в процессе учебной работы, при выполнении интеллектуальных заданий;

7) недисциплинированные ученики составляют 8%, которые не могут контролировать свои стремления и учебную деятельность, концентрируясь на изучении того или иного предмета.

Очевидно, что для того, чтобы учащиеся овладели учебным материалом, необходимо рациональное использование эффективных методов, а также творческий подход.

Список литературы / References

1. *Элибоева Л.* The role of morals in the upbringing of children in the family / SCOPE ACADEMIC HOUSE.11-International Conference "Science and practice: a new level of Integration in the modern world". Novembr 30, 2020. Sheffield, UK. Conference Proceedings. Page 6-8.

2. *Элибоева Л.* Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish/ Pedagogik mahorat. Nazariy va ilmiy metodik jurnal. Buxoro, 2021.№ M/S. B. 37-41.

3. *Элибоева Л.* Виды неуспеваемости учеников и меры по их устранению / MODERN

SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: a collection scientific works of the International scientific conference (7-9 October,2021) Warsaw: "Iscience", 2021. Page 69-72.

4. *Элибоева Л.* Повышение активности учащихся начальной школы / Наука, образование и культура. Научно-теоретический журнал. Москва. № 9(53), 2020. Ст. 23-25.

5. *Исмоилова М.Н., Султонова З.Ш.* Требования к методике обучения // Ученый XXI века. № 3-2 (38), 2018. С. 84-88.

6. *Исмоилова Махсума Нарзикуловна, Имомова Шафоат Махмудовна.*

**O'RTA SINIF O'QUVCHILARINI MAZMUNGA ASOSLANGAN
O'QITISH ORQALI INGLIZ TILINI O'RGANISHGA UNDASH**

Yahyoyeva Odinaxon Nu'monjon qizi

SamDCHTI, Xorijiy til va adabiyot yo'nishi magistranti

Annotatsiya Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning erkin fikrlashi, nutqiy teranliklari, hozirjavobliklari, til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi, darslarda faol qatnashishlari uchun o'qituvchi muallimlar tomonidan ilgari surilayotgan zamonaviy usullar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, grammatik, leksik birlik, fonetik o'zgarishlar, boshlang'ich ta'lim.

Abstract This article discusses innovative approaches to teaching English in secondary schools, modern methods put forward by teachers for students to think freely, depth of speech, responsiveness, passion for language learning, active participation in lessons. referred to.

Keywords: Innovation, grammatical structure, lexical unit, phonetic changes, primary education.

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu boyis, umumta'lim maktablarida bu tilni chuqurroq o'rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda. Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir. Ingliz tili jahon tili sifatida deyarli barcha

sohalarda eng kerakli til sifatida namoyon bo'lmogda, shu sababli nafaqat boshlang'ich sinflarda, iqtisodiy, fan, va madaniy jihatdan rivojlangan davrlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili ekanligini to'liq anglagan holda yuqori sinf o'quvchilari doirasida ham kasb tanlashlarida albatta tilning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshqa sohalar singari til o'rganish ham o'quvchi yoshlarning zehni bilan birgalikda yosh davrlariga ham bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kichik yoshli bolalarda til o'rganishga bo'lgan xohish-istak juda yuqori, ayniqsa hozirgi axborot kommunikatsiya vositalari bilan bu holat yuqori ko'rstkichlarni ko'rsatmoqda. Davlatimiz tomonida maktablarda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv xonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan johzlanganligi, yosh bilimli kadrlar bilan ta'minlanganligi, maktab drslaridan tashqari mustaqil shug'illanish uchun barcha sinflar uchun online telekanallardagi televizion online darslarning tashkil etilganligi tahsinga sazovordiz. 1 va 2- sinf o'quvchilari tildagi grammatik, leksik, fonetik, birliklarni tushunmasliklari mumkin ammo multfilmlar, o'yinlar, rasmlar orqali tilni a'lo darajada o'zlashtirishlari mumkin. Shunga ko'ra grammatikada asosan ikki xil usuldan unumli foydalaniladi

- Inductive
- Deductive

Induktiv usulda o'quvchilarga avval grammatik qoidalar tushuntirilib so'ngra misollar orqali mustahkamlanadi. Bu usul ko'pincha yuqori sinf o'quvchilari uchun foydali. Masalan zamonlar, predloglar, artikllar yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'lum termenlar bo'lib ular gaplarda ega, kesim aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi gap bo'laklarini qo'yib gap tuza olishadi. Deduktiv usulda avval ma'lum o'yinlar, mashqlar orqali mavzu tanishtirilib, so'ngra qoidaga bog'lab tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ega, kesim, fe'l va boshqa birliklar haqida ma'lumotga ega bo'lmaganliklari sababli

ularga o'yinlar qo'shiqlar orqali mavzu tushuntirish samaraliroq. Masalan Can – ingliz tilida “qila olmoq” modal fe'li bo'lib qo'shiqlar handout materiallar orqali o'rgatiladi.

-Can you play football

-Can you phone call

-It is very easy

-Can you do it Nansy?

Psixologlar fikriga ko'ra yoshi katta insonlarga nisbatan bolalarda yangilikka qiziqish, o'qish, o'rganishga bo'lgan ishtiyoq 70-80% kuchliroq bo'lar ekan. Kundalik hayotimizda ham bajara ololmaydigan vazifalarni ham bolalar ogohlantirishlarga qaramasdan bajarib ko'rishga harakat qilishadi. Bir xillikdan juda tez zerikishadi shu sababli pedagog kadrlardan yangicha uslublarda, noan'anaviy tarzda darslarni tashkil etish, o'rganilayotgan xorijiy tilning muhitini to'liq yarata olish talab etiladi. Shunday ekan ustoz-muallimlar interfaol, innovatsion va qiziqarli usullardan foydalanib darslarni tashkil etishlari lozim. O'quvchilar bilan individual tartibda , guruhlarda va juftliklarda ishlashlarini joriy etishi turli musobaqalar ko'rinishida o'yinlar tarzida, rang-barang ko'rgazmali qurollardan foydalanilgan holda dars o'tishlari va har bir darsga albatta alohida tayyorgarlik ko'rib kelishlari talab etiladi. Bunday tipdagi darslaro tilga bo'lgan mehrni, ishtiyoqni oshiradi, nafaol o'quvchilarni faollashtiradi, o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni shakillantiradi. Raqobat esa yuksalishning poydevori.

MUHOKAMA

Ingliz tilini o'qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o'quvchining qay holatda ma'lumotni to'laqonli qabul qilishini nazorat qilish. Bir guruhdagi bolalarning o'y xayollari, fikrlashi, dunyoqarashi ma'lumotni qabul qilishi turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining xarakteri

xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini olib borishi kerak. Misol uchun, qaysidir o'quvchida ko'z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatdan shakillangan bo'lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish asosiy 3 yo'nalishda bo'ladi

- ✓ Visual learning- ko'rish orqali ma'lumotni eslab qolish
- ✓ Auditory learning -eshitish orqali ma'lumotni eslab qolish
- ✓ Kinaesthetic learning- harakatlar orqali ma'lumotni eslab qolish

Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o'qituvchi o'quvchilar bilan dars mobaynida, mashqlar bajarishda, rol playlar tayyorlashda, o'yinlar orqali mavzu tushintirilsa yoki tashkillashtirilsa sezilarni natija hosil qiladi va o'quvchida til o'rganishga motivatsiya beradi.

NATIJA

Quyida mana shunday mazmunli dars tashkil etishda darslarda foydalanishimiz muqim bo'lgan didaktik o'yinlar va pedagogik texnologiyalardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

❖ Kim tezroq-o'yin maqsadi writing-yozish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi:inglovchilarga gaplar yozilgan kartalar beriladi va kartadagi gaplarning so'zlari notartib joylashgan bo'ladi. Kim birinchi va to'g'ri tartibda joylashtirib yozsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yin ko'proq yuqori sinflarda samara beradi.

❖ Men kimman?- o'yin maqsadi speaking-gapirish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi: guruhdagi xohlovchi chiqib biror narsa yoki shaxsni nomini aytmasdan tasvirlaydi va qolgan o'quvchilar ta'rifga ko'ra kim yoki nimaligini topishi kerak. Bu o'yin nutqiy savodxonlikni oshiradi. Bu o'yin ko'proq boshlang'ich sinflarga xos.

❖ Davomiy hikoya-o'yin maqsadi vocabulary-so'z boyligini rivojlantirish. O'yinning borishi:sinf 2 guruhga bo'linadi va 2 turdagi hikoyalar yarim tayyor holatda beriladi va guruhlar o'z fantaziyalarigan kelib chiqqan holda hikoyani davom ettirib oxiriga yetkazadilar. Qaysi guruhda ko'proq yangi

so'z ishlatilsa shu guruh g'olib hisoblanadi. Bu o'yin o'quvchilarni bir-birlari bilan hamjihatlikda ishlashga o'rgatadi. Bu o'yin yuqori sinflarda yaxshiroq samara beradi.

❖ Noisy dictation-o'yin maqsadi grammatikani rivojlantirish. O'yinning borishi: Sinfdagi o'quvchilar bir biriga yuzma-yuz qilib joylashtiriladi va vaqt belgilanib bir vaqtda bir birlarini ham eshitib ham ro'parasidagi o'quvchining aytga so'zlarini ilg'ab to'g'ri yoza olishi kerak. Bu o'yin biroz shovqinli bo'ladi va aynan mana shu shovqin ularga hatto shunday vaziyatda ham so'zlarni ilg'ay olishni rivojlantirish imkonini beradi. Listening-eshitish texnikasini oshiradi. Ingliz tilida so'zlar eshitilganidek yozilmaydi, masalan speak-gapirmoq so'zida {ea} diftongi [i] tovushini beradi [spi:k]. Agar o'quvchi so'zlarni to'g'ri anglay olsa demak bu yaxshi natija. Bu o'yin boshlang'ich hamda yuqori sinflarda ham qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarida ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi.

REFERENCES

1. Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875sonli qarori.
2. Iriskulov A. T. va boshqalar Kids' English pupil's book 2-sinf- ToshkentO'zbekiston; 2014.
3. Hoshimov O'. H, Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o'qitish metodikasi- Toshkent-2003-yil.
4. <http://www.ziyonet.uz>. <http://www.pedagog.uz>.

**QON HAQIDA UMUMIY TASNIF HAMDA UNING BIOLOGIK VA
KIMYOVIY JIHATLARI**

Bahriddinova Zulfizar Bobomurod qizi

Buxoro Davlat Tibbiyot instituti Davolash ishi fakulteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ish qon va qon haqida umumiy tasnif shu bilan birgalikda qonning tarkibiy qismlari haqida yoritildi. Bundan tashqari qon bilan bog'liq. Bundan tashqari turli qon guruhlarining bir-biriga mos kelishi kelmasligi to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lasiz.

KALIT SO'ZLAR: gaz almashinuvi, nafas, suvtuz almashinuvi, kislota-ishqor, suyuq qism — plazma (55—60 %), smometr yoki krioskop asboblari, Eritrotsitlar, [hujayra](#)...

Qon — [odam](#) va umurtqali hayvonlarning qon aylanish sistemasida aylanib yuradigan suyuq to'qima; [hujayra](#) va to'qimalarga yetib borib, ularning hayot faoliyatini hamda fiziologik funksiyalarining bajarilishini ta'minlaydi. [Eritrotsitlarning](#) tarkibidagi gemoglobin Qonga qizil rang beradi. Qonning tarkibi, osmotik bosimi va aktiv reaksiyasi (rN) deyarli o'zgarmaydi. Qon organizmda xilma-xil vazifalarni bajaradi: u hujayralarga kislorod yetkazib beradi va karbonat angidrid gazini olib ketadi (nafas funksiyasi); ovqat hazm qilish a'zolaridan oziq moddalarni butun organizmga tarqatadi (oziq moddalarni tashish funksiyasi); moddalar almashinuvi mahsulotini chiqarish a'zolariga (buyrakka) olib boradi. Qon a'zolarining gumoral aloqasini yuzaga chiqaradi, u gaz almashinuvi, nafas, suvtuz almashinuvi, kislota-ishqor muvozanatida ishtirok etadi. Qonda antitoksinlar, lizinlar va antitelolar borligi, shuningdek, leykotsitlar mikroorganizmlar va yot jismlarni qamrab yutish xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli Qon organizmni zararli moddalar va yot jismlardan himoya qiladi. U gavda trasini doim bir maromda saqlashda muhim ahamiyatga ega.



Qon

Odamlarda 5,2 l cha Qon bo'ladi. Qon suyuq qism — plazma (55—60 %) va shaklli elementlar (40—45 %) dan tashkil topgan. Qonning shaklli elementlari Qon yaratish a'zolarida ishlanadi; Qon va qon yaratish a'zolari — Qon yaratish sistemasini tashkil etadi.

Qon maxsus mexanizmlar orqali regulyatsiya qilinadi, shuning uchun sog'lom odam qonining tarkibi o'zgarmaydi. Organizmdagi har qanday o'zgarishlarga nisbatan Qon javob reaksiyasi qaytaradi, ya'ni o'z tarkibini o'zgartiradi. Ayrim kasalliklarni, xususan, Qon sistemasini kasalliklarini aniqlashda Qon tarkibining o'zgarishi muhim ahamiyatga ega. Qon plazmasi vitaminlar, fermentlar, tuzlar va moddalar almashinuvining oxirgi mahsulotlarini saqlaydi. Plazmaga erigan oqsillar, jigar hujayralari va retikuloendotelial sistema hosil bo'ladi. Plazma oqsillari transport vazifasini bajaradi, kislota-ishqor muvozanatini tartibga solib turadi.

Qonning shaklli elementlari asosan eritrotsitlar, leykotsitlar va trombotsitlarlem iborat.

Qon tarkibidagi uglevodlarga glyukoza va uning almashinuv mahsulotlari kiradi. Qonda 80-100 mg % gacha glyukoza, shuningdek, glikogen, fruktoza va oz miqdorda glyukozamin bo'ladi. Uglevodlar va oqsillarning almashinuv mahsulotlari (glyukoza va boshqa monosaxaridlar, kislotalar, tuzlar

va suv) ichak kapillyarlaridan oqayotgan Qonga soʻriladi. Glyukozaning bir qismi aʼzo va toʻqimalarga tarqaladi, boshqa qismi esa jigarda glikogenga aylanadi.

Qondagi lipidlar aralashmasi neytral yogʻlar, erkin yogʻ kislotalari va ularning parchalanish mahsulotlaridan, erkin va bogʻlangan xolesterindan, shuningdek, steroid gormonlaridan iborat. Neytral yogʻlar, glitserin, yogʻ kislotalari ichak shilliq qavatidan Qonga qisman soʻriladi. Qon yogʻ emulsiyasini yog toʻqimalariga yetkazadi va u yerda zaxira holda saqlanadi. Qon tarkibida mineral moddalar (asosan, natriy va xlor) ham bor. Organizmning turli patologik holatlarida (kasalliklarida) Qonda qator oʻzgarishlar roʻy beradi, bu muhim diagnostik ahamiyatga ega. Qonning tuzilishi, funksiyalari, kasalliklari va u bilan bogʻliq boshqa masalalarni gematologiya fani oʻrganadi.

Qonning fizik-kimyoviy xossalari

Qonning solishtirma massasi suvnikiga nisbatan bir oz kattaroq — 1,050-1,060 ga teng. Qon plazmasining solishtirma massasi 1,025- 1,034, shaklli elementlarining solishtirma massasi 1,090 ga teng. Maʼlumki, suvning yopishqoqligi 1,0 deb qabul qilingan. Qonning yopishqoqligi 5,0 ga teng. Qonning yopishqoqligi suvnikiga nisbatan yuqori boʻlishi tarkibidagi oqsil moddalar va shaklli elementlar, ayniqsa, eritrotsitlar miqdoriga bogʻliq. Terlash, qusish va ich ketish natijasida odam organizmi koʻp suv yoʻqotsa, qon quyushadi, yaʼni plazmasining miqdori kamayib, shaklli elementlarining miqdori koʻpayadi. Bu esa qonning yopishqoqligi ortishiga sabab boʻladi. Qonning osmotik bosimi 7,6-S,1 atm ga teng. Uning 60 % ini qonda erigan natriy xlorid tashkil etadi. Osmotik bosim osmometr yoki krioskop asboblari yordamida oʻlchanadi. Qonning osmotik bosimi qon bilan h, ujayralar ichidagi va hujayralar tashqarisidagi suyuqliklarda suv va tuzlar almashinuvida muhim rol oʻynaydi. Osh tuzining 0,9 % li eritmasi odam va barcha issiqqonli

hayvonlar uchun fiziologik eritma bo'lib hisoblanadi. Bundan yuqori konsentratsiyali eritmasi qon uchun gipertonik, past konsentratsiyali eritmasi qonga nisbatan gipotonik eritmadir. Agar ozroq qon osh tuzining gipertonik eritmasi bilan aralashtirilsa, eritrotsitlar ichidagi suv eritmaga o'tadi, chunki eritmaning osmotik bosimi yuqori. Buning natijasida eritrotsitlar suvsizlanib, ularning hajmi kichrayadi va burishib qoladi. Aksincha, qon osh tuzining gipotonikeritmasi bilan aralashtirilsa, eritmadagi suv eritrotsitlar ichiga kiradi va ular shirshib yoriladi. Bu hodisa gemoliz deb ataladi. Qon osmotik bosimining nisbiy doimiyliги ayirish organlarining (buyraklar va teri) faoliyati orqali boshqariladi. Odam ko'proq shor'ovqat, tuzli ichimlik iste'mol qilganda, ko'p terlaganda qonning osmotik bosimi oshadi. Lekin buyraklar siydik ajratishi kamayishi tufayli ma'lum vaqtdan keyin qonning osmotik bosimi yana normaga keladi.

Universal donor deb ataladi (boshqalarga qon beruvchi odam donor, boshqalardan qon oluvchi odam retsipient deb ataladi). Ikkinchi guruh qonli odamlar ikkinchi va to'rtinchi guruh qonli odamlarga, uchinchi guruh qonli odamlar uchinchi va to'rtinchi guruh qonli odamlarga qon berishi mumkin. To'rtinchi guruh qonli odamlar faqat shu guruh qonli odamlarga qon berishi mumkin, lekin o'zi hamma guruhdan qon oladi. Shuning uchun ular universal retsipient deb ataladi. Bemorga qon quyish o'ta mas'uliyatli ish hisoblanadi. Agar qon guruhi noto'g'ri aniqlansa, bemor qon guruhiga to'g'ri kelmaydigan qon quyilsa, donor qonining eritrotsitlari bilan bemor qonining eritrotsitlari bir-biriga yopishib qoladi, ya'ni agglyutinatsiya hodisasi ro'y beradi. Bunday hodisa ro'y berganida bemorning ahvoli birdaniga og'irlashadi, rangi oqarib, lablari ko'karadi, tanasi sovub qaltiraydi. Badanida qizil toshmalar paydo bo'ladi, nafas olishi qiyinlashadi. Agar bunda zudlik bilan yordam ko'rsatilmasa, bemor halok bo'lishi mumkin. Buning oldini olish maqsadida keyingi yillarda faqat bir xil guruhdagi qon quyishga o'tish tavsiya etilmoqda.

Turli qon guruhlarining bir-biriga mos kelishi

Quyidagi qon guruhlari boʻlgan odamlar Quyidagi guruhlarga qon berishi mumkin Quyidagi guruhlardan qon qabul qilish mumkin I I.II.III.IV I II II.IV I.II III III.IV I.III IV IV I.II.III.IV Donorlik. Donorlik har bir odamning faxriy burchidir. 18 yoshga yetgan har bir sogʻlom yigit va qiz, ayol va erkak donor boʻla oladi. Mamlakatimizda yuz minglab kishilar donorlardir. Ayniqsa, fashizmga qarshi kurash yillarida minglab. odamlar. ixtiyoriy ravishda qon topshirib, koʻplab yaradorlarning hayoti saqlab qoli-nishiga va ular qaytadan safga qaytishiga hissa qoʻshganlar. Hozirgi vaqtda ham minglab donorlar koʻplab bemorlarni davolashga, ularning hayotini saqlab qolishdek olijanob ishga hissalarini qoʻshmoqdalar. Qadimgi Yunoniston, Misr, Rimda bemorlarni davolashda qonning ahamiyatini bilishgan. Oʻsha davrning tabiblari bemor-larga boshqa odam qonini quyganlar, lekin ularda qon guruhi haqida tushuncha boʻlmaganligi sababl[qonquyish taxminiy bajarilgan. Shl.ning uchun ayrim hollardagina quyilgan qon bemor qoniga toʻgʻri kelib, yaxshi natija bergan boʻlsa, koʻpincha qon guruWari toʻgʻri kelmasligi yomon oqibatlarga sabab boʻlgan. Chunonchi, Rim papa si Innokentiy VIII yosharish maqsadida uchta yigitning qonini quyishni buyurgan. Lekin u qon quyish natijasida halok boʻlgan. Qon guruWari aniqlanguncha qon quyish sohasidagi barcha urinishlar yaxshi natija bermagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. M. Mirziyoyev. [Tanqidiy tahlil](#), qat'iy tartib intizom va shahsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

“O'zbekiston ” 2017-yil

2. “ Биотехнология ” Принципы и применение Москва “Мир”, 1998-yil;

3. “ Биотехнология ”, Moskva “Высшая школа”, 1987-yil;

4. Yo.X. To'raqulov “Молекуляр биология” [Toshkent](#), “O'qituvchi” 1993-yil;

5. K.G. Gazoryan, V.Z. Tarontul, “Биотехнология зарубежом”, Moskva, “Знание” 1990-yil;

6. “Umumiy biologiya” darsligi “Sharq” NMK. 1995-yil;

7. X.Xoliqov va boshqalar “Биотехнология”, “Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti”, Toshkent, 1996-yil;

8. Yu. P. Laptev, “Биологик инженерия”, Toshkent, “Mehnat”, 1990-yil;

9. Rahimov M.M. biotexnologiya asoslari (qo'lyozma). Toshkent 2008

10. Aberqulov M. Genetika va biotexnologiya (ma'ruza matnlari) T. 2000

11. Nishonboyev K.N, Hamrayeva F.A, Eshonqulova O.E. Tibbiyot genetikasi. Toshkent. “Abu Ali ibn Sino ” 2000-yil;

12. Maqsudov Z.Y. Umumiy genetika Toshkent. O'

13. Сасон А. Биотехнология: свершения и надежды. М.: Мир, 1997
Internet ma'lumotlari:

**TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI TARKIBIDA
SAMARQAND VILOYATIDA MUSTAMLAKA SIYOSIY-MA'MURIY
BOSHQARUV TIZIMNING O'RNATILISHI**

*Qoraqolpoqston Respublikasi
Shumonay tumani 27-maktab
Xojashova Mafruz Umrbaevna
Tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya Bugungi kunda Vatanimiz tarixiga yangidan va xolisona nazar tashlash, ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi mustamlakachilik davri tarixi xususan, Samarqand viloyati tarixini o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan, shu bilan birga ijtimoiysiyosiy va ma'naviy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: General-gubernator, Zarafshon okrugi, Nizom, Harbiy, Boshqarma, Boshqarma

Hozirgi paytda mamlakatimizning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va madaniy merosni chuqur o'rganish, ularni asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni milliy istiqlol g'oyalari atrofida mustahkam jiplashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu keng qamrovli vazifalarni izchil amalga oshirishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fani ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston tarixini izchil hamda xaqqoniy tarzda o'rganish yuzasidan ko'plab sa'y-harakatlar, turli darajadagi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Vatanimiz tarixiga yangidan va xolisona nazar tashlash, ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi mustamlakachilik davri tarixi xususan, Samarqand viloyati tarixini o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan, shu bilan birga ijtimoiysiyosiy va ma'naviy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev alohida to'xtalib, "Samarqand tuprog'ida voyaga yetgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodiy Shukuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy, Abdulhamid Majidiy singari o'nlab ma'rifat fidoyilarining qoldirgan merosini bugungi kunda ham ma'naviyatimizni yuksaltirishda, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda"⁵ deya haqli ta'kidlab o'tgan. Bundan tashqari, Samarqandda - Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik maktabini tashkil etsak, o'ylaymanki, juda foydali bo'ladi⁶ deb Samarqand diyoriga alohida e'tibor bergan.

Shundan kelib chiqib bugungi kunda O'zbekiston tarixi, shu jumladan, Samarqand viloyati tarixini, uning Turkiston general-gubernatorligida tutgan o'rnini bir yoqlama qarashlar hamda o'tmishni soxtalashtirishdan voz kechgan holda, zamonaviy yondashuvlar asosida har tomonlama xolis va haqqoniy yoritish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

1868-yil 23-iyunda Buxoro amiri Turkiston general gubernatori fon Kaufman bilan sulh tuzib, Rossiyaning vassaliga aylandi. Bu sulhga ko'ra, Buxoro amiri mustaqilligini yo'qotibgina qolmay, Samarqand, Kattaqo'rgon va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlardan ham ajraldi. Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan xududlarda ma'muriy-hududiy birlik, ya'ni markazi Samarqand bo'lgan Zarafshon okrugi tuzildi, uning boshlig'i etib Aleksandr Konstantinovich Abramov tayinlandi. 1867-yildagi "Turkistongeneral-gubernatorligi viloyatlarniboshqarish haqidagi vaqtli Nizom loyihasi" deb atalgan qonunlar majmuasiga ko'ra ko'chmanchi aholigaikki

⁵ Мирзиёев Ш. Самарқанд – Ер юзининг сайқали // Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамыз. –Тошкент.; Ўзбекистон, 2017. –Б. 178.

⁶ Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.; Ўзбекистон, 2017. –Б. 491.

bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqolliklar) boshqaruv tizimi joriy qilindi. Turkiston general-gubernatorligi tomonidan 1868-yilda tashkil etilgan Zarafshon okrugida stlab Samarqand va Kattaqo'rgon bo'limlaridan iborat bo'ldi. 1871-yilda ularga yangi ma'muriy-hududiy birlik-tog'li tumanlar qo'shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan mayda beklklardantuzildi. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha dasturiy hujjatlarning ishlab chiqarilishida "harbiy vaziyfa" omili xal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ana shu omil Turkiston general-gubernatorining 1868yil 19-iyunda tasdiqlangan "Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari"da ham o'z aksini topdi. Hujjatning asosiy majmuyi K.P.Kaufmanning bevosita rahbarligida ishlab chiqildi, unda ma'muriy tizim "harbiy-xalq boshqaruvi" debataldi.

1886-yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish nizomi"ga muvofiq, Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi o'zgartirildi. Bunda mavjud birliklarni unifikatsiyalash prinsipiga izchil rioya qilina boshlandi. Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi⁷. Uningt arkibiga Sirdaryo viloyatining Xo'jand va Jizzax uyezdlari o'tkazildi va keyinchalik Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo'rgon, Samarqand va Xo'jand uyezdlaridan tashkilot topdi⁸.

Shunday qilib, 1886-yilgi Nizomdan so'ng o'lka idorasi markaziy, viloyat, tuman (uyezd), jabha (uchastka), qishloqva shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi. Samarqand shahri viloyat boshqaruvi qarorgohi hisoblangan.

Siyosiy boshqaruvda olib borilgan o'zgarishlar mahalliy boshqaruvdagi tashkilot vakadrlarning shakllanishiga olib keldi. Jumladan, dastlab Zarafshon okrugida Samarqandva Kattaqurgon bo'limlari tashkil etilgan edi. Shu munosabat bilan chor ma'muriyati tomonidan okrug boshqaruv tizimida yangi lavozimlar tashkil etildi. Xususan, Turkiston general-gubernatorining 1869-yil

⁷ История Самарканда. –Т.: Фан, Т. 1.–С. 304.

⁸ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. –Т.: Академия, 2002.

24- oktyabrdagi tasdig‘i bilan Zarafshon okrugi boshqaravi asosan quyidagi lavozimlardan iborat bo‘ldi:

- Zarafshon okrugi boshlig‘i,
- Zarafshon okrugi devonxonasi boshlig‘i,
- Devonxonaish yurituvchisi;

Bo‘limlari bo‘yicha:

- Samarqand Bo‘limi
- Kattaqo‘rgon bo‘limi boshlig‘i,
- Bo‘limyordamchilari (biri ruslardan. yanabiri mahalliy aholi vakilidan)

tarjimonlar va boshqa lavozimlar shular jumlasigakirdi.

“Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari”ga ko‘ra, okrug boshlig‘i izmidaharbiy, ma'muriy, politsiya va sudlov hokimiyati bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda, Zarafshon okrugi ma'muriyatigadiplomatik vazifalar ham berilgandi. Ya'ni, Zarafshon okrugi boshlig‘ining vakolatiga qo‘shni Buxoro amirligining beklklari bilan “chegaramunosabatlarini olib borish” hamkirdi.

Okrugni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o‘zi tayinlaydigan kishilar boshqargan. Zarafshon okrugi markazi hisoblangan Samarqand shahrida ham shahar boshqaruvi tarkibi quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lgan:

- Okrugda umumxalq ishlari bo‘yicha mudir va shahararxitektori.
- Okrugda sug‘orish ishlari bo‘yichamudir.
- Okrugdagi aksiz soliqlari bo‘yichamudir.
- Shaharhokimi.

Aytish joiz, harbiylashtirilgan byurokratiya okrugdagi (keyinchalik viloyatdagi) boshqaruv tizimining barchaasosiy nuqtalarini egallagan edi. Faqat

volost va qishloqdarajasidagi boshqaruvni tashkil etish go‘yo mahalliy jamiyat ixtiyoriga berilgandi.

1886-yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”dan so‘ng Zarafshon okrugi Samarqand viloyati deb o‘zgartirildi va viloyat, tuman, (uyezd), jabha (uchastka), qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi. Viloyat boshqaruvi: harbiy gubernator va viloyat boshqarmasidan iborat bo‘ldi⁹. Samarqand viloyat boshqarmasi 3 bo‘limdan iborat bo‘lgan:

-Farmoyishberadiganbo‘lim;

-Xo‘jalik bo‘limi;

-Ssuda bo‘limi;

Samarqand viloyat boshqarmasi harbiy gubernatorgabo‘ysungan. Viloyatni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o‘zi tayinlaydigan harbiy gubernatorlar boshqargan. Ular harbiy va fuqaro hokimiyatini o‘z qo‘lidatutgan. Harbiy sohada viloyatdagi qo‘shinlar (diviziya yoki korpus) qo‘mondoni, fuqaro ishlarida esa gubernator huquqiga ega bo‘lgan barchama'muriy, politsiya va sud hokimiyati ham ularning izmidabo‘lgan. Ya'ni, harbiy gubernatorlarga mohiyatan diktatorlik vakolatlari berilgan edi. Bular: volost boshqaruvchilarini lavozimga tasdiqlash yoki saylovlar bekor qilingan taqdirda, ulami o‘z ixtiyoriga ko‘ra tayinlash, xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmagan taqdirda, yangi saylovlarni tayinlash, o‘z ixtiyorigako‘ra, uyezd ma'muriyati a'zolarini tayinlash va ishdan olish (uyezdboshligi bundan mustasno bo‘lib, ular to‘grisida faqat general-gubernator nomiga taqdimnomayozilardi); uyezd boshliqlari tubaholivakillariga belgilangan jarimani to‘lash yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko‘rib chiqqan.

Samarqand viloyatini 1886-yildan 1917-yilga qadar 8ta gubernator boshqargan bo‘lib, o‘rta hisobda ulaning har biriga 3-4 yil muddatdan to‘g‘ri

⁹ Бродовский М. Заметки о земледелии в Самаркандском районе // Туркестанский сборник. –СПб., 1873.– С. 419447.

Rivojlanish markazlarida o'quv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o'yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy adabiyot o'qish ensiklopedik adabiyotlarni o'qish, ko'rib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, [tajribalar](#), tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalanish. Bolaning rivojlanishi faqat o'quv faoliyatida emas, balki o'yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o'yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e'tibor qaratadi. Agar kerak bo'lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to'ldiradi yoki o'zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta'minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, echimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o'z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday bo'lsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning ota-onalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to'g'ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o'ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan ta'lim asosida yotadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan:

1. “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi.

2. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o‘stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar)

2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg‘ulotlari)

3. San‘at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar)

5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari)

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, til va nutq markazida bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bola markazda o‘zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish –yasash ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bolalarni o‘yin jarayonida tinglansa “Menga yashil rang kerak”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa kattakon”, “Meni mashinamga 10 ta odam sig‘adi” degan jummalarni eshitasiz. Demak bolalarning muloqatida qo‘shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.

San‘at markazida bolalarni kayfiyatini ko‘tarish imkoni mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari qo‘llab-quvvatlanadi. San‘atning rassomlik, haykaltaroshlik, turlariga hammaga ham bir xil iqtidor berilmagan. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan to‘liq ta‘minlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o‘rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz bolalar iqtidorini namoyon bo‘lishi, o‘z mahoratini ko‘rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo‘lib, o‘yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o‘rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. O‘yinda oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o‘rganish) imkoni yaratiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to‘g‘ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o‘zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki

pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Yuqorida izohi keltirib o'tilgan markazlar faoliyati bolani maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhit vazifasini bajarib, shu o'rinda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik xaritasini ilova qilib o'tishni joiz deb bildik. Zero, mazkur yoshdagi bolaning rivojlanish xaritasi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatlilik va samaradorligini aniqlaydi. Masalan boladagi,

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari
4. Bilim olish (anglash orqali rivojlanish)
5. Ijodiy rivojlanish kabilar uni maktab muhitiga tayyorlovchi asosiy me'zonlar sanaladi.

O'quv yili yakuniga yetgandan so'ng maktabga tayyorlov guruhi bo'yicha o'tkazilgan monitoringa asosan amalga oshirilgan ishlarni kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash ishlari o'tkaziladi va bu orqali MTTning keyingi o'quv yiliga mo'ljallangan ustivor vazifalarini belgilaydi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tizimida har bir bola o'ziga kerakli ko'p ma'lumotlarni oladi, chunki, bola yosh va savollarga boy zabon bo'ladi, u har bir savoliga to'g'ri javob olishi esa uni kelajagiga kata ko'mak bo'ladi. Har bir maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni ongini rivojlanishiga, iqtidorlarini ochishga yordam berib, ko'maklovchi resurslar mavjud bo'lishi lozim. Nafaqat rivoji, balki, uning sog'lomligi ham birinchi o'rinda turadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda

milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq bo‘lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston. 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. –T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – T.: O‘zbekiston, 1997.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi” qonuni O`.R.Q-595.16.12.2019 yil.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2707-сонли Қарори. 2016 йил, 29 декабрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги 528-сонли Қарори. 2017 йил, 19 июль.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5198-сонли Фармони. 2017 йил 30 сентябрь.
8. “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312- сон Қарорига 1-илова.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA "SYUJETLI-ROLLI
DRAMMALASHTIRISH" MARKAZIDA BOLALAR FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH**

Buxoro Pedagogika Kolleji

"Badiiy-ijodiy faoliyat" o'quv amaliyoti o'qituvchisi

Mansurova Dilnoza G'iyozovna.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "syujetli-rolli drammalashtirish" markazida bolalar faoliyatini tashkil etish.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, tafakkur, idrok, syujetli-rolli o'yinlar, markaz, tasavvur.

Аннотация: В данной статье рассматривается организация детской деятельности в центре «сюжетно-ролевой инсценировки» в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: дошкольное образование, игровая деятельность, мышление, восприятие, ролевые игры, центр, воображение.

Annotation: In this article, the organization of children's activities in the center of "plot-role dramatization" in preschool educational institutions.

Key words: preschool education, game activity, thinking, perception, role-playing games, center, imagination.

Bolaning o'sishi va har tomonlama rivojlanib borishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashy ova buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishiga intilishi, qiziqishi va hissiyotlarining rivojlanishini ular o'ynayotgan o'yinlari orqali kuzatish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bola uchun bu - hissiy boyitilgan va idrok etilgan tarzda o'rganish uchun ideal sahnadir. Sahna o'yini bolani har jihatdan rivojlantiradi. Zero, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotda ko'rgan voqea-hodisalarni kishilarga taqlid qilib o'ynaydilar. Bolalar kishilarga

taqlid qilish orqali real hayotiy muammolarni hal etishga o`rinadilar. O`z kechinmalarini takrorlaydilar, qayta o`ynaydilar va jonlantiradilar. Shu tariqa, sahna o`yini bolaning boshqalar bilan o`zaro hamkorlik qilishga qobil bo`lgan shaxs darajasiga o`sib rivojlanishiga ko`mak beradi.

Sahnalashtirilgan o`yinlarning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular orqali bola badiiy obrazni idrok qila bilishni o`rganadi, personajlar hatti-harakatini kuzatish qobiliyatini rivojlanib boradi. Musiqiy, so`z, ko`rish obrazlaridan foydalangan holda zarur bo`lgan ruhiy sifatlarini (idrok qilish, tassavur qilish, diqqat, tafakkur), ijrochilik ko`nikmalarini (rolga kirish, tasavvurdagi muhitda harakatlanish ko`nikmasi) va sezgilari (mushak va hissiy) rivojlanish iuchun sahna mashqlari o`tkaziladi. Badiiy asarlar bo`yicha oddiy parchalarni sahnalashtirishda bola obrazni aks ettirish uchun unga ma`lum ifoda vositalari (ohang, yuz-harakati, imo-ishora) o`rgatiladi. Har bir bola rol o`ynayotganda avvalo asar qahramoning his tuyg`u holatini sezishi va tushunishi, boshqa personajlar bilan rolni munosabatga kirishishida o`zini tutishi qobiliyatilari shakllantirishi lozim.

Teatrlashtirilgan o`yinlarda obrazli o`yinchoqlardan, loydan, papemashe, plastilindan mustaqil yasalgan o`yinchoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sahnalashtirilgan har qanday o`yin asosida bolaning bilish jarayonida irodaviy – hissiy xususiyati badiiy asardagi go`zallikni his qilishi ko`nikmasini to`g`ri shakllantirib borishga alohida e`tibor qaratish kerak. Masalan, tarbiyachi bolalarga o`qib ertak kitobcha syujetinini o`z so`zlarini bilan hikoya qilgan holda, sahna ssenariysini tuzadilar, unga mos qo`g`irchoqlarni tanlab, ishtirokchilar o`rtasida muhokama qilib, rollarni bo`lib olishadi. Syujetni rollarga kirib, ravon va ifodali qilib aytishi kerak. Syujetdagi qo`g`irchoqlar hatti-harakatini o`zlashtirishi- har bir imo-ishora va mimikasini ko`rsata bilishi kerak. Rollarni ketma-ketlikda bajarish; qo`irchoqlarning birin-ketin chiqishini namoyish etish. Sahna o`yini jarayonida bola bir xodisa bilan boshqasini bog`lashi, g`oyalarni sinab ko`rishi, xatolarini tuzatishi, rejalar tuzishi, uni amalga oshirish ularning aqliy rivojlanishiga olib keladi.

Syujetli – rolli o`yinlar va sahnalashtirish markazi uchun ko`rgazmalar tayyorlash. Guruhlarda xonalarni syujetli rolli o`yinlar va sahnalashtirish markaziga mos holda jihozlash yo`riqnomasi:

1. Shirma
2. Marionetka-qo`g`irchoqlar (ipda o`ynatadigan)
3. Qo`lqopli, barmoqli, tayoqchali, soya teatr ertak kaxramonlari
4. Ertak qaxramonlari liboslari
5. Niqoblari
6. Uycha maketi
7. Mazmunli o`yinchoqlar
8. Rejissyorlik o`yinlari uchun qaxramonlar (odamchalar, askarlar, multfilm personajlari)

9. Sahna uchun jixozlar (turli daraxtlar, tandir maketi va xokazo)

Syujetli-rolli o`yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon bo`lishi, o`z mahoratini ko`rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni - bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo`lib, o`yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o`rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo`ladi. O`yinda oila a`zolarining o`zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o`rganish) imkoni yaratiladi. Syujetli-rolli o`yinlar mazmunining o`ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan xisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli–rolli o`yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rangbarang xatti-harakatlari, ko`rinishlari – bolalar o`yinlarining asosiy mazmuni bo`lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.



Syujetli-rolli o‘yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1 - bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi syujetli o‘yinlar rivojlanishi darajasini o‘rganishning asosiy vositasi quyidagilar: - bolalar o‘yinlarini kuzatish, - o‘yin rivojining asosiy yo‘nalishlari, o‘yin mavzusi, o‘yin mazmuni, bola o‘yin faoliyatining rivoji, o‘yinda o‘zaro munosabatlarning rivojlanishi bo‘yicha tavsifnoma tuzish; - o‘yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2 – bosqich. Kattalarning o‘yin mavzui va mazmuniga ta’sir etishi: - o‘yin mavzui bo‘yicha sayohat va maqsadli sayrlar; - suhbatlar; - badiiy asarlar va hikoyalar o‘qib berish; - illyustrativ rasmlar ko‘rsatish; - mavzu bo‘yicha turli mashg‘ulotlar; - tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari

3 – bosqich. o‘yinga tayyorgarlik (o‘yin o‘ynash uchun maxsus joy, o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari): - tayyor o‘yinchoqlarni tanlash; - qo‘lda yasalgan o‘yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil shug‘ullanishlari uchun o‘yin zonasini tashkil etish.

4 – bosqich. Bolalarni o‘ynashga o‘rgatish (o‘yin jarayoni va boshqa narsalarni o‘yinda aks ettirish): - o‘yinchoq va uning o‘rnini bosuvchi buyumlar ta’sirini o‘rganish; - o‘yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o‘rgatish; - o‘yinda so‘zlardan foydalanishga o‘rgatish; - o‘yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish; - so‘z va harakat; - harakat va o‘yin materiali, - so‘z, harakat va o‘yin materiali o‘yinning tili xisoblanadi.

5 – bosqich. o‘yinda ahloqiy munosabatlarga ta’sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o‘yin faoliyatida o‘yin madaniyatini shakllantirish: - ma’lum o‘yin mavzuiga nisbatan bolalarning his-tuyg‘ularini uyg‘otish; - bolalarga o‘yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o‘rgatish; - o‘yinda rol va o‘yinchoqlarni oqilona tag‘simlashga o‘rgatish; - tengdoshlari bilan ahil o‘ynay olish madaniyatini tarbiyalash;- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o‘ynash va o‘yinni oxiriga yetkazish, o‘yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash; - kattalarning o‘yinga ta’sir etishi – maslahat berishi, tushunchalarini to‘ldirish, o‘yinga to‘lag‘onli yordam berish; - bolalarning o‘yin faoliyatlarini, ahloqiy munosabatlarni baholash.

Xulosa

Syujet - o‘yin faoliyatida asosiy komponent bo‘lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o‘z ichiga oladi. Syujetli-rolli o‘yinlar o‘z mazmun va mohiyatiga ko‘ra jamoa o‘yini bo‘lib hisoblansada, yakka holda o‘ynalmaydi, degan fikrni keltirib chig‘armasligi kerak. Syujetli-rolli o‘yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.V. Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o’quv dasturi, Toshkent-2018.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, Toshkent-2018.
3. Maktabgacha ta’lim metodikasi va nazariyasi jurnali.
4. Ruziyev, D. Y. (2021). BO’LAJAK O’QITUVCHIDA MUSIQIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH. Scientific progress, 1(5).
5. Ruziev, D. Y. (2021). DESIGNING THE LEARNING PROCESS FOR MUSICAL WORKS. International Engineering Journal For Research & Development, 6(ICDSIIL), 6-6.

6. Ruziev, D. Y. (2021). THE ROLE OF THE CONDUCTOR IN ORCHESTRAL PERFORMANCE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 1(01), 66-71.

7. Рузиев, Д. Ю. (2020). ОРКЕСТР КАК СРЕДСТВО МУЗЫКАЛЬНОЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ. Academy, (11 (62)).

8. Ruziev, D. Y. (2021). Ways Of Working On Musical Compositions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 436-440.

9. Рузиев, Д. Ю. (2020). Некоторые психологические особенности развития навыков игры на инструменте и подпевания. Academy, (3 (54)).

10. Жураев, Б. Т. (2016). Некоторые вопросы наставничества в педагогическом наследии Хусаина Воиза Кошифи. In Социально-культурная деятельность: векторы исследовательских и практических перспектив (pp. 103-105).

**INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI UMIMIY
TUSHUNCHALARI.**

QarMII akademik litsey informatika va AT fani o'qituvchisi

Xamitova Ra'no Axmatovna

Meyliqulova Mahbuba Musulmonovna

QarMII akademik litsey informatika va AT fani o'qituvchisi

Doniyorov Ozodbek Davronbek o'g'li

Koson pedagogika kolleji.

Annatatsiya: Mazkur maqola Informatika o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan “Informatika o'qitish metodikasi” o'quv fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, bo'lajak fan o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan quyidagi bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, pedagogika, o'qitish metodlari, metodik tajribalar.

Kirish:“Informatika o'qitish metodikasi” pedagogikaning umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida informatika va axborot texnologiyalari va shu yo'nalishdagi fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiqot qiluvchi bo'limi hisoblanadi. “Informatika va axborot texnologiyalari fanini metodikasi” quyidagi maqsadni ko'zda tutadi:

- bo'lajak o'qituvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinfva sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'z ta'limiga tayyorlash;

- bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqida tassavvurlarini rivojlashtirish va hamda chuqurlashtirishdir.

Asosiy qism:“Informatika o'qitish metodikasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida informatika va axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida tutgan o'rni va roli, Informatika o'qitish metodikasining pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog'liqligi, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish metodlari va texnologiyalari tarixi, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarning xususiyatlariga doir bilimga; Informatika o'qitish metodikasining matematika va boshqa fanlar bilan bog'liqligi, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish metodlari, texnologiyalari, ularning nazariy asoslari, umumiy o'rta ta'limda informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning maqsadi, mazmuni va vazifalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning maqsadi, mazmuni va vazifalari, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda didaktik tamoyillar, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda uning qismlari va boblariga xos xususiyatlari, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha darsdan tashqari ishlarni ko'nikma, informatika va axborot texnologiyalariga o'quvchilarda mehr uyg'ota olish ko'nikmasiga; informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llay olish, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda ilg'or metodik tajribalarni umumlashtira olish, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha mustaqil tahsil olishga o'quvchilarni yo'llash, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha o'quvchilar bilimini baholay olish, informatika va axborot texnologiyalari darslari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha talab qilingan barcha hujjatlarni yuritish, informatika

va axborot texnologiyalari darslarini rejalashtirish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Xulosa:Fanning o'qitilishida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'zda tutiladi. Nazariy ma'lumotlar amaliyot va ko'rgazmalilik bilan mustaxkamlangandagina, chuqur bilimga ega bo'lish mumkin. Shuning uchun dasturda amaliy-laboratoriya ishlariga katta e'tibor qaratilgan. Talabalarning "Informatika o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-kommunikasiya va pedagogik texnologiyalarini tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. U.K.Tolipov, M.Usmanboyeva. Pedagogik texnologiyalarninig tadbiiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Fan", 2006 y.
2. P.Ишмухамедов, А.Абдуқодиров, А.Пардаев. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог ўқитувчилар учун амалий тавсиялар). Ўқув қўлланма. Тошкент, "Истеъдод", 2008 й.
3. A.Abduqodirov, A.Xaitov, Shodiev R. Axborot texnologiyalari. Darslik. T.: "O'zbekiston", 2004 y.
4. A.Sattorov. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. T.: "O'qituvchi", 2008 y.
5. Ж.Ф.Йўлдошев, С.А.Усмонов. Педагогик технология асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, "Ўқитувчи", 2004 й.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O.,quv qo'llanma. T.: TDPU, 2003 y.
7. Федотова Д. CASE-технология. Москва, «Издательский дом БХВ», 2003 г.
8. Цой, Маргарита и др. Создание электронных учебников. T.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2007 г.

**Axborot texnologiyalarida matematik amallarning va formulalarning
ahamiyati.**

QarMII akademik litsey informatika AT fani o'qituvchisi

Xamitova Ra'no Axmatovna

Muminov Safar Jo'raqul o'g'li

QarMII akademik litsey matematika o'qituvchisi

Tuxtavulov Boboqul Tufli o'g'li

QarMII akademik litsey matematika o'qituvchisi.

Annatatsiya: Ushbu maqola matematik ta'limning maqsadi, mazmuni, formasi, metodlari va uning vositalarini matematika darslariga tadbiq qilish qonuniyatlari psixologik, pedagogik va didaktik nuqtai-nazardan bayon qilingan. Matematik ta'limni isloh qilish, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uzluksiz ta'limni amalga oshirish masalalari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Metodika, umumiy metodika, xususiy metodika, umumta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, amaliy maqsad.

Kirish: Matematika va informatika - ta'lim yo'nalishi - ilm fan va texnika sohalaridagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, u fanning turli tarmoqlarida matematikani qo'llashning talablariga va amaliy faoliyatning turli sohalariga matematik usullarning kirib borishini o'rganish, soha istiqbolini belgilash, kasbiy ko'nikmaga, mutassaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining bilim vositalari, usullari va uslublari majmuasini o'z ichiga oladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari: tajriba - konstruktorlik tashkilotlarida matematik va dasturiy ta'minot; pedagogika va axborot texnologiyalari; matematik usullar va kompyuter texnologiyalaridir.

Ma'lumki, matematika fani mavjud moddiy dunyodagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o'rganish jarayonida «ilmiy izlanish» metodlaridan foydalanadi. Shuning uchun ham ushbu darslikda ilmiy izlanish metodlaridan kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz va sintez, umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirishlarni matematika darslarida qo'llanishi ilmiy-metodik jihatidan tushuntirishga harakat qilingan. Matematikani o'qitish jarayonida fikrlash formalarini paydo qilish metodikasi ham yoritilgan, ya'ni hissiy bilish (sezgi, idrok, tasavvur) bilan mantiqiy bilish (tushuncha, hukm, xulosa) orasidagi mantiqiy bog'lanishlar ochib berilgan. Matematik tushuncha va uni o'quvchilar ongida shakllantirish metodikasi, matematik hukm va uning turlari bo'lmish aksioma, postulat va teoremlarni o'quvchilarga o'rgatish metodikalari yoritilgan. Matematik xulosa va uning induktiv, deduktiv hamda analogik turlarini dars jarayonidagi tadbiqlari ko'rsatilgan. Matematika fanini o'qitishdagi didaktik prinsiplarning turlarini o'rgatishga alohida ahamiyat berilgan. Darslikda yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy metodlaridan: ma'ruza, suhbat, mustaqil ish, evristik va muammoli ta'lim metodlarini dars jarayonida qo'llanilishiga katta ahamiyat berilgan.

Matematika darsi, uning tuzilishi va uni tashkil qilish metodikasi, matematika darsining turlari, darsga tayyorgarlik va uning tahlili matematika darsiga qo'yilgan talablar ochib berilgan. Darslikda yana son tushunchasini kiritish va uni kengaytirish, ular ustida to'rt amalni bajarish, maktabdagi ayniy shakl almashtirishlarni o'rgatish, maktab matematika kursidagi tenglama turlari, tenglamalar sistemasi hamda parametrik usulda berilgan tenglamalarni yechish metodikalari ham ko'rsatilgan. Darslik oxirida masala va uning turlarini yechish metodikasi ham ko'rsatilgan. Har bir bob tugagandan keyin o'quvchi talabalar uchun shu bob mavzularining mazmunini ochib beruvchi mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lgan savollar sistemasi, hamda tayanch iboralar keltirilgan.

Asosiy qism: Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) O'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.

b) O'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir.

v) O'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu yerda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi.

Xulosa: Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagilarni qo'yadi:

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu g'oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi. O'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash. Bizga ma'lumki, matematika darslarida

o'quvchilar o'qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar.

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Algebra: 9-sinf uchun darslik (Sh.O.Alimov, Yu.M.Kolyagin, Yu.V.Sidorov, M.I.Shabunin) T., «O'qituvchi», 1996 yil.
2. Alixonov S. «Geometriya darslarida umumlashtirish» T., «O'qituvchi», 1989 yil.
3. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi». T., «O'qituvchi» 1992 yil.

Matematika o'qitishning maqsadi va vazifalari.

QarMII akademik litsey informatika va AT o'qituvchisi

Xamitova Ra'no Axmatovna

Xamrayev Almos Amonovich

QarMII akademik litsey matematika fani o'qituvchisi

Aralov Asqar Saidaxmat o'g'li

QarMII akademik litsey matematika o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqola matematika o'qitish metodikasining maqsadi, mazmuni, formasi metod va vositalari orasidagi munosabatlar pedagogik, psixologik va didaktik nuqtai nazardan ochib berilgan. Ushbu darslikda keltirilgan barcha nazariy va amaliy mavzularning mazmuni talabalarni matematika o'qitish metodikasi fanidan olidigan amaldagi dasturiga to'la mos kelishi haqida.

Kalit so'zlar: Matematik bilimlar, real olamda, matematik tafakkuri, matematik qonuniyat.

O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.

3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umum ta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- a) O'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga

tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.

b) O'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish.

Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

v) O'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu yerda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagilarni qo'yadi:

a) O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu g'oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi.

b) O'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Bizga ma'lumki, matematika darslarida o'quvchilar o'qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so'ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

Matematika o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

v) O'quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O'quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarni simvolik tilda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) Matematika kursida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tadbiq qila olishga o'rgatish. Bunda asosan o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bog'lay olish imkoniyatlarini tarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o'rgatiladi.

b) Matematikani o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda o'quvchilarning matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik ko'rgazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi.

v) O'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish. Bunda asosan o'quvchilarni o'quv darsliklaridan va ilmiy-ommaviy matematik kitoblardan mustaqil o'qib o'rganish malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi». T., «O'qituvchi» 1992 yil.
2. Alixonov S. « Matematika o'qitish metodikasi » Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 yil.
3. Bikboeva N.U. va boshqalar «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi», T., «O'qituvchi», 1996 yil.
4. N.G'aybullayev, Ortiqov. «Geometriya 7-sinf uchun darslik» T. «O'qituvchi», 1998 yil.

Matematika o'qitish metodikasi.

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 4-umumiy o'rta ta'lim

maktabi matematika fani o'qituvchisi

Xoshimova Buxojar Shavkatjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fanini o'qitish metodikasi hamda matematika fanini o'qitishda ishlatiladigan zamonaviy texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, misol, masala, metod, raqamlar, innovatsion texnologiyalar, mantiqiy fikrlash.

Matematika fani - abstrakt fan. Uning mazmuni boshidan oxirigacha inson tasavvurining va mantiqiy tafakkurining mahsulidan iborat. Fanning bunday abstrakt tuzilishi, o'zini-o'zi boyitib borishi, ya'ni yangidan-yangi matematik tushunchalar va ularning xossalari ma'lum xossalardan hosil qila olish imkoniyati qadimdan insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Xatto matematik masalalarni yechish musobaqalari o'tmishda inson aqlini peshlash vositasi bo'lgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, matematika fanining eng asosiy vazifasi aynan o'quvchilarni o'ylashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga va mushohada yuritishga o'rgatishdan iborat ekanligi oydinlashadi. Hech qaysi fan matematika fanichalik o'quvchilarni o'ylashga va fikrlashga majbur qila olmaydi. Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o'quvchilar to'g'ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar.[4]

Matematika - raqamlar va shakllar haqidagi fan ilmiy qilib aytadigan bo'lsak, matematika-sonli munosabatlar va fazoviy shakllar haqidagi fan. Matematika fan sifatida hech qachon bir yerda to'xtab turgan emas. Hayot, tajriba, rivojlanayotgan texnika va boshqa fanlar uning oldiga tobora yangi

vazifalar qo'yimoqda. Ularni yechish uchun eski bilimlar kamlik qiladi. Matematika bizni ortiqcha qayta-qayta sanashlardan xalos etadi. Ma'lum narsa yordamida ilgari noma'lum bo'lgan narsalarni topishimizga yordam beradi. Bunday natijalarga erishish uchun matematika fanini o'qitishning ahamiyati katta.

Matematika so'zi qadimgi grekcha - mathema so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «fanlarni bilish» demakdir. Matematika fanining o'rganadigan narsasi (obyekti) materiyadagi mavjud narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iborat. [3]

Ma'lumki, matematika fanini o'rganadigan obyekti materiyadagi narsalarning fazoviy shakllari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Ana shu shakllar orasidagi miqdoriy munosabatlarni aniqlash jarayonida matematiklar izlanishning ilmiy metodlaridan vosita sifatida foydalanadilar. Matematikadagi izlanishning ilmiy metodlari bir vaqtning o'zida matematikani o'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari vazifasini ham bajaradi. O'qitishdagi ilmiy izlanish metodlari quyidagilardan iboratdir. 1. Tajriba va kuzatish. 2. Taqqoslash. 3. Analiz va sintez. 4. Umumlashtirish. 5. Abstraksiyalash. 6. Aniqlashtirish. 7. Klassifikatsiyalash.

Tajriba va kuzatish metodi.

Matematik obyektidagi narsalarning xossalari va ularning o'zaro munosabatlarini belgilovchi metod kuzatish deyiladi.

Misol. o'quvchilarga bir necha figurani ko'rsatib, bu figuralar ichidan o'q simmetriyasiga ega bo'lgan geometrik figuralarni ajrating deb buyursak, o'quvchilar barcha figuralarni ko'rib chiqib quyidagicha xulosaga kelishlari mumkin. Figuralar ichida o'zidan biror o'qqa nisbatan ikki qismga ajragan figuralar bo'lsa hamda ularni ana shu o'q bo'yicha buklaganda qismlar ustma-ust tushsa, bunday figuralar simmetrik figuralar bo'ladi. Ammo boshqa figuralarda o'zlarini teng ikkiga bo'luvchi to'g'ri chiziqlar bo'lmasligi mumkm. U holda

bunday figuralar nosimmetrik figuralar bo'ladi. Biz figuralardagi bunday xossa va ular orasidagi munosabatlarni kuzatish orqali figuralarni simmetrik va nosimmetrik figuralarga ajratildi.[2]

Matematik obyektidagi narsalarning xossafari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni sun'iy ravishda bo'lak (qism)larga ajratish yoki ularni birlashtirish tajriba metodi deyiladi.

Analiz va sintez metodi.

Noma'lumlardan ma'lumlarga tomon izlash metodi analiz deyiladi. Analiz metodi orqali fikrlashda o'quvchi quyidagi savolga javob berishi kerak: «Izlanayotgan noma'lumni topish uchun nimalarni bilish kerak?» Analiz metodini psixologlar bunday fikrlaydilar: «butunlardan bo'laklarga tomon izlash metodi analiz deyiladi»

Matematika o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: a) Matematika kursida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tadbir qila olishga o'rgatish. Bundan asosan o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bog'lay olish imkoniyatlarini tarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o'rgatiladi.

b) Matematikani o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda o'quvchilarning matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik ko'rgazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi.

v) O'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish. Bunda asosan o'quvchilarni o'quv darsliklaridan va ilmiy-ommaviy matematik kitoblardan mustaqil o'qib o'rganish malakalarini shakllantirishdan iboratdir.[1]

Xulosa:

O'quvchilarning ilmiy dunyo qarashlarini matematik tafakkurini, matematikaga bo'lgan qiziqishlarini hamda matematik madaniyatlarini shakllantirish uchun, albatta matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik tushunchalar va ular orasidagi qonuniyatlarni atroflicha o'rgatish lozim bo'ladi. Matematika kursidagi har bir matematik xulosa qat'iyatlikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlarni bosqichma -bosqich o'rganishlari davomida ilmiy mantiqiy tafakkur qilishlar rivojlanadi. Matematik xulosa chiraqish madaniyatlari rivojlanadi. O'quvchilar biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarini belgilar bilan to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha belgi shaklida ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillaridan ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik, madaniyat shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, (darslik) T.: 2007[1]
2. Mirzaahmedov M., Rahimqoriyev A., Ismoilov Sh. Matematika, Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinfi uchun darslik. -T.: "O'qituvchi", 2017.[2]
3. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi». T., «O'qituvchi» 1992 yil.[3]
4. Alixonov S. « Matematika o'qitish metodikasi » Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 yil.[4]

**METHODOLOGY OF TEACHING RIDDLES AND TEACHING
FOREIGN LANGUAGES THROUGH THEM.**

Associate Professor, Rustamov Ilkhom Tursunovich,

Tashkent State Transport University

Abstract: This article provides information on teaching foreign languages and methods used in teaching foreign languages.

Key words: foreign languages, English language, education, students, riddles, method, cartoon, modern methods, modern technologies.

Undoubtedly, equipping the foreign language rooms in the educational institutions of our country with modern information and communication technologies and advanced technical means of teaching, broadcasting programs and broadcasts teaching children and teenagers foreign languages on TV and radio channels, the history of other countries and Regular screening of popular foreign art and multi-language films dedicated to culture, world science and technical news with Uzbek subtitles allowed our young people to get to know the past, culture, and science of the peoples of the world. , especially when teaching foreign languages to students in the first grade, it is necessary to take into account the age, physiological and psychological characteristics of the student. As noted in the decision, implementation of foreign language teaching in the form of game-style lessons and oral speech lessons in the first grades is really appropriate for younger students. The use of game technologies in education is one of the most effective tools. During the game, their thinking, outlook, and thinking will expand. Scientists believe that the game approach to education facilitates the learning process. It not only makes it easier, but also increases the interest in this subject and encourages the child to acquire deep knowledge. Game-style lessons help children develop their oral language. First graders really like different visuals with pictures or videos. Games should be

regularly used to develop their speech through different colored pictures. For example, What is this?, Who is this?, Who knows the most words? games like During the game, it is necessary to encourage children to remember words and pronounce them correctly. Depending on the growth of children's vocabulary, it is important to organize other types of games and various competitions. At first, children can perform exercises on topics such as "Fruit Names", "Occupations", "Home Appliances" with the help of games. Then, if they are shown in harmony with the colorful images on the computer, the students' speech will develop and the range of attitude to the environment will expand. [3]At the stage of displaying a new topic, words and pictures that reflect it appear on the screen. Students will have the opportunity to listen to the words and pronounce them. It is necessary to pay attention to the principle of individualization of education when presenting the subject with the help of a computer. Some students find it difficult to accept the graphic image of the word, and some have difficulty with the sound image. The computer solves this or that difficulty by means of exercises, helps to find the aspects of the student that are difficult to learn English and to eliminate them. It is possible to organize other educational games aimed at mastering grammar from the second grade. For example, interesting games such as "Who is literate?", "Who is clever?", "Who am I?", "Chain", "Rolling game", "Find the place of the word" are among them. "Who's smart? " game gives a good result in improving spelling literacy. In this case, 5-6 words are written on cardboard, and the words are written correctly and incorrectly. Students are required to find the misspelled word and write it correctly. The winner of the game is determined by which student is the first to correctly write the wrongly written words. We know that in the current educational process, the student is the subject. should be Focusing more on interactive methods will increase the effectiveness of education. One of the most important requirements for English language classes is to teach independent thinking. Today, English language teachers, relying on the experience of pedagogues from the United States of America and England, are using the following innovative methods:

"Merry riddles" to teach riddles to students. It is important in teaching English, they learn unfamiliar words and find answers to riddles. "Quick answers" help to improve the effectiveness of the lesson. "Chigil wrote" (Warm-up exercises) using various games in the classroom to make students interested in the lesson. "Pantomime" (Pantomime) this method can be used in a lesson where very difficult topics need to be explained or when written exercises are done and students are tired.

"A chain story" method helps to improve students' oral speech and strengthen memory. "Acting characters" method can be used in all types of lessons. "When pictures speak" method is more convenient and in teaching English It helps in the development of zaki speech, for this it is necessary to use pictures related to the topic. "Quiz cards" cards are distributed according to the number of students and allow all students to participate in the lesson at the same time, which saves time. are interchanged and sentences are formed by putting the words in their correct place. The game "Collection" is held in order to strengthen the acquired knowledge of students based on a certain topic. The game is organized in the form of a row competition or work in small groups. For example, groups are given a task to find words that represent a symbol. The group that finds the most in the given time is the winner. Cartoons. While learning a foreign language, children do not understand the words in the cartoon, but they try to understand the words they use through the actions of the characters in the cartoon. This is an interesting and effective way for children to learn the language. Children are taught English through songs, poems, stories, and videos.[1]

"Picture" game. A picture game can be used for students to better master the content of Present Continuous. Students are invited to find what the character in the pictures they have not seen is doing. For example, P1: Is the girl sitting at the table? P2: No, she is not. P1: Is the girl standing? P 2: Yes, she is. He is the leader and takes another picture. "Sentences in the picture" game. This game is a good visual tool for practicing grammatical forms. There are several

pictures on the cards that represent some actions of a person, for example: there are pictures of skating, playing chess, reading a book. The teacher shows picture cards (the boy is skating) and asks: What is he doing? Students find the same picture and answer: He is skating.[2]

In conclusion, it is worth noting that in teaching English, taking into account the age and psychological characteristics of students, the interest in learning a foreign language, the preparation of modern didactic developments based on pedagogical technologies that help to fully satisfy the need. and developing a robust mechanism for their implementation provides a practical solution to the problem.

References:

1. Bekmuratova U.B. "Using innovative technologies in teaching English" // Tashkent 2012.[1]
2. Hoshimov O'. H, Yakubov I.Y.A. English language teaching methodology-Tashkent-2003.[2]
3. Pedagogy "Publishing" Tashkent 2011 J. Khasanboyev. [3]
4. Rustamov, I. (2020). Анекдот лингвистик тадқиқот предмети сифатида. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(96). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7668
5. Rustamov, I. (2020). Киноя сатирик маъзмун яратиш воситаси сифатида. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(96). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7659
6. Rustamov, I. (2020). Латифаларнинг прагматик турлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(96). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7656
7. Rustamov, I. (2020). Gender And Professional Activity Stereotypes In Anecdotes. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(96). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7660
8. Rustamov, I. (2020). Ethnic Stereotypes In Anecdotes. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(96). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7667

**INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA NUTQ ODOBINING MILLIY
MADANIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Dilnoza Alimquolova

JDPI Chet tillar fakul'teti 1-bosqich magistranti

Ularga sovg‘alar berish ularni sevintirish va ko‘ngillarini topishning eng qulay yo‘lidir. Ota-ona keksa bo‘lsa, ularga yordam berish va yolg‘iz qoldirmaslik kerak. Boshqalarning ular bilan yengil-yelpi muomalalariga yo‘l qo‘ymaslik, xizmatlarini to‘la ado etish uchun qo‘ldan ne kelsa bajarmoq lozim. Farzand kichik paytida ota-ona unga qo‘l-qanot bo‘ldilar. Yemadilar, yedirdilar. Kiymadilar, kiydirdilar. Kenglik-tanglik, bor-yo‘q, issiq-sovuq demadilar. Xizmatdan qochmadilar. Ota-onaning duoyibadi – yoydan uchgan o‘q, orqaga qaytmaydi. Nishonga tegadi. Vayron qiladi... Ota-onasi rozi bo‘lgan farzanddan Alloh ham rozi bo‘ladi. Ota-ona kechirmagan farzandni Alloh g‘azabiga oladi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir hadisi shariflarida shunday dedilar: «Jannat – onalar oyog‘i ostidadir». Bu hadisning majoziy ma‘nosi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ma‘noni ummatga ramzli, qisqa, badiiy va go‘zal bir tarzda yetkazmoqdalarki, aqli bor odam buni

anglaydi. Oyoqdan murod – onaning roziligi, jannatdan murod – Allohning roziligidir.

Boshqacharoq aytganda «Onaning rizoligini olsang, Allohning rizoligi (jannat)ga yetgan bo‘lasan!» Jannatga kirishga loyiq bo‘lish uchun ota-ona roziligini olish zarur. Ularni xushnud va xursand qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og‘ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Shuningdek, farzandning ham ota-ona oldida bir qator burch va majburiyatlari bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova D. Oila poydevori haqida risola (asaring ikkinchi nashriga kirish so‘zi). Fitrat. Oila. -T.: «Ma’naviyat», 2000.
2. Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. -T.: «Ma’naviyat», 2000.
3. Oila, ma’naviyat va ijtimoiy hayot. Respublika ilmiyamaliy konferensiya materiallari to‘plami. -T.*. 1998.
4. Xusain Voiz Koshifiy. Futuwatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. -T.: 1994.
5. Sher A. Axloqshunoslik. - T.: 2003.
6. B. Shoumarov, Sh. B. Shoumarov. Muhabbat va oila. -T.: «Ibn Sino» 1994.
7. Kaykovus. Qobusnoma. -T.: «Meros», 1992.
8. Qur’oni Karim. «Niso» surasi, 34-oyat. «Cho‘lpom». -T.:

**UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA MA'RIFIY ISLOHOTLAR VA
BARKAMOL INSON TARBIYASI**

Andijon Pedagogika Instituti magistranti

Jabborova Sayyoraxon Abduqodirovna

Annotatsiya: Ushbu maqoladamizda uygʻonish davri, Oʻzbekistonda uchinchi renessans, bu davrda maʼnaviy- maʼrifiy islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi haqida maʼlumot berilgan

Kalit soʻzlar: uygʻonish, uchinchi renessans, barkamol avlod, yuksalish, maʼnaviyat.

Аннотация: В данной статье представлена информация о периоде возрождения, третьем ренессансе в Узбекистане, духовно-образовательных реформах и воспитании зрелого поколения в этот период.

Ключевые слова: возрождение, третий ренессанс, зрелое поколение, подъем, духовность

Abstract: This article provides information about the renaissance period, the third renaissance in Uzbekistan, spiritual and educational reforms and the education of a mature generation during this period.

Key words: revival, third renaissance, mature generation, rise, spirituality.

Uygʻonish davri (Renessans) Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy, Gʻarbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-maʼnaviy yuksalishga nisbatan qoʻllanilgan, uni oʻrta asrlar turgʻunligidan yangi davrga oʻtish bosqichi deb

baholaganlar. Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi" yoki "Sharq Uyg'onishi" nomi bilan atalib kelinmoqda. Yangi O'zbekiston va renessansning uchinchi to'liqini. Bu haqda so'z borganda, avvalambor, xalqaro tajribada jahon siyosiy atamashunosligini yangi tushunchalar bilan boyitadigan davlat va jamoat arboblari kam topilishini ta'kidlash lozim. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" tushunchasini dunyo siyosati lug'atiga kiritgani beqiyos ilmiy ahamiyatga ega. Yangi O'zbekiston - bu ibora davlatimiz rahbari ilgari surgan va bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g'oyadir. Bu g'oya zamirida bir tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning "Uchinchi Renessans" poydevorini qo'yishdek ezgu maqsad-muddaolari; ikkinchi tomondan, milliy tariximizda birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan ulug' ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari; uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o'qish va izlanishga da'vat o'z mujassamini topgan. Iymonli insonlar Uchinchi Renessans ijodkorlari hisoblanadi. Uchinchi Renessans yaratish bir yoki ikki kishining ishi emas. Uni barpo etish uchun mamlakatning har bir vakili — xoh yosh bo'lsin, xoh katta — barcha barobar harakat qilmog'i lozim. Renessans yaratishga ishonish bilan birga, qattiq harakat ham qilish shart. Bu ham oson kechadigan jarayon emas. Chunki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun dastlab ma'naviyatli insonlar qatlamini shakllantirish kerak. Bunday insonlarda tafakkur hissiy ongdan ustun keladi, inson o'zini o'zi idora qila oladi. Ma'naviyat insonni ongli yashash va olijanob xislatlarga chorlaydigan noyob faoliyatdir. Uni yuksaltirish masalasi esa, ko'proq insonning o'ziga va unga ta'sir o'tkazadigan muhitga bog'liq. Iymon inson ongi va dunyoqarashi bilan bog'liq nodir fenomen bo'lib, bu tushunchaga ko'pchilik bir tomonlama, ya'ni diniy

tushuncha sifatida qaraydi. Aslini olganda, iymon nafaqat diniy tushuncha, balki yuksak ijtimoiy-falsafiy ma'noga ega, bugungi kun, davr uchun o'ta zarur ijtimoiy qadriyat hamdir.

Demak, Uchinchi Renessansni qurishga intilgan iymonli insonlar jamiyati qaror topgan bo'lsa, ular millat, irq, din tanlamaydi, aksincha, bir-biri bilan hamkor, hamnafas bo'lib, yangilanishlar yaratishga bel bog'laydi. Vatan uchun, xalq uchun yonib yashaydi. Birgina bugunni emas, kelajakni o'ylaydi. Farzandlar baxtu kamoli haqida qayg'uradi. Bu esa, jamiyat va davlat taraqqiyotiga olib keladi. eng muhimi, o'sib kelayotgan yosh avlod shunday insonlardan ibrat olib, yuksak e'tiqodli bo'lib voyaga etadi.

Iymonni shartli ravishda ikki yo'nalishga bo'lish mumkin. Birinchisi, aniq hayotiy ehtiyojlarni qondirish zarurati asosida yuzaga keladigan g'oya, fikr, mulohaza, taxmin, farazga ishonchdan iborat ma'naviy-ruhiy holat.

Ikkinchisi, muayyan dunyoqarashda ifodalangan g'oyalar, timsollarni haqiqat yoki haqiqat emas, deb qabul qilish asosida ongda, his-tuyg'uda yuzaga keladigan ishonch va ishonchsizlikdan iborat ruhiy holat.

Ma'lumki, har qanday fikr ham g'oya bo'la olmaydi. Uning g'oyaga aylanishi uchun odamlarni birlashtiradigan, o'z orqasidan ergashtira oladigan xususiyat bo'lishi lozim.

Demak, Prezidentimizning “Uchinchi Renessans poydevorini yaratamiz”, degan fikri g'oyaga aylanishi, ro'yobga oshishi uchun, avvalo, barchamiz birdek ishonishimiz, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borib, odamlarning dunyoqarashida ana shu g'oyaga ishonchni, ma'naviy-ruhiy holatni shakllantirishimiz lozim. Chunki muayyan dunyoqarash asosidagi g'oyalar, timsollarni ixtiyoriy yoki an'ana tufayli haqiqat sifatida qabul qilgan hamda muayyan jamoa oldida shu ishonchiga sodiq qolishga ichki his-tuyg'u bilan iqror bo'lgan inson o'sha g'oyalarda nazarda tutilgan munosabatlarning tashuvchisi, qadrlovchisiga aylanib, boshqalarni ham shunga da'vat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020 yil 30 dekabr. №276.
2. Renan "Dialogues fragments philosophiques" - "Falsafiy dialoglar va parchalar". P., 1876, r. VIII-IX.
3. Jahon falsafasi qomusi "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent-1916, 2-jild,
4. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во "Наука". Главная редакция Восточной литературы. М., 1966, 144-145-бетлар.
5. Ma'naviyat yulduzlari. Mas'ul muharrir: M.M.Xayrullaev. T.: A.Qodiriy nomilagi xalq merosi nashriyoti, 1999.,

**O'ZBEKISTONDA XALQNI ROZI QILISH KONSEPSIYASINING
IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI**

Andijon Pedagogika Instituti magistranti

Ma'murova Dilafruz Avazbekovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning taraqqiyot yo'li, yurtimizda xalqni rozi qilish konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslari haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, taraqqiyot, konsepsiya, orzu- istaklar, millat, ma'rifiy ishlari.

Аннотация: Данная статья содержит комментарии о пути развития Узбекистана, социально-философских основаниях концепции нравиться людям в нашей стране.

Ключевые слова: Узбекистан, развитие, концепция, мечты, нация, воспитательная работа.

Annotation: This article contains comments on the path of development of Uzbekistan, the social-philosophical foundations of the concept of pleasing the people in our country.

Key words: Uzbekistan, development, conception, dreams, nation, educational work.

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Buni yangi O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatidan tortib, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hamda diniy-ma'rifiy sohalardagi tub islohotlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro

hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo‘llab-quvvatlash hamda tinchlik-totuvlikni ta‘minlashga qaratilgan izchil, puxta o‘ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanmoqda. E‘tiborlisi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbus asosida 2018-yili BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat BMTga a‘zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan ma‘qullandi.

Rezolyutsiya jahonda ekstremizm, terrorizm muammosi avj olib, turli din va e‘tiqod vakillariga nisbatan toqatsiz, murosasiz munosabatlar kuzatilayotgan bir vaqtda global tahdidlarga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya masalasini ilgari surgani bilan ahamiyatlidir.

So‘nggi yillarda barcha soha va yo‘nalishlarda fundamental islohotlar amalga oshirildi. Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish uning birinchi maqsadi etib belgilangan. Iqtisodiyot va ijtimoiy hayotdagi barcha sohalar inson manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan. Xususan, joriy yilning birinchi yarmida yalpi ichki mahsulot 5,4 foiz o‘sgan. Sanoat, qurilish, savdo va xizmatlar sohalaridagi rivojlanish sur‘atlari ham, pirovardida, aholi turmushida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, Xalq qabulxonalari, ijtimoiy tarmoqlar va so‘rovlar orqali soha va hududlardagi muammolar, odamlarning adolatli takliflari o‘rganib borilmoqda. Ular asosida xalqimizni rozi qiladigan qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, tadbirkorlik bo‘yicha litsenziya va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartibi soddalashtirildi, muddatlari qisqartirildi. Yil boshidan buyon 50 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik sub’ektlari tashkil etildi. Aholi sotib olgan uylarning 28 foizi ipoteka kreditlari hisobiga moliyalashtirildi. 1-sentabrdan boshlab xususiy sektorda ishlayotgan ayollarga ham davlat

budjetidan 2 million soʻmlik homiladorlik va tugʻish nafaqasi toʻlab berish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi. Aholi va biznesni qiynab kelayotgan muammolar, ular boʻyicha ilgari surilayotgan taklif va tashabbuslar muhokama qilindi. Asosli takliflarni qanoatlantirish, odamlar uchun qulayliklarni oshirish boʻyicha mutasaddilarga koʻrsatmalar berildi.

Prezidenimiz xalqimizni rozi qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish barcha rahbarlarning eng ustuvor vazifasi boʻlishi kerakligini taʼkidladi.

Ayniqsa, oʻzining mahobati va Uchinchi Renessans davriga poydevor qoʻyilayotgan yurtimizda ilmiy salohiyati tufayli maʼrifat maskaniga aylanishi kutilayotgan Oʻzbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi xususida alohida toʻxtalib oʻtish joiz. Zotan, xalqimizning boy diniy-maʼnaviy merosini chuqur oʻrganish va dunyoga targʻib etish, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos oʻrin tutadigan mazkur ilm-maʼrifat markazi hozirdanoq oʻz mahobati, amalga oshirayotgan maʼnaviy, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan butun dunyo havasini keltirmoqda. Yurtimiz aholisining diniy-maʼrifiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda bir necha diniy oliy taʼlim muassasalarida “Qurʼoni karim va tajvid” oʻquv kurslari tashkil etilgani yanada ahamiyatlidir. Bu bilan aholining diniy bilimlarni egallashga ehtiyoji toʻlaqonli taʼminlanishiga erishilmoqda. Ayni paytda mazkur kurslarda aholining turli qatlamlari va turli yoshdagi yuzlab tinglovchilar tahsil olmoqda.

Davlatimiz rahbarining qatʼiyati, tashabbusi bilan Haj va Umra ziyorati qayta tiklandi. Pandemiya tufayli ushbu muqaddas diniy amallarni bajarish imkoniyati cheklangan edi. Biroq yurtimizda bu murakkab vaziyatni bartaraf etishdagi saʼy-harakatlar natijasida aholi dinimizning muqaddas amallarini bajarish imkoniga ega boʻldi. Mazkur islohotlar koʻp millatli xalqimiz hayoti, farovon turmushi, yorqin istiqboli, farzandlar kamoloti va orzu-istaklari roʻyobida oʻz ifodasini topmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, mamlakatimiz rahbarining har bir harakatlari ,har bir qarorlari mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi yo‘lida shamchiroq bo‘lib xizmat qilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.“Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022-yil 1-aprel, 65-son
- 2.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbus asosida 2018-yili BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
3. Абдурахманов К.Х., Шарифуллина Т.А. Экономика и социология труда. Учебное пособие. – М.: Изд-во «РЭА им. Г.В.Плеханова», 2002.
- 4. Алиев И.М. Экономика труда. Учебник для бакалавриата и магистратуры. –Люберсы: Юрайт, 2016.**
- 5. Винокуров М.А. Трудовые ресурсы региона и рынок труда. – Иркутск: Изд-во Иркутского ун-та, 1991.**
- 6. Волгин Н.А. Новая модель оплаты труда. -М.: Луч, 1992,**

**XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR UCHUN TENG HUQUQ HAMDA
IMKONIYATLAR KAFOLATLARI**

Faxriddinova Nargiza Shamsiddinovna

Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi bosh yuriskonsulti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlari: Jins va gender, genderologiya, biologik, ijtimoiy, siyosiy, gender tenglik.

Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda faol ishtirok etishi, bugungi kunda mehnat bozorida talab qilinadigan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashiga ko'maklashish maqsadida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli Jamg'armasi tashkil etildi.

Mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida ayollarning rolini oshirish sohasida:

2019 yil 2 sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunda "jins bo'yicha bevosita kamsitish" va "jins bo'yicha bilvosita kamsitish" tushunchalariga ta'rif berildi, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning loyihalarini majburiy huquqiy ekspertizasi, gender statistikasi yuritilishi joriy etildi. Oliy Majlis Senati raisi rahbarligida Gender tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha Komissiya tuzildi. Parlamentning yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari Qo'mitasi, quyi palatasida Oila va ayollar masalalari Komissiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning ijrosini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasining tizimli faoliyati tashkil etildi, BRMning beshinchi maqsadi gender tengligiga erishish masalasiga bag'ishlangan.

Oliy Majlis Senati raisi boshchiligida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi tuzilib, uning asosiy vazifalaridan biri xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda Konvensiya va Pekin harakatlar platformasining qoidalarini amalga oshirish masalalarini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

2022 yil O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi va uning ustuvor yo'nalishlaridan biri xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlashdan iboratdir.

Xotin-qizlarning muammolarini tizimli hal etish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Respublika komissiyasi tuzilib, uning asosiy vazifasi hududlarda xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, tizimli hal etish, qashshoqlikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etishdan iboratdir.

2019 yil 25 iyunda O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi qabul qilindi. Unda fuqarolar jinsi, irqiy va milliy kelib chiqishi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, jinsi va mashg'ulot xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga ega bo'lish mustaxkamlangan.

Ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida:

2019 yil 2 sentyabrda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, u ayollarni uyda, ish joyida, ta'lim muassasalarida zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunda bir qator tushunchalar, «jinsiy zo'ravonlik», «jismoniy

zo‘ravonlik», «iqtisodiy zo‘ravonlik», «ruhiy zo‘ravonlik» «zo‘ravonlik», «tazyiq» kabi tushunchalarga keng ta'rif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi «Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5116 sonli qarori bilan 1 ta Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlari hamda zo‘ravonlik qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo‘lgan 1146 qisqa raqamli «Call-center» tashkil etildi.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni tuzatish dasturlari to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan huquqiy va ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha 360 nafar inspektorlar shtat birligi joriy etildi.

Onalar salomatligi sohasida:

Onalar va bolalar salomatligini har tomonlama mustahkamlashni ta'minlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2017 yil 25 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta aniqlash bo‘yicha 2018-2022 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorda, jumladan, homilador ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda patologiyani erta aniqlash bo‘yicha davlat tizimini yanada rivojlantirish, bolalarda nogironlikni kamaytirishga doir vazifalar belgilangan.

2019 yil 11 martda "Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun bilan ayollar va erkaklarga reproduktiv huquqlarini amalga oshirishda teng huquq va imkoniyatlar, farzandlarining tug‘ilishi bilan bog‘liq mustaqil qarorlar qabul qilish huquqi belgilandi, xavfsiz va samarali texnologiyalardan foydalanish kafolatlandi.

2019 yil 23 oktyabrda “Ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunda ko‘krak suti bilan boqishni qo‘llab-quvvatlash, go‘daklar va yosh bolalarning ovqatlanishini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, davlat organlarining vakolatlari belgilandi.

Aristotelning fikricha, er-xotin munosabatlari xo‘jayin va cho‘ri munosabatlari bo‘lishi kerak. Ayol va erkak teng mavjudotlar emas. Ayol farzandiga tanni beradi, erkak esa – mohiyatan ustun bo‘lgan jonni beradi. Erkak – hokimlik qiladi, ayol – bo‘ysunadi¹⁰.

Qayd etish kerakki, XXI asrda ham ko‘pchilik tomonidan Aristotelning fikrlariga o‘xshash fikrlar bayon etiladi (Ayniqsa Sharqda). Uyg‘onish davridan bizni utopiyalar qiziqtiradi. Tomas Mor o‘zining “Oltin kitob”i (“Zolotaya kniga”) da ideal davlatni tasvirlagan. Bu davlatda erkak va ayollar faoliyat chegaralari belgilanmagan: jamoat ishlari, diniy faoliyat (Ruhoniy xizmatchi sifatida), xarbiy xizmat (Faqat o‘z turmush o‘rtoqlari bilan) va h.k. Ayollar yuqori mansablarni egallashlari mumkin bo‘lgan. Tomazzo Kampanella “Quyosh shahri” (“Gorod solnsa”) asarida ideal davlatni tasvirlaydi. Unda ikki jins vakillari tengdirlar (xarbiy ta‘limda ham), ularning kiyimlari ham farqlanmaydi. Farq ularning yumushlaridadir: erkaklar ancha og‘ir ishlarni bajarishgan, ayollar esa nasl qoldirishgan. Ammo ular oila qurishmagan, farzand ko‘rish uchun juft tanlashda esa astrologiya yordamga keladi. Erkak va ayollar o‘zlariga juftni o‘zlari tanlashmagan, bu ishni ular uchun boshliqlar triumvirati astrologiya yordami bilan bajarganlar. Jan Jak Russoning (1712-1778 yy.) fikriga ko‘ra erkak va ayol o‘rtasidagi o‘xshashlik bu avvalo, ularning bir biologik tur vakillari ekanidir: ular ko‘p jihatdan tengdirlar – organlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar. Biroq, jamiyat a‘zolari sifatida ular teng emas. Bunga sabab, ularning tug‘ma xususiyatlaridir. Erkaklar uchun bu xususiyatlar –

¹⁰ Bendas T.V. Gendernaya psixologiya. – M. 2006, S.11. 12

mustaqillik, rostgo'ylik, dadillik va h.k; ayollar uchun esa uyatchanlik, ayyorlik, o'zgalar fikri bilan hisoblashish va h.k. Russo fikricha, ayollar ancha teran fikr va aqlga egadirlar. Shu sababli, ular o'qib, ta'lim olishlari mumkin. Erkaklar va ayollar o'zlari turmush o'rtog'i tanlagan holda, sevib turmush qurishlari mumkin. Immanuel Kant (1724-1804 yy.) uchun erkak va ayol – boshqaruvchi va boshqarilmishdir. Ya'ni erkaklarning jamiyat siyosiy hayotidagi faoliyati aktiv, ayollarniki – passiv. Kant tomonidan bayon etilgan, gender stereotiplari qatorida turuvchi ushbu fikr, ya'ni ayollarning siyosiy yoki boshqa muhim qarorlar qabul qilishga qodir emasligi bugungi kunda ham ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi. Ko'rinib turganidek, o'tmish arboblari jinslar o'rtasidagi farqlarni qayd etishgan va bu ularning fikricha tabiiy holdir. Bunday gender stereotiplari hech qanday isbotni ham talab etmaydi. Zamonaviy fan esa ularning (o'zgacha) ma'lum isbot va asoslarini talab etadi. Ingliz yozuvchisi Mari Uollstounkraft (1759-1797 yy.) ning fikricha, yuqorida “tabiiy” deya ta'kidlangan hislatlarning asosi tarbiyadadir. Ya'ni, qizlar bolaligidan o'zlariga oro berib, qo'g'irchoq o'ynashsa, o'g'il bolalar boshqacharoq – ko'proq quvvat talab etadigan, kuch talab etadigan, shovqinli o'yinlar o'ynashadi. Fridrix Shlegelning fikrlari zamondoshlari fikrlaridan birmuncha farq qiladi. U “tabiiy” deb atalgan jinslar o'rtasidagi farqlarni qo'ya turib, mukammal – ya'ni o'zida erkaklar va ayollar xizmatlarini birlashtirgan shaxs haqida fikr yuritadi. U erkaklarga o'zlariga yetishmaydigan ayollarga xos hislatlarni (masalan, emosionallik), ayollarga esa erkaklarga xos hislatlarni (masalan,) o'rganishni maslahat beradi. Artur Shopengauyer (1788-1860 yy.) erkaklar va ayollar psixik jarayonlariga e'tibor beradi. Erkaklar uchun – mavhumlik, ayollar uchun – konkretlik (aniqlik) xosdir. Bundan 14 tashqari Shopengauyerning fikricha farzandni dunyoga keltiruvchi erkak va ayol o'rtasidagi sevgi va ehtirosdir. Oila qurish uchun u boshqa omil va sabablarni tan olmaydi. Demak, birinchi bosqich turli olimlarning turlicha qarashlariga boy. Biroq bu davrda gender psixologiyasi alohida soha sifatida shakllanib ulgurmagan, uning muammolariga bag'ishlangan alohida ishlar qilinmagan. Ikkinchi bosqich (XIX asrning oxiri –

XX asr boshlari) – gender psixologiyasining predmeti va ilmiy asoslari ishlab chiqilgan bosqich. Bu davrda ko‘plab g‘arb mamlakatlarida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Fransiya, Angliya va AQSHda ayollar erkinligi uchun harakatlar avj oldi. Bu harakatlar gender psixologiyasi tarixining bir qismi hisoblanmasa ham ilgari gender psixologiyasi predmetiga kirmaydigan muammolarga olimlar diqqatini tortdi. “Feminizm” so‘zi fransuz tilida XIX asrning birinchi yarmida paydo bo‘lgan (bu so‘z o‘zi anglatgan mohiyatdan keyinroq yuzaga kelgan). 1830 yilda esa “erkin ayol” (“emansipirovannaya jenhina” – lotincha “emancipatio” – erkinlik, ozodlik) termini ham paydo bo‘ldi.

Xulosa qilib ayatdign bo‘lsak, ushbu jamoat harakatining ishtirokchilari ham ayollar, ham erkaklardir. Harakatning maqsadi – ayollarga erkaklar bilan teng bo‘lgan ta’lim olish, iqtisod va saylov bilan bog‘liq boshqa huquqlar uchun kurashishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mead M. Sex and Temperament three Primitive Societies. 1935. N.Y.
2. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –T.: Akademyashr, 2011.
3. A.Nurmonov, B.Yo‘ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – T. “SHarq”, 2001.
4. A.Nurmonov, SH.Iskandarova. Tilshunoslik nazariyasi. – T., “Fan”, 2008.
5. Alpatov V.M. YAroniya. YAZЫK i obщestvo. M., 1988.
6. Bendas T.V. Gendernaya psixologiya. – M. 2006.
7. Bogin G.I. Obretenie sposobnosti ponimat: Vvedenie v filologicheskuyu germenevtiku / G.I.Bogin. – Tver, 2001.
8. Bochkarev A.E. Semanticheskiy slovar / A.E.Bochkarev. – Nijniy Novgorod:Dekom, 2003.
9. Voronina O.A. Teoretiko-metodologicheskie osnovы gendernыx

issledovaniy //

10. Teoriya i metodologiya gendernyx issledovaniy. Kurs leksiy / Pod общ. red. O.A. Voroninoy. – M.: MSGI – MVSHSEN – MFF, 2001.

11. Gadamer G. Istina i metod: Osnovy filosofskoy hermenevtiki. (Per. s nem)/Gans-Georg Gadamer. – M.: Progress, 1988.

12. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. –T. “O‘zbekiston”, 2007.

THE PRINCIPLE OF OPERATION OF THE OIL SEPARATOR.

*KEEI, Assistant of “Geology and exploration of
Minerals” Department*

Komilov Botir Asqar o‘g‘li

*KEEI, Assistant of “Geology and exploration of
Minerals” Department*

Rabbimov Jaxongir Shodmonkulovich

Abstract Effectiveness is achieved when using proposals for the use of gas turbine power plants as a fuel for obtaining electricity in gas turbine power plants in extracting the latest raw materials from the composition of satellite oil and gas products based on the use of modern technologies.

Key words: concentration, shleyf, deflector, occlusive, nozzle, geometric, bobber, gas impactor.

The loss of light fractions depends on the quality of oil, schemes of collection and separation technology, transportation and storage conditions. With the increase of pressure in the stages of separation, the amount of gas released from oil decreases, and the amount of heavy components in its content increases.

In the process of separating oil from gas, main hydrocarbons and associated gases are separated. In this case, molecular diffusion of hydrocarbons and other components occurs when the pressure is reduced and the temperature of the oil is increased and there is phase concentration above the oil. The process of gas separation occurs in the general path of oil movement: in the well, in the plume, in oil collection collectors and reservoirs in the field and at its outer boundary, and in the transportation of oil by water or rail transport.

The process of separation of hydrocarbons and associated gases in atmospheric conditions is called oil evaporation.

Separators used in oil fields are conditionally divided into six stages:


- 1) according to their purpose - it divides to measuring separators and ordinary separators;
- 2) geometric shape and position in space - cylindrical, spherical, vertical, horizontal and inclined;
- 3) according to the order of movement - gravity, inertial (ribbed) and centrifugal (hydrocyclone);
- 4) working pressure - high (6.4 MPa), medium (2.5 MPa), low (0.6 MPa) pressure and vacuum;
- 5) the number of separation stages - one, two, three and more;
- 6) separation into phases - two-phase (oil+gas), three-phase (oil+gas+water).

Any type of oil separator is divided into the following sections: main separator, quencher, liquid collection section, wet grip

The main separator - serves to separate the product of the well into gas and liquid. Product entry from wells is carried out tangentially or normally through a special gas receiver (deflector) structure.

Under the water, the gas released from the product of the well rises up under the influence of additional central forces and as a result of the change in the flow of the liquid, and the gas leaves the separator, and the liquid goes down.

In the precipitator, additional gas bubbles in the occlusive (meaning absorption) state are separated in the oil. In the sediment separation section, when the oil flows through one or more deflectors (flow augers) located at the bottom of the gas separator, gas is separated from the oil. Liquid collection section - serves for liquid collection, ensures complete separation of gas under the influence of pressure and temperature maintained in the gas separator.



**1-rasm. Vertical individual measurement– separation device
combination:**

1-measured water output; 2-extension counter; 3-Counter; 4-section for filtered water; 5-servo valve; 6-water measurement section; 7- water output; 8- float regulator in the water compartment; 9-deflector; 10- input of the product from the well; 11,14-pipe for gas; 12-nozzle; 13-gas outlet; 15-section for gas; 16-gas hammer; 17-water department; 18-section for measuring oil; 19-bobber; 20-section for calibrated oil; 21-measured oil output; 22-oil output; N-oil; S-water.

This section is divided into two: the first section above is for oil; and the second serves for water and ensures the independent release of liquid from the separator. The layer of liquid is held in the section by means of a level holder. The loss of waste in production is related to the development of technology and the growth of production.

Wet trap is located at the top of the separator. It serves to trap liquid particles coming through the gas stream. It is recommended to separate gas from oil in the first step of the horizontal separator.

Vertical separators are designed to separate oil, gas and water. That is why it is also called a divider meter. The establishment of production and consumption of liquefied hydrocarbon gases depends mainly on the resource base of each country. It differs from other separators in that it separates oil from water, and a sectional counter for collecting liquid is installed.

Separation of liquids in gauges and oil-gas separators and reduction of the height of bubbles is carried out by heating the liquid. In the heating process, heating is carried out with the help of a stove installed in the gas separator, and fuel or gas is used for heating.

References

1. Agzamov A.X. «Neft va gazni dunyo energiya balansidagi o'rni», Toshkent, «Neft va gaz» jurnali -2015, № 4/2015b 67-70 bet.

2. Алькушин А.И., «Эксплуатация нефтяных и газовых скважин», Москва, Недрa – 1989, 360 стр.

3. Yuldashev T.R., Eshkabilov X.Q. «Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari», O'quv qo'llanma, Qashqadaryo ko'z gusi OAV -2015. 328 bet.

4. Maxmudov N.N., Yuldashev T.R. «Neft va gaz qazib olish texnologiyasi va texnikasi », Darslik, Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti-2015. 392 bet.

5. Maxmudov N.N., Yuldashev T.R., Akramov B.SH., Tursunov M.A. «Konlarda neft va gaz tayyorlash texnologiyasi», Darslik, Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti-2015. 308 bet.

6. Yuldashev T.R., Samiyev M.E., Nurboyev M.C. «Neft gazlaridan suyultirilgan uglevodorodlarni ishlab chiqarishni tadqiqotlash». Iqtisodiyotni

modernizatsiya qilish va texnologik yangilash sharoitida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qarshi sh.-2015 y. 116-118 b.

7. Maxmudov N.N., Shafigiev P.U., Yuldashev T.R., Tursunov M.A. “Технология сбора и подготовка нефти, газа и воды на промыслах ”,

8. Yuldashev T.R., M.S. Nurboyev, D.M. Ataqulova. “Anomal yuqori bosimli gaz va gazkondensat konlarini ishlatish”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. QDU “XXI” asr –intellektual avlod asri-1-2 iyun 2015 yil.

9. Rabbimov J.SH., Dononov J.U. Tabiiy gazni dastlabki tayyorlashda jihozlarning ishonchliligiga erishish // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences Scientific Journal. Volume 2 Issue 3 ISSN 2181-1784 Impact factor:5.947 Uzbekiston 2022/03 <https://www.oriens.uz/uz/journal/article/tabiiy-gazni-dastlabki-tayyorlashda-jihozlarning--ishonchliligiga-erishish/>

10. Turdiyev Sh.SH., Rabbimov J.SH. Qatlamdan kelayotgan oqimni jadallashtirish maqsadida qatlamga kislotali ishlov berish (Murodtepa maydoni misolida) // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Uzbekiston 2022/03/12 <https://zenodo.org/record/6480734#.YoyFptxBxdg>

11. Rabbimov J.SH. Uglerodli po'latlarning konstruktiv mustahkamligini va korroziyaga bardoshliligini oshirish // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(8), 227–234. <https://doi.org/10.5281/zenodo.704537012>

12. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). Suyultirilgan uglevodorod gazlarini olishning resurslari va manbalari. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 505-509.

**TECHNOLOGY OF PRODUCTION OF LIQUEFIED NATURAL GAS
AND POSSIBILITIES OF ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN.**

KEEI, head of the “Geology and exploration of Minerals”

department (PhD) Turdiyev Shahboz SHermamat o‘g‘li

KEEI, 4th year student of “Geology and exploration of Minerals”

department Abdurakhmonov Farrukh ismoil o‘g‘li

Abstract: Effectiveness is achieved when using proposals for the use of gas turbine power plants as a fuel for obtaining electricity in gas turbine power plants in extracting the latest raw materials from the composition of satellite oil and gas products based on the use of modern technologies.

Key words: reforma, import, quvur uzatma, global, suyiltirilgan tabiiy gaz, ko‘mir, tanker.

At the modern stages of the development of the world economy, specific reforms and new trends in the development of the general energy resource structure are emerging. Gas occupies the third place in the world energy balance, and according to an optimistic perspective, it was not put into production at the beginning of 2000. According to press data, it is shown that the demand for gas in European countries will increase by 3% every year, if we consider that the USA is the country that imports the largest volume of gas, there are gaps in the production of gas in the countries of the Middle East, Africa and Australia. it is assumed that it will come out. All this assessment seems to be reinforced today. Over the next 15 years, the share of demand for gas increased by approximately

1.5%, the share of gas in the world market during 2014 was -24.1%, the share of oil - 32.5%, the share of coal - 30.4%.

The development of the world gas industry and marketing has shown that gas reserves will increase by about 1.7 times, and the extraction and consumption will increase by 75%, and the sale of natural gas in liquefied form through pipelines will increase by 30%, of which 10% will be extracted recoverable gas is sold globally in liquid form.

In table 4 below, more than 30% of gas is consumed outside the countries, and in general, the volume of gas production has increased by 1.5-2 times.

Organizations of production of liquefied natural gases (LNG) are carrying out promising work on ensuring the consumption of insufficient oil products with alternative fuels in the energy balance of the country.

In addition, when using natural gas as a fuel, it is necessary to focus on solving two problems of environmental protection: firstly, the issue of reducing atmospheric pollution and secondly, the issue of reducing the greenhouse effect. A quarter of the world's produced gas is liquefied and sold in liquid form to gas consumers from producing countries using special tankers.

1-table

The general situation of gas networks in the world energy balance

Naming	1990	1995	2000	2005	2010	2015
Reserves, trln.m ³	116	140	154	152	165	191
Mining, trln.m ³	2	2,1	2,4	2,8	3,2	3,7
Consumption, trln.m ³	2	2,1	2,4	2,8	3,2	3,6
Cross-border sales, mln.m ³	308	506	651	848	982	1122
To gas transmissions, mlrd.m ³	236	413	508	659	686	721
Liquefied natural gas, mlrd.m ³	72	93	142	189	296	401

References

1. Agzamov A.X. «Neft va gazni dunyo energiya balansidagi o'рни», Toshkent, “Neft va gaz” jurnali -2015, № 4/2015b 67-70 bet.

2. Maxmudov N.N., Yuldashev T.R. “Neft va gaz qazib olish texnologiyasi va texnikasi”, Darslik, Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti-2015. 392 bet.

3. Maxmudov N.N., Yuldashev T.R., Akramov B.SH., Tursunov M.A. “Konlarda neft va gaz tayyorlash texnologiyasi”, Darslik, Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti-2015. 308 bet.

4. Maxmudov N.N., Шафиев Р.У., Yuldashev T.R., Tursunov M.A. “Технология сбора и подготовка нефти, газа и воды на промыслах ”.

5. Yuldashev T.R., M.S. Nurboyev, D.M. Ataqulova. “Anomal yuqori bosimli gaz va gazkondensat konlarini ishlatish”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. QDU “XXI” asr –intellektual avlod asri-1-2 iyun 2015 yil.

6. Rabbimov J.SH., Dononov J.U. Tabiiy gazni dastlabki tayyorlashda jihozlarning ishonchliligiga erishish // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences Scientific Journal. Volume 2 Issue 3 ISSN 2181-1784 Impact factor:5.947 Узбекистон 2022/03 <https://www.oriens.uz/uz/journal/article/tabiiy-gazni-dastlabki-tayyorlashda-jihozlarning--ishonchliligiga-erishish/>

7. Turdiyev Sh.SH., Rabbimov J.SH. Qatlamdan kelayotgan oqimni jadallashtirish maqsadida qatlamga kislotali ishlov berish (Murodtepa maydoni misolida) // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Узбекистон 2022/03/12 <https://zenodo.org/record/6480734#.YoyFptxBxdg>

8. Rabbimov J.SH. Uglrodli po'latlarning konstruktiv mustahkamligini va korroziyaga bardoshliligini oshirish // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(8), 227–234. <https://doi.org/10.5281/zenodo.704537012>

9. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). Suyultirilgan uglevodorod gazlarini olishning resurslari va manbalari. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 505-509.

10. Shahboz, S., Komilov, B., & Rabbimov, J. (2022). YO ‘LDOSH GAZLARNI TOZALASH, SUYUQLIK, GAZNING HARORATI VA YENGIL UGLEVODORODLARNI UTILIZATSIYA QILISHNING ZARURLIGI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 677-680.

**ЛИТОЛОГО-СТРАТИГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА
НИЖНЕМЕЛОВЫХ ОТЛОЖЕНИЙ**

Дононов Жасур Уралович

Ассистент: Каршинского инженерно-экономического института;

Ахмедова Дилфуза Азаматовна

Ассистент: Каршинского инженерно-экономического института;

Аннотация: Характеристика коллекторских свойств неокомских (в дальнейшем и для других) отложений дается с запада на восток, от Юго-Западных отрогов Гиссара в сторону Южно-Таджикской впадины. В пределах рассматриваемой области неокомские образования представлены снизу вверх следующими свитами.

Ключевые слова: Кайнарбулак, Окузбулакская свита, Такчинская серия, Кызылташская свита, Альб.

Такчинская серия (комплекс континентальных красноцветных молассовых формаций) отчетливо расчленяется на карабийскую, альмурадскую и кызылташскую свиты.

Карабийская свита в нижней части разреза сложена гидрослюдистыми глинами красных, вишнево-красных и красновато-бурых тонов, а также алевритистыми и песчанистыми. Мощность глин 45-142 м. Верхняя часть составлена песчаниками и алевролитами с прослоями конгломератов красновато-бурых, вишнево-бурых и голубовато-серых тонов. Мощность свиты от 60 до 140 м.



Рис.1.8. Общий вид разреза Карабилской, Альмурадской и Кызылташской свит в кишлаке Дарбанд

Альмурадская свита широко развита в Гаурдак-Кугитанской и Тюбегатан-Лялимканском районах и представлена глинами светло- и красновато-коричновыми от неясно до микрослоистых, местами огипсованными. Наблюдаются маломощные (до 2-3 м) линзовидные прослои гипсов (ангидритов), иногда серых органогенно-детритовых известняков, доломитов и мергелей. На СВ крыле Тюбегатанской структуры отмечаются 3-4 прослоя красновато - и зеленовато-бурых алевролитов. Для глин альмурадской свиты характерно интенсивное ожелезнение, известковистость, огипсованность и обогащенность терригенной (песчано-алевритовой) примесью. Мощность свиты колеблется от 60 м в северной полосе до 100-130 м в южной.

Кызылташская свита представлена алевролитами и песчаниками с прослоями глин и гипсов вишнево-бурых, кирпично-красных, светло-серых, серых и голубовато-зеленых тонов. Общая мощность свиты колеблется, от 15 до 40 м в северных и от 110 до 140 м в северо-восточных и южных районах.

При этом следует отметить, что породы карабилской,

альмурадской и кызылташской свит с юго-запада на северо-восток замещаются сначала песчаниками и конгломератами, а далее, в районе Каратаг, переходят полностью в конгломераты. Поэтому в районах Шаргун, Каратаг в неокомских отложениях эти свиты выделить невозможно.

В южных областях (Кампрек) Юго-Западных отрогов Гиссарского хребта среди неокомских отложений наиболее благоприятные коллекторские свойства у песчаников карабильской и кызылташской свит. Полная пористость их колеблется от 10 до 20%, открытая – от 9 до 14%, полезная емкость – от 4 до 8%, проницаемость – от 1 до 67 мдарси.

В районе Кайнарбулак емкостные и фильтрационные свойства песчано-алевроитовых пород неокомских отложений намного лучше, чем в юго-западных районах. Особенно высокими (до 1579,2 мдарси) фильтрационными свойствами обладают песчаники альмурадской свиты. Полная пористость песчано-алевроитовых пород карабильской и кызылташской свит колеблется от 8 до 38%, открытая – от 2 до 20%, полезная емкость – от 2 до 17%, проницаемость – от 1 до 275 мдарси.

Наиболее высокими емкостными (полная пористость) свойствами в неокомских отложениях отличаются песчаники кызылташской свиты в районе Аулат. Полная пористость их достигает 41-47%, однако открытая не превышает 18%, полезная емкость – 14%, проницаемость варьирует от 9 до 1125,7 мдарси.

В районах Верхний Мачай и Урадарья наиболее пористые и проницаемые песчаники залегают в кызылташской и окузбулакской свитах. Полная пористость их достигает 20-22%, открытая – 15-17%, полезная емкость 3-13%, проницаемость – 124 мдарси.

Средние значения полной и открытой пористости, полезной емкости песчано-алевроитовых пород альмурадской свиты соответственно равны 9, 2, 1%, для кызылташской – 8-10, 5-7, 2-3%.

В Шаргуне и Каратаге относительно хорошие емкостные и

фильтрационные свойства свойственны песчаникам кызылташской свиты. Полная пористость их колеблется от 15 до 20%, открытая – от 14 до 17%, полезная емкость – от 9 до 14%, проницаемость – от 4 до 216 мдарси.

В пределах Южно-Таджикской впадины среди неокомских образований довольно часто встречаются высокопористые и проницаемые песчаники, которые залегают в накоплениях кызылташской и альмурадской свит в северных районах Бабатага. Особенно высокие значения проницаемости установлены в районе опорного разреза Джетыкыр до 8775 мдарси.

Полная пористость песчаников неокома в данных районах варьирует от 7 до 25%, открытая – от 6 до 20, полезная емкость – от 2 до 18%, а проницаемость – от 1 до 8775 мдарси.

Таким образом, в рассматриваемом регионе наиболее благоприятные коллекторы связаны в основном с песчаниками кызылташской свиты и развиты в его северных районах.

Окузбулакская свита в пределах Юго-Западных отрогов Гиссара имеет **двучленное строение**. Нижняя часть составлена глинами, алевролитами, аргиллитами бордово-красных, вишнево-бурых и голубовато-зеленых тонов, с прослоями белых и розовых гипсов, известняков и мергелей. Общая мощность свиты 60—70 м. Верхняя часть представлена **мощной** толщей гипса с **прослоями** (от 5 до 2 м) глин, **алевролитов** и глинистых **известняков**. В северо-восточных и северных районах (Шаргун, Каратаг) мощность гипсов сокращается за **счет замещения глинистых известняков** сильно огипсованными песчано-глинистыми породами. Общая мощность свиты 40—80 м.

На промыслах Комсомольское и Аидыген проводили анализы только по **песчаникам** окузбулакской свиты. По имеющимся данным, полная пористость песчаников колеблется от 2 до 20%. открытая – от 1 до 16%, **полезная** емкость – от 1 до 11 %, а проницаемость – до 17 мдарси.

В восточной части Южно-Таджикской впадины, в районах Акмазар,

Нурек, Булгари, Хингоу, Даштыгурк, Иокунж, Ройка, Хирманджоу, коллекторские свойства неокомских отложений характеризуются пониженной пористостью и низкой проницаемостью. Низкие значения физических свойств обусловлены главным образом плохой отсортированностью и сильной уплотненностью пород. Уплотненность пород-коллекторов обусловлена геостатическим давлением толщ с мощностью, превышающей 3000 м, местами 5000-8000 м.

Апт. Аптские (*калигрекская свита*) отложения в данном регионе составлены подводно- и надводно-дельтовыми и очень незначительно (в северных районах) континентальными (субаквальные осадки опресненного водоема) образованиями. Они характеризуются пачкой чередующихся известковистых алевролитов, песчаников, глин, детритовых и органогенных известняков и реже мергелей, окрашенных в светло-серые, серые, зеленовато-серые и желтоватые тона. В северных и северо-восточных районах увеличивается роль глин, алевролитов и песчаников, окрашенных преимущественно в красные тона.

В районах Шакарлистана, Кайнарбулака, Аулата и Верхнего Мачая песчаники аптских отложений (плотность в среднем 2,20-2,30 г/см³) имеют полную пористость от 4 до 21%, открытую – от 3 до 17%, полезную емкость – от 2 до 12%, проницаемость – от 1 до 60 мдарси.

Сравнительно хорошими емкостными и фильтрационными свойствами обладают песчаники апта в Бабатаге, Джетыкыре, Дасгиряке, Каракузе и Аксу. Полная пористость песчаников колеблется здесь от 10 до 21%, открытая – от 5 до 20%, полезная емкость – от 2 до 15%, проницаемость – от 1 до 175 мдарси.

В Акмазаре емкостные и особенно фильтрационные свойства песчаников апта ухудшаются. Полная пористость в среднем достигает 14%, открытая – 8,71%, полезная емкость – 7,32%, а проницаемость – 1 мдарси.

В северо-восточных районах Южно-Таджикской впадины коллекторские свойства пород аптских отложений еще более

ухудшаются. В Ну-реке, Булгари, Хингоу, Даштыгурке, Ройке полная пористость песчаников аптских отложений, за редким исключением, не превышает 5-6%, открытая – 4-5%, полезная емкость – 2-3%, проницаемость – 1 мдарси. Однако в Ройке наряду с плохими коллекторами встречаются отдельные пласты слабо уплотненных песчаников с открытой пористостью 28%, но с полезной емкостью, не превышающей 9%. Такое резкое различие в значениях полезной емкости и открытой пористости объясняется тем, что поры в этих песчаниках очень мелкие и сообщаются между собой узкими канальцами. Поэтому и проницаемость едва превышает 60 мдарси.

Таким образом, в пределах юго-западных отрогов Гиссара и Южно-Таджикской впадины породы-коллекторы апта литологически представлены песчаниками, обладающими пониженной и низкой емкостью и проницаемостью.

Низкие значения физических свойств пород аптских отложений обусловлены в основном повышенным содержанием в них известковистого и глинистого цемента, а также их относительной уплотненностью.

Альб. Отложения выражены почти исключительно мелководно-морскими фациями, кроме отдельных северных и северо-восточных районов, где наряду с образованиями гидроморфной окраски (темно-серые, серые, зеленые) присутствуют пласты красноцветных песчано-глинистых и грубообломочных пород прибрежно-морского, дельтового и континентального генезиса.

В разрезе альба очень редко встречаются песчано-алевритовые породы, которые могут служить коллекторами для скопления нефти и газа. Имеющиеся прослойки и отдельные мощные пласты песчано-алевритовых пород, за редким исключением, характеризуются низкими емкостными и фильтрационными свойствами.

В отдельных районах (Джетыкыр, Каракуэ, Гарданышты,

Калламазар, Шакарлистана) наряду с коллекторами низкой емкости встречаются пористые и проницаемые горизонты песчаников. Полная пористость их колеблется от 14 до 31%, открытая – от 10 до 23%, полезная емкость – от 8 до 18%, проницаемость – 25-1979 мдарси.

Наряду с высокопористыми и проницаемыми песчаниками в среднем и верхнем альбе часто встречаются плотные (2,24—2,55 г/см³) разности песчано-алевритовых пород. Полная пористость их колеблется от 5 до 13%, открытая – от 3 до 14%, проницаемость – обычно <1 мдарс.

В северо-восточных и восточных районах Южно-Таджикской впадины емкостные и фильтрационные свойства песчаных пород альбских отложений намного ухудшаются. Открытая пористость, за редким исключением, в среднем не превышает 5%, а проницаемость – 1 мдарси.

Таким образом, песчаники альба в пределах Юго-Западных отрогов Гиссара и Южно-Таджикской впадины характеризуются в основном низкими емкостными и фильтрационными свойствами.

Легиратура

1. Абидов А.А., Обидова А.А. Абу Райхон Беруний номидаги Тошкент давлат техника университети. Таянч Ўқув-методик тадқиқот маркази. Тошкент-Дарбанд, 2015. 21 б.

2. Дононов Жасур Урал ўғли. Байсунского прогиба палеогеография, тектоника и геодинамика исследуемой территории // Научные горизонты. – 2020. –С. 149-154

3. Турдиев, Ш., Комилов, Б., Раббимов, Ж., & Бўриев, С. (2022). МУРОДТЕПА МАЙДОНИДА ИЗЛОВ-ҚИДИРУВ ИШЛАРИНИ БАҲОЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 246-250.

19. Тураев Н., Имомқулов Қ., Қўчқаров С. Қурилманинг лемехлари орасидаги кўндаланг масофани унинг иш кўрсаткичига таъсири // Фарғона политехника институти илмий-техника журнали. – Фағона, 2020. №3, – С. 50-54.

20. Normirzayev A. R., Nuriddinov A. D. Grounding of the Longitudinal Distance from the Plow Corps to the Center of the Disk Skimmer //Innovations in Science and Technology Vol. 8. – 2022. – С. 14-20.

21. Нормирзаев А. Р., Валиева Г. Ф. Изменение физико-механических свойств почвы под воздействием движителей тракторов //Вестник Науки и Творчества. – 2016. – №. 5 (5). – С. 351-354.

22. Тўхтабоев М. Т. И., Нормирзаев А. Қишлоқ хўжалигида тупрок экологиясининг аҳволи ва ечимини кутаётган долзарб масалалар. 2014 //Республика илмий-техник конференцияси материаллари. – С. 16-17.

23. Нормирзаев А., Нуриддинов А., Маннонов Ж. Воздействия на почву ходовых систем МТА и их оценка //Мировая наука. – 2018. – Т. 5. – С. 515-519.

24. Нормирзаев А. Р., Нуриддинов А. Д. Воздействия двигателей колесных и гусеничных тракторов на урожайность сельхозкультур //ТЕХНОКОНГРЕСС. – 2018. – С. 7-10.

25. Нормирзаев А., Нуриддинов А. Разработка комбинированного агрегатов для основной и предпосевной обработки почвы //Точная наука. – 2020. – №. 69. – С. 56-58.

26. Тураев Н., Имомқулов Қ., Қўчкаров С. Кўмилган анор тупларини ярим очадиган қурилманинг корпуслари орасидаги кўндаланг масофани унинг иш кўрсаткичларига таъсири // Механика ва технология илмий журнали. – Фарғона, 2020. №2, – С. 94-99.

27. Хаджи-Мурадов А. О., Нормирзаев А. Р. К обоснованию продольного и поперечного расстояния от носка лемеха корпуса до центра сферического диска. Научные труды ВИМ.-Т. 147 //Москва. – 2003. – Т. 67. – С. 72.

**BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI
SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH.**

Buxoro pedagogika kolleji

"Bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish" fani o'qituvchisi

Jalolova Shaxnoza

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va tasavvurlarni shakllantirish metodikalari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: pedagog-tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, matematika, ta'limtarbiya, matematik tasavvur, metod, metodika, bilim, faoliyat, tafakkur, anglash, o'yin, o'qitish jarayoni, natija, texnologiya

Annotation: This article talks about the use of information technologies in the formation of mathematical imaginations in children and the methods of imagination formation.

Key words: pedagogue-educator, preschool education, mathematics, education, mathematical imagination, method, methodology, knowledge, activity, thinking, understanding, game, teaching process, result, technology

Аннотация: В данной статье рассказывается об использовании информационных технологий в формировании математического воображения у детей и методах формирования воображения.

Ключевые слова: педагог-воспитатель, дошкольное образование, математика, воспитание, математическое воображение, метод, методика,

знание, деятельность, мышление, понимание, игра, учебный процесс, результат, технология.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi barchaning e'tiboridadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli, 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017 yil 9 sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish kabi davlat hujjatlarida bu sohaga oid masalalarini hal etish nazarda tutilgan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev bu tizimni chuqur tahlil qilib, shu paytgacha nazardan chetda bo'lgan eng kichik jihatlarigacha e'tibor qaratdi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolayotganligi aniqlandi. Aksariyat maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy- texnika bazasi zamon talablariga javob bermayapti. Bolalarni maktabgacha ta'lim ga qamrab olish ko'rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda. Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish

maqsadida «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yurtimizda 2020-yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"deb e'lon qilindi. Qolaversa, prezidentimiz o'z nutqlarida: "Biz 2020-yil davomida belgilangan sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish va isloh etish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Xususan, bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga yetkazishimiz zarur..." deb ta'kidladilar va maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlar mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida bir nechta vazifalar va takliflar berib o'tdilar. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga matematika o'qitish metodikasida asosiy o'rinni metodik usullar sifatida beriladigan savollar egallaydi. Ular reproduktiv-mnemik, reproduktiv-bilish, produktiv-bilish bo'lishi mumkin. Bunda savollar aniq va ixcham bo'lishi lozim. O'qitish jarayonida bolalar yoshi va o'rganiladigan materialga bog'liq holda reproduktiv va produktiv savollar birligi bo'lishi kerak. Savollar bolalar fikrlishini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Bolalarga beriladigan savollar ko'pincha guruhda nazoratni qo'lga olish maqsadida qo'llanadigan savollar bo'lishi mumkin. Ko'pincha qo'llanadigan savollar, bu yopiq deb ataluvchi savollardir. Ularga faqat bir to'g'ri javob bo'ladi va ular bilimni tekshirish uchun qo'llaniladi. Munozaralar vaqtida beriladigan ochiq savollar guruhning faolligini rag'batlantirish va ko'rib chiqilayotgan muammolarni tahlil qilishda muhimdir.

Ochiq savollarni ko'rib chiqaylik. Faraziy savollar. Agar ... bo'lsa, Siz nima qilardingiz, o'ylardingiz? Ular bolalarga u yoki bu vaziyatlarni tasavvur

qilishlariga yordam beradi, fikrlash jarayonini kuchaytiradi. Fikrlashga undaydigan savollar. Bu muammoni yechishda biz qanday yordam berishimiz mumkin? Rag‘batlantiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi savollar. Bu juda qiziq, keyin nima bo‘ldi? Ular bolalarga shaxsiy tajribalari va qarashlari bilan o‘rtoqlashishga imkon beradi. Fikr bildirish savollari. Siz ... to‘g‘risida nima deb o‘ylaysiz?” Bunday savollar bolalarga ularning fikrlari muhim va qiziqarli ekanligini bildirishda qo‘llaniladi. Surishtiruvchi savollar. Nima uchun bunday deb o‘ylaysiz? Hotirjamlik bilan berilgan bu savol ularga o‘z fikrlarini chuqurroq o‘ylab ko‘rishlari va tushuntirishlarini tahlil qilishlariga yordam beradi. Tushuntiruvchi, umumlashtiruvchi savollar. Siz ... deb o‘ylayapsiz desam, men haq bo‘lamanmi? Bola aytganlarini umumlashtirish va uni to‘g‘ri tushunganligini tekshirish, boshqalarni ular shu fikrga qanday munosabatda bo‘lishlarini o‘ylab ko‘rishga undaydi. Rozilikni bildiruvchi savollar. Ko‘pchilik ... ekanligiga rozimisizlar? Bunday savollar munozaraga undash uchun berilishi mumkin. Yoki munozara yakunida, Biz bu qismni tugatdikmi? kabi savollar keyingi mavzuga o‘tishga ruxsat olish uchun beriladi. Ikkilantiruvchi savollardan foydalanmaslikni esda tutishga harakat qiling, masalan “X - haq, shundaymi? Bunday savollar bolaning faolligini susaytiradi. Bir zumda juda ko‘p savol bermang va ikki ma’noni anglatuvchi savollarni qo‘llamang. Savol bilan bolalarni himoyalanihga majburlamaslik kerak, ularda tanlashga imkoniyat bo‘lishi kerak va bu imkoniyatni o‘zlari yaratadi. Ular quyidagicha bo‘lishi mumkin: - reproduktivli-mnemonik (masalan: Bu nima? Bayroq qanday rangda? Bu figura qanday nomlanadi?); - reproduktiv-bilish (masalan: Agar men polkaga yana bittasini qo‘ysam nechta kubik bo‘ladi? Qaysi son katta (kichik): 9 yoki 7?); - produktiv-bilish (masalan: Piyolalar teng bo‘lishi uchun nima qilish kerak? Bu vazifani qanday yechamiz? Qizil bayroq hisob bo‘yicha qandayligini qanday aniqlash mumkin?). Bir zumda juda ko‘p savol bermaslik va ikki ma’noni anglatuvchi savollarni qo‘llamaslik lozim. Savollar bolalarda qabul qilish, xotira, fikrlash, nutqni faollashtiradi. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda asosan oddiydan boshlab, predmetlarning aniq belgilarini,

xossalarini, amaliy harakat natijalarini yoritishga yo‘naltirilgan, bog‘lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni, ularni tushuntirish va asoslashni, oddiy isbotlashdan foydalanishni talab etuvchi murakkabroq savollardan ko‘prok foydalaniladi. Ko‘proq bunday savollar tarbiyachi tomonidan namunani namoyish etgandan keyin yoki bola topshiriqni bajargandan keyin beriladi. Masalan, bolalar qog‘oz to‘g‘riburchakni ikkita teng qismga bo‘lganida, ulardan so‘raladi: “Sen nima qilding? Bu qism qanday nomlanadi? Nima uchun har bir bu ikkita qismni yarim deb nomlash mumkin? Qismdan qanday shakl hosil bo‘ldi? Kvadrat hosil bo‘lganini qanday isbotlash mumkin? To‘g‘riburchakni to‘rtta teng qismga bo‘lish uchun nima qilish kerak?” Metodik usul sifatida tarbiyachi savollariga qo‘yiladigan ayrim asosiy talablarni ajratib ko‘rsatamiz: to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiy ketma-ketlik, formulirovkasining har xilligi, o‘rganiladigan materialning bolalar yoshiga mos holda reproduktiv va produktiv savollarning optimal nisbati, savollarning bola fikrlashini uyg‘otishi, rivojlantirishi, o‘ylashga, analiz qilishga, taqqoslashga, solishtirishga, umumlashtirishga undashi, savollar soni uncha katta bo‘lmasligi, lekin qo‘yilgan didaktik maqsadga erishish uchun yetarli bo‘lishi, javobini sekin aytib berish va o‘xshash savollardan qochish kerakligi, qo‘shimcha savollardan mohirona foydalanish zarurligi. Savollarni bolalarning elementar matematik tasavvurlarini rivojlantirishda bilish faoliyatini faollashtirishning samarali vositasi sifatida ko‘rib chiqish hamda ularga javobni o‘ylashga imkon berish kerak. Bolalarni mustaqil holda savollarni shakllantirishga o‘rgatish lozim. Aniq vaziyatda didaktik materialdan foydalanish bilan tarbiyachi ularga predmetlarning soni, o‘lchami, shakli, o‘lchash usullari haqida savollarni qo‘yish taklifini beradi. Bolalar javobiga qo‘yiladigan metodik talablarni ko‘rsatib o‘tamiz: - savol harakteriga bog‘liq holda qisqa yoki to‘liq savollar bo‘lishi; - mustaqil va anglangan; to‘g‘ri, aniq, grammatik to‘g‘ri. Tayanch so‘z va iboralar variantidan foydalanish shaklidagi topshiriqlarni tuzishda interfaol usullarni qo‘llab hal qilinadigan topshiriqlar miqdoriga ham e‘tibor berish lozim. Bu usullarni qo‘llash bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, materialni yuqori

intellektuellik darajasida o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Tarbiyachi mashg'ulot mavzusidan kelib chiqqan holda ushbu usullarning mosini tanlab olishi lozim. Mashg'ulotda interfaol usullardan foydalanishda quyidagi uslubiy tavsiyalarga amal qilish tavsiya etiladi:

- ishlash uchun joy tayyorlash, bolalarga jismonan qulay sharoit yaratish, ijodiy ish uchun materiallarni oldindan tayyorlash;

- jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo'lish, bolalar so'z erkinligini hurmat qilish;

- bolalarning guruhlariga bo'linishiga jiddiy e'tibor berish, barchasini ishga jalb qilish, ruxan tayyorgarligiga ko'maklashish, bu borada mashq qilishlar, ularning ishda faol ishtiroki uchun doimiy rag'batlantirishlar, bolaning o'zini namoyon etish uchun imkoniyat yaratish;

- interfaol usullardan foydalanganda guruhda bolalar soni ko'p bo'lmasligiga erishish, tarkibi 4-6 kishidan iborat, kichik guruhlarda samarali ish olib borish, har kimni tinglash, har bir guruhga muammoni bayon etish bilan chiqishga imkon berish. Interfaol usullar tarbiyachi bilan bola o'rtasidagi doimiy o'zaro munosabatlarni ko'zda tutadi.

Ularni noto'g'ri qo'llash bu usullar samadorligini pasaytirish yoki bu haqida noto'g'ri tushuncha paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Pedagogikada bolalarning savollar va javoblar tizimi suhbat deyiladi. Suhbat usuli atroflicha o'ylangan savollar yordamida tarbiyachi bilan bolalar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, ularning mustaqil fikrlashini yangi tushunchalarni egallashga olib keladi. Uni qo'llashda savollarni qo'yish, bolalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Suhbat davomida tarbiyachi bolalar tomonidan matematik terminlardan to'g'ri foydalanish, nutq savodxonligiga alohida e'tibor qaratadi. Bu turli tushuntirishlar bilan olib boriladi hamda ularning qabul qilishi aniqlashtirilib

boriladi. Masalan, tarbiyachi bolalarni geometrik figuralarni tekshirishga o'rgatadigan bo'lsa, figurani chap qo'lingizga olib, kvadrat tomonlarini ko'rsating (masalan: to'g'ri uchburchak, uchburchak) deb tushuntiradi. Yoki boshqa misol, tarbiyachi bolalarni o'lchashga o'rgatadigan bo'lsa, o'lchovni qo'yadi, keyin o'lchashni qanday hisoblash kerakligini ko'rsatadi va gapirib beradi. Bolalar katta bo'lgan sari ularga beriladigan muammoli savol va holatlar ham kattalashib boradi. Muammoli vaziyatning yuzaga kelishi: dalil va natija o'rtasidagi aloqa birdaniga ochilmaydi, asta-sekin bo'ladi. Bunda savol tug'iladi:

Bu nima? (masalan, turli predmetlarni suvga tushiramiz: bittasi cho'kadi, boshqasi cho'kmaydi);

materialning ayrim qismlarini bayon qilgandan keyin bola taxmin qilishi kerak (masalan, muz erishi, issiq suv bilan tajriba qilish, masalani yechish);

“ba'zan”, “ayrimlari”, “faqat ayrim hollarda” kabi so'zlardan foydalanish o'ziga xos bilish belgilari bo'lib xizmat qiladi;

dalilni tushunish uchun uni boshqa dalillar bilan solishtirib ko'rish, muhokama tizimini yaratish, ya'ni ayrim aqliy operatsiyalarni amalga oshirish lozim (masalan, turli o'lhovlarni qilish, guruh bilan hisoblash).

Muammoli topshiriq usulida aniq vaziyat va qo'yilgan masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda muammoli topshiriqlar yordamida samaraga erishish mumkin. Materiallarni o'zlashtirish, topshiriqlar hamda mashq va masalalar yechimida muammoli vaziyat yaratilishi qo'l keladi. Bunda kichik guruhlar shakllantiriladi, o'quv materiallari guruhlarga alohida-alohida bo'lib beriladi. Yakuniy xulosalar va yechimlar topilgach mavzular guruhlar orasida ayirboshlanadi.

O'quv mashg'uloti jarayoniga tadbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari mashg'ulot mazmuni, o'quv dasturi, darslik yoki pedagog faoliyati orqali o'tilishidan qat'iy nazar, bolaning erkin va ijodiy

faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. O'qitish usullari o'quv mashg'uloti jarayonining asosiy qismi hisoblanadi, ularsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi. Bilimlarni uzatish va qabul qilish harakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy usullarga bo'linadi. O'quv mashg'uloti mavzulari mazmunini o'zlashtirishda, tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot usullari qo'llaniladi. Amaliy usullarda vazifa (maqsad)ni qo'yish, uni bajarish usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun o'quv mashg'uloti jarayoniga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish ishlari amalga oshiriladi. Amaliy mashqlarni bajarishda bolalar bo'lajak hattiharakatlarini faol mushohada qiladi, o'ziga-o'zi eshittirib gapiradi hamda bo'lajak voqeani sharhlaydi. Erkin fikrlash usuli illyustrativ rasmlar, fotolavhalar kabilar va ularning muhokamalariga bag'ishlanadi. Bu mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad bolalarning bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirish, ularni rasmlar, fotolavhalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali, ularning bilim olish va qiziqishlarini orttirish, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishishdir

Topshiriq quyidagicha bo'lishi lozim: hajmi katta bo'lmasligi, lekin mazmunli, o'zlashtirishga, mustahamlashga, takrorlashga, fikrlashga, amaliy jihatiga qaratilgan bo'lishi; guruhda bajarilganga nisbatan oddiy va tushunarli bo'lishi; ayniqsa masala, misol va gaplarni tuzishda, amaliy ishlarni o'tkazishda bolalarning kuzatishlari va fikrlariga bog'liq bo'lishi; uy vazifasining to'g'ri bajarilishi uchun aniq bir ko'rsatmalar berilgan bo'lishi; bolalarning tayyorgarligi va imkoniyatlarini inobatga olib individuallashtirish lozim: tarbiyachi bolalarning intizomi va javobgarligini ta'minlash uchun uy vazifasini uz vaqtida tekshirib turishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda Tarbiyalanuvchilarning matematik faolligi turli-tuman sharoitlarda: teatrlashtirilgan faoliyatda, qurish-yasash o'yinlarida, faoliyat markazlarida o'stirildi. Bolalarning namoyon bo'lgan kuchli tomonlarini bilish nafaqat tahlil uchun muhim, balki ularda kelgusida kasb tanlash, matematik qobiliyatlamini rag'batlantirish istiqbollarini belgilash imkonini beradi. Bolaning namoyon bo'lgan qobiliyatini inobatga olish nafaqat ularni rivojlantirish uchun, balki uning iste'dodini tegishli oqimga yo'naltirish uchun ham zarur. tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'yinlar va interaktiv usullar bolalarning matematik qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi, matematikada keng mo'ljal olish va matematik taassurotlar zaxirasining to'planishiga sharoit yaratadi, "Ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son farmoni.
5. "Maktabgacha pedagogika" F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova.-Toshkent:, Tafakkur nashriyoti.

TASVIRIY SAN'AT-TARIX VA BUGUN

Rustamova Umida Ulug'bek qizi

*Qo'qon davlat pedagogika inistituti tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at tarixi va buguni haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, rasm, milliylik, badiiy fikr, iqtidor

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ijodiy amaliyoti boy va rang-barang. Rassomlar A.Ikramjanov, S.Raxmetov, R.Gagloyeva, X.Xoliqov kabi zamonaviy ustalarimizning ijodiy yutuqlarida vaqt, o'z-o'ziga, plastmassa, qurulish, kompozitsion va boshqa mafkuraviy va badiiy oyatlar haqida chindan ham ijodkorona so'zlarni topish mumkin. Mirzaahmedov, V.Enin, A.Alikulov, grafikalar M.Sadikov, A.Allabergenov, A.Bobrov, A.Ponomarev, A.Mamajanov, V. Apuxtin va boshqalar.

Rassomlar A. Mirzaev, F. Ahmadaliyev, A.Nura, M.Isanov, J.Usmanov, I.Valiqxo'jaev, I.Shin, V.Chuba, J.Salpinkidiy, A.Turin asarlarida dekorativ tendentsiya rivojlanmoqda. Haykal san'atida yuksak mahoratni D.Ruzybaev, M.Mirtadjiev, A.Hatamov, T., Tadjixodjaev, I.Jabborova, B.Muxtarova, M.Borodina, L.Nesterovich va boshqalar asarlarida ko'rish mumkin.

XXI asrda O'zbekiston san'atida insonparvarlik qadriyatlarini izlash milliy o'zlikni anglash, o'zgacha tarixiy va madaniy an'analar, badiiy dunyoqarash va falsafa, Sharqning she'riyatining o'ziga xosligini anglash izlanishlari bilan uyg'unlashtirilgan. Bugungi kunda nafaqat g'arb san'atining

uslublari va tendentsiyalari, balki jahonning turli burchaklarida tushunarli bo'lgan zamonaviy san'atning badiiy ifoda etilishining transmilliy shakllariga aylanib qolgan avangard va postmodernizm tillari orqali tarqatiladi. O'zbekiston rassomlarining asarlarini tomoshabinlar tomonidan respublikadagi ko'rgazmalarda va ko'plab xalqaro ko'rgazmalarda yuksak baholanayotgani tasodif emas.

Shunga qaramay, yaqin kelajakda badiiy ijod sohasida ko'plab muammolar mavjud – mavjud keng qamrovli kolleksiyalar uchun yangi muzey va ko'rgazma ob'ektlarini qurish, ularni nashr etishda ommaviylashtirish, muzey kolleksiyalarini to'ldirish, elektron ma'lumotlar bazasini yaratish va boshqalar.

Hozirgi zamon san'ati rivojlanishiga, rassomning ijodiy izlanishi yangi mazmunli g'oya, insonlarning ma'naiy -ma'rifiy talablarini qondirish bilan bog'liqdir. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi yechimi, murakab ruhiy holatini topish, rassomdan kundalik hayotdagi go'zallikni aks ettirish muammolarini, zamondoshlarning ichki his-tuyg'ularini sezishni, to'g'ri chuqur tasavvur etishni talab qiladi.

Rassomlar zimmasiga o'z asarlarida badiiy obrazlarni yaratish vositalarni boyitish, taraqqiy etgan jahon ilg'or rassomlari tajribalari bilan dunyoqarashlari ko'lamini kengaytirish kabi ma'suliyatlar qo'yilgan.

Mustaqillik tufayli boshlangan buyuk tarixiy taraqqiyot yo'lidan og'ishmay olg'a rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi oldida endilikda bir qancha muhim vazifa vamuammolar turibdi.

XXI asrga dadil qadamlar bilan kirib kelgan O'zbekiston respublikasining kelajagi ilm-fan, ta'lim-tarbiya taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi " qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida jamiyatimizda ta'limni tubdan isloh qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Ilm-fan, madaniyat va ma'rifat har qanday mamlakatni yuksaklikka ko'taradi, uni taraqqiyotini ta'minlaydi.

Darhaqiqat, butun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Endilikda har qaysi davlat, har qaysi millat, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyat va ma'naviyat bilan kuchlidir. Kuch - bilim va tafakkurdadir - degan edi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

Mamlakatimiz kelajagi so'zsiz kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun, ta'lim-tarbiya tuzimini tubdan o'zgartirish, uni davr talabi darajasiga ko'tarish, jamiyatimizning, har birimizning oldimizdagi eng muhim vazifalardan biri bo'lmog'i lozim.

Iroq, Vetnam kabi o'ndan ortiq davlatlardan musavvirlar ishtirok etdi. Ushbu festival yosh mo'yqalam sohiblari orzularini ro'yobga chiqarishga ham hissa qo'shayotir. Unda muvaffaqiyatli qatnashgan yoshlar xorijiy davlatlarda tashkil etilayotgan turli xalqaro ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar, biyennalelarda ishtirok etmoqda.

Mamlakatimizda yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Toshkent Fotosuratlar uyi, Xalqaro madaniyat karvon saroyi, O'zbekiston madaniyati va san'ati ko'rgazmasi zali, O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasi, Yoshlar ijod saroyi, Milliy san'at markazi singari o'z ko'rgazmalari mavzusi va yo'nalishiga ega ko'plab san'at dargohlari barpo etildi. "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi va boshqa bir qator ijodiy va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan "O'zbekiston tasviriy san'ati", "Yangi avlod", "Navqiron O'zbekiston" singari festivallar, "Kelajak ovozi" respublika ko'rik-tanlovi, yosh musavvirlarning ijodiy-intellektual saviyasini yuksaltirishga yo'naltirilgan ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'g'il-qizlarning badiiy didi, tafakkurini yuksaltirib, ijodiy mahoratini oshirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda tasviriy san'atning taraqqiyotida O'zbekiston Badiiy akademiasining tashkil etilishi muhim

ahamiyat kasb etdi. 1997-yilda O‘zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi respublika madaniy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Uning faoliyati badiiy ta’lim, ko‘rgazma ishlarini takomillashtirish va badiiy merosni hamda zamonaviy san’atni targ‘ib qilish istiqbolini ta’minlashga yo‘naltirilganligi bilan juda ahamiyatlidir albatta.

Yevropada badiiy akademiya dastlab Italiyada antik san’at, uyg‘onish davri san’atkorlarining uslublarini o‘rganish uchun to‘plangan rassomlarning erkin uyushmasi tarzida maydonga kelgan (XVI asr).

Birinchi badiiy akademiya Parijda - 1648-yili Qirollik Badiiy akademiyasi, kiyinchalik Vena (1692-yil), Berlin (1694-yil), London (1768-yil)da va Rossiyada 1757 yili tashkil etilgan.1»

Mamlakatimizda tasviriy san’atning taraqqiyotida O‘zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. 1997-yilda O‘zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi respublika madaniy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Uning faoliyati badiiy ta’lim, ko‘rgazma ishlarini takomillashtirish va badiiy merosni hamda zamonaviy san’atni targ‘ib qilish istiqbolini ta’minlashga yo‘naltirilganligi bilan juda ahamiyatlidir albatta.

O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi Kumush medali bilan milliy san’at sohasida faol xizmatlari, ko‘p millatli O‘zbekiston san’atining umuminsoniy, milliy qadriyatlarini namoyon etuvchi, vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘stiruvchi, an’anaviy va zamonaviy mavzularning yangi qirralarini kashf etuvchi, dolzarbligi bilan ajralib turadigan turkum asarlari, san’at tarixi, nazariyasi, san’at muamolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlari, maqolalari uchun taqdirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Abdirasilov, B.Boymetov, N.Tolipov Tasviriy san'at.
2. B.Boymetov, N.Tolipov. Maktabdatasviriy san'at to'garagi.
3. Oripov.Tasviriy san'at vauni o'qitish metodikasi.
4. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi.

**ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINING TA'LIM SOHASIDA
TUTGAN O'RNI**

Surxondaryo viloyati Denov tumani

61-maktabning Ona tili va Adabiyot fani o'qituvchisi

Haydarova Munira Jumqulovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ona tili va adabiyot haqida umumiy tushunchalar va undagi umumiy qoidalar haqda so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, integrativ yondashuv, metod, tadqiqot, fanlararo aloqadorlik, yangi texnologiyalar, ona tili, adabiyot, so'z turkumlari

Har bir xalqning, millatning o'z tili va adabiyoti bo'lganidek, o'zbek millatining ham turli ma'no so'zlarga boy ona tilisi va boy tarixga ega adabiyoti mavjud. O'z ona tilini bilmagan kishi o'zligini anglay olmasligi haqida turli xil hikmatli so'zlar ham mavjud xalqimizda. O'zbekiston Respublikasida o'zbek tiliga 1989-yil 21-oktabrda davlat tili maqomi berilganidan boshlab, ona tilimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. O'zbek adabiyoti esa juda katta ma'naviy, tarixiy xazinaga boy hisoblanadi.

Til- millat ko'zguvidir. O'z tilini bilish, o'rganish, izlanish, uning ustida tadqiqotlar olib borish har bir millat farzandining vazifasidir. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi, "Talim to'g'risida"gi qonunlari, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "2004-2009- yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ga muvofiq boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish oldiga yangi-yangi vazifalar qo'yilmoqda. "Ona tili" fanini o'qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o'z fikrini erkin va ta'sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek

tili qonun-qoidalarini ongli o'zlashtirishga o'rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Ma'lumki til o'rganishni boshlang'ich sinflardan boshlab o'rganish juda muhim sanaladi. Ona tilini o'rganish bolajonlarda og'zaki va yozma nutq shakllanib, rivojlanishiga xizmat qiladi. Ona tili fanini o'qitishning bir qator maqsad va vazifalari mavjuddir.

Umumiy o'rta ta'limi muassasalarida ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

"Adabiyot" so'zi arabcha "adab" so'zining ko'plik shakli bo'lib, u keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda qo'llanilganda "adabiyot" so'zi o'qishga mo'ljallab yozilgan va chop qilingan barcha asarlarni o'z ichiga oladi. Shunga qaramay, "adabiyot" so'zi (termini) tor ma'noda ham juda faol ishlatiladi va bunda so'z san'atiga daxldor bo'lgan asarlar — badiiy adabiyot tushuniladi. E'tiborli jihati shuki, istilohning ayni shu tarzda (tor va keng ma'nolarda) qo'llanilishi rus va boshqa bir qator tillarda ishlatiluvchi "literatura" so'ziga ham xosdir. Zero, bu termin ham "litera" ("harf") so'zidan olingan bo'lib, keng ma'noda umuman chop etilgan mahsulotni, tor ma'noda badiiy adabiyotni anglatadi. Mutaxassislar "adabiyot" so'zining tor ma'nosini ishlatamiz va bunda badiiy adabiyotni nazarda tutamiz.

Demak, adabiyotning o'rganish sohasi — predmeti badiiy adabiyot ekan. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari,

ijtimoiy aloqalarini har jihatdan va atroflicha o`rganadi. Adabiyotshunoslikning predmeti bo`lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko`lami juda keng. Ularning bir qismi umumestetik (badiiy san`at sohalarining barchasiga xos) muammolar sirasiga kirs, boshqa bir qismi sof adabiyot muammolari sanaladi.

Ona tili va adabiyot tushunchalari bir-biriga uzviy bog`liqdir. Shu boisdan , bu ikki fan darslari maktablarda kuchaytirilgan holda tashkil etilinmoqda. Til adabiyotning asosiy quroli. Tilning umumxalq (jonli, milliy), ma`lum qoidalarga asoslangan adabiy til, badiiy (poetik) til kabi ko`rinishlari mavjud. Til - badiiy obraz yaratish vositasi. So`z yordamida turli-tuman manzaralar, his-tuyg`ular, fikr va hodisalar jonli, ta`sirchan holda tasvirlanadi. Badiiy asardagi har bir so`z asar mazmunini ifodalashga xizmat qiladi. So`zlarni o`z o`rnida qo`llash yozuvchi va shoirning mahoratiga bog`liq. Ijodkor tilning maxsus leksik imkoniyatlari (sinonim va antonimlar, arxaizm va neologizmlar, dialektizm va jargonizm professionalizm va varvarizmlar) dan shuningdek, monolog, dialog, poliloglardan unumli foydalanadi. Badiiy asar tilining xususiyatlari, nazariy asoslari ilmiy adabiyotlarda yoritilgan.

Adabiyot fani asosan adabiy, badiiy asarlardan tashkil topganligi bois, ularning bir necha xil turlari mavjud. Adabiy tur, adabiy janr, epos, lirika, drama, roman, tarixiy roman, falsafiy roman, qissa, hikoya, ocherk, tragediya, komediya. Adabiy asarlar shakl jihatidan rang-barangdir, bu esa ularni alohida guruhlariga ajratib o`rganishni taqozo qiladi. Adabiyotni birinchi bo`lib Arastu (er.av. 384-322 yillar) o`zining «Poetika» asarida epos, lirika, drama kabi uch turga ajratib ko`rsatgan. Adabiy turlar janrlardan tarkib topadi.

Janr» fransuzcha so`z bo`lib, «tur», «jins» degan ma`noni anglatadi. Adabiy turlar bir- birlaridan, avvalo, voqelikni gavdalantirish usuliga ko`ra farqlanadi. Epos voqeani, lirika inson ruhiy holatini, drama kishi xarakterini gavdalantiradi. Epos so`zlashuv nutqiga yaqin bir tarzda yozilsa, lirika misra, qofiya, bandga asoslanadi. Drama dialog va monologlardan tashkil topadi.

Epos yunoncha soʻz boʻlib, yeros «soʻz», «nutq», «hikoya» degan maʼnoni anglatadi. Epos xalq ijodiyotiga mansub yirik hajmli asar. Masalan, “Alpomish” qahramonlik eposi. Roman, qissa, hikoya, ocherk, feleton epik tur janrlari hisoblanadi.

Lirika (yunoncha soʻz boʻlib, «lira joʻrligida aytish» demakdir). Sheʼriy asarlarda musiqiy ohang, ritm mavjud boʻladi. Gʻazal, ruboiy, tuyuq, fard, muxammas, musaddas, qasida, chiston kabilar Sharq mumtoz lirik janrlari hisoblanadi. Ularda vafodorlik, sevgi-muhabbat, insoniylik, doʻstlik, hayot haqidagi dard va iztiroblar aks ettiriladi.

«Drama» yunoncha «harakat» degan maʼnoni anglatadi. Dramatik asarlar sahna uchun yaratiladi. Ularning ilk namunalarini eramizdan oldin yaratilgan. Tragediya, komediya, opera, balet kabilar dramatik tur janrlari hisoblanadi. Esxil, Sofokl, Evripid, Shekspir singari ijodkorlarning asarlari tragediyaning yuksak namunalaridir. Oʻzbek adabiy otida Behbudiyning “Padarkush”, Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulugʻbek» tragediyalari maʼlum va mashhurdir. Komediya “Quvnoq kishilar qoʻshigʻi” degan maʼnoni bildiradi. Aristofanning «Chavandozlar», «Burgutlar», Shekspirning «Qiyiq qizning quyulishi», Molerning «Don Juan» kabi asarlar mavjud. Yuqorida adabiy janrlar haqida qisqacha toʻxtalib oʻtildi. Qachonki, oʻquvchi mana shu janrlar haqida va oʻz ona tilisi haqida toʻliq maʼlumotga ega boʻlsagina bu fanlarning tub mohiyatini tushunib yetishi mumkin.

Bugungi kunda taʼlim sohasiga har qachongidan ham koʻproq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, oʻz navbatida taʼlimning birlamchi ishtirokchilari boʻlgan oʻqituvchilarga yanada katta masʼuliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun oʻqituvchisi har sohada yetuk va bilimdon boʻlmogʻi shart va zarurdir. Oʻqituvchi oʻquvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga boʻlgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning oʻzaro uzviy bogʻliqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi toʻgʻrisidagi muayyan tushunchani

hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning – fanlararo aloqadorlikning o’rni juda muhimdir.

Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvdan keng foydalanish – o’quvchilarning fanga doir bilimlarini puxta o’zlashtirishida yetakchi samara beradi. ASOSIY QISM Keyingi yillarda ta’limda integrativ yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko’plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini integrativ o’qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta’lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar ko’ndalang qo’yildi. Xususan, A.G’ulomov, H.Ne’matov, B.Ziyomhammadov, B.Abdullayeva singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili va adabiyot ta’limidagi o’rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. Til ta’limida integrativ yondashuv xususida U.Musayev, D.Yo’ldosheva kabi pedagoglarning ilmiy izlanishlaridan ham ma’lumotlar olish mumkin. Jumladan, K.Mavlonovanning “Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari” bo’yicha olib borgan izlanishlari ham alohida ahamiyat ega [1.254]. “Integratsiya” - ayrim bo’laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo’shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir [1.380]. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Integratsiyani tafakkur o’stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa va ta’lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etish mumkin.

Ma’lumki, o’quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o’zgarishlarining ham bo’lishini taqozo etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Chunki ular allaqachon o’z ta’lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Buyuk Britaniya, Koreya, Shveysariya, Vengriya, AQSh, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda bizning ta’lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi. Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o’sishi jarayonining turli qism va

elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta'limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'qitishni ko'rsatadi. Ta'lim tizimida ona tili darslarini olib borishda bu fanni bevosita adabiyot bilan bog'lab o'qitish yaxshi natija beradi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligini olaylik. Ushbu darslikda "Leksikologiya" bo'limini o'rganish uchun 39 soat ajratilgan. Bu bo'lim va undagi mavzularni adabiyot faniga bog'lagan holda badiiy asarlar, hikmatli so'z va maqollar, she'rlar orqali tahlil etilsa, bu ham ta'limiy, ham tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. Quyidagi 6-sinf adabiyot darsligidan olingan parcha O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidan olingan bo'lib, o'quvchilar parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qilish orqali, har bir so'zning lug'aviy ma'nosini, salbiy va ijobiylik xususiyatini farqlab, badiiy asarni yanada teranroq anglab yetadi. "Ziqna bo'lmay, o'l! – deb o'yladi xotinini so'kib, – azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi". Umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida, mavzular oddiydan murakkabga tomon o'sib boradi. Masalan, 9-sinfda o'quvchilar ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini bilishlari, shu orqali o'z nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, nutq uslublarini bir-biridan farqlay olishlari kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchidan nazariy bilimlarni yetkazib berish va ularni amalda qo'llay olish uchun o'quvchilarda yetarli ko'nikma va malakalarni hosil qilish talab etiladi. Bunda dastlab o'qituvchi nutq uslublari haqida umumiy ma'lumot beradi va o'quvchilarga kerakli manbalarni yozdirib o'tadi. Yangi mavzu bayonidan so'ng o'qituvchi mavzuni bevosita boshqa fanlar bilan bog'laydi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar qo'lga har xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materillarni tarqatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan

iborat bo‘ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Tilni o‘raginish esa adabiyotni o‘rganish bilan bog‘liqdir. Adabiyot fani o‘quvchilarga uzoq o‘tmishdan hikoyalar keltiradi, buyuk yozuvchi va shoirlarning mukammal badiiy asarlarri , badiiy janrlar haqida ma‘lumotlar olishlariga , o‘qib-o‘rganishlariga imkoniyat yaratadi, ona tili darslarini adabiyot bilan uyg‘unlikda olib borish, o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini yanada boyitadi. Ona tilida darslarida yangi mavzuni tushuntirishda adabiyot darsligida berilgan hikoya, she‘r, maqol, hikmatli so‘zlar va badiiy asarlardan misollar keltirib, darsni integrativ tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, oliy ta‘limda tahlil yuzasidan bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lib, til bo‘yicha nazariy ma‘lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova, K. (2016). Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o‘rganish metodikasi. Mashhur-press.
2. Musayev, U. (2002). Integratsiya darajalari. Xalq ta‘limi - №6
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (1981). M.: Русский язык.
4. Холиқова, Н. (2020). Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in educational sciences, (3).
5. Kholikova, N. D. (2020). The genesis and poetic evolution of character Shirin. Alisher Navoi and the XXI century.
6. Djokhongirotova, K. N. (2020). The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6).

7. Холиқова, Н. (2020). 9-синф адабиёт дарсида ширин образини генезисига кўра ўрганиш. Science and Education, 1(Special Issue 2).

8. Kholikova, N. (2020). POETIC FEATURES OF UZBEK POETRY OF THE NATIONAL AWAKENING PERIOD. Theoretical & Applied Science, (4).

Nutqimizni ifodalashda sinonimlardan samarali foydalanish

Ilmiy rahbar:

NDPI Ingliz tili amaliy kafedrasasi o`qituvchisi

Gapparova Mehribon Tulqin qizi

1-kurs talabasi Komilova Shaxlo

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinonim so`zlarni ingliz tilida qo`llanishi va ularning ahamiyati haqida fikr yuritiladi va misollar orqali tushuntirib beriladi.

Tayanch tushunchalar: sinonim, sinonimiya, sinonimik qator, dominant so`z, ijobiy va salbiy bo`yoqdorlik.

Dunyoda 7000 dan til mavjud bo`lib, ularning asosini so`z tashkil qiladi. Qaysi tilda ko`proq sinonim so`zlar bo`lsa, aynan o`sha til boy til hisoblanadi. Insonlar nutqini go`zal va betakror bo`lishida ham sinonim so`zlar muhim rol o`ynaydi.

“Sinonimlar-(yunoncha- “synonymos”-bir nomli)-bir umumiy ma`noga ega bo`lgan(denotativ ma`nosi bir xil), qo`shimcha (konnotativ) ma`nosi (ekspressiv, uslubiy xususiyatlari) bilan o`zaro farqlanadigan so`zlar hisoblanadi. Til birliklari bir xil ma`noga ega bo`lish hodisasi esa sinonimiya deyiladi.”¹¹ Shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, ingliz tilida ham sinonimlar o`zbek tilidagi kabi bir so`z turkumi doirasida sinonimlik hosil qiladi. Bir nechta sinonimlar esa sinonimik qatorni tashkil qiladi. Sinonimik qatordagi uslubiy xoslanmagan so`z bo`lsa, bosh so`z ya`ni dominant so`z hisoblanadi.

O`zga tildagi so`zni o`zbek tiliga to`g`ridan to`g`ri tarjima qilish biroz murakkab jarajon hisoblanadi. Chunki bu so`zning ijobiy va salbiy bo`yoqdorligi mavjud. Shu sababli, tarjima jarayoni tarjimondan kata mahorat talab qiladi.

¹¹ Google.uz

Yuqoridagi tushunchalarning misoli tariqasida ingliz tilidagi “determined” ya`ni “qat`iyatli” so`zini ko`rib chiqamiz. Bu so`zning bir nechta ma`nodoshlari mavjud: strong-willed, purposeful, single-minded va hokazo. Ammo bu so`zlar kerakli o`rinda qo`llay bilish til o`rganuvchidan talab qilinadi. Masalan, “obstinate, stubborn, pig-headed” so`zlarining ma`nolari ham “qat`iyatli”. Biroq bu so`zlarda ko`proq “o`jar”, “qaysar” ma`nolari ustunlik qiladi. Bu hodisani yana boshqa so`zlarda ham ko`rishimiz mumkin. Misol tariqasida, “self-assured” so`zini oladigan bo`lsak, uning sinonimi: “self-confident”. Lekin bu so`zning negativ ya`ni salbiy variantlari quyidagilardan iborat: “self-important”, “arrogant”, “full of oneself”. Bu so`zlar ingliz tilidan “xudbin”, “faqat o`z manfaatini o`ylaydigan” degan ma`nolarni anglatadi. Bundan ko`rinadiki, so`zlovchi yuqoridagi so`zlarni qo`llashda nihoyatda ehtiyotkor bo`lishi va o`z o`rnida qo`llashi darkor.

Shuningdek, agar til o`rganuvchi ingliz tili yo`nalishida yuqori natijalarga erishmoqchi bo`lsa, A1 yoki B1 darajadagi so`zlardan voz kechib, bu so`zlarning C1 va C2 variantlariga yuzlanishi kerak. Masalan, “want” ya`ni “xohlamoq” so`zini nutqimizda qo`llagandan ko`ra, uning kuchliroq ekvivalentlaridan foydalangan maqsadga muvofiqdir:

Aspire

Desire

Fancy

Incline

Passionate

Urge

Yearn

Crave

Agar siz biror ish-harakatni qilishni xohlasangiz, “want” so`zini ishlatgandan ko`ra uning yuqoridagi ma`nodoshlaridan foydalansangiz maqsadga muvofiq bo`ladi. Masalan, “I want to buy a new car” (men yangi mashina olishni xohlayman.) emas, balki “I crave to buy a new car” yoki “My

sister wants to be a doctor`` (Mening singlim doctor bo`lishni istaydi) emas, ``My sister desires to be a doctor`` deb nutqingizda qo`llasangiz , hech shubhasiz siz yuqori natijalarga ega bo`lasiz.

Yana boshqa holatlarga to`xtaladigan bo`lsak, “like” (yaxshi ko`rmoq, yoqtirmoq)- biz bu so`zni kundalik hayotimizda juda ko`p foydalanamiz desak adashmagan bo`lamiz. Biroq biz nutqimizda so`z takroriga yo`l qo`ymaslik uchun bu so`zning boshqa sinonimlaridan foydalanishimiz lozim. Like so`zining ma`nodoshlari quyidagilardan iborat:

Love

Adore

Worship

Idolise va hokazo.

Agarda siz o`zingizning yoqtirgan hobbiyngizni yoqtiraman demoqchi bo`lsangiz, yuqoridagi so`zlar sizga qo`l keladi:``I adore swimming``(men suzishni yoqtiraman). Shu o`rinda ``like`` so`zidan ko`ra ``adore`` so`zi sizga ko`proq ball beradi.

Xulosa o`rnida shu ta`kidlab o`tish joizki, qachonki siz sinonimlarni bir-biridan farqlab, qaysi sinonim varianti qaysi holatlarda qo`llanilishini anglab, ularni to`g`ri qo`llay olsangiz, siz o`zga xorijiy tilni hech qiyinchiliksiz o`rganib, kelajakda yetuk kadr bo`lib yetishasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Google.uz

**Kompyuter texnologiyalarini qo'llanilish sohalari bo'yicha talabalarning
kasbiy kompetentini shakllantirish**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi

2-kurs magistranti

Sharipova Zarnigor Zarif qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak talaba yoshlarning zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalari muhitida, kompyuter texnologiyalarining qo'llanilish sohalari bo'yicha kasbiy kompetentlikni shakllantirish borasidagi fikrlar batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, axborot, ta'lim, talaba, kompyuter,

Barchamizga ma'lumki, so'nggi uch yilda respublikamizda kadrlar tayyorlash va ta'limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda oliy ta'limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori¹², 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori¹³, 2017 yil 9 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishlarida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3183-son qarori¹⁴, 2018 yil 5

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori.

¹³ 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori.

¹⁴ 2017 yil 9 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishlarida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3183-son qarori

iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son qarori¹⁵, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son qarori¹⁶ O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan pedagogik jarayonlarda o’quvchi-talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga o’rgatish, dunyoqarashini kengaytirish, ta’lim muassasasi rahbarlari va pedagog xodimlar faoliyatini qobiliyatli, tashabbuskor, izlanuvchan, g’ayratli, yutuqlarga intiluvchi va erishuvchi, ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirishga yo’naltirish, ya’ni ta’lim tizimining sifat darjasini ko’tarish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda.

Hozirgi davrda dunyo miqiyosida axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining yuksak darajada rivojlanib borayotganligining guvohi bo’lib kelmoqdamiz. Shu bois ham olimlarimiz, XXI asrni axborot texnologiyalar asri deb bejiz aytishmagan. Zamonaviy axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta’lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an’anaviy o’qitish usullaridan ko’ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ko’zda tutilganidek, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta’minlash rivojlanib bormoqda. Endi shu soxaga oid fikrlar bilan yaqindan tanishamiz. Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi.

Bugungi kunda barcha boshqa sohalar qatorida ta’lim tizimida ham turli fanlarni o’qitishda AKT imkoniyatlarini joriy etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. AKT nafaqat talabalarda bilim va malakalarini shakllantirishga, balki ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, bilishga oid qiziqishlarini

¹⁵ 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son qarori

¹⁶ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son qarori

oshirishga va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Keyingi davrlarda ko'plab psixologik va ilg'or pedagogik sohalarda chop etilayotgan maqolalarda, AKT talabalarlarning bilimi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi haqidagi fikrlar ta'kidlanayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. AKT imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jarayonida beriladigan axborotlar doirasini boyitish va talabalar tomonidan qiziqish bilan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ta'lim jarayoniga AKTning joriy etilishi bilan zamonaviy axborot muhitiga xos bo'lgan ta'limga yangicha yondashuv shakllana boshladi.

Kompyuterlashtirish yo'li bilan ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning yangi - sifat bosqichiga o'tiladi. Unda o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi bog'lanish, aloqalar tubdan o'zgaradi, ta'lim mazmuniga pedagogik ishlov berish uslubiyati yangilanadi, o'quv materialini to'liq o'zlashtirish davri boshlanadi, ta'lim modul xarakteriga ega bo'ladi, teskari aloqa mohiyati jihatidan yangilanadi. Kun sayin rivojlanayotgan davrda talabalarni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi esa asosiy maqsadlardan biri qilib belgilangan. Mamlakatimiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy talablarga javob beradigan mustaqil va erkin fikrlaydigan, ilg'or texnik-texnologik tajribalarni puxta o'zlashtirgan, raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi isloh qilinmoqda. Shu o'rnida har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash avvalo, kelgusida ham ta'lim va tarbiya beradigan OTMlar salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta'minlaydi.

Talaba oliy o'quv yurtida turli fanlarni o'rganish natijasida unda kasbiy yunallanganlik shakllanadi, ya'ni o'z bilim, tajriba va qobiliyatini tanlagan kasbi sohasida qo'llash uchun shaxsiy intilish paydo bo'ladi. Shaxsning kasbiy yo'nalganligini takomillashtirish istagi, o'z kasbi sohasida mehnat qilib, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish istagini o'z ichiga oladi. Kasbiy yo'nalganlik

- kasbiy faoliyat maqsad va vazifalarini tushunishni va qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Kasbiy yo'nalganlik mazmunidagi ijobiy uzgarishlar bo'lgusi kasb bilan boglik, bo'lib, motivlar mustahkamlanishnda ko'rinadi: ish buyicha o'z majburiyatlarini yaxshi bajarishga iye-tilish, bshshmdon mutaxassis sifatida uzini ko'rsatish, murakkab uquv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga intilish kuchayadi, ishda muvaffaqiyatga erishish istagi kuchayadi.

Talabalarda kasbiy yo'nalganlikni shakllantirish uchun kasbni egallash imkoniyatlariga ishontirish, bo'lg'usi ishning kelajagiga ishonch hosil qilish, mehnat an'analarini targ'ib qilish, kasbning ishlab chiqarish va estetik tomonlarini, uning ijodiy xarakterini ko'rsatish zarur.

Mamlakatimiz oliy talim tizimida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmogda, xususan, bu boradagi ishlar sirasiga oily ta'lim muassasalari moddiy texnik bazasining to'liq ta'minlanishi, DTS, dastur va darsliklarning yangi avlodining yaratilishi, o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalardan uyg'un ravishda foydalanishning tatbiq etilishi, talabalarning bilish faoliyatining mustaqil va ijodiy izlanishlar asosida tashkil etilishi, fan o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari faoliyatini rivojlantirilishi, "Mahorat maktablari"ning tashkil etilishi kabi ko'plab yutuqlarni aytishimiz mumkin.

Kompetensiya bu-sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatlari, kvalifikatsiyasining namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati hisoblanadi. Kompetentlik atamasi lotincha "copeto" so'zidan olingan bo'lib "erishyapman, munosibman" degan manoni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorlik va tajribaga ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, muayyan lavozimga mos va o'z kasbining mohir egasi bo'lgan shaxsga xoslikdir.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir. Kasbiy-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi.

Bo'lajak mutaxassislarni axborot texnologiyalari muhitida kasbiy faoliyat yuritish kompetentligini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

1. Yuridik – zararli axborotlar ta'siridan himoyalanih va axborot xavfsizligiga rioya qilishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish;

2. Dasturiy-texnik – avtomatlashgan axborot tizimlari va aloqa tarmoqlarida axborot xavfsizligini ta'minlash metod va vositalarini egallaganlik;

3. Me'yoriy-metodik – faoliyat turi bilan bog'liqlikda axborot xavfsizligi sohasida shaxsiy va jamoaviy me'yorlarga rioya qilish;

4. Ijtimoiy-madaniy – jamiyat a'zolari va shaxsiy qadriyatlar tizimiga ta'siri nuqtayi nazaridan axboriy faoliyatni quyidagi jihatlar bilan bog'liqlikda axborot bilan ishlash faoliyatini boshqarish.

Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv tarbiyachilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga, uning sifat va samaradorligiga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan e'tibor, ta'lim muassasalarini zamon talablari darajasida yangi texnologiyalar bilan jihozlanishi, shuningdek, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish uchun zaruriy sharoitlarni yaratilishi umumiy o'rta ta'lim muassasalari barcha rahbarlarining o'z ustida ishlashi, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish borasida izlanishlar olib borishini hamda boshqaruv faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir. Kasbiy-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv tarbiyachilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning

yangi turi bo'lgan ta'lim olishga, o'qishga ishtiyoq uyg'otib boriladi. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida, dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim. Buning uchun maktabga tayyorlov yoshidagi bolaning rivojlanishi va uning maktabga tayyorgarligi quyidagi ko'rsatkichlari jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lish kerak:

- ✓ jismoniy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatdan rivojlanishining fiziologik darajasi);
- ✓ psixologik tayyorgarlik (bola shaxsi tarkibining hissiy, mental (aqliy), irodaviy rivojlanish darajasi);
- ✓ ijtimoiy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatdan ijtimoiy rivojlanish darajasi).

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki, uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu uslub va vositalarni qo'llanilishi ta'limda erishilgan natijalarni baholash imkonini beradi, talabalarni mustaqil materialni o'rganishga qiziqtiradi, talabalarga egallangan amaliy va nazariy ko'nikmalarni majmuaviy ko'rsatish va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini asosli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Kompyuter texnologiyalari qaysi sohalarda qo'llanilmasin, avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakillantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 29-август, 1997.
2. Abduqodirov A. A. va boshq. Axborot texnologiyasi fani bo'yicha kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturi. - Toshkent: 2000.- 8 bet.
3. Abduqodirov A. A. va boshq. Axborot texnologiyalari.: Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik.
4. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013
5. Sh.X.Pozilova “Pedagogik dasturiy vositalar” fanidan ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU. 2019.
6. D.A.Abdurahimova, R.A.mavlanova Pedagogik mahurat. O'quv qo'llanma. T., 2012.
7. Q.M.Axmedov, O.A.Ismoilov Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. Metodik qo'llanma.

XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR UCHUN TENG HUQUQ HAMDA IMKONIYATLAR KAFOLATLARI

Faxriddinova Nargiza Shamsiddinovna

Mahalla va nuroniyalarni qo'llab-quvvatlash vazirligi bosh yuriskonsulti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlari: Jins va gender, genderologiya, biologik, ijtimoiy, siyosiy, gender tenglik.

Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda faol ishtirok etishi, bugungi kunda mehnat bozorida talab qilinadigan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashiga ko'maklashish maqsadida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli Jamg'armasi tashkil etildi.

Mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida ayollarning rolini oshirish sohasida:

2019 yil 2 sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunda "jins bo'yicha bevosita kamsitish" va "jins bo'yicha bilvosita kamsitish" tushunchalariga ta'rif berildi, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning loyihalarini majburiy huquqiy ekspertizasi, gender statistikasi yuritilishi joriy etildi. Oliy Majlis Senati raisi rahbarligida Gender tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha Komissiya tuzildi. Parlamentning yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari Qo'mitasi, quyi palatasida Oila va ayollar masalalari Komissiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning ijrosini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasining tizimli faoliyati tashkil etildi, BRMning beshinchi maqsadi gender tengligiga erishish masalasiga bag'ishlangan.

Oliy Majlis Senati raisi boshchiligida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi tuzilib, uning asosiy vazifalaridan biri xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda Konvensiya va Pekin harakatlar platformasining qoidalarini amalga oshirish masalalarini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

2022 yil O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi va uning ustuvor yo'nalishlaridan biri xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlashdan iboratdir.

Xotin-qizlarning muammolarini tizimli hal etish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Respublika komissiyasi tuzilib, uning asosiy vazifasi hududlarda xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, tizimli hal etish, qashshoqlikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etishdan iboratdir.

2019 yil 25 iyunda O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi qabul qilindi. Unda fuqarolar jinsi, irqiy va milliy kelib chiqishi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, jinsi va mashg'ulot xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga ega bo'lish mustaxkamlangan.

Ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida:

2019 yil 2 sentyabrda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, u ayollarni uyda, ish joyida, ta'lim muassasalarida zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunda bir qator tushunchalar, «jinsiy zo'ravonlik», «jismoniy

zo‘ravonlik», «iqtisodiy zo‘ravonlik», «ruhiy zo‘ravonlik» «zo‘ravonlik», «tazyiq» kabi tushunchalarga keng ta'rif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi «Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5116 sonli qarori bilan 1 ta Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlari hamda zo‘ravonlik qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo‘lgan 1146 qisqa raqamli «Call-center» tashkil etildi.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni tuzatish dasturlari to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan huquqiy va ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha 360 nafar inspektorlar shtat birligi joriy etildi.

Onalar salomatligi sohasida:

Onalar va bolalar salomatligini har tomonlama mustahkamlashni ta'minlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2017 yil 25 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta aniqlash bo‘yicha 2018-2022 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorda, jumladan, homilador ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda patologiyani erta aniqlash bo‘yicha davlat tizimini yanada rivojlantirish, bolalarda nogironlikni kamaytirishga doir vazifalar belgilangan.

2019 yil 11 martda "Fuqarolarning reproduktiv salomatligi to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun bilan ayollar va erkaklarga reproduktiv huquqlarini amalga oshirishda teng huquq va imkoniyatlar, farzandlarining tug‘ilishi bilan bog‘liq mustaqil qarorlar qabul qilish huquqi belgilandi, xavfsiz va samarali texnologiyalardan foydalanish kafolatlandi.

2019 yil 23 oktyabrda “Ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunda ko‘krak suti bilan boqishni qo‘llab-quvvatlash, go‘daklar va yosh bolalarning ovqatlanishini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, davlat organlarining vakolatlari belgilandi.

Aristotelning fikricha, er-xotin munosabatlari xo‘jayin va cho‘ri munosabatlari bo‘lishi kerak. Ayol va erkak teng mavjudotlar emas. Ayol farzandiga tanni beradi, erkak esa – mohiyatan ustun bo‘lgan jonni beradi. Erkak – hokimlik qiladi, ayol – bo‘ysunadi¹⁷.

Qayd etish kerakki, XXI asrda ham ko‘pchilik tomonidan Aristotelning fikrlariga o‘xshash fikrlar bayon etiladi (Ayniqsa Sharqda). Uyg‘onish davridan bizni utopiyalar qiziqtiradi. Tomas Mor o‘zining “Oltin kitob”i (“Zolotaya kniga”) da ideal davlatni tasvirlagan. Bu davlatda erkak va ayollar faoliyat chegaralari belgilanmagan: jamoat ishlari, diniy faoliyat (Ruhoniy xizmatchi sifatida), xarbiy xizmat (Faqat o‘z turmush o‘rtoqlari bilan) va h.k. Ayollar yuqori mansablarni egallashlari mumkin bo‘lgan. Tomazzo Kampanella “Quyosh shahri” (“Gorod solnsa”) asarida ideal davlatni tasvirlaydi. Unda ikki jins vakillari tengdirlar (xarbiy ta‘limda ham), ularning kiyimlari ham farqlanmaydi. Farq ularning yumushlaridadir: erkaklar ancha og‘ir ishlarni bajarishgan, ayollar esa nasl qoldirishgan. Ammo ular oila qurishmagan, farzand ko‘rish uchun juft tanlashda esa astrologiya yordamga keladi. Erkak va ayollar o‘zlariga juftni o‘zlari tanlashmagan, bu ishni ular uchun boshliqlar triumvirati astrologiya yordami bilan bajarganlar. Jan Jak Russoning (1712-1778 yy.) fikriga ko‘ra erkak va ayol o‘rtasidagi o‘xshashlik bu avvalo, ularning bir biologik tur vakillari ekanidir: ular ko‘p jihatdan tengdirlar – organlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar. Biroq, jamiyat a‘zolari sifatida ular teng emas. Bunga sabab, ularning tug‘ma xususiyatlaridir. Erkaklar uchun bu xususiyatlar –

¹⁷ Bendas T.V. Gendernaya psixologiya. – M. 2006, S.11. 12

mustaqillik, rostgo'ylik, dadillik va h.k; ayollar uchun esa uyatchanlik, ayyorlik, o'zgalar fikri bilan hisoblashish va h.k. Russo fikricha, ayollar ancha teran fikr va aqlga egadirlar. Shu sababli, ular o'qib, ta'lim olishlari mumkin. Erkaklar va ayollar o'zlari turmush o'rtog'i tanlagan holda, sevib turmush qurishlari mumkin. Immanuel Kant (1724-1804 yy.) uchun erkak va ayol – boshqaruvchi va boshqarilmishdir. Ya'ni erkaklarning jamiyat siyosiy hayotidagi faoliyati aktiv, ayollarniki – passiv. Kant tomonidan bayon etilgan, gender stereotiplari qatorida turuvchi ushbu fikr, ya'ni ayollarning siyosiy yoki boshqa muhim qarorlar qabul qilishga qodir emasligi bugungi kunda ham ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi. Ko'rinib turganidek, o'tmish arboblari jinslar o'rtasidagi farqlarni qayd etishgan va bu ularning fikricha tabiiy holdir. Bunday gender stereotiplari hech qanday isbotni ham talab etmaydi. Zamonaviy fan esa ularning (o'zgacha) ma'lum isbot va asoslarini talab etadi. Ingliz yozuvchisi Mari Uollstounkraft (1759-1797 yy.) ning fikricha, yuqorida “tabiiy” deya ta'kidlangan hislatlarning asosi tarbiyadadir. Ya'ni, qizlar bolaligidan o'zlariga oro berib, qo'g'irchoq o'ynashsa, o'g'il bolalar boshqacharoq – ko'proq quvvat talab etadigan, kuch talab etadigan, shovqinli o'yinlar o'ynashadi. Fridrix Shlegelning fikrlari zamondoshlari fikrlaridan birmuncha farq qiladi. U “tabiiy” deb atalgan jinslar o'rtasidagi farqlarni qo'ya turib, mukammal – ya'ni o'zida erkaklar va ayollar xizmatlarini birlashtirgan shaxs haqida fikr yuritadi. U erkaklarga o'zlariga yetishmaydigan ayollarga xos hislatlarni (masalan, emosionallik), ayollarga esa erkaklarga xos hislatlarni (masalan,) o'rganishni maslahat beradi. Artur Shopengauyer (1788-1860 yy.) erkaklar va ayollar psixik jarayonlariga e'tibor beradi. Erkaklar uchun – mavhumlik, ayollar uchun – konkretlik (aniqlik) xosdir. Bundan 14 tashqari Shopengauyerning fikricha farzandni dunyoga keltiruvchi erkak va ayol o'rtasidagi sevgi va ehtirosdir. Oila qurish uchun u boshqa omil va sabablarni tan olmaydi. Demak, birinchi bosqich turli olimlarning turlicha qarashlariga boy. Biroq bu davrda gender psixologiyasi alohida soha sifatida shakllanib ulgurmagan, uning muammolariga bag'ishlangan alohida ishlar qilinmagan. Ikkinchi bosqich (XIX asrning oxiri –

XX asr boshlari) – gender psixologiyasining predmeti va ilmiy asoslari ishlab chiqilgan bosqich. Bu davrda ko‘plab g‘arb mamlakatlarida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Fransiya, Angliya va AQSHda ayollar erkinligi uchun harakatlar avj oldi. Bu harakatlar gender psixologiyasi tarixining bir qismi hisoblanmasa ham ilgari gender psixologiyasi predmetiga kirmaydigan muammolarga olimlar diqqatini tortdi. “Feminizm” so‘zi fransuz tilida XIX asrning birinchi yarmida paydo bo‘lgan (bu so‘z o‘zi anglatgan mohiyatdan keyinroq yuzaga kelgan). 1830 yilda esa “erkin ayol” (“emansipirovannaya jenhina” – lotincha “emancipatio” – erkinlik, ozodlik) termini ham paydo bo‘ldi.

Xulosa qilib ayatdign bo‘lsak, ushbu jamoat harakatining ishtirokchilari ham ayollar, ham erkaklardir. Harakatning maqsadi – ayollarga erkaklar bilan teng bo‘lgan ta’lim olish, iqtisod va saylov bilan bog‘liq boshqa huquqlar uchun kurashishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mead M. Sex and Temperament three Primitive Societies. 1935. N.Y.
2. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –T.: Akadernashr, 2011.
3. A.Nurmonov, B.Yo‘ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – T. “SHarq”, 2001.
4. A.Nurmonov, SH.Iskandarova. Tilshunoslik nazariyasi. – T., “Fan”, 2008.
5. Alpatov V.M. YAponiya. YAZЫK i obщestvo. M., 1988.
6. Bendas T.V. Gendernaya psixologiya. – M. 2006.
7. Bogin G.I. Obretenie sposobnosti ponimat: Vvedenie v filologicheskuyu germeneytiku / G.I.Bogin. – Tver, 2001.
8. Bochkarev A.E. Semanticheskiy slovar / A.E.Bochkarev. – Nijniy

Novgorod:Dekom, 2003.

9. Voronina O.A. Teoretiko-metodologicheskie osnovy gendernyx issledovaniy

10. Teoriya i metodologiya gendernyx issledovaniy. Kurs leksiy / Pod общ. red.

O.A.Voroninoy. – M.: MSGI – MVSHSEN – MFF, 2001.

11. Gadamer G. Istina i metod: Osnovy filosofskoy germeneytiki. (Per. s nem)/Gans-Georg Gadamer. – M.: Progress, 1988.

12. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. –T. “O‘zbekiston”, 2007.

IMPORTANCE OF READING SKILLS IN IELTS EXAM

Tursunova Mokhina Tolibjon kizi

Student of Samarkand State of University (Kattakurgan branch)

Annotation: This article discusses the reading section of the IELTS exam and lists the important aspects of the reading section of the IELTS exam.

Key words: Short answer question, Summary completion, Sentence completion, Matching headings, Matching names, Labeling a diagram

Annotatsiya: Ushbu maqolada IELTS ning o'qish mahorati qismi haqida so'z yuritiladi. O'qish mahoratining IELTS imtihonida muhim jihatlari sanab o'tiladi.

Kalit so'zlar: Qisqa javobli savol, Xulosa to'ldirish, Gapni yakunlash, Mos keladigan sarlavhalar, Mos keladigan nomlar, Diagrammani belgilash.

The question asked in the IELTS reading exam is divided into the following types:

Short answer questions: Answer to such questions will be limited. The maximum number of words that can be written in the answer is clearly written in the question. The most common mistake test takers are not paying attention to how many words can be written. In the situation where you have to write a single word for the answer, even if you write "a car" when the word "car" is the answer, your answer is wrong.

Multiple choice. The answer to such questions is given in the form of an option. The biggest problem the test taker faces is that it may seem like all options are correct all are incorrect or there is more than one correct answer. This is because the test makers are well aware of the "scrambling" methods that the test takers use to reduce the reading time of the text and deliberately give options where each option involves some word or information found in the text.

As a result a test taker who does not fully understand or read the text gets lost.

Summary completion. In such question the examiner usually presented with a brief summary of the entire text. One of the factors that make it difficult to answer these types of question is not reading the text well and not understanding the general content. In order to complete the summary, it is necessary to understand the original text twice as well.

Matching sentence endings. In such question the test-maker is given various incomplete sentences in one column and unfinished sentences in the other. Sentences are written by combining numbers and letters.

Sentence completion. Such questions are similar to summary completion. Only in this case, it is not a short text, but just a sentence, and it is asked to find the omitted words from the text. The speed at which you can find the information you need in the text plays an important role in finding answers to such questions when completing the sentence, it is also necessary to pay attention to the fact that it looks grammatically correct.

True, False, Not given. In this the test-taker is given arguments that is sentences is true, false, or not given in the text.

Matching headings. In such assignments it is usually necessary to put a heading for each paragraph in the text. Keywords do not help with that. Answering the title question requires a very good understanding of the overall content of the paragraph.

Matching names. In this case the test taker is usually given a mixture of the names of the persons mentioned in the text and their characteristics or deeds.

Matching information to paragraphs. This is opposite of the matching headings task. In headings, you will be given a list of headings and you will need to find which paragraph matches the heading you have. When you drop the information into a paragraph, you are give some information and asked to find

the paragraph in which this information is given.

Labeling a diagram. In this you are given a visual representation of a circuit described in the text and usually different parts of that circuit are drawn. Your task is to write down which part is called what or other information. In order to answer each question correctly, it is necessary to understand the text very well, especially the words used in the description.

When preparing for the IELTS exam, remember that the goal should improve general knowledge and skills. If you can easily understand any academic paper, you won't need any other "methods" to answer all 40 questions. If something doesn't seem right ask "Why?" ask and surely find an answer. Only NYUTON was able to ask the question "Why?".

Appendix

-Scramble(v) -to climb or move quickly using one's hands and feet,as down a rough incline.

-Summary(n)- a comprehensive and usually brief abstract, recapitulation, or compendium of previously stated facts or statements.

-Unfinished(adj) -not finished; incomplete or unaccomplished.

-Omitted(adj) -left out or suppressed; not done; mentioned, used, written.

-Original(adj) -belonging or pertaining to the origin or beginning of the something, or to a thing at its beginning.

-Incomplete(adj) -not complete, lacking some part.

Used literatures

1. Ability of Turkish EFL students. December 2015.UNIVERSITY PARK. Bulten 4(1-2):3751. DOI:10.12973/umbulletin,412.4 Lisens CCR44.O. AUTHORS:Ebru Kaya

2. Materials for developing reading skills December 2019.
DOI:10.131401 RG.2.2.36188,72326 Authors: Hitomi Masuhara (University of
Liverpool) Zahra Farajnezhand (Islamic Azod University Najafabad branch)

EDUCATION SYSTEM IN USA AND UZBEKISTAN

Kholmuminova Shakhrizoda Kholmumin kizi

Student of Samarkand State University (Kattakurgan branch)

Sattarova Feruza Rustam kizi

Assistant-teacher of Samarkand State University (Kattakurgan branch)

Annotation: In this article, it is compared the educational system of the USA and Uzbekistan. In deed, the Uzbek and American educational systems are fundamentally different from each other. Meanwhile in America, kindergartens are considered mandatory that is primary education, In Uzbekistan kindergartens are optional. The evaluation criteria in the educational system of both countries and the university entrance exams are different.

Key words: Compare, mandatory , primary education , optional, criteria, entrance exam.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amerika va O`zbekiston ta'lim tizimini o'zaro solishtiriladi. Ya'ni O`zbekiston bilan Amerika ta'lim tizimi bir biridan tubdan farq qiladi. Darhaqiqat, Amerikada bog'chalar majburiy ya'ni boshlang'ich ta'lim bo'lsa, O`zbekistonda bog'cha ta'limi ixtiyoriy hisoblanadi. Ikkala davlatning ta'lim tizimidagi baholash mezonlari ham universtitetlarga kirish imtihonlari ham turlicha.

Kalit so`zlar: Taqqoslash, majburiy, boshlang'ich ta'lim, ixtiyoriy, mezonlar, kirish imtihoni.

As everyone knows that one of the most developing fields today is Education. Great attention is paid to education in all aspects. In order to develop the education system, various reforms are being carried out in different countries. Today, all spheres of the life of New Uzbekistan have become the field of deep reforms. In this process, it is impossible not to talk excitedly about

the changes in the educational system, which is considered the basis of the social sphere. I am going to talk about American schools. I am taking some advantages being in America the most interesting thing for me is that in American schools students are mixed to every classes juniors seniors are mixed in one class and pass over information to each other Juniors can gather some experience from Seniors while studying together because Junior's or sophomores can imagine how to get prepared for college and most everyone who wants to enter the college should take a ACT test even they fail on exam they can retest the test by paying extra money but anyway there is some opportunity to enter the college. And must everyone who wants to interest the college should take a ACT test even say fail on exam they can the test the test by paying extra money but anyway there is some opportunity to enter the college in our country however in Uzbekistan schools are quite a bit different is it at least 25 students in each classrooms and they are not mixed schools are more strict in class 9th grade and eighth graders study separately but in America there is Advantage side studying together in class however student can share more opinions each other in America and students can discuss the classes more independently than Uzbek students in Uzbekistan every student should wear uniform boys should wear on suits white shirts ties and girls should wear on white shirts and black skirt this causes some I've got in American public school students are not able to wear on uniform and who speak students graduate school 9th grade then the church's Elysium like American high schools in Uzbekistan students take an exam before interesting universities however this all needs interesting University of course they pay attention School greatest but there is one thing if students take a test for entering University and sales then he or she has to wait next year there is no other opportunity. Anyway is the best thing I like studying at Uzbek school is that students don't have to go teacher's classrooms teachers look for students and at Uzbek schools brake longer around 10 minutes between each periods and there is the biggest 40 minutes break at the middle of the day at the time students can talk with teachers having snacks whatever they do students are Elevate to go

out at the period most students say golden black is this one thing I like study at Uzbek school I do like American schools too. In recent years, practical work on organizing all stages of the education system based on modern requirements has entered a decisive stage in our country. According to official sources, about 60 percent of Uzbekistan's population is covered under the system of education. When viewed in general, the Uzbekistan educational system includes:

- Preschool training (preprimary-from three to six years old)
- General secondary education (from 6 to 15 years old)
- Secondary vocational education (from 15 to 18 years old)
- Higher education (undergraduate and graduate-from 18 years old).

The United States public schools are divided into elementary and secondary education, with a number of variations in how this division is configured, typically decided at the local level. One of three common patterns prevails in most communities:

- Elementary- school middle school (6–8), high school (9–12);
- Elementary -school junior high school (7–9), high school (9–12); and
- Elementary -school high school (9–12)

Children generally begin elementary school with kindergarten at age five and continue through secondary school to age 18. Typically, the elementary school years include kindergarten through grades five or six, and at some schools through grade eight. Secondary schools — known as high schools in the United States — generally include grades nine through 12. The U.S. educational system today comprises almost 96,000 public elementary and secondary schools, plus more than 4,200 institutions of higher learning, ranging from small, Students experimenting with hydraulics in a vocational class. Two-year community colleges to massive state universities with undergraduate and graduate programs in excess of 30,000 students. The nation's total expenditures

for education stand at approximately \$878 billion a year. Organization School attendance is compulsory for students through age 16 in most states. Children generally begin elementary school with kindergarten at age five and continue through secondary school to age 18. Typically, the elementary school years include kindergarten through grades five or six, and at some schools through grade eight. Secondary schools — known as high schools in the United States — generally include grades nine. In Uzbekistan uniform and attendance are more important than your studying for school administration than American schools.

Conclusion:

In Uzbekistan, it is called general secondary education, but this is also divided into two, namely primary and further classes. There is a similar division in many countries, some of which have systems similar to ours, and others that do not. These things vary from country to country. In general, general secondary education and some part of this education is compulsory everywhere, as it is here. As for the differences, the teaching system implemented within the school is different. The issue of freedom... Based on my personal opinion, the only requirement we have starting from school is unconditional obedience. “This is how you should sit! You will wear the uniform we told you! You will behave as we say!” So, what about the quality of education?

APPENDIX

Participation-the action of taking part in something.

Social sphere- a combination of industries serving the basic social needs of the population: education of children and adults, medical support, cultural and sports leisure.

Preschool – relating to the time before a child is old enough to go to school.

Vocational education- is prepares people to work as a technician or to take up employment in as killed craft or trade as a tradesperson or artisan.

Prevail-prove more powerful or superior.

Junior high school-(in the US and Canada) a school intermediate between an elementary school and a high school, generally for children in the seventh, eighth, and ninth grades.

Decisive-setting an issue, producing a definite result.

USED LITERATURES:

1. *“Hand book of research in the social Foundations of education”*
Edited by Steven Tozer Bernardo P. Gallegos Annette M. Henry Mary
Bushnell Greiner Daula Groves Price. First published 2011

2. *“The educational system in the United States: Case study Findings”*
National institute on student Achievement, Curriculum and Assessment office
of educational Research and Improvement U.S Department of education

3. *“ USA education in Brief”* Bureau of international information
Programs U.S Department of state

4. <https://www.scholaro.com/db/Countries/Uzbekistan/Education-System>

5. <https://www.quora.com/What-is-the-differences-between-Uzbekistan-and-the-USA-high-school>

**FUQAROLIK JAMIYATI VA DEMOKRATIK DAVLATDA
NODAVLAT TASHKILOTLARINING O`RNI.**

Xolmuminova Shaxrizoda Xolmo`min qizi

Samarqand Davlat Universiteti talabasi (Kattaqo`rg`on filiali)

Sattarova Feruza Rustam qizi

Samarqand Davlat Universiteti yordamchi o`qituvchisi (Kattaqo`rg`on filiali)

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati va demokratik davlatda nodavlat tashkilotlarning o'rni haqida bayon qilingan. Avvalambor fuqarolik jamiyati aslida qanday jamiyat, uning qanday vazifalari mavjud, demokratik davlat qanday davlat, nodavlat davlat tashkilotlarining vazifasi nimada degan savollarga javob berilgan.

Kalit so`zlar: Fuqarolik jamiyati, demokratik davlat, nodavlat tashkilotlari.

Аннотация: В данной статье описывается роль гражданского общества и неправительственных организаций в демократическом государстве. Прежде всего, даны ответы на вопросы, что за общество такое гражданское общество, каковы его функции, что за государство демократическое государство, каковы функции негосударственных организаций.

Ключевые слова: гражданское общество, демократическое государство, неправительственные организации.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'z oldiga erkin, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Mazkur maqsadga erishish jarayonida bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlarini, xususan, uning muhim bo'g'ini hisoblangan

jamoat tashkilotlarini jamiyat hayotidagi o'рни va rolini mustahkamlash va oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Zero, islohotlar ko'p qirrali va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hamda olib borilayotgan islohotlarning sifati va samarasi ko'p jihatdan jamoatchilikning ishtirokiga bog'liq, shu jihatdan, uni shakllantirishda muayyan ijtimoiy institutlarga, xususan, jamoat tashkilotlariga muhim o'rin beriladi. Yurtimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga oid islohotlarning ahamiyati beqiyos. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ta'sirini oshirish, buning uchun ularning huquq va vakolatlari doirasini yanada kengaytirish maqsadida bir qator yangi qonunlar yaratilmoqda, amaldagi qonun hujjatlariga muhim o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Biroq, bugungi davr bu boradagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni talab etmoqda. Binobarin, samarali faoliyat yuritadigan jamoat tashkilotlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining davlat tomonidan kafolatlanishi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar bermoqda. Albatta, bu o'zgarishlar tufayli fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qadriyatlardan biri – aholi istaklari va manfaatlarini fuqarolik institutlari orqali ifoda etishga erishildi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qonunlar qabul qilishning o'ziga xos imkoniyatlari yuzaga keldi. Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratini, avvalo, jamoat tashkilotlari – siyosiy partiyalar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlar faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Binobarin, hokimiyat organlarining jamoat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kundademokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda

qonuniymanfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'zsalohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi vahuquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatdamanfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari milliy qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini amalga oshirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida ishlab chiqilgan mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha mustahkam huquqiy asos va noyob mexanizm bunda muhim ahamiyat kasb etayotir. Nodavlat notijorat tashkilotlari dastlab jamiyatni o'zini o'zi boshqarishi va uni mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlari asosida paydo bo'ldi. XX asrning o'rtalariga kelib esa nodavlat va notijorat tashkilotlar demokratik jamiyatning muhim va asosiy institutlaridan biriga aylandi. arhaqiqat, inson huquq va manfaatlari ustuvor etib belgilangan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat sari» tamoyilini yanada izchil amalga oshirish bugungi eng dolzarb masalalardan biridir. Bu esa amalda fuqarolik jamiyati institutlarining butun tizimini rivojlantirish, uning mamlakatni, ma'muriy-hududiy tuzilmalarni boshqarish jarayoniga integratsiyalashuvini taqozo etyapti. Istiqlol tufayli mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish asosiy strategik maqsad etib belgilandi. Yurtimiz tarixida ilk bor fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat birlashmalarining mustaqil faoliyat yurituvchi huquqiy sub'ekt ekanligi tan olindi. Shu bilan birga, respublikada fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning siyosiy va huquqiy kafolatlari milliy qonunchiligimizda o'z ifodasini topdi. Davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga, shuningdek, jamoat

birlashmalarining davlat idoralari faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi qonun bilan mustahkamlandi. Shu tariqa fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy asoslari paydo bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyatida va demokratik davlatda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni juda ham beqiyos. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasi o‘laroq, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning konstitutsiyaviy hamda huquqiy asoslari.

ATAMALAR IZOHI

Fuqarolik jamiyati- haqiqiy fuqarolardan, ya’ni uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

Islohot- ijtimoiy hayotning biron-bir tomoni (tartiblar, idoralar, muassasalar)ni o‘zgartirish, qaytadan tuzish.

Qonun- inson, jamiyat va davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi.

Mansabdor shaxslar- davlat organlarida, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, davlat, munitsipal mu-assasalarida, shuningdek, Qurolli Kuchlarda, boshqa qo‘shinlar va harbiy tuzilmalarda hokimiyat vakili vazifalarini doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha amalga oshiruvchi yoxud tashkiliy-boshqaruvchilik, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini bajaruvchi shaxs.

Nodavlat notijorat tashkilotlari- o'z faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish bo‘lmagan tashkilotdir. Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, fuqarolarning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirish sohasida

ijtimoiy, xayriya, madaniy-ma'rifiy, siyosiy, ilmiy va boshqaruv maqsadlariga erishish uchun tuzilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “*Yangi asr avlodi*” Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. 2006.
2. “*O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti*” B.A.Aliyev, T.Hoshimov. 2005
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati
4. <https://talaba.su/o-zbekistonda-fuqarolik-jamiyatini-rivojlantirish-konsepsiyasi-va-aholini-ijtimoiy-himoyalashning-ustuvor-vazifalari/>

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA SOLISH.

Andijon shahar Andijon 1-son kasb-hunar maktabi

Biznes asoslari fani o'qituvchisi

SATVOLDIYEVA DILDORA MASHRABOVNA

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik hamda tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, biznes, soliq, qonun, ekspert, eksport, mehnat faoliyati va resurs.

Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati, bu-biznesdir) — bu o'z tavakkalchiligi ostida amalga oshiriladigan, mulkka egalik qilish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishdan muntazam ravishda daromad olishga qaratilgan mustaqil faoliyatdir sanaladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu lavozimda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak[1]. Tizimda foyda keltirmaydigan tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishning alohida hollari tadbirkorlik hisoblanmasligi aniq.[1]

Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun tadbirkorning o'zi tomonidan ham, tashqaridan jalb qilingan mulklar, nomoddiy aktivlari, mehnat resurslari ham qo'llanilishi lozim. Sarflangan mablag'lar o'zini oqlashiga, ishlab chiqarilgan narsa foyda bilan sotilishiga kafolat yo'q. Bu mulkning to'liq yoki bir qismini yo'qotish xavfi bilan bog'liqdir.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi nafaqat foyda miqdori, balki korxonaning qiymatining o'zgarishi bilan ham baholanishi mumkin (korxonaning bozor qiymati, yaxshi niyatga ham bog'liq bo'ladi).

Odatda g'oyani shakllantirishning quyidagi bosqichlarini ajratib turadi:

Tadbirkorlik g'oyasini yaratish;

G'oyaning birinchi ekspert bahosi;

Bozor ma'lumotlarini olish (talab va taklif o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, narxlarni aniqlash va boshqalar);

G'oyani amalga oshirish uchun xarajatlarni hisoblash;

G'oyani amalga oshirish uchun bozor ma'lumotlari va xarajatlarini ekspert baholash;

Tadbirkorlik qarorini qabul qilish, g'oyani amaliy amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish.

Qaror qabul qilish uchun diqqat bilan marketing yoki bozor holatini, raqobatchilar o'rtasidagi munosabatlarni, talab va taklifning mumkin bo'lgan o'zgarishlarining ilmiy prognozlarini, aholining xarid qobiliyatini o'rganmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, yangi g'oyalarning ko'plab manbalari mavjud, misol uchun: shartnoma bo'yicha biznes hamkorlar va kontragentlarning sharhlari, raqobatchilarning mahsulotlari, davlat organlarining nashrlari, patent idoralarining ma'lumot varaqlari kabilar kiradi.[2]

Tadbirkorlik faoliyati ko'pincha kichik biznes bilan bog'liq bo'lsa, egasi ham yetakchi hisoblanadi. Katta kompaniyada boshqaruv funksiyalari ko'pincha yollangan menejerlar tomonidan amalga oshiriladi va egalari daromad olishlari hammaga ma'lum. Faqatgina vaqti-vaqti bilan umumiy yig'ilishlarda ovoz berishadi. Ba'zida ijtimoiy tadbirkorlik alohida toifa sifatida ajratiladi.

Soliqlar - davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalar qatori soliq sohasida ham bir qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Bu boradagi ishlar nafaqat soliq va

yig'implarni undirish, balki soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni qisqartirish hisobiga davlat budjeti daromadlarini shakllantirishga ham qaratilgan. Shu munosabat bilan yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev mamlakatimizda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik". Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar va yig'implar hisobidan shakllantiriladi. Soliqlarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishi davlat darajasida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlar, ya'ni budjet va maqsadli jamg'armalarning o'z vaqtida sarflanishini moliyalashtirishga xizmat qiladi.[3] Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, ularga kelgusida soliq va yig'implar bo'yicha budjetga tushumlarni ko'paytirish imkonini beruvchi mexanizmni yaratish, korxonalarining investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, asosli takliflar topish va faoliyatini rivojlantirish, amaliy maslahatlar va aniq yechimlarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada soliq va yig'implarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash soliq qarzi yuzaga kelishining iloji boricha oldini olish va ular yuzaga kelgandan keyin samarali undirish orqali amalga oshiriladi. Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning 51-moddasida "Fuqarolar qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar". deb belgilangan. Shu bois soliq to'lovchilarning soliq qarzlari qisqartirish va yangi qarzlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni tahlil qilish. Bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan mamlakatimiz moliya va soliq tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, soliq undirishning ayrim masalalari o'rganildi. Bu borada tadqiqot olib borgan xorijlik olim Margherita Ebraiko mamlakatda soliq va yig'implarni undirishni rivojlantirish va rag'batlantirish bilan birga soliq qarzi bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan qattiq choralar ko'rish zarurligini ta'kidlagan. Bu undirish bo'yicha soliq qarzlari kamaytirish va ularning yuzaga kelishining oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Martin Tompsenning so'zlariga ko'ra, so'nggi yillarda yirik kompaniyalarning soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlari ko'payib bormoqda. Bu mamlakatda soliq yukining yuqoriligi bilan izohlanadi. Korxonalarining soliq to'lovlari bo'yicha qardorliklarining mavjudligi ham bevosita soliq yukining yuqoriligi bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, AQShda soliq yuki 29,8 foiz, Buyuk Britaniyada 34,6 foiz, Germaniyada 37 foizni tashkil etadi. Yillar davomida soliq yukining kamayishi kelajakda soliq to'lashdan bo'yin tovlash va soliq qarzlari kamaytirish imkonini beradi. O'zbek iqtisodchilaridan I.Niyozmetov, "QQS va mol-mulk solig'i yuki asosan sanoat korxonalariga zimmasiga yuklanganligi, bu soliq yukining notekis taqsimlanishiga, sanoat korxonalariga nisbatan og'ir soliq yuki tushishiga olib kelishini ta'kidladi. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliqlarni to'lashini osonlashtiradi. Bu soliq yukining shunchalik og'irligidan, soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatiga umumiy belgilangan tartibda salbiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi.[4]

Xulosa: Shu bilan birga, A.G'iyosov o'z ilmiy tadqiqotlarida davlat soliq xizmati organlari tomonidan asosiy hisobraqamga qo'yilgan inkasso topshiriqnomasi bir oy muddatda to'liq bajarilmagan taqdirda, xo'jalik yurituvchi

subyektning barcha hisobraqamlariga qaratilishini belgilab qo'yish tartibini joriy etish orqali soliq to'lashdan qochishni oldi olishini hamda soliq qarzdorligi ma'murchiligini takomillashtirish uchun birinchi navbatda soliq madaniyati darajasini oshirishga yo'naltirilgan soliqqa oid qonun hujjatlarining normalarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.V.Vahobov soliq va soliqqa tortish Toshkent-2009.[1]
- 2.A.S.Jo'rayev soliq va soliqqa tortish Toshkent-2010[2]
- 3.U.Inayatov tadbirkorlik va iqtisodiyot Toshkent-2004[3]
- 4.www.ziyonet.uz [4]

**O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA XALQ
OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim)yo'nalishi 2-kurs magistranti
Avalova Tursunoy Abduraximovna*

Annotation: this article reflects views on the use of examples of folk oral creativity in the orientation of students in the profession.

Keywords: profession, "profession-pride", "profession I love", "Labor glorifies a person", "masters of his profession" honesty, integrity, decency, generosity, loyalty, honor, austerity.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish borasida qarashlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, «Kasbim-faxrim», «Men sevgan kasb», «Mehnat kishini ulug'laydi», «O'z kasbini ustalari» halollik, botirlik, odoblilik, saxiylik, vafo, or-nomus, tejamkorlik.

Kirish. (Introduction)

Xalq pedagogikasi qamrovi nihoyatda keng, serqirra va serjilo tushuncha bo'lib, u shu xalqning butun davrini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga otabobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, saqlab kelgan ota-meros, Sharq xalqlarining boy va betakror odobnomasi hisoblanadi. Xalq pedagogikasi asrlar davomida yashab keldi. Avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi rol o'ynadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarining asosiy maqsadi yosh avlodni yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashdir. Xalq og'zaki ijodining har bir turida insoniy qadriyatlar va vatanparvarlik, do'stlik va ahillik, yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qozonishi, halollik, botirlik, odoblilik, saxiylik, vafo, or-nomus, tejamkorlik, mas'uliyat, sog'lom tarbiya va tozalik, tabiat va undagi barcha ne'matlarni e'zozlash kabi masalalar alohida yoritib berilgan.

Xalq og'zaki ijodi umumiy adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Adabiyotdagi har qanday asar zamirida bola tarbiyasi g'oyasi yotadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi bolalarning yoshi, saviyasiga qarab muhim ta'lim va tarbiyaviy masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bolalar uchun har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishidan tashqari bolalarga tushunarli va qiziqarli bo'lishi lozim. Bu o'rinda xalq og'zaki ijodi bizga ko'mak beradi. Xalq og'zaki ijodi namunalariga maqol, topishmoq, matal, ertak, mif, afsona, rivoyat, latifa, doston kabilar kiradi. Xalq og'zaki ijodi namunalari maktab darsliklarida ham o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janri bo'lib, ularning an'anaviy muqaddimasi va xotimasini o'qishda ohang usullarini o'rganish ham yuksak darajada o'z samarasini beradi. Yosh kitobxon ertakdagi sarguzashtlar olamida yashaydi va har bir qahramonning ruhiyatini his qiladi. Yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi ularning komil inson bo'lishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Maktab darsliklaridan joy olgan har bir ertakdan so'ng maqollar, hikmatli so'zlar keltirilganligining guvohi bo'lamiz. Bu o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar ruhida tarbiyalanishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayni o'rinda bu tarbiyaviy ta'sirni yetkazib berish pedagoglar zimmasiga anchagina mas'uliyatni yuklab qo'yadi. Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq mavzularni o'tish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunday innovatsion metodlarni tanlashda o'quvchilar yoshi va ular dunyoqarashini hisobga olmoq lozim.

Xalq og'zaki ijodida ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti asrlar bo'yi mehnat jarayonida insonning orzusi negizida shakllanib borgan barkamol insonga qaratilgan xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida, ya'ni ertak, doston, qo'shiq, topishmoq, tez aytish, masal, matal, maqol, rivoyat va hikoyatlarida o'z aksini topgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti asta-sekin keng tus olib, rivojlanib borgan. Shu zaylda insonlarda pedagogik madaniyat va merosga ixlos, intilish vujudga kelgan hamda unga amal qilina boshlangan.

Bugungi kunda vatanparvarlik tushunchasi mustaqil O'zbekiston uchun yanada kengroq ma'no va mazmunga ega bo'lib qoldi. Zero, shunday ekan, har bir o'quvchi Vatan muvoffaqiyatidan o'zining shaxsiy xizmati – burchi va mas'uliyati borligini to'la idrok etsin. Kundalik ishlarni shunday tashkil etish lozimki, natijada u respublika mustaqilligi sharoitidagi u muammolarni o'ziniki, singari qabul qila olsin va har qanday sharoitda, qiyinchiliklarga chidam, sabr-bardoshli, matonatli, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan inson bo'lib ulg'aysin. Buning uchun «Mustaqillik – buyuk ne'mat», «Vatan – yagonadir Vatan - bittadir», «O'zbekiston yoshlari fidoiylardur», «Vatanimiz qomusi», «O'zbekiston va jahon» va boshqa ko'plab shu kabi mavzularda adabiy-badiiy kechalar, mushoiralar, uchrashuvlar, «Mustaqillik, asrayman seni», «Men nechun sevaman O'zbekistonni» mavzularida rasmlar tanlovi, «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat», «O'zbekiston bolalari o'z yurtini sevadilar», Men – kelajagi buyuk yurt farzadiman-, «Kasbim-faxrim», «Men sevgan kasb», «Mehnat kishini ulug'laydi», «O'z kasbini ustalari» “Xalq og'zaki ijodidan” foydalanib o'z qobiliyatlarini ko'rsatishi va shu kabi mavzularda insholar tanlovi o'tkazish mumkin.

Qadimda hunarmandlar o'z kasbining sir-asrorini yozib qoldirmaganlar. Uni faqat shogirdlar bilgan. Shogirdlar usta bo'lganlaridan keyin, ular ham

o'zlariga qarashli shogirdlarga o'rgatganlar. Shunday qilib hunarmandchilik an`ana tariqasida rivojlanib kelgan.

Hunarmandlar shogirdlikka o'z bolasini yoki qarindosh-urug'larining bolalaridan olganlar. Shogirdlikka bolalar 7-8 yoshdan olinib, 10-12 yil hunar o'rganganlar. Ustoz shogirdlari bilan kunduzi ishlaganlar. Kechqurun esa ustoz rahbarligida xat-savod chiqarganlar. Ustozlar har tomonlama yaxshi bilimga ega bo'lganlar. Ustoz shogirdga qattiqqo'l va talabchan bo'lgan. Kasb o'rgatish tekin olib borilgan. Hunar o'rganish uchun sabr-toqat va nozik did talab etilgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdan pokizalikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, egri va noma`qul ishlarga yaqin yo'lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat`iy talab qilganlar. Usta shogirdiga hunar sirini o'rgatishdan tashqari uy-yumush ishlarini bajarishga ham tayyorlab borgan. Shogird hunarni puxta egallashdan so'ng unga oq fotixa berilgan. Marosimda ustozga shogird bosh-oyoq sarpo in`om etgan. Ustalarining kattasi, ustakalon usta nomini olayotgan shogirdning boshiga sala o'ragan. Cho'pon kiyg'izib, beliga qiyiqcha bog'lagan va unga arra hamda tesha qistirib qo'yilgan. Shundan so'ng shogirdni ustalari va do'stlari tabriklaganlar. Keyin katta usta dasturxondan yopgan non olib shogirdga bergan va uni duo qilgan. Shundan so'ng usta mustaqil ish boshlagan.

Har bir davrda kasb-hunar juda ulug'langan. Xalq donishmandlaridan biri «Ey farzand, agar oqil va dono bo'lay desang, hunarmand bo'lishni o'yla. Hunarmandchilik sababidan izzat va hurmatga erishasan, agar hunardan bebaxra bo'lsang, quruq soyasiz daraxtga o'xshab qolasan. Ey farzand, aqlli, farosatli va ilmu hunarli kishilar bilan do'st bo'l, hunarsiz kishida hosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, ilm-hunar o'rganishdan uzoqlashma», -deydi.

Axloqshunos olim Majid Xavofiy hunarmandchilik to'g'risida shunday deydi: «Kasb va hunarmandlarni e`zozla. Hunarmandchilikka ruju qo'ygan xalqning hurmat va e`tibori oshadi». Juda ko'p ulug'lar hunarmand bo'lganlar, jumladan, Farobiy-bog'bon, Sakkokiy-pichoqchi, Zavqiy-maxsido'z bo'lgan.

Xoja Bahouddin Naqshband miskarlik bilan tirikchilik qilgan. Rus olimi Mendeleev-ajoyib chamadonchi bo'lgan.

Hozirgi davrda yer yuzida 500 mingdan ortiq kasb-bo'lib, barchasi odamlar uchun xizmat qiladi. Yoshlar shu hunardan bir nechtasini o'rganib, el-yurt oldida o'z kasbining ustasi bo'lsa, ularning rizqi butun bo'ladi. Ota bobolarimiz «bir yigitga yetmish hunar oz» deb bejiz aytmaganlar. Chunki, hunarmandning el oldida obro'si baland, iqtisodi yaxshi. Usta Shirin Murodov, Mirvoxid Usmonov, Mo'min Sultonov va boshqalarni xalqimiz ardoqlaydi.

Ularning shogirdlari bugun ulug' an'anani davom ettirmoqdalar. Buyuk Navoiy «Farxod va Shirin» dostonida:

«Hunarni asrabon netgumdir, oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdir, oxir», -deb bejiz aytmagan.

Mustaqillikdan keyin yoshlarga xalq og'zaki ijodidan foydalanib, ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatish jiddiy masala sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Shuning uchun yoshlarni har tomonlama ta'lim va tarbiya olishlarida hamkorlikda xalq og'zaki ijodidan foydalanib ish olib borish, oldimizga qo'ygan maqsadga yetishishimizga yordam beradi.

Agarda biz o'quvchilarga xalq og'zaki ijodidan foydalanib, to'g'ri tushunchalar, maslahatlar, tavsiyalar berib borsak kelajakda quyidagicha ijobiy natijalarga erishish mumkin.

- ilim-ma'rifatli va halol-pok insonlar bo'lish;
- qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda kasb tanlash;
- har bir kasbning o'z o'rni va mashaqqati borligini oqilona his qilishi;
- o'zi va o'zgalar mehnatini hurmatlash;
- har bir vaqtdan unumli foydalanish;

- o'z-o'zini nazorat va idora qila olishini shakllantirish;
- o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshish;
- ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** belgilash kerak:

- o'quvchilar bilan xalq og'zaki ijodi haqida suhbat o'tkazish va qaysi yo'nalishlariga qiziqishini aniqlash;
- nima uchun xalq og'zaki ijodi qiziqarli bo'lishi;
- o'quvchilarni alla, topishmoq, rivoyat,dostonlarni, maqollarni qay darajada bilishlarini aniqlash;
- ularga xalq og'zaki ijodidan namunalar olib kelishni va ulardan ijro etib berishni vazifa qilib topshirish.

Xalq og'zaki ijodi asarlarini avaylab-asrash, o'rganish hamda kelajak avlodlarga yetkazish davlat ahamiyatidagi ishdir. Chunki ota-bobolarimizdan qolgan bu muqaddas merosda bizdan avval o'tgan necha-necha ajdodlarning beqiyos ma'naviy va madaniy boyliklari jamlangan bo'lib, ularsiz o'zbek xalqining ma'naviy hayotini va uning rivojini tasavvur gilib bo'lmaydi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti. T. 1993 yil.
- 2.Ibragimov B. Yoshlar tarbiyasining dolzarb masalalari. T.: 2009.
- 3.Saidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. Moliya 2003 yil.

Ayollar bosh kiyimlari tahlili asosida modada beretka

Xojiyev Abduraxim Abduraxmonovich

Namangan muhandislik - texnologiya instituti dotsenti

Axmedova Zaynabxon Komilxon qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti magistratura talabasi

Annotatsiya:

Maqsad: tadqiqot maqsadi ayollar bosh kiyimlari tahlili asosida beretka sifatini yaxshilash, tabiiy va mavsumiy matolardan unumli foydalanishdan iborat.

Usullari: mazkur maqolada Yevropa, Amerika va Osiyo davlatlari bosh kiyimlarining yaralish tarixi, rivojlanishi va ushbu interval mobaynida yuz bergan o'zgarishlar va yo'qotishlar o'rganildi. Turli xil assortimentdagi bosh kiyimlar o'rganilgan bo'lib, ularning matolari fizik-mexanik xususiyatlar sinovidan o'tkazilgan va tahlil qilingan. Trikotaj, plashlik, sun'iy teri, mavsumiy matolarning havo va suv o'tkazuvchanlik xususiyatlari yuqori bo'lgan optimal variantdagi gazlamalardan ayollar bosh kiyimlari ishlab chiqarish uchun dizayn-loyiha konstruktorlik hujjatlari taklif etilgan.

Natijalar: O'zbekiston hududidagi ob-havo sharoiti tahlil qilingan va meditsina tomonidan noqulay ob-havo ta'sirida soch, bosh terisi, teri kasalliklari va belgilari o'rganilgan bo'lib, issiq va sovuq haroratlar hisobga olinib, ayollar uchun salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan qulay va mavsumiy bosh kiyim ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Xulosa: trikotaj, plashlik, sun`iy teri, tabiiy va mavsumiy matolardan foydalanib beretkani yangicha dizaynda ishlab chiqarishga tatbiq etiladi.

Kalit so'zlar: bosh kiyimlar tarixi, inson salomatligi, soch va bosh terisi kasalliklari, mavsumiy ko'rsatkichlar, turli xildagi trikotaj, plashlik, membrana, teri, sun`iy teri matolari, nam shimuvchanlik, havo o'tkazuvchanligi, qalinlik ko'rsatkichlari, uzayishdagi uzilish kuchi, ergonomik, estetik, gigroskopikligi, sun`iy, mexanik xususiyat, konstruktsiya, texnologiya.

KIRISH

Mustaqillik yillarida yengil sanoat mamlakatimiz makroiqtisodiy kompleksida mustahkam o'rin egalladi. Chet el investitsiyalari va zamonaviy texnologiyalarni keng jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan samarali loyihalar ishlab chiqarish sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlamoqda [1].

Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror qabul qilindi va xomashyoni qayta ishlash asosida bozor talablariga mos to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020–2025-yillarga mo'ljallangan maqsadli parametrlari tasdiqlandi [2].

O'rta Osiyo va O'zbekiston hududi iqlimi mo'tadil bo'lgani sababli yoz fasli issiq, qishi esa sovuq. Bunday sharoitlarda qulay va zamonaviy kiyimlarning ahamiyati katta bo'ladi. Masalan, hech ham urfdan qolmaydigan ayollar bosh kiyimi - beretka.

Ushbu bosh kiyim ko'rinishining bir nechta versiyalari mavjud. Birinchi versiyada bizning zamonamiz beretining prototipi - Keltlar bosh kiyimi haqida aytilgan. U yaxshi shakllangan Shotlandiya kiyimida saqlanib qolgan va "*tam-o-*

shenters" deb ataladi. O'rtada kichik to'p bilan keng jun matoli beret ko'rinishida ifodalanadi (1-jadval,1-2-rasmlar).

1-jadval




Dastlab, barcha bunday "tem-o-shenters" faqat ko'k ranglarda mavjud edi. Birinchi jahon urushi paytida bu shlyapalar Shotlandiya armiyasining formasiga kirdi. Ikkinchi versiyaga ko'ra, beretning paydo bo'lishi Qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. U yerdan rimliklar o'zlashtirib olganlar. Ular birinchilardan bo'lib beretlarni turli xil ranglarda bezashgan va bu boyni kambag'aldan ajratib turadigan tabaqalashuv belgisiga ham aylanib qolgan edi (2-jadval, 3-4-rasmlar).

2-

jadval



3-rasm



4-rasm

15-asrda bu bosh kiyim ruhoniylarning atributiga aylandi va ko'rinishi biroz to'rtburchak shlyapaga o'xshardi.

Shu bilan birga, fransuzlar qimmatbaho toshlar, tuyaqush patlari va turli xil bezaklar bilan bezatilgan beret shlyapalarini kiyishgan. Kiyimning bu atributi mamlakatning deyarli barcha aholisi tomonidan hurmatga sazovor bo'lgan.

Dumaloq beretlar birinchi marta 16-asrda Ispaniyada kuzatilgan. Badavlat shahar aholisi ularga patlar va ortiqcha oro bermay qo'yishdi.

17-asr romantizm asridir. Bu vaqtda beret shlyapa ijodiy odamlar orasida juda mashhur edi. Shunday qilib, italiyalik rassomlar ko'pincha portretlarni chizishganda taniqli shaxslar turli xil rangli shlyapa beretlarda taqdim etilgan.

19-asrda beret shlyapalari uchun moda Rossiyaga keldi. Ular faqat rasmiy kiyimlar bilan kiyishgan. Ishlab chiqarishda faqat eng nozik materiallar ishlatilgan va ular noyob qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Eng keng tarqalgan yorqin ranglar ko'rib chiqildi: qizil, to'q qizil va yashil.

Ushbu bosh kiyimni nafaqat moda ko'rgazmalarida ko'rish mumkin. Beret shlyapa dunyoning deyarli barcha armiyalarida asosiy kiyim elementiga aylandi. Buyuk Britaniyaning qirollik tank polki birinchi bo'lib beretni harbiy jihozlarida ishlatgan.

Beret sobiq SSSRga 1936-yilda ayol harbiy formasining atributlari ko'rinishida kelganva 1963-yildan beri beret maxsus kuchlarning elementlariga aylandi.

3-jadval



5-rasm



6-rasm

Barchamizga ma'lumki, AQSh Armiyasi maxsus kuchlarining "Yashil beretlari" - bu ularning standart bosh kiyimidir va harbiylarga qiziqqan ko'plab bolalarning ko'ngliga yoqadigan tanlovlardan biridir. Ammo, aslida, 1961 yilgacha Yashil beretlar ham *norasmiy aksessuarlar* edi. 1970-yillarning o'rtalarida va oxirida qizil rangli beretlar va yashil beretlar havo qo'shinlari va armiya maxsus kuchlari uchun maxsus aksessuarlar sifatida belgilandi. Qora Cerberil Ranger qo'shinlari tomonidan birinchi qo'llanildi [18].

O'rta asrlarda bunday bosh kiyimlarni nafaqat rassomlar, balki yozuvchilar ham kiyishgan. Beretlar fransuz kiyimining atributi hisoblanadi, chunki 20-asrning oxirida fransuz qo'shinlari ushbu uslubdagi kiyishni boshladilar.

Shuningdek, 20-asrning oxirida sobiq Sovet Ittifoqi ayollari bosh kiyim kiyishni boshladilar. Bu kiyimning moda atributining butun dunyo bo'ylab keng

tarqalishi bilan kuzatildi. Oradan yillar o'tsada, ularga bo'lgan talab va tanlashdagi qonun-qoida o'zgarishsiz qoldi. XX asrdagi bosh kiyimlar turi hozirda har qanday odamni hayratga solishi mumkin: kloshe, gaucho, tok, feska, kotelok, fedora, trilbi, kanotye, tirol shapka va boshqalar.

XXI asrga kelib ayollarga bosh kiyim tanlashda biroz yengilliklar paydo bo'ldi. Sababi ularning bir necha turi o'z-o'zidan urfdan qoldi. Zamonaviy kuz va qish tasvirlarini beretlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Oq, kulrang, qora va qaymoqrang rangdagi beretlar klassik bo'lib, deyarli har qanday kiyim bilan organik ko'rinadi. Ammo zamon rivojlanib, g'oyalar o'zgarishi mobaynida beretlar o'z ko'rinishi va dizaynini kundan kun yangilamoqda (4-jadval, 7-8-rasmlar).

4-jadval



7-rasm



8-rasm

Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan beretkalar ham zamonaviy ham



9-rasm

qulay va birmuncha modellashgandir. Beretkalar ishlab chiqarishda bir necha vazifalarni bajaradi va ma'lum talablarga javob beradi: insonni noqulay iqlim sharoitidan himoya qilishi va bosh qismda oraliq masofada havo aylanish ko'rsatkichlari bilan aloqador muammolarga uchramasligi lozim (5-jadval,9-rasm) [17]. Inson turli ob havo sharoitlarida bosh kiyim kiyimasligi

oqibatida bir nechta kasalliklar orttirib olishi mumkin. Masalan, qish faslidagi qor, izg'irin sovuq inson tanasida turli o'zgarishlar keltirib chiqaradi.

Bosh kiyim kiyimaslik oqibatida qish faslida bosh va teri shamollashi, allergik qichishtiruvchi toshmalar toshishi, surunkali kasalliklar davomiyligi, bahor-kuz faslida chang to'zonli shamol, yog'ingarchiliklar bosh qismda ishqor bilan reaksiyaga kirishishi oqibatida soch 5-jadval va teri shikastlanishi, sochlarning jilosizlanishi, jazirama yozdagi quyosh nurlarining soch tabiiy ko'rinishiga ziyon yetkazishi, ochiq teri va soch tolalarining kuyishiga olib kelishi, badanda qizarishlar paydo bo'lib, qorayib, teri to'kilishi yoki shu kabi zararli oqibatlarga olib keladi.

Mahsulot iste'molchi va ishlab chiqarish talablariga to'la javob berishi lozim: ekspulatsion, gigiyenik, estetik, ergonomik, fizik-mexanik va hokazolar. Bugungi kunda beretlarning iplardan to'qilgan, trikotaj, mo'ynali, qalin va nafis matolardan turli uslubda konstruktiv bichimli turlari keng tarqalgan. Asosiysi iste'molchilar jinsi va yoshiga qarab dizayn ishlab chiqilishi kerak [9].

Bugungi kunga kelib modadan qolib ketgan bosh kiyimlar yana urfga kirmoqda. Bunday tendensiyani nafaqat podiumlarda, balki shahar ko'chalarida ham uchratish mumkin. Asosan 15 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan ayollarning aksariyati bosh kiyimdan foydalanishni afzal ko'radi. Tanlashda asosan inson yuz tuzilishiga qarab bosh kiyim tanlansa, yanada chiroyli va ko'rk baxsh etadi [19].

Psixologiya, imidjologiya va dizaynga oid adabiyotlar tahlili asosida tashqi ko'rinish, yuz, bosh kiyim tizimlarining nazariy modellari ishlab chiqildi, bu tizimlarning komponentlari bosh kiyimlarni loyihalash usulining axborot ta'minotiga kiritilgani o'rganildi. Bosh kiyimlarning mavjud tasniflari, shuningdek, uning dizayniga turli yondashuvlar tahlili o'tkazildi [20]. Inson boshi va yuzining alohida turlari tasnifini va ularni geometrik kodlash modellarini ishlab chiqish zarurati aniqlandi. Bosh kiyimlarni tanlashni aniqlaydigan eksperimental statistik ahamiyatga ega xususiyatlar aniqlanadi. Bosh kiyim orqali shaxsning uyg'un qiyofasini yaratish uchun inson tashqi ko'rinishining bir qator individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi aniqlangan. Inson boshi va yuzi turlarining individual o'zgarishlaridan iborat *tashqi ko'rinish* tizimiga kiruvchi *Face* tizimini axborot bilan ta'minlash ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan [12]. Olingan ma'lumotlar bazasi odamning tashqi ko'rinishini (yuz qismini) peshonaning balandligi, burun o'lchami va ko'zlar orasidagi masofa (ko'zning holati) bo'yicha frontal proyeksiyada va peshonaning qavariqligi, yuz burchagi va iyagi bo'yicha profil proyeksiyasida tasniflash imkonini beradi (6-jadval, 10-11-rasmlar)[13,21,22].

6-jadval



10-rasm



11-rasm

Tojning turli shakllari va balandligini, yuz maydonlarning kengligi va xilma-xilligini hisobga olgan holda asosiy bosh kiyimlar tasnifi ishlab chiqilgan va uning asosida dizaynda qo'llaniladigan asosiy shlyapa, beretlarning variatsiyalari matritsasi ishlab chiqilgan [8].

Ayollar uchun bosh kiyim tanlab, uni ishlab chiqarishga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega bir nechta ko'rsatkichlar mavjud:

-mahsulotdan qaysi hududda va qanday mavsumda foydalanish (har bir xalqning o'z mentalitetidan, urf-odatidan kelib chiqib ishlab chiqarish tashkil etilishi);

-har qanday tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishda uning materiallari tahliliga etibor qaratish lozim. Mavsumdan, yoshidan, gavda va yuz tuzilishidan va hokazolardan kelib chiqib mato tanlash [7];

-konstruktiv jihatdan muhim ahamiyatga ega ko'rsatkichlarga e'tibor qaratib mukammal loyiha tuzish;

-tanlangan mato va fason ayni paytdagi modaga hamohang zamonaviylik kasb etishi;

-har bir tanlov belgilangan o'lchov standartlariga muvofiq tarzda ishlab chiqarilishi [14];

Mahsuot ishlab chiqarishda uning matosi katta ahamiyatga ega va shu sababli Namangan muhandislik-texnologiya instituti "To'qimachilik" kafedrasida laboratoriya jihozlarida bir necha mato assortimentlari ustida quydagi tajribalar o'tkazildi.

12-rasmdagi uskuna to'qilgan mato, trikotaj mato, noto'qima mato, filtr qog'ozi va sanoat filtrli matolarning havo o'tkazuvchanlik xususiyatini o'lchash uchun ishlatiladi [2].



(12- rasm) YG461E rusumli jihoz

YG461E rusumli matolarning havo o'tkazuvchanligini aniqlovchi jihozdan foydalanib, 3 xil matodan 5 marotaba namuna olindi va ularni o'rtachasini hisoblandi va jadvalda bu haqida ma'lumot keltirildi(7-jadval).

$$1. \text{ Namuna-1} = \frac{1.510 + 1.548 + 1.401 + 1.569 + 1.483}{5} = 1.5022$$

$$2. \text{ Namuna-2} = \frac{0.350 + 0.327 + 0.327 + 0.343 + 0.369}{5} = 0.342$$

3. Namuna-3= $\frac{0.778+0.786+0.773+0.798+0.913}{5} = 0.8096$

7-jadval

Plashlik mato turlarining havo o'tkazuvchanligi



	Plashlik mato turlari	Havo o'tkazuvchanligi (sm ³ /sm ² /s)
	Namuna-1	1.5022
	Namuna-2	0.342
	Namuna-3	0.8096

YG141D rusumli qurilmada mato qalinligini tekshiriladi va to'qimachilik mahsulotlarini qalinligini o'lchash uchun ishlatiladi, shuningdek har xil to'qilgan matolarni, trikotaj matolarni va boshqa nozik materiallarni o'lchash uchun ham ishlatilishi mumkin. Ushbu mashina paxta mahsulotlari, trikotaj mahsulotlari, choyshablar, ro'molcha va qog'oz ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, YG141D ISO 5084, ISO 9073.2 va boshqalar sinov standartlari talablariga javob beradi (8-jadval, 13-rasm).

Quyida mato qalinligini o'lchovchi jihozda 3 xil plashlik namunalarda tajriba o'tkazildi. Ish jarayonida 5 marotaba namuna olindi va undan o'rtacha qiymatni hisoblandi (8a -jadval).

$$1.Namuna-1 = \frac{0.535+0.551+0.558+0.573+0.558}{5} = 0.5586$$

$$2.Namuna-2 = \frac{0.078+0.076+0.075+0.75+0.077}{5} = 0.0762$$

$$3.Namuna-3 = \frac{0.220+0.216+0.222+0.222+0.223}{5} = 0.2206$$

8-jadval

Plashlik mato turlari qalinligi

	Plashlik mato turlari	Qalinligi(mm)
	Namuna-1	0.5586
	Namuna-2	0.0762
	Namuna-3	0.2206

YG026T to'qimalarni uzishdagi kuchi va uzayishini aniqlovchi jihoz - bu doimiy uzayish tezligi (CRE) sinov mashinasi. U keng ko'lamdagi dasturlarga mo'ljallangan: kuch sinovi, tortishish sinovi, sinish sinovi, payvandlash sinovi, doimiy yuk sinovi, doimiy uzayish tezligini sinash va boshqalar. U iplar, matolar, kiyim-kechak, noto'qima matolarni va boshqalarni sinash uchun ishlatiladi (9-jadval,14-rasm).

Amaldagi standartlar: ISO 13934-1-1999, ISO 13934-2-1999, ISO 9073-4-1997, ISO 13936-1-2004, ASTM D3936, GB / T3917.1, GB / T3917.2, GB / T3917.3, GB / T3923.1 va boshqalar. YG026T qurilmasida matolarning 3 xil namunasi sinovdan o'tkazildi (9-jadval).

9-jadval


	Indicators	Bo'yiga	Eniga
1- namuna			
	Strength (N)	887	436
	Elongate (mm)	47.2	29.1
	e-rate (%)	23.60	14.55
	b-work (J)	20.5	6.9
	Brk-time (s)	14.18	8.74
2- namuna			
	Strength (N)	435	434
	Elongate (mm)	31.8	41.7
	e-rate (%)	15.90	20.85
	b-work (J)	6.9	8.0
	Brk-time (s)	9.55	12.51
3.Namuna			
	Strength (N)	585	771
	Elongate (mm)	139.5	69.0
	e-rate (%)	69.75	34.50
	b-work (J)	41.9	32.7
	Brk-time (s)	41.87	20.72

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Mazkur matolar Namangan muhandislik-texnologiya instituti To'qimachilik kafedrasida maxsus asbob uskunalari orqali tahlil qilindi. Gigroskopikligi, uzilishdagi kuchi, uzilishdagi cho'ziluvchanlik kabi xususiyatlarni aniqlash uchun tadqiqot o'tkazildi. Matolarda o'tkazilgan tajribalarga asoslanib Namangandagi IDEAL brendi ostidagi "Orzu-ideal textile" erkaklar va ayollar ustki kiyimini ishlab chiqaruvchi korxonada loyihadagi ayollar bosh kiyimlari tikilib, chok mustahkamligi, dizayni va shakl saqlash ko'rsatkichlari tayyor bo'lgan mahsulotda sinab ko'rildi. Tajribalarda aniqlangan mato ko'rsatkichlari va tikilishdagi sifat ko'rsatkichlari bir biriga yuqori ehtimol bilan mos tushdi.

Ayollar bosh kiyimlari uchun tarkibi paxta tolasi ko'p bo'lgan matoni ma'qul deb topildi. Sababi ko'p hollarda sun'iy yoki jun, sun'iy teri, plashlik matoli bosh kiyim kiyganda peshona qismida qichishish, qizarish, toshmalar toshganligini kuzatish mumkin [15]. Ushbu noqulaylikni oldini olish va ekspluatatsiya, estetik talabga javob berib yutuqqa erishishi uchun trikotaj matosini tanlab oldim. Ayollar beretkasi ishlab chiqish uchun quyida foydalanilgan ASSYST dasturi [16] va matematik formulalar ifodalangan namuna rasmlarda mahsulotning konstruksiyasini tayyorlanish jarayonini va tikish texnologiyasidan namunalar ko'rish mumkin (10-11-jadvallar, 15-24 rasmlar) [11].


10-jadval



15-rasm



16-rasm



17-rasm

*ASSYST konstruktor-
dizaynerlik dasturida beretka bosh
kiyimini loyihalash jarayoni*



18-rasm



19-rasm




20-rasm



21-rasm



22-rasm



23-rasm



24-rasm

*Beretka bosh kiyimini texnologik
tayyorlash jarayoni*

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi hamda "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlaridan hamda chet el adabiyotlari va yangiliklari tahlillaridan foydalanib o'rganilgan [6].

Xulosalar. Zamonaviy bozor talabiga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun korxonalarining iqtisodiy salohiyatini, ya'ni asosiy ishlab chiqarish vositalarini yangilash, xodimlar malakasini oshirish, ularning mehnat sharoitini tubdan yaxshilash, ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish, bozor talablarini muntazam ravishda o'rganib borish, kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish kerak [4].

Maxsus adabiyotlar tahlili natijasida ma'lum bo'ldiki, mavjud antropometrik tadqiqot dasturlarining birortasi ham tipik boshning to'liq o'lchovli xarakteristikasini ta'minlamaydi. Bugungacha aholi boshlarini ommaviy antropometrik tekshirishlar o'tkazilmagan [10]. Ayollarning tipik boshlarini tasniflashni va bosh kiyimlarning sanoat dizayni hajmini belgilaydigan o'lchovli standart yo'q. Boshning yuz qismini o'rganish bo'yicha tahliliy tahlil o'tkazildi, tadqiqotchilarning hech biri yuz simmetriyasini o'rganmaganligi, uning yo'qligi bosh kiyim tanlashga ta'sir qilishi mumkinligi va simmetriyani aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazmaganligi aniqlandi [5,8].

Barchasini hisobga olgan holda aniq fizik-matematik, kimyoviy tahlillar asosida bir nechta konstruktsiyalar va texnologik jarayonlar ustida ish olib borildi va maqbul variantlarni tanlab, kerakli tajribaga ega bo'lindi[3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Prezidenti qarori. PQ–4453-son, 16.09.2019-y.

2. Yanchevskaya E.A. Ayollar ustki kiyimlarini konstruksiyalash. Toshkent 2003.

3. Komilova X.X., Xamraeva N.K. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Toshkent. 2011.

4. Saidmuradova, T.S., Mansurov S.K.. Respublikamizdagi yengil sanoat korxonalarining faoliyati va eksport salohiyati. Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti.2021.

5. Boltaboyev M.R. To‘qimachilik sanoatida marketing strategiyasi. Monografiya. – T.: Fan, 2004. - 224 b.

6. O‘zbekiston respublikasi davlat statistikasi qo‘mitasi ma‘lumotlari. 2017-2020 yillar.

7. Нестерук И.В. Разработка метода дизайна головных уборов с учетом закономерностей формирования индивидуального стиля потребителя. Дисс...канд.техн.наук. ВАК РФ 17.00.06. 2003.

8. Луцкова Л.В. Совершенствование методов промышленного проектирования головных уборов. Дисс... канд. техн.наук.ВАК РФ 05.19.04, 2009.

9. Сурикова Г.И. Проектирование изделий легкой промышленности в САПР

(САПР Одежды): учебное пособие / Г.И. Сурикова, О.В. Сурикова, А.В. Гнеденко. – Иваново: ИГТА, 2011. – 236 с.

10. Коробцева Н.А. Имиджклоузинг, костюм, одежда, к вопросу о терминологии//ИМИДЖЕЛОГИЯ - 2006: актуальные проблемы социального имиджмейкинга: Материалы Четвертого Международного симпозиума по имиджологии/ под ред. Е.А. Петровой. - М.: РИЦ АИМ, 2006.-С. 145-148.

11. САПР «Грация»: подсистема «Раскладки» Электронный ресурс. // САПР Грация Высокие компьютерные технологии для швейной промышленности / НПО «Грация», [г. Москва] . URL : <http://www.saprgrazia.com / marking.php>

12. Al Akkad M. Ayman. Fotosuratlardan yuzning uch o'lchovli modelini tahlil qilish va qurish usullarini ishlab chiqish va tadqiq qilish: Dis. ... qand. texnologiya. Fanlar. - Izhevsk, 2004. - 131 p.

13. Boldirev A.O. Butun va qisman yopiq yuz ifodasini idrok etish: Dis. ... kand. psixolog. fanlar. - M., 2006. - 158 b.

14. Zamorskaya N.Ya. Bosh kiyimlarni sanoat modellashtirish va ishlab chiqarish. -M.: Legprombytizdat, 1992. - 112 b.

15. Qisqacha tibbiy ensiklopediya: 3 jildda SSSR Tibbiyot fanlari akademiyasi./Ch. ed. B.V. Petrovskiy. - 2-nashr. - M.: Sovet Entsiklopediyasi, 1989. - 624 b.

16. Lutskova L.V. Bosh kiyimlarni loyihalash jarayonini avtomatlashtirish / L.V. Lutskova, S.K. Lopandin // Muhandislik va texnologiyada matematik usullar - MMTT-21: XXI stajyorning materiallari. ilmiy Konf.: 11 jildda -T.P. Yosh olimlarning kuzgi maktabi / TDTU. - Tambov, 2008 yil. -113-115-betlar.

17. Cheremisina T.A. Turli sohalarda ob'ektlarni badiiy loyihalashning zamonaviy usullarini tahlil qilish: Annotatsiya. Tikuv ishlab chiqarish texnologiyasi / T.A. Cheremisina; ilmiy maslahatchi Andreeva E.G., prof., texnika fanlari doktori - M.: MGUDT, 2006. - 46 b.

18. Ergashev J.S., Mamadaliyeva O.B., Nazarova M.A.,. Kostyum tarixi. O'quv qo'llanma. 2020-y.162-b.

19. Bosh kiyimlar va aksessuarlar 2006-2021 y.
20. Lopandina S. K., Lutskova L. V., Afanas'eva E. D. Zamonaviy bosh kiyimlar assortimentini va ularni loyihalashning yangi usullarini tadqiq etish Tikuvchilik sanoati. - 2007. - No 5. - S. 40-43.
21. <https://daryo.uz/2020/12/17/yuz-tuzilishiga-qarab-bosh-kiyim-tanlashni-organamiz-foto/>
22. <https://minikar.ru/uz/children/golovnoi-ubor-rodoslovnaya-veshchei-v-kaleidoskope-epoh-i-sobytii-muk/>

KREATIV FIKRLASH- KELAJAKKA ILK ODIM.

Ergasheva Dildora Abduxalilovna

Namangan davlatuniversiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish asosida tashkil etishning ahamiyati va dars samaradorligini oshirish, o'qituvchilarga boshlang'ich ona tili ta'limidan yangi tahrirdagi DTS asosida me'yoriy-majburiy talablarni o'quvchilar ongiga singdirish yo'llari haqida ma'lumot beradi.

Kalitso'zlar: Ona tili, sinf, o'qitish, boshlang'ich sinf, kreativlik, zamonaviy ta'lim, mustaqil fikrlash, individ, kreativ fikrlash, kelajak, barkamol avlod.

Annotation: This article discusses the importance of organizing general secondary education in primary school students on the basis of teaching creative thinking in mother tongue lessons and increasing the effectiveness of lessons, teachers on the basis of the new edition of DTS from primary mother tongue education provides knowledge on how to inculcate normative-mandatory requirements in the minds of students.

Keywords: Mother tongue, classroom, teaching, primary school, creativity, modern education, independent thinking, individual, creative thinking, future, harmoniously developed generation.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность организации общего среднего образования учащихся начальных классов на основе обучения творческому мышлению на уроках родного языка и повышения эффективности уроков, учителями на основе новой редакции ДТС от начального родного образования предусмотрены знания о том, как внедрить в сознание учащихся нормативно-обязательные требования.

Ключевые слова: Родной язык, класс, обучение, начальная школа, творчество, современное образование, самостоятельное мышление, личность, творческое мышление, будущее, гармонично развитое поколение.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Shuni inobatga olgan holda biz pedagog sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda kreativ fikrlashga o'rgatishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida — mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-son — Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarorida ham darhaqiqat, shaxs qobiliyati, intellektual salohiyatini rivojlantirishga ona tili faniga alohida e'tibor berilayotgani jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Yurtboshimizning 2019 yil 29 aprelda — O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmonida —...o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadining belgilanishi o'quvchilarning intellektual hamda kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirish milliy tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki globallashtirish sharoitida bolalarda kurtak yozayotgan ilk iste'dod nishonalarini

o`z vaqtida payqash hamda to`g`ri yo`naltirishning qulay va optimal texnologiyasini joriy etish masalasi davr talabidir.¹⁸

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create”dan olingan bo`lib, “yaratish” ma`nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tag zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma`naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo`lgan bilimlarning ko`p qirrali ekanligida emas, balki yangi g`oyalarga intilish, o`rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o`zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo`ladi. Ya`ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo`lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g`oyaning paydo bo`lishi asosiy shartdir. Ko`pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Boshlang`ich ta`lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta`lim turidan biri bo`lib, ta`limning bu bosqichida pedagog o`qituvchilarga katta mas`uliyat yuklatiladi. Shu bilan birga shaxsga ta`lim-tarbiya berishda poydevor ham aynan boshlang`ich sinfdavriga to`g`ri keladi. Kelajak avlodni kreativ fikrlashga o`rgatish metodikasi, ya`ni boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o`rganishni talab etmoqda.

O`quvchilar o`z-o`zidan kreativ bo`lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma`lum vaqt ichida izchil o`qib-o`rganish, o`z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

¹⁸ O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risidagi prezident Farmoni. 29.04.2019.

Boshlang'ich ta'limda ona tili fanining bosh maqsadi – og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili darslarida o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda yozma usullarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish alohida kasb etadi. Chunki bu kreativlikning asosiy mezonidir.

O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo'lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlaydigan kelajak avlodni tarbiyash har bir fanning va pedagogning ulkan maqsadi bo'lishi kerak. Chunki bu kelajak uchun ilk odim hisoblanadi. Innovatsion pedagogikaning vujudga kelishi, uning ilmiy va ijtimoiy jihatlari, pedagogik innovatsiya mundarijasi vayo'nalishining asosiy negizi, mohiyatlari, o'qish faoliyatining innovatsion tuzilishi, maktab o'quvchilari tarbiyasi, o'qitishning muqobil

vositalari, o'quv yurti turlarining farqi, innovatsion maktablarda tadqiqotlar natijalari ta'riflanadi, pedagogikada innovatsiya va kreativ tushunchalarini texnologiyani ishlab chiqish biz pedagoglarning oldimizga qo'yilgan eng dolzarb muammolardan biridir. Bola o'zining birinchi o'qituvchisiga ishonadi, o'zining butun muhabbatini unga bag'ishlab, undan ham shuni kutadi. Shunday ekan, tarbiyada hamma narsa tarbiyachining shaxsiga asoslangan bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2016 yil
2. "Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. T :-"Toshkent ". 2015
3. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi" 2004.
4. Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna - O'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda zamonaviy o'qituvchining roli. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. Namangan-2020
5. Shahnoza Ismatova, Nodira Sherboyeva. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida mashqlar vositasida kreativ fikrlashga o'rgatish metodlari mazmuni. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. Jizzax-2020
6. Internet ma'lumotlari: www.ziyonet.uz

**MUQOBIL ENERGIYA MANBALARINI TAKOMILLASHGAN
VARIANTINI ISHLAB CHIQRISH**

Xasanov Diyorjon Ramish o'g'li

Islom Karimov nomidagi TDTU Qo'qon filiali 2-bosqich talabasi

Yo'ldashev Muhammadamin Zafarjon o'g'li

Islom Karimov nomidagi TDTU Qo'qon filiali 2-bosqich talabasi

Turg'unova Sarvinoz Muzaffarjon qizi

Islom Karimov nomidagi TDTU Qo'qon filiali 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada muqobil energiya manbalarida uchraydigan ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish va ularning takomillashgan versiyalarini ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, issiqlik datchiklar, suv nasoschalari, temperatura.

Kirish: So'ngi paytlarda Respublikamizda aholi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish aholi turmush sharoitini yaxshilashga xalq ehtiyojlarini qondirishda, aholiga arzon va ekologik toza energiya ishlab chiqarishga va yetkazishga katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda shahar va qishloqlardagi yo'llarni yoritish tizimisiz tasavvur qila olmaymiz. Urbanizatsiya rivojlanayotgan bir paytda eng avvalo elektr energiyasiga bo'lgan talab juda o'sib bormoqda.

Muqobil energiya manbalarining samaradorligi, ijtimoiy manfaatlar, shuningdek, iqtisodiy jihatdan raqobatdoshligi bilan zarur bo'lgan barcha amaliy maqsadlar uchun quyosh yoki shamolni o'z ichiga olgan energiyalardan foydalaniladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak quyosh va shamol energiyadan unumli foydalanish maqsadida 1954-yilda YUNESKO Hindiston hamkorligida Dehli shahrida xalqaro sempoizem o'tkazildi. 1973-yil Negeryada, 1973-yil

Parijda “Quyosh inson uchun xizmatda” mavzusida xalqaro kongress o‘tkazildi. Bu sempoizemlarning barchasi muqobil energiya olishning boshlanishi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish”ga doir chora tadbirlar to‘g‘risidagi 01.03.2013 yil PQ-4512-sonli farmoni va “Xalqaro quyosh energiyasi institutini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 01.03.2013 yil PQ-1929-sonli qarorini bajarish doirasida, “Fizika quyosh” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi bazasida quyosh energiyasi instituti tashkil qilindi. Bu O‘zbekistonda muqobil energiyani rivojlantirishga katta yo‘l ochib berdi.

Muammolar: Butun jahonda hozirgi kunda an‘ana usulda elektr tokini olishga bo‘lgan talab juda ko‘payib bormoqda. Lekin, ular atrof muhitga juda katta miqdorda karbanatangedrid (C_2O), is gazilarini (CO) chiqarmoqda. Bular o‘simliklar va hayvonot olamiga juda katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Energiya samardorligi va barqarorligi jihatdan AES, IES, GES lar nisbatan kam bo‘lsada muqobil energiya manbalari bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo‘lmoqda. Hozirgi kunda shahar va qishloq joylarida elektr energiyasiga bo‘lgan talab juda ortib bormoqda. Bu esa elektr ta‘minotida ma‘lum bir miqdorda yetkazishda muammolar keltirmoqda. Bu esa iqtisodiy rivojlanishga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizdagi xususiy biznes va tadbirkorlarning rivojlanishiga ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Yechim: Bizning ushbu qurilmamiz yoz kunlarida qo‘yosh panellarini qizishini oldini oluvchi va qo‘yosh panellarini sovutuvchi va chang holatlari kuzatilganda ushbu chang holatlarni oldini oluvchi qurulma. Bu esa inson kuchi bilan olinuvchi energiya o‘rnini bosadi. Ushbu qurulmani biz quyosh panallarini sovitishga qo‘llashimiz mumkin.



1-Rasm: Qo'yosh paneling isish temperaturasi belgilovchi termo datchik.



2-Rasm: Qo'yosh panelining o'rnatish jarayoni.

Natija: Bizning yuqoridagi ushbu qurilmamiz avvalgi quyosh panellaridan afzallik qismi shundaki unga qo'yilgan sovitish datchiklari temperatura ma'lum bir haroratga yetganda unga o'rnatilgan sovutish bakiga qo'yilgan nasosni ishga tushuradi va ma'lum temperaturaga yetkuncha sovutadi va shu temperatura ushlab turiladi. Buning natijasi yoz kunlarida temperatura ko'tarilib ketganda qo'yosh panellaridan chiquvchi elektr energiyasini nominal holatdan tushub ketmaslikga yordam beradi.

Xulosa: Muqobil energiya yig'ish shuni ko'rsatadiki hozirgi kunda zavod fabrika korxonalar uchun ko'p elektr energiyani ishlatishga yo'l ochiladi. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga katta yo'l ochadi. Ushbu

qurulmamiz ko'p qo'yosh panellari joylashgan Elektr energiya stansiyalarida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirlik binolarida joylashgan energiya stansiyasida foydalanishimiz mumkin. Biz bu orqali atrof muhitni ekalogik tozaligi va iqtisodiy faoliyati bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.P.Pirmonqulov, B.Y.Umirzoqov, "Elektr maxsulotlarini yig'ish"
2. <https://freepik.com>
3. #панели150ватт #silosolar
4. www.toshet.uz
5. <https://www.youtube.com/channel/UCXID>
6. Tashabayev N.T, Babaxodjayev R.P, "Muqobil energiya manbalari"

**ASFALTNING KENG QO‘LLANILISHI UNING AJOYIB
GIDROIZOLYATSIYA VA BOG‘LOVCHI XUSUSIYATLARI**

*V.U. Otakuziyeva, PhD., katta o‘qituvchi S.M. Turgunova
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

Qo‘qon filiali 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada asfaltbeton qoplamali avtomobil yo‘llaridagi mavjud muammolar hamda ekologik muxitni yaxshilashga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Asfaltbeton qoplamasi, bitum, iqtisodiy samaradorlik, polimer va polietilen moddalardan iborat plastik chiqindilar. Qurilayotgan avtomobil yo‘llari aholi manzilgohlaridan o‘tganda mahalliy transport vositalarining harakatlanishini to‘liq yoki qisman cheklash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish talab qilinadi. Buning uchun aylanma yo‘llar qurish, vaqtinchalik ko‘priklar solish, turli xil ko‘rinishdagi muhofaza to‘siqlari o‘rnatish zarur bo‘ladi. Odatda, piyodalar harakatlanishini cheklash birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishligi tufayli, ularning bexatar harakatlanishini ta‘minlash uchun qurilishni mumkin. Ko‘rilayotgan barcha chora-tadbirlar shunday tashkil etilishi kerakki, bunda istalgan paytda avtomobil yo‘li bo‘yidagi turli binolarga o‘t o‘chirish va maxsus avtomobillarning kelish imkoniyati ta‘minlangan bo‘lishi shart. Avtomobil yo‘llarida asfaltlar tarkibi juda murakkab va yaxshi materiallaridan iborat bo‘lib, tarkibida 150 tagacha uglerod atomiga ega to‘yingan va to‘yinmagan alifatik va aromatik birikmalar mavjud. Bu neftni qayta ishlash zavodida fraksiyonel distillashdan keyin qolgan oxirgi moddalardan biri bo‘lib, xona haroratida qora yarim qattiq yoki suyuq holatda mavjud. Asfaltdan tashqari, uni kimyoda yoki kundalik hayotda ba‘zan bitumdeb ham atashadi. Juda yopishqoq va qattiq yarim qattiq yarim suyuq qatronlardir. Asfalt - bu qatlamning bir turi bo‘lib, ko‘mir yoki ko‘mir kabi boshqa usullar bilan tayyorlangan qatlamlar mavjud. Suyuqlikka yaqin bo‘lsa

yoki yopishqoqlikni ta'kidlamaydi. Yog'och smolasi karbonlangan yog'ochdan, ko'mir smolasi karbonlangan ko'mirdan, asfalt esa neftdan tayyorlanadi. Ya'ni, qatron va smola bir xil so'z, asfalt va bitum bir xil so'zlar, xususan, neftdan olinadigan qatron (smola) asfalt (bitum) deb ataladi. Yoqilg'i sifatida foydalanish qiyin va olov yoqilganda, to'liq bo'lmagan yonish kuchli va zaharli gaz tez-tez hosil bo'ladi, shuning uchun uni ishlatish cheklangan, masalan, asosan yo'l qoplamasi sifatida ishlatiladi. . Hozirgi vaqtda asfaltning asosiy qismi neft zavodlarida ishlab chiqariladi, ammo asfalt tabiiy sharoitda ham ishlab chiqariladi. Neft yer yuzasiga chiqib, ko'lmak hosil qilganda, uchuvchi moddalarasta-sekin uchib ketadi va faqat qattiq tarkib, ya'ni "bitum" tabiiy asfalt bo'lib qoladi. Qadimda u faqat Suriya va Yaqin Sharqdagi O'lik dengiz kabi cheklangan hududlarda ishlab chiqarilgan va u kemalar uchun suv o'tkazmaydigan material sifatida yoki qurol ishlab chiqarishda yopishtiruvchi sifatida ishlatilgani uchun juda qimmatli savdo buyumi edi. Yo'l qoplamasi va tomning gidroizolyatsiya materiallarida keng qo'llaniladi.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yo'l qoplamasi uchun asosiy material sifatida qum va shag'al kabi agregatlar asfalt bilan aralashtirilgan asfaltbeton ishlatiladi. Asfalt yotqizish - bu ancha murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon, lekin ayni paytda asfaltlashning samarali usuli. Bajarilgan ishlar qatoriga quyidagilar kiradi: qazish, poydevor qo'yish, asfalt yotqizish, obodonlashtirish. Professional darajada bajarilgan ishlar nafaqat ishonchli va barqaror yo'l qoplamasini yaratishga, balki uning uzoq muddatli xizmat qilish muddatini ham ta'minlashga imkon beradi. Barcha moddalar optimal miqdorda tanlanadi va qizdirilgan holatda aralashtiriladi. Aralashmalarning bir qismi bo'lgan shag'al, GOST 8267 va GOST 3344 talablariga muvofiq bo'lishi kerak, hamda u standartlarga muvofiq ishlab chiqarilgan shag'al yoki shag'aldan foydalanishga ruxsat beriladi, ularning sifati belgilangan gost standartlariga mos kelishi kerak. Asfalt-betonni qo'llash doirasi keng: yo'llar, maydonlar, piyodalar yo'laklari, to'xtash joylari, velosipedchilar uchun parklar, aerodromlar, sanoat

binolarida pol qoplamalari va boshqa ko‘plab sohalarni qurish. Bugungi kunda asfalt-beton aralashmalari mineral tarkibiga qarab quyidagilarga bo‘linadi.

- qumli;
- ezilgan tosh;
- Shag‘al.

Har bir turdagi strukturaning o‘ziga xos xususiyatlari bor, ular tanlangan materialdan foydalanish samaradorligini belgilaydi. Shuningdek, asfalt-beton aralashmalari mineral donalarning o‘lchamiga qarab tasniflanadi:

- Yupqa donali - 2 sm dan kam;
- Dag‘al donali - 4 sm gacha.
- Qumli - 1 sm gacha.

Aralashmadagi qattiq plomba miqdori asfalt-beton qaysi guruhga tegishli ekanligiga bog‘liq.

Bugungi kunga kelib, yo‘lni qurish uchun ikkita texnologiya qo‘llaniladi:

1. issiq asfalt yotqizish;
2. sovuq asfalt.

Ularning har biri o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega: Issiq asfalt. Aralash yopishqoq va suyuq neft bitumidan tayyorlanadi. Yotish qishda amalga oshirilishi mumkin. Aralashmaning harorati 120 darajadan kam bo‘lmasligi kerak. Asfalt yotqizishdan oldin asfalt-beton aralashmasi qo‘yiladigan yo‘lning bir qismi maxsus jihozlar yordamida quritiladi. Sovuq qoplama. Aralash suyuq neft yo‘l bitumidan tayyorlanadi. O‘rnatish ishlari faqat issiq mavsumda amalga oshiriladi, chunki bu texnologiya suvni quritmaydi. Sovuq asfaltlash ko‘pincha yamoq uchun ishlatiladi. Professional yulka ishlari katta moliyaviy investitsiyalar talab qiladi. Axir, buning uchun maxsus jihozlar va tajribali malakali mutaxassislarni jalb qilish kerak. Ularning tarkibi neft manbasiga qarab

o'zgaradi. Asfalt polimer tipidagi tarmoqqa ega bo'lib, u o'ziga xosdir. Lekin asfalt polimer bo'lmada, bu termoplastik materialdir. U qizdirilganda yumshaydi va soviganida qattiqlashadi. Muayyan harorat oralig'ida asfalt ham viskoelastikdir, ya'ni u yopishqoq oqim va elastik deformatsiyaning mexanik xususiyatlarini namoyon qiladi. Asfalt millionlab yillar davomida xom neftda mavjud bo'lsada, yo'llarni asfaltlash uchun ishlatilganda u abadiy qolmaydi. Harakat ko'p bo'lgan yo'llarda yoriqlarga ko'p duch kelamiz. Asfaltlarning ishlashini turli xil modifikatsiyalash usullari yordamida yaxshilash mumkin. Misol uchun, issiq suyuq asfalt orqali havo puflash ko'proq uchuvchi birikmalarni olib tashlaydi va yuqori yopishqoqlikka ega mahsulotga olib keladi. Ishlatilgan shinalar va boshqa polimerlardan maydalangan kauchuk shaklida polibutadien kabi modifikatorlarni qo'shish ham asfaltlarni qattiqlashtiradi. Kimyoviy jihatdan ular yuqori molekulyar og'irlikdagi yuqori kondensatsiyalangan aromatik birikmalardan iborat. Chiqib ketish qattiqligi moduli, elastiklik moduli va bosim kuchi har ikkala qarish davri uchun o'sish va natijalar bu aralashmalarining qarshilik ko'rsatishini ko'rsatadi og'ir yuklar va shuning uchun qattiq bo'lgan harbiy aerodrom qoplamalarida foydalanish mumkin asfalt aralashmasi va past asfalt miqdori talab qilinadi. Asfalt-beton aralashmalariga piroliz polipropilen qo'shilishi yaxshilanadi doimiy deformatsiyaga, charchoqqa, yorilish va qarishga qarshilik yuqori unumdorlik va chidamlilikka ega va qaysi biri ko'proq bo'lgan egiluvchan qoplama tejamkor 3% piroliz polipropilen bilan olinishi mumkin. Materiallar xarakteristikasining bir xil emasligi va asfalt-beton aralashmasining stokastik xususiyati tufayli ishlab chiqarish, shuningdek, uni yotqizish texnologik o'zgarishlari jarayonning ishlash parametrlari, tarkibi, tuzilishi va turli yo'llarda yotqizilgan asfalt-beton qoplamaning mustahkamligi yulka dolari sezilarli darajada va biroz farq qiladi. Yo'l qoplamasining mustahkamligining yuqori bir xilligi uning tez yomonlashishi tufayli uning yetarli darajada ishonchli emasligini aniqlaydi. Eng zaif bo'limlar; yorilish, qobiqqa tushish yulka chetlari, chuqurchalar, sirpanish, ko'chki va boshqa nuqsonlar yo'lning ekspluatatsiya xususiyatlarini

yomonlashtiradi. Agar bu nuqsonlar bartaraf etilmasa, ular shunga qarab orta boradi. Amaldagi yo‘l asfalt-beton qoplamasini saqlashda ko‘p hollarda uning natijalari buzilish, lekin nuqsonlarning sabablari bartaraf etilmaydi. Asfaltni konsentratsiyasi qattiqroq bitumlarda yuqori nisbatda o‘zgaradi. Asfalt kompozitsiyasi agregatni, biriktiruvchi qoplamaning va biriktiruvchiga kiritilgan aks ettiruvchi zarralarni o‘z ichiga oladi. Turli xil variantlarda bog‘lovchi bir yoki bir nechta shaffof bitum, polimer bilan o‘zgartirilgan bitumdan iborat bo‘lishi mumkin. Asfalt yo‘llarining bog‘lovchi xususiyati polimer bilan aralashtirilgan bitum yuqori yumshatilish nuqtasini ko‘rsatadi pastroq kirish qiymati va yaxshi egiluvchanlik polimer bilan qoplangan bitum bilan aralashtirilgan yuqori bardoshli barqarorlik qiymatini beradi. Asfalt-beton chaqirg‘ich tosh, qum, mineral kukunlar va bitum aralashmasidan iborat qurilish materialidir. Aralashtirishdan oldin ular 100–160° temperaturagacha qizdiriladi. 120° dan past bo‘lmagan temperaturada yotqiziladigan va zichlanadigan bitumli qaynoq asfalt, 40–80° temperaturada zichlanadi. Avtomobil yo‘llariga, sanoat binolari pollariga, tomlarga to‘shash va boshqalar uchun ishlatiladi. Asfaltni tarkibi neft manbasiga qarab o‘zgaradi. Ko‘pgina birikmalar kislorod, azot, oltingugurt va boshqa geteroatomlarni o‘z ichiga oladi. Asfalt odatda og‘irligi bo‘yicha taxminan 80% uglerodni o‘z ichiga oladi; taxminan 10% vodorod; 6% gacha oltingugurt; oz miqdorda kislorod va azot; va temir, nikel va vanadiy kabi metallarning oz miqdorini o‘z ichiga oladi. Asfalt tarkibidagi materiallar nafaqat asfaltlash va yo‘l qurilishida, balki tom yopish, qoplamalar, yopishtiruvchi moddalar va akkumulyatorlar ishlab chiqarishda ham qo‘llaniladi. Asfaltning keng qo‘llanilishi uning ajoyib gidroizolyatsiya va bog‘lovchi xususiyatlariga tayanadi. Yo‘llarning qattiq sirtlari, masalan, asfaltning tosh va qum agregatlarini sementlash qobiliyatiga bog‘liq. Aksariyat asfaltni yorug‘likni mukammal yutuvchidir. Shuning uchun ham ular qora rangda. Asfalt yopishqoq suyuqlikdan, shishasimon qattiqgacha o‘zgaruvchan konsistensiyaga ega bo‘lgan qora yoki neftga o‘xshash material. Asfalt vodorod va uglerod birikmalaridan iborat bo‘lib, oz miqdorda azot, oltingugurt va kislaroddir. Asfalt

polimer tipidagi tarmoqqa ega bo'lib, u o'ziga xosdir. Lekin asfalt polimer bo'lmasa-da, bu termoplastik materialdir ya'ni u qizdirilganda yumshaydi va sovigani qattiqlashadi. Biz bu g'oya orqali yo'llardagi asfaltning tez yemirilishi va ularning uzoq muddatga bardoshlilik past bo'lganligi uchun, hamda hammamizga ma'lum bo'lgan yo'llardagi chuqurliklarni oldini olish, shu bilan birga iqtisodiy jihatdan ham hamyonbop tarzda ishlab chiqarish, avtomobil sohasida ham ijobiyga ta'sirga ega bo'lgan, atrof-muhitimizga foydali ekologik jihatdan ham foydali bo'lgan yangiturdagi innovatsion asfalt yaratishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Mazkur asfaltning boshqa analoglardan farqi shundan iborat:

1. Eng birinchi navbatda mahalliy mahsulotlardan ishlab chiqariladi;
2. Hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lgan ekologiyani asrashga ko'maklashadi. Ekologiyaga salbiy ta'siri mavjud emas;
3. Iqtisodiy jihatdan ham qulay hamda arzonidir;
4. Sifat jihatdan ancha mustahkam;
5. Yuqori temperaturaga chidamli;
6. Uzoq vaqtga bardoshli;

Mahsulot mahalliy chiqindi mahsulotlari ya'ni o'zining tarkibida polimer, polietilen moddalardan iborat bo'lgan chiqindilardan tayyorlanadi. Chiqindi plastmassalardan foydalansh yo'llarning ishlash muddatini oshiradi va shu bilan birga plastik chiqindilar narxi bitumnikida 10-15% kamroq bo'lganligi sababli bunday yo'llarni qurish narxi ham pasaydi. Bitumni plastik chiqindilar bilan almashtirish umumiy harajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asphalt Science and Technology (New York: Marcel Decker, 1997)..
2. Asfalt. Maykl Frimantl (G‘arbiy tadqiqot instituti).
3. УДК 625.85 (083.96) МҚН 93-2009 «Йўл асфальтбетон қопламаларини қуриш бўйича йўриқнома», “Ўзавтойўл” ДАК Автомобиль йўллари илмий-тадқиқот институти, Т., 2009 й.,
4. Йўл асфальтбетон қопламаларини қуриш бўйича йўриқнома мқн 93-2009 “Ўзавтойўл” ДАК

**BIOKIMYO ZAVOD CHIQUINDILARIDAN SPIRT – FAOL MODDALAR
OLISH USULLARINI TADQIQI**

Abduganiyeva Moxiraxon Alijon qizi (talaba)

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali,
Qo‘qon shahar, O‘zbekiston,*

Kalit so‘zlar: Spirt, ipak, bug‘doy, ipak.

Annotatsiya: Maqolada biokimyo zavodidan chiqindi sifatida chiqayotgan spirtlarni ushlab qolish yullarini tadqiqi Respublikamizda mavjud bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsuloti hom-ashyolaridan foydalanishning chiqindisiz texnologiyalarini joriy qilish, hom-ashyodan to‘la foydalanish hozirgi kunning muhim muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Qishloq xo‘jalik mahsuloti pilladan hom ipak, ipakli matolar ishlab chiqarish bugungi kunda respublika iqtisodiyoti uchun katta ta'sir qiladi. Pilladan olinadigan hom ipak va ipakli matolar dunyo bozorida o‘ta xaridorgir mahsulotlar hisoblanadi. Pillani qayta ishlash jarayonini takomillashtirish hamda chiqindisiz texnologik jarayonni yaratish maqsadida biokimyo zavodi chiqindisi sovish moyi qoldiq fraksiyasidan spirt-faol moddalar sintez qilib olindi. Etil spirti xalq xo‘jaligidagi ishlatiladigan muhim kimyoviy moddalardan biri hisoblanadi. Etil spirti kraxmalga boy moddalardan biri hisoblanadi. Etil spirti kraxmalga boy mahsulotlardan olinib, uni eritivchi sifatida va turli kimyoviy birikmalar hosil qilishda dastlabki hom-ashyo sifatida ishlatiladi. Andijon biokimyo zavodida asosan bug‘doydan etil spirt ishlab chiqarishga mo‘jjallangan bo‘lib, hom-ashyo sifatida to‘rtinchi navli bug‘doydan foydalaniladi. Bug‘doy belgilangan jarayonlardan o‘tib, etil spirti ishlab chiqarishga qadar barda-qoldiq fraksiya, sivush moyi, karbonat angidrit, lyuter suyuqligi, ikkilamchi par chiqindi sifatida ajraladi. Bijg‘itish reksiya jarayoni fizik jarayon bo‘lib, unda kimyoviy reksiya ketmaydi. Bijg‘ish jarayonida hosil bo‘lgan achigan massani haydash

va spirtni hosil qilish natijasida uchuvchan suyuqliklar aralashmasidan iloji boricha spirt aralashmasi to'la ajralib olinadi. sintez qilib olingan SFM da yo'qligi hamda 1539 sm⁻¹ dagi NH bog'iga tegishli bo'lgan yutish chiziqlari intensivligi preparatning spektirida kamayganligi modda olish jarayonida gidroliz reksiyasining borganligini bildiradi. 1455-1459 sm⁻¹ chastotadagi SOO-karboksil ioniga tegishli yutish chiziqlarini intensivligi oshib ketgan. Bu esa, bardadagi aminokislotalarning di-, tri-, peptidlar bilan aralashmasi vujudga kelganligini ko'rsatadi. Neytrallangan sistemani trietanolamin bilan ta'sirlashganda to'rlamchi ammoniya tuzlari hosil bolganligini, yangi sintez qilib olingan SFM ning 1072 sm⁻¹ chastotasining yutish chizig'i intensivligi. Barda "qoldiq fraksiyasi"ning 600 sm⁻¹ chastotasidan oshganligidan bilish mumkin. Biokimyozavodi chiqindilarini sintez orqali spirt-faol moddalar tayyorlash bo'yicha quyidagi xulosalar qilish mumkin; IQ-spektroskopik analiz modda tarkibida gidroksil, karboksil guruhlari borligini aniqlab berdi. Bu esa bardadan pillalarni qayta ishlash jarayonida qo'llanuvchi spirt-faol modda olish mumkinligini ko'rsatadi. Etil spirti (sharob spirti, etanol) xalq xo'jaligining turl sohalarida keng qo'llaniladi. Texnik sohalarda texnik etil spirti ishlatiladi, olinadi (etilen tarkibidagi gazlar, yog'och va tsellyuloza ishlab chiqarish chiqindilaridan. Oziq-ovqat sanoati (konserva va vitaminlar, vinochilik, spirtli ichimliklar ishlab chiqarish) oziq-ovqat hom-ashyosi. Etil spirti - o'ziga xos hid va o'tkir ta'mga ega bo'lgan rangsiz, shaffof suyuqlik. U har qanday nisbatda suv bilan aralashadi. Oddiy bosimdagi spirtning qaynash nuqtasi 78,3 ° C, muzlash nuqtasi minus 117 ° C. Etil spirti gigroskopik, havodan, o'simlik va hayvon to'qimalaridan namlikni yutadi, bu esa ularning yo'q qilinishiga olib keladi. Kimyoviy toza etil spirti neytral; oziq - ovqat sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan spirt, organik kislotalar borligi uchun ozgina kislotali reaksiyaga ega. Spirtli ichimliklar va uning kuchli suvli eritmaları juda alanganadi va tutunli olovda yonadi. Spirtli ichimliklar bug'lari odamlar uchun zararli, ularning havodagi ruxsat etilgan maksimal kontsentratsiyasi 1 mg/l ni tashkil qiladi. Spirtli ichimliklar portlovchi moddadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Kodirov, A.Yuldashev. Ipak sifatini kompleks baholash yordamida, sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish.
2. A.Yu.Raximov, Sh.Mamadaliyeva. Pilla hosili va sifatiga ta'sir kiluvchi faktorlar.
3. A.A.Raximov, Sh.A.Sulaymonov ,A.Mamatov.Ipak kurti tuximini jonlantirish jarayonlarini pilla sifatiga va mikdoriga ta'sir

**O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA
BAG'RIKENGLIKNI MILLIY QADRIYAT EKANLIGI**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti magistranti

Rafikova Dildora Nasrullayevna

Annotatsiya : Ushbu maqolada milliy g'oya, O'zbekistonda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni milliy qadriyat ekanligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: milliy istiqlol g'oyasi, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo do'stlik va totuvlik, MDH, millat, elat.

Milliy g'oya millatlararo totuvlik va milliy, diniy bag'rikenglik g'oyalari bilan o'zaro mushtarak. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, milliy g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi.

Milliy g'oya — barcha sohalarda mavjud millatlar manfaatlarini o'zida ifoda etgan holda orzu qilingan kelajak jamiyatning asosini yaratish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun bo'lgan umummaqsad yo'nalishidagi harakatlar majmuini milliy va diniy bag'rikenglikni uyg'otuvchi fikrlar, qarashlarni, g'oyalarni ham o'zida ifoda etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yashaydi. Bu jamiyatimizdagi milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi. Millatlararo totuvlik g'oyasi — umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir. Bu g'oya — bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasida

o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashning ma'naviy asosidir. Milliy g'oya — har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi illat, bu — tajavvuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat beqarorlik holatiga yuz tushishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm yoki milliy xususiyatlar bilan xdaoblashmagan va soxta baynalmilalchilik g'oyasiga asoslangan kommunizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi. O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bagrikengligini ko'rsatadi. Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqolol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi. U do'stona munosabatlar ustun bo'lgan sharoitda ijtimoiy taraqqiyotning omili sifatida maydonga chiqadi. Respublika Prezidenti I.A. Karimov bu haqda shunday yozadi: "Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda an'anaviy uyjunlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p elatlilik omili davlatlarning siyosiy iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag'batlantiruvchi ta'sir etishini ko'rsatuvchi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu mamlakatlarda etnik guruhlar va irqalar o'rtasida ma'lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko'p elatlilik omili ularning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi to'g'anoqqa aylanib qolmagan, aksincha, taraqqiyotning jadallashuviga yordam bergan millatlarning va madaniyatlarning birbiriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ijtimoiy-aqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylangan.

Respublikada istiqomat qilib turgan 130 dan ortiq millat va elatning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega. O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarmas ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin.

Dunyoning qariyb barcha mamlakatlari ko'p millatli. Respublikamiz ham ana shunday boy, turfa madaniyatlar gullabyashnayotgan mamlakatlardan biri ekani har bir o'zbekistonlikka iftixor baxsh etadi. O'zbekistonni o'z Vatani deb bilib, uning taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimizdan har biri buni dildan teran his qshshoqdalar. Olib borilzyotgan oqilona milliy siyosat tufayli respublikamizda k;aror topgan tinchlik ijtimoiy totuvlik o'zaro hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda. Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu yerda yashovchi xalqlarning milliy an'analari, urf odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqyealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuygusini qaytaqayta his etish "O'zbekiston umumiy uyimiz" degan so'zlar zamiridagi chuqur ma'noni anglab olish imkonini beradi.

"Dinlararo bagrikenglik g'oyasi — xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi"1. Din qadimqadimdan aksariyat

ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham ularni birbirilari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga egaligidadir. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik yuyalariga asoslanadi, yaxshilik tinchlik do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik mehrshafqat va barrikenglikka da'vat etadi. Hozirgi zaminda bu g'oya ezgulik yo'lida, nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, azalazaldan diyorimizda turli diniy ta'limotlar yonmayon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov, xonaqohlarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir.

Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga amal qshgab yashab kelganlaridan dalolat beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 15 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shartsharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida"gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi. Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas. Diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonmayon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik iudaizm kabi dinlar yonmayon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etib kelingan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar birbiridan o'rganganlar, ustozshogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal

bermagan. Aytish mumkinki, diniy ong rivojlanib, dinning mohiyatini chuqurroq anglash bilan diniy bag'rikenglik ham rivojlana bordi. Bu hozirgi davrda diniy bag'rikenglikni yanada kuchaytirmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zaro teng huquqlilik hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir. U o'ziga berilgan umri davomida yashashga, ma'naviy aqliy jihatdan takomillashib, yerdagi hayot sharoitlarini yaxshilash uchun kurashishga, ijod qilishga haqli. Ma'naviy kamolotga erishish uchun inson yashashi, yaxshi sharoitlarga ega bo'lishi kerak. Demak yerdagi hayotni saqlab qolish, rivojlantirish barcha kishilaryushg umumiy maqsadlaridir. Diniylik dunyoviylikni inkor qilmaydi, u bilan ba'zan yonmayon yashasa, ayrim vaziyatlarda o'zaro yaqinlashadi, dunyoviylikning rivojiga xizmat qiladi. Dunyoviylik ya'ni shu moddiy hayotni rivojlantirishga yo'nalganlik diniylikning ham maqsadlari bilan mos tushadi. Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik yaxshilik halollik tinchlik do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Haqiqatan ham diniy ta'limotlar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo'lishga undaydi. Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimiz qadimdan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik qaror topgan mamlakatdir. Mustaqillikka erishilgandan so'ng esa bu qadriyatlarimiz yanada mustahkamlandi. Bugun O'zbekiston diniy

bag'rikenglik (tolerantlik) va doshlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent O'zbekiston 2018.
2. Islom Karimov. "yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" toshkent Ma'naviyat 2008
3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. To'shkwnt O'zbekiston 2017.
4. M. Quronov Yoshlami milliy mafkuraviy tarbiyalash - texnologik masala // «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirish sharoitida yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash shakl va usullari» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. - T.: 2001.
5. «Pedagogika» darsligi, prof. A. Munavvarovning tahriri ostida, o'quv qo'llanma. - T.: «O'qituvchi», 1996.
6. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2 jildli. Tuzuvchi mualliflar Komiljon Hoshimov, Safo Ochil. - T.: «O'qituvchi», 1999.
7. A. Э. Измайлов Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. - М.: Педагогика, 1991.

OGOHI SAMARQANDIY DEVONIDAGI RUBOIYLAR TAHLILI

Abdusharipova Mahliyo Xusnuddin qizi,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ogoh Samarqandiyning ruboiylari tabdili va tahlili amalga oshiriladi. Ogoh Samarqandiyning so'z qo'llash mahorati, falsafiy- didaktik va ishqiy mavzudagi ruboiylari misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: "Devoni Ogoh", ruboiy, qo'lyozma, tabdil va tahlil

Аннотация. В данной статье осуществляется перевод и анализ рубаи Огох Самарканди. Мастерство использования слов Огох Самарканди анализируется на примере его рубаи на философские, дидактические и романтические темы.

Ключевые слова: «Девони Огох», рубаи, рукопись, перевод и анализ.

Abstract. This article translates and analyzes the rubaiyat Ogokh Samarkandi. The mastery of the use of the words Ogokh Samarkandi is analyzed on the example of his rubaiyat on philosophical, didactic and romantic themes.


Key words: Devoni Ogokh, rubaiyat, manuscript, translation and analysis.

Insonlar o'z hayotiy falsafalarini, ichki kechinmalarini, tuyg'ularini kim bilandir o'rtoqlashish uchun har xil usullardan foydalanadilar. Rassom ko'rgan manzarasining go'zalligini, yoxud hayotidagi ma'lum voqealarni, o'z botinidagi hislarini qog'ozda ranglar bilan tasvirlaydi. Xaykaltarosh buyuk insonlarning siymolarini, ularda ko'rilgan matonat-u bardoshni, ulug'vorlikni toshlarni o'yib gavalantiradi. Shoirlar o'zlari his etgan tuyg'ularni boshqacha ifoda etadilar, ularga mo'yqalam yoxud tosh kerak emas. Qilichdan o'tkir qalami ila toshday

qalbni teshadigan jummlarni, soʻzlarni ishga soladilar. Oʻz iztirob-u dardlarini, sevgi-yu baxtlarini soʻzlar shodasiga terib, goʻzal baytlar bitadilar. Shunday qalami oʻtkir ijodkorlardan biri, shubhasiz, Ogoh Samarqandiydir. Uning devonidagi gʻazallar-u ruboiylarini oʻqir ekanman, boshqa ijodkorlarda uchramaydigan, oʻziga xos tasvir uslubidan foydalanishiga guvoh boʻldim. Ogohning hayoti haqida maʼlumotlar deyarli yoʻq. U qachon yashagan, kimlar bilan zamondosh boʻlgani aniq emas. Devon tartib bergan bir ijodkorligini, taxallusi - Ogoh, oʻzi samarqandlik boʻlganini bilamiz, xolos hozircha. Ogoh haqida maʼlumot berishi mumkin boʻlgan manba uning devonidir.

Ogoh devoni hozirgi kunda OʻzR FA Beruniy nomidagi qoʻlyozmalar institutida № 998/11 inventar raqami bilan saqlanadi. Kitob qalin koʻk karton qogʻoz bilan muqovalangan. Kitobga yashil rangdagi muqova qoplanib, toʻq qizil rangdagi tasma chiziqlar bilan bezalgan. Hoji Buloq Samarqandiyning qachon yashagani haqida hozircha maʼlumot yoʻq. Mazkur devon 1777-yili (hijriy 1191) Fayzulloh Buxoriy tomonidan nastaʼliq xatida koʻchirilgan. [1]. Ushbu 998/11 inventar raqamli qoʻlyozma bir nechta ijodkor devonlaridan tarkib topgan boʻlib, 1 - 131-betlarida Shavkat Buxoriyning devoni oʻrin olgan. Undan soʻng 3 bet qasidalar bilan toʻldirilib, 135-betdan Ogoh devoniga 3 betlik kirish bilan boshlangan. 139-betda esa, basmala bilan gʻazallari keltiriladi. 182-betida Ogoh Samarqandiyning devoni yakunlangan. [3]

Ogoh Samarqandiy devonida 274 ta gʻazal, 2 ta qitʼa, 19 ta ruboiy mavjud. Biz uning devonidan aniqlaganimiz bir nechta ruboiylarini tahlilga tortmoqchimiz. Devonda kelish tartibi boʻyicha 7- ruboiyning qoʻlyozma matni quyidagicha :



Birinchi navbatda, ruboiy eski o‘zbek yozuvida bo‘lganligi sababli uni hozirgi tilimizga o‘grib, ya’ni tabdil qilib olamiz.:

Har diyda g‘ami ishq ila giryon o‘lmaz,
Har abr siyahda fayzi nayson o‘lmaz.
Har shaxsdin odamiyat o‘lmaz nomul
Har bargda bo‘yi gul-u rayhon o‘lmaz.

Endi esa ushbu tabdil asosida ruboiyni tahlil qilamiz:

Mavzusi: falsafiy mavzuda yozilgan.

Turi: ruboiyi xosiy.

Qofiyalanishi: a-a-b-a.

Radifi: o‘lmaz.

Qofiyasi: giryon, nayson, rayhon.

Vazni:

1-misrasi: hazaji axrabi makfufi solimi abtar. [2]

2-,3-,4-misralari: hazaji axrabi maqbuzi solimi abtar.

Taqtesi: {- - v\v - - v\v - - -\} (1- misra) va {- - v\v - v -\v - - -\} (2-,3-,4-misralar).

Lug‘ati:

diyda- ko‘z[4]

g‘ami ishq- ishq qayg‘usi, ishq g‘ami

giryon- yig‘lab turgan, yig‘lovchi

abr-bulut

siyoh-qora

nayson- yomg'irli.

Nasriy bayoni:

Har diyda g'ami ishq ila giryon o'lmaz.

Ushbu ruboiyning ilk misrasida shoir har ko'z ham ishq g'ami bilan ko'zyosh to'kmaydi degan. Ya'niki, har kimning o'z g'ami bor. Atrofdagilarga o'zingcha hukm chiqarmagin. Haqiqiy oshiqlargina ishq sabab yig'lashi mumkin. Oshiqlik hammada ham topilaveradigan hislat emas. Qalbiga Haq taolo ishq solmagina, inson ishqda yonib-kuyib, o'rtanib ishq g'amini chekadi. Ishq g'ami – kundalik turmushdagi tirikchilik g'amidan ancha yuksakdir. Oshiqlarning darajasi ham oddiy insonlardan ko'ra balanddir. Ular o'tkinchi dunyo matohlari uchun g'am chekmaydilar, ishq g'ami, oxirat g'ami, ma'shuqaning vaslidan yiroqlik g'ami sabab ko'zyosh to'kadilar.

Har abr siyahda fayzi nayson o'lmaz

Keyingi misra esa oldingisini dalillash uchun keltirilgandek go'yo. Har qora bulutda ham fayz-baraka yomg'iri bo'lmaydi. Ertabahorda osmon qora bulutga to'lib yomg'ir yog'sa, yerlarni namlab, ekin ekish uchun tuproqni yumshatadi. Barakali hosil uchun zamin yaratadi. Ammo shu qora bulutdan yog'gan yomg'ir sel bo'lib, ekin tugul odamlarning uy-joyini ham oqizib ketishi mumkin. Har bir narsada chuqur mulohaza yuritish kerak, shoshma-shosharlik bilan xulosa qilmagin, degan falsafiy qarashlar ushbu misrada o'z ifodasini topgan.

Har shaxsdin odamiyat o'lmaz nomul

Nomul(balki nom ul) odamiyat- odamiylik nomiga har shaxs ham loyiq emas. Ushbu misraning mazmuni Navoiyning quyidagi satrlarini esga soladi:

Odami ersang, demagil odami

Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.



Hamma ham shaxs bo'lar, lekin odamiylik sifatiga, odam bo'lish sharafiga, odamiyat nomiga loyiq bo'lish hammaning ham qo'lidan kelmaydi. Kimki komillik sari intilib, o'zini isloh qilsa, yaxshilik,

oliyjanoblik, saxiylik, mehribonlik, xalqparvarlik kabi insoniy fazilatlarini rivojlantirsagina odamiylik nomiga sazovor bo'ladi.

Har bargda bo'yi gul-u rayhon o'lmaz

Ruboiyning so'nggi misrasi, ya'ni xulosasi shuki, har bargda gul-u rayhonning hidi bo'lmaydi. Turli o'simliklar yoki daraxtlarning bargida turlicha hid bo'ladi. Ba'zi barglar hidsiz bo'lsa, ba'zilari badbo'y ham bo'lishi mumkin. Qo'lingizdagi barg gulning yoki rayhonning bargi bo'lsagina, undan xushbo'y gulni, rayhonni hidi taraladi, xolos.

Devondagi yana bir ruboiyni ham yuqoridagidek tahlilga tortamiz. Tartibi bo'yicha 10-ruboiyning qo'lyozma matni:



Ruboiyni arab alifbosiga asoslangan eski yozuvdan hozirda biz foydalanadigan lotin alifbosiga asoslangan yozuvimizga o'giramiz:

Ul sho'xdin umidi nigoh etma ko'ngil

Oynaki xijolatla siyoh etma ko'ngil.

Har zahm, sitamki versa, ul mast g'urur

No'sh ayla-u, sabr ayla-u, oh etma ko'ngil

Endi esa qilgan tabdilimiz asosida ruboiyni tahlil qilamiz:

Mavzusi: ishqiy

Turi: xosa ruboiy

Qofiyalanishi: a-a-b-a

Radifi: etma ko'ngil

Qofiyasi: nigoh, siyoh, oh

Vazni: 1-2-4-misralari hazaji axrabi makfufi ajabb

3-misra hazaji axrabi maqbuzi makfufi ajabb

Taqte'si: { - - v\v - - v\v - - v\v - } (1-,2-,4- misralar) va { - - v\v - v -\v - - v\v - } (3-misra).

Lug'ati:

No'sh- bahra [5]

Siyoh-qora

Nigoh- qarash, nazar

Zahm- jarohat, ozor, zahmat

Nasriy bayoni:

Shoir ko'ngliga aytyaptiki, u sho'x yorning nigohidan umidvor bo'lma, oynani ham xijolat bilan qora etma, u g'ururidan mast bo'lgan yor qancha jarohat, ozor, sitamlar bersa ham sabr qil ammo oh urma. Bu o'rinda sevgan yigit o'z yorining barcha bergan jabr-u sitamlariga sabr qilishini aytyapti.

Dastlabki – ilk xulosalarimizni bayon qilsak:

1. Ogoh Samarqandiy – an'anaviy mumtoz she'riyat yo'lida ijod qilgan.
2. Uning devoni borligi omili – uning yetuk shoirlardan bo'lgan degan fikrga olib keladi.
3. Ilk tahlildan ma'lum bo'layaptiki, shoir an'anaviy o'xshatishlardan foydalansa ham, mazmun originalligiga (o'ziga xosligiga) erisha olgan.
4. Ogoh Samarqandiy devonini tadqiq etish – mumtoz adabiyotimiz xazinasiga muayyan hissa bo'ladi deb o'ylaymiz.

Muallifi noma'lum turkiy devonlar garchi hali ancha adadda bo'lsa ham[3], Ogoh Samarqandiy devoni nazarimizda adabiyotimizda yangi sahifa bo'lib qoladi deb hisoblashga asoslar bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ¹ Собрание восточных рукописей академии наук республики Узбекистан. –Ташкент: Наврӯз. 2017. 560 б
2. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: Ta`lim-media,2019. 210 b.
3. Musaxonova Soliha Muhammadtoho qizi “Muallifi noma’lum turkiy devonlar tasnifi” magistrlik dissertatsiyasi .Toshkent-2021. 110 b.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati I . To‘rt tomlik. Toshkent -1983
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati II . To‘rt tomlik. Toshkent -1983

**ВИКТОРИНА – ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИГА
ОИД КАСБИЙ БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРНИ МУСТАҚИЛ
ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ САМАРАЛИ ИНТЕРФАОЛ УСУЛИ**

*Исамиддин Исмаилов**

*Иван Константинович Колмаков***

** ИИВ Академияси Ички ишлар органларининг маъмурий фаолияти кафедраси бошлиғи, полковник, юридик фанлар доктори, профессор*

*** ИИВ Академияси Ички ишлар органларининг маъмурий фаолияти кафедраси ўқитувчиси, Иван Константинович Колмаков*

Аннотация. Мақолада таълим жараёнида “викторина” ақлий(интеллектуал) мусобақасини қўллаш ўқувчи (курсант-тингловчи)ларнинг мустақил билим олишини таъминловчи энг афзал ва самарали интерфаол усуллардан бири эканлиги ҳақидаги фикр-мулоҳозаларни муаллиф ўз тажрибасиган таянган ҳолда баён қилинган.

Аннотация. В статье изложено мнение автора о том, что использование интеллектуального конкурса “Викторина” в образовательном процессе является одним из наиболее предпочтительных и эффективных интерактивных методов, обеспечивающих самостоятельное получение знаний учащимися (курсантами-слушателями).

Annotation. The article presents the author's opinion that the use of the intellectual contest "Quiz" in the educational process is one of the most preferred and effective interactive methods that ensure the independent acquisition of knowledge by students (cadets-listeners).

* ИИВ Академияси Ички ишлар органларининг маъмурий фаолияти кафедраси бошлиғи, полковник, юридик фанлар доктори, профессор

** ИИВ Академияси Ички ишлар органларининг маъмурий фаолияти кафедраси ўқитувчиси, Иван Константинович Колмаков

Таянч тушунчалар: таълим; интерфаол; викторина; усул; ақлий хужм; мусобақа; мунозара; ролли ўйин; норматив-ҳуқуқий ҳужжат; мустақил ўзлаштириш.

Қонунда ахборот-коммуникация технологияларидан, ўқитиш ва тарбиянинг илғор ҳамда инновацион шакллари ва усулларидан фойдаланиши педагог ходимларнинг мажбурияти эканлигининг, шунингдек ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолияти соҳасида кадрлар тайёрлашнинг таълим олишнинг алоҳида шакли сифатида белгиланганлиги[1] Ички ишлар вазирлиги тизимидаги таълим муассасаларида жамият ва ҳуқуқни қўллаш амалиёти эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда таълим-тарбия жараёнини ташкил этишни тақозо этмоқда.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, ўқитишнинг замонавий шакл ва усуллари, энг янги педагогик ва ахборот-коммуникацион технологияларни, шу жумладан ситуацион машғулотларни, масофадан ўқитиш тизимини кенг жорий этиш, таълим олувчилар ва ўқитувчиларни глобал ахборот-ҳуқуқий ва таълим ресурсларидан фойдаланиш имкониятларини таъминлаш, шунингдек идоравий таълим муассасаларида ўқитиш йўналишлари ва мутахассисликларини амалиёт эҳтиёжини ҳамда ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жинойтчиликка қарши курашиш борасидаги фаолиятини такомиллаштириш истиқболларини инобатга олган ҳолда тизимли равишда мақбуллаштириш[2], ўқув жараёнини энг замонавий педагогик ва ахборот технологиялари асосида ташкил қилиш[3] кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари сифатида белгиланди.

Викторина – турли хил соҳаларга оид билимлар бўйича оғзаки, ёзма ёки электрон шаклда берилган савол ёхуд топшириқларга жавоблар беришдан иборат ақлий(интеллектуал) ўйин. Викториналар асосан бир биридан, *биринчидан*, билимлар соҳаси ва мавзуси, *иккинчидан*, уларни

ўтказиш тартиб ва қоидалари, *учинчидан*, ўтказиш усуллари ва шакллари, *тўртинчидан*, унинг иштирокчилари миқдори билан фарқланади [4].

Бугунги кунда таълим олувчилар учун ахборотлар, шу жумладан касбий билим олиш учун манбалар жуда ҳам кўп ва ранг-баранг бўлиб, уларнинг энг кераклисини ажратиб олиш ҳамда уларни ўзлаштиришни ташкил этиш таълим берувчилардан тинимсиз ақлий меҳнатни, шунингдек ўқувчи-курсант(тингловчи)ни қизиқтирадиган, айниқса зарур билимни мустақил излаб топиш ҳамда ўзлаштиришга ундайдиган, хохиш-истак(мотивация) ўйғотадиган интерфаол усулларни танлаш ва қўллашни талаб қилади.

Интерфаол таълим олиш, хусусан викторина мусобақаси “ўқитувчи – ўқувчи-курсант(тингловчи)” ва “ўқувчи - ўқувчи” “курсант - курсант” ёки “тингловчи - тингловчи” ўртасида ўзаро ҳамкорликка асосланган усулдир. Мазкур усулда ўқитувчи нафақат ўқувчи-курсант(тингловчи)ни таълим олиш жараёнига жалб этади, балки ўқувчи-курсант(тингловчи)ларнинг ўзлари бир-бири билан ҳамкорлик қилган ҳолда ҳар бир ўқувчи-курсант(тингловчи)ни керакли билимни мустақил излаш ва ўзлаштиришга ундайди, уларда хохиш-истак(мотивация)ни ўйғотади.

Интерфаол таълим, интерфаол услублар мунтазам мулоқотга асосланган услублар тизими бўлиб, ёшларнинг ҳамкорликдаги ва фаол иштирокидаги таълим ва услублар тизими ҳисобланади. Бошқача айтганда, ўқитишнинг интерфаол услублари - билиш ва коммуникатив фаолиятни ташкил этишнинг махсус шакли бўлиб, унда таълим олувчилар билиш жараёнига жалб қилинган бўладилар, улар биладиган ва ўйлаётган нарсаларни тушуниш ва фикрлаш имкониятига эга бўладилар. Бу услубларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат тарбиявий ва мафкуравий ишлар органлари офицерлари ва шахсий таркибнинг биргаликда фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади. Ўқув жараёнидаги педагогик технология — бу аниқ, кетма-кетликдаги яхлит

педагогик жараён бўлиб, ёшларнинг эҳтиёжидан ва техник имкониятлардан келиб чиққан ҳолда бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан пухта лойҳалаштирилган ва кафолатланган натижа беришига қаратилган педагогик жараёндир[5].

Викторина бугунги кунда аҳолининг барча қатламларини жалб қилган ҳолда телевиденияда, радиода, ижтимоий тармоқларда энг кўп қўлланиладиган ақлий(интеллектуал) ўйин бўлиб бормоқда. Аслида, ички ишлар вазирликлари томонидан телеграмм каналидаги “Ҳуқуқий ахборот”, “Ҳуқуқий тарғибот” тармоқлари орқали ўтказилаётган викториналарни мисол тариқасида кўрсатиш мумкин.

Таълимнинг интерфаол усуллари асосий вазифалари: *биринчидан*, ўқувчи-курсант(тингловчи)да мустақил ахборот излаш, таҳлил қилиш ва вазиятни тўғри ҳал қилиш бўйича қарор ишлаб чиқиш кўникмаларини; *иккинчидан*, уларни жамоа бўлиб ишлашга ўргатиш, яъни ҳар бир иштирокчида бошқалар фикрини ҳурмат қилиш, бошқача нуқтаи назарларга бағрикенг бўлиш каби фазилатларни; *учинчидан*, ҳар бир иштирокчи ўқувчи-курсант(тингловчи)да аниқ фактларга асосланган ўз мустақил фикрига эга бўлиш ва уни эркин баён этиш каби тажрибани шакллантиришдан иборат ҳисобланади.

Таълимнинг интерфаол усул ва йўллари: а) ақлий ҳужм – кетма-кет савол ва жавоблар, ёки мавзуга оид таклиф ва ғоялар, бунда уларнинг тўғри ё нотўғрилиги ҳужмдан сўнг амалга оширилади; б) кластерлар, қиёсий диаграммалар, бошқотирмалар – аниқ кичик мавзулар бўйича таянч сўзлар ва муаммоларни излаш; в) аудио ва видеоматериалларни, ахборот-коммуникация технологияларини қўллаган ҳолда интерфаол дарс; г) давра суҳбати (баҳс, мунозара) – гуруҳий усул бўлиб, бунда муаммолар, таклифлар, ғоялар, фикр-мулоҳазаларни жамоа ўртасида муҳокама қилади ва биргаликда ҳал этиш йўлини излайди; г) ролли ўйин – бунда ҳар бир қатнашчи у ёки бу вазиятда иштирок этган аниқ бир шахс ролини бажаради [6].

Таълим технологияси – таълим мақсадига эришиш жараёнининг умумий мазмуни, яъни, аввалдан лойиҳалаштирилган таълим жараёнини яхлит тизим асосида, босқичма-босқич амалга ошириш, аниқ мақсадга эришиш йўлида муайян метод, усул ва воситалар тизимини ишлаб чиқиш, улардан самарали, унумли фойдаланиш ҳамда таълим жараёнини юқори даражада бошқаришдир[7]. Викторина таълим технологиялари ва интерфаол усулларни уйғунликда қўллаш имкониятига эгаллиги билан ҳам интерфаол таълимда бошқаларидан ажралиб туради.

Таълимга инновацион (инглизча innovation - янгилик киритиш) ёндашув ғояси таълим мазмуни ва натижаларининг шахсга йўналганлиги, таълим мазмуни, шакл, метод ва воситаларини фан ва техниканинг сўнгги ютуқлари, илғор тажрибалар, замонавий методикалар билан уйғунлаштиришга қаратилганлиги билан анъанавий ёндашувдан фарқ қилади [8]. Викторина мусобақалари илғор педагогик технологиялар ва интерфаол усулларини қўллаш орқали иштирокчиларга биргаликда жамоа бўлиб, ички ишлар органлари соҳавий хизматлари фаолиятининг назарий, ҳуқуқий ва ташкилий асосларига янгиликларни киритиш майдони ҳисобланади.

Мазкур мақола доирасида Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясида педагогик фаолият олиб боришда тўпланган тажриба асосида таълим-тарбия жараёнида интерфаол усулларнинг энг кўп тарқалган ва самарали бўлган викторинани ташкил этиш ва ўтказиш бўйича фикр-мулоҳазаларни баён қилишга ҳаракат қиламиз.

Биринчи мулоҳаза. Ҳар бир фан бўйича назарий билимларни ўқувчи-курсант(тингловчи)лар томонидан мустақил ўзлаштиришларини таъминлаш аввало улар учун семинар ва амалий машғулотларга саволлар ҳамда топшириқларни шакллантиришда уларнинг иштироки назарда тутилиши, машғулот “викторина” тарзда ўтказилиши методик материалларда кўрсатилиши, шунингдек олдиндан ўқувчи-курсант(тингловчи)лар бу ҳақда хабардор қилиниши шарт. Чунки,

инновацион технологиялар педагогик жараён, ҳамда ўқитувчи ва талаба ўртасидаги ижодий фаолиятига янгилик, ўзгартишлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол усуллардан фойдаланилади, чунки таълимда бошқарув ролини ўқитувчи бажаради[9].

Иккинчи мулоҳаза. Семинар ёки амалий машғулоти “викторина” шаклида ўтказилиши учун алоҳида тайёргарлик кўрилиши талаб этилади. Машғулоти ўтказиш учун масъул ўқитувчи олдиндан мавзу саволларига тўлиқ жавобларни берадиган, ҳар бир жамоадаги барча ўқувчи-курсант(тингловчи) фаол иштирок этишини назарда тутувчи “викторина” шартлари ва сценарийсини ишлаб чиқиши ҳамда кафедрада муҳокамасига қўйиши, ундан кейин ўқувчи-курсант(тингловчи)ларни таништириши шарт.

Учинчи мулоҳаза. Таълим муассасаси, кафедра ва машғулоти ўтказиш учун масъул бўлган ўқитувчи машғулоти “викторина” шаклида ўтказилиши учун ўқувчи-курсант(тингловчи)га барча шарт-шароитларни яратиши, уларга амалий ёрдам кўрсатиши ҳамда ҳар бир жамоанинг, уларнинг ҳар бир аъзосининг иштирокини объектив ва холисона баҳолаши шарт.

Тўртинчи мулоҳаза. Викторинани кафедра қошида ташкил этилган иқтидорли ўқувчи-курсант(тингловчи)лар орасида ўқитиладиган фанлар бўйича энг долзарб мавзулар, янги қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганиш мақсадида, айниқса уларнинг ўзларининг ташаббуслари асосида ўтказилиши қизиқарли ва самарали ҳисобланади. Қизиқарли ва самарали бўлишининг асосий сабаби “викторина” мавзуси, шартлари ҳамда сценарийси ўқувчи-курсант(тингловчи)ларнинг ўзлари томонидан мустақил ишлаб чиқилади. Тўғрақ раҳбари ва кафедра аъзолари “викторина” жараёнини кузатиши, ҳайъат азолари сифатида жамоалар ёки ҳар бир иштирокчининг берилган савол ва топшириқларга жавобини холисона баҳолаши шарт.

Бешинчи мулоҳаза. Жамиятда, айниқса суд-ҳуқуқ, хусусан ички ишлар органлари тизимида ислоҳотлар жараёнида янги қонунлар, фармон, қарор ва идоравий норматив ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинмоқда. Уларнинг мазмун-моҳиятини тегишли кафедра профессор-ўқитувчилар томонидан фанлар мавзулари доирасида, шунингдек махсус факультатив маъруза машғулотида етказиш, ўқувчи-курсант(тингловчи)ларга уларни ҳар томонлама тўлиқ ва мукамал ўзлаштириш имконини бермайди.

Бундай вазиятда ўқувчи-курсант(тингловчи)лар томонидан мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятини мутақил равишда тўлиқ ва мукамал ўзлаштиришлари бир неча босқичли “викторина” ўтказилиши орқали таъминланиши самарали ҳисобланади. Кафедра томонидан тузилган жадвалга асосан *биринчи босқичда* ҳар бир ўқитувчига бириктирилган ўқув гуруҳлари ўртасида, *иккинчи босқичда* ғолиб ўқув гуруҳлари ўртасида, *учинчи босқичда* эса мутахассислик йўналишлари ёки ўқув курслари ўртасида ўтказиш мақсадга мувофиқ. Албатта бундай бир неча босқичли “викторина”ни ўтказиш кафедра томонидан олдиндан гуруҳлар, мутахассисликлар ёки ўқув курслари ўртасида ўтказилиши бўйича тегишли манфаатдор тузилмалар билан келишилган бўлиши шарт.

Олтинчи мулоҳаза. Бугунги кунда “викторина”лар ўтказишда ахборот коминикация технологияларидан мақсадли фойдаланиш, ўрганилаётган мавзу, норматив-ҳуқуқий ҳужжат, ҳаётдаги, айниқса ички ишлар органлари соҳавий хизматлари фаолиятидаги муаммоларни муҳокама(саҳна)га олиб чиқиш ёки инсон тафаккурини бойитишга қаратилган турли йўналишлар бўйича ақлий(интеллектуал) ўйинлар ўзини самарали натижаларини бериши аниқ. Шунини алоҳида қайд этиш жоизки, агарда “викторина”ни ўтказишни ҳар томонлама тайёргарлик кўриш ва методик талабларга тўлиқ риоя этилган, шунингдек замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланилган ҳамда ўқувчи-курсант(тингловчи)лардан иборат кенг аудиторияда “томошобин” иштирокида ташкил этилса, унинг самараси яна ҳам юқори бўлади. Чунки,

катта аудиторияда, яъни жамоатчилик фикрини шакллантирувчи “томошабин” иштирокида ўз билимларини намойиш этиш жамоаларга, уларнинг ҳар бир аъзосига бир томондан юқори даражадаги масъулият юклайди, иккинчи томондан “викторина” жараёнида берилаётган ҳар бир савол ва топришиқ на фақат унда бевосита иштирок этаётган жамоа аъзоларини фикрлашга, балки томошабин сифатида иштирок этаётганларни ҳам мустақил фикрлашга, ўйлашга, саволга жавобни ўзича топишга “ундайди”.

Еттинчи мулоҳаза. Ҳуқуқ соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар жараёнида қабул қилинаётган ҳужжатларнинг мазмуни ва аҳамияти мансабдор шахслар томонидан етарли даражада ўрганилмаётганлиги, шунингдек, ушбу ҳужжатларни, айниқса, аҳоли ва кенг жамоатчилик ўртасида тушунтириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар мавжуд эмаслиги таъкидланганлиги[10], бўлажак профилактика инспекторларида фаолиятига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятини ўрганиш бўйича ўзига хос бир ёндашув амалга оширилди. Жиноятларнинг олдини олиш (ҳозирги Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва криминология) кафедраси ўз ташаббуси билан илк бор (2006 й.) профилактика инспекторларини тайёрлаш учун ихтисослашган ўқув гуруҳлари ўртасида ички ишлар органларининг мазкур фаолият йўналишини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятини ўрганиш бўйича “Викторина” ақлий(интеллектуал) мусобақасини ўтказиш йўлга қўйилди. Кейинчалик Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги(2008), “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги (2010 й.), “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонунларнинг мазмун-моҳиятларини ўрганиш бўйича кўп босқичли “викторина” ақлий(интеллектуал) мусобақалари ўтказилди.

Мазкур ихтисослик йўналишида ўқиётган тингловчи(ҳозир курсант)лар кундузги таълимдагиларнинг ярмидан кўпини ташкил этилганлигини ҳисобини олиб уларни ўз устида мустақил ишлашга кенг жалб этиш мақсадида кейинчалик (2008 йил) кафедра ташаббуси билан назарий билимлар ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятига оид билимларини намойиш этишга қаратилган “Викторина” ақлий(интеллектуал) ҳамда жамиятдаги, тингловчи(курсант) ҳаётидаги, ички ишлар органлари соҳавий хизматлари, хусусан профилактика хизматлари фаолиятидаги ва муаммоларни аниқлаш, таҳлил қилиш ҳамда уларни ҳал этиш бўйича ғояларини ўзида акс эттирувчи сахна кўринишларидан иборат “Кувноқлар ва зукколар” мусобақаларининг шартлари мувофиқлаштирган ҳолда тадбирлар ўтказилиши йўлга қўйилди.

Саккизинчи мулоҳаза. Муаллиф кейинчалик ротация бўйича Академиянинг Жамоат тартиби ва хавфсизликни таъминлаш(2014-2017 йилларда Ички ишлар органларида бошқарувни ташкил этиш деб номланган) кафедрасига раҳбарлик қилган даврда ҳам мазкур кафедра ташаббуси билан кундузги таълимда барча мутахассислик йўналиши бўйича ўқиётган курсантлар жалб этилган ҳолда “Мақсад - халқ манфаатларига хизмат қилиш” (2017 йил) ва “Билимли авлод – келажак кафолати” (2019 йил) номли кўп босқичли “Викторина” ақлий(интеллектуал) мусобақалари ўтказилиши ташкил этилди.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, **“Мақсад - халқ манфаатларига хизмат қилиш”** номли “Викторина” ақлий(интеллектуал) мусобақасининг мақсади бир томондан курсантларни жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларига оид янги таҳрирдаги қонун[11] ва унинг ижроси доирасида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятини мустақил ўрганишга жалб этиш бўлса, иккинчи томондан уларни ички ишлар органларининг мурожаатлар билан ишлаш соҳасидаги муаммоларини аниқлаш, уларни таҳлил қилиш ҳамда ҳал этишга қаратилган ғоялар билан суғорилган сахна кўринишларини намойиш

этиши орқали курсантларни мутақил ахборот излашга, билим олишга, фикрлашга, жамоада ишлашга, мулоқат қилишга ва нутқ маҳоратини шакллантиришга ўргатишдан иборат эди. Ҳайъат аъзолари, мусобақада бевосита иштирок этган курсантлар ва томоша қилганлар ҳозиргача ушбу тадбирни яхши хотиралар билан эслаши унинг самарали бўлганлигини кўрсатади.

Шавкат Мирзиёевнинг “Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса – тараққиётнинг қафолатидир” ғоясини[12] амалга ошириш мақсадида ички ишлар органлари фаолиятини тартибга солувчи қонунлар, тизимда амалга оширилаётган ислохотларга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятини мустақил ўрганиш, шунингдек соҳавий хизматларфаолият йўналишда амалиётда мавжуд бўлган муаммоларни аниқлаш, таҳлил қилиш ҳамда уларни ҳал этиш бўйича таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқиш бўйича курсантларда зарур кўникмаларни шакллантириш мақсадида барча ўқув гуруҳлари ўртасида “**Билимли авлод – буюк келажак қафолати**” мавзuida “Викторина” (2019 й.) ўтказилди.

Викторинанинг биринчи босқичи асосий шартига кўра ўқув гуруҳлари кафедра томонидан белгилаб берилган учта норматив-ҳуқуқий ҳужжатни мустақил ўрганиб, уларнинг мазмун-моҳиятига оид саволлар ва жавобларни тайёрлаб, уларни “**Microsoft PowerPoint**” дастурида “Ари уяси” шаклида 1 дан 10 гача бўлган рақамлар ортига жойлаштирилди. Ўқув гуруҳлари томонидан тайёрланган мазкур саволларга рақиб жамоа жавоб беришди. Жавоблар кафедра ўқитувчилари таркибидан тузилган Ҳакамлар ҳайъати томонидан баҳоланиб борилди.

Биринчи босқичда ўқув гуруҳлари ўртасида ўтказилган “викторина” ақлий(интеллектуал)мусобоқасида Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги, “Жисмоний ва юридик шахсларнинг муурожаатлари тўғрисида”ги ва “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиклиги тўғрисида”ги қонунлари, шунингдек,

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чоратадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5005-сонли Фармони ҳамда унинг ижроси доирасида қабул қилинган 8(саккиз)та қарорларининг мазмун-моҳияти юзасидан ўзаро беллашдилар.

Викторинанинг иккинчи бочқичида мутахассислик йўналиши бўйича энг фаол ўқув гуруҳларини аниқлаш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги, “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги ва “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги қонунларининг ижросини таъминлаш юзасидан “Йўл харита”лари тақдимотини тайёрлаб ҳимоя қилишди, шунингдек Жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш кафедраси томонидан “**Microsoft PowerPoint**” дастурида “Ари уяси” шаклида тайёрланган тезкор саволга жавоб беришди. Мазкур беллашув натижалари бўйича “Тезкор-қидирув фаолияти”, “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси” ҳамда “Тергов фаолияти” ва “Эксперт криминалистика” мутахассислик йўналишлари бўйича ғолиб жамоалар аниқланиб якуний “финал” босқичга йўлланма олдилар.

Викторинанинг якуний босқичи 2019 йилнинг 19 апрель куни бўлиб ўтди. Мазкур босқич 2-ўқув курсининг «Тезкор-қидирув фаолияти» мутахассислигининг «Тезкор-қидирув альянси», «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти» мутахассислигининг «Юксалиш», «Тергов фаолияти» мутахассислигининг «Элита» ва «Эксперт-криминалистик фаолият» мутахассислигининг «Иқтидорли юристлар» жамоалари (10 нафар курсантдан иборат) ўртасида «Викторина» 4 та шартлар асосида ўтказилди.

Биринчи, «Танишув» деб номланган шартда жамоалар ўзлари таълим олаётган мутахассислигининг ўзига хос жиҳатлари, амалий

фаолиятдаги қийинчилиги, шарафлилиги ҳамда махсус-касбий аҳамиятини назарда тутиб жамоа ҳамда унинг шиори мазмун-моҳиятини акс эттирган ҳолда сахна кўриниши намойиш этишди.

Иккинчи, «Тезкор савол-жавоб» деб номланган шартида куръа ташлаш асосида аниқланган кетма-кетликда ҳар бир жамоа ички ишлар органлари тизимини ислоҳ қилиш борасида қабул қилинган қонун ва қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатларининг мазмун-моҳияти бўйича ишчи гуруҳ томонидан ишлаб чиқилган 5 та вариантда тайёрланган ҳамда «Ари уяси» ичига яширилган 21 та саволлардан рақам танлаш орқали 10 тасига жавоб беришди.

Учинчи, «Муаммо ва ечим» деб номланган шартида жамоалар ишчи гуруҳ томонидан 5 та вариантда тайёрланган ва конвертга солинган муаммоли вазиятлар бўйича топшириқларни кетма-кетликда танлаб, ҳар бир жамоа бир дақиқа вақт ичида унинг ечимини топиб уни ҳакамларга асослаб беришди.

Тўртинчи, «Уйга вазифа» деб номланган шарти бўйича беллашувда ички ишлар органлари тизимида, шунингдек жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш самарадорлигини ошириш бўйича амалга оширилаётган ислоҳотлар ҳамда «Халқ манфаатларига хизмат қилиш»нинг жамият ҳаётига таъсири, бу борада эришилган ютуқлар, фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашга оид масалаларни назарда тутувчи мавзулар бўйича сахна кўриниши намойиш этилди.

Тўққизинчи мулоҳаза. Барча ўқув гуруҳларини ёки барча ўқув курсларини жалб этган ҳолда бир неча босқичли “викторина” ақлий(интеллектуал) мусобақаларини ўтказиш ўқитувчи ва ўқувчи(курсант-тингловчи)ларга ўқув режасида белгиланган машғулотлардан ташқари алоҳида тайёргарлик учун муайян миқдордаги вақт ва меҳнатни талаб қилади. Афсуски, аксарият ҳолларда таълим

муассасаларида *биринчидан*, бундай тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш учун вақт етарли эмас, *иккинчидан*, кафедралар ташаббуси билан ташкил этилганда улар етарли даражада қўллаб-қувватланмайди, *учинчидан*, ташкилотчи, ташаббускор ва фаол ўқитувчи, айниқса ўқувчи(курсант-тингловчи)ларнинг рағбатлантирилишига етарли эътибор берилмайди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, “викторина” ақлий(интеллектуал) мусобақаларини таълим жараёнида кенг қўллаш учун керакли шарт-шароитларни яратиш, ўқув режаларини шакллантиришда бундай тадбирлар учун алоҳида вақтларни назарда тутиш, бу борада қилинган ишларни ўқитувчилар юкламасига киритиш, бу соҳада ўқувчи(курсант-тингловчи)ларнинг ва кафедраларнинг ташаббусини қўллаб-қувватлаш, ушбу тадбирларни оммавий-ахборот воситаларида кенг ёритиб бориш, шунингдек фаолларни рағбатлантириб бориш тизимини йўлга қўйиш мустақил таълим олишга мотивацияни оширишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги қонуни / <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги “Ички ишлар органлари ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3216-сон қарори / <https://lex.uz/docs/3313218>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 апрелдаги “Ички ишлар органлари учун профессионал кадрларни тайёрлашнинг сифат жиҳатдан янги тизимини жорий этиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5076-сон қарори / <https://lex.uz/docs/5377619>

4. Материал из Википедии — свободной энциклопедии. / <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
5. Инновацион педагогик технологиялар тўплами. / <http://library.navoiy-uni.uz/files.pdf>
6. «Викторина как один из видов интерактивных игровых технологий». / <https://xn---btbcfzgflvfabrih2eye.xn--p1ai/doc>
7. <http://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/INNOVATSION-TALIM-TEHNOLOGIYALARI.pdf>
8. Р.Ишмухаммедов, М.Мирсолиева. Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари / <https://kitobxon.com/ru/kitob/oquv-jarayonida-innovasionalim-texnologiyalari>
9. Ф.К.Батирова, А.К. Ахмедов Таълимни бошқаришда замонавий инновацион технологияларнинг аҳамияти. / <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1249&context=tiame>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 10 февралдаги “Қонунчилик ҳужжатлари ижросини самарали ташкил этишда давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари раҳбарларининг шахсий жавобгарлигини кучайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6166-сон фармони
11. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 11 сентябдаги “Жисмоний ва юридик шахсларнинг муурожаатлари тўғрисида”ги қонуни / <https://lex.uz/docs/3336169>
12. Шавкат Мирзиёев: Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса – тараққиётнинг кафолатидир. / <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khalq-farovon-hayotning-dostona-hamkorlik-esa-taraqqiyotning-kafolatidir>

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA BADIY MATNLARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Begaliyeva Dildora

Master's degree in the department of foreign languages

Jizzakh state pedagogical university

Annotatsiya: Bugungi kunda chet tili darsida badiiy matnlardan dars materialini sifatida foydalanish majburiy emasligi muhokama qilinmoqda. Garchi badiiy matnlar haqiqiy hujjatlar sifatida qabul qilingan bo'lsa-da va tilni o'qitish uchun hech qanday maqsadga ega bo'lmasa-da, ular asosiy til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ishlatilishi kerak bo'lgan ajralmas manbalardir. Bu yerda maqsad nafaqat asosiy til ko'nikmalarini o'rgatishga hissa qo'shish, balki chet tili madaniyatini o'rgatishga hissa qo'shish va o'qitish paytida talabalarga turli xil qarashlarni taqdim etishdir. Shuningdek, badiiy matnlarning lingvistik va grammatik tuzilmalari tufayli ular chet tili sinfida maqsadli til grammatikasini o'rgatish uchun samarali dars materialini sifatida ishlatilishi mumkin.

Tayanch so'zlar: chet tilini o'qitish, badiiy matn, grammatikani o'qitish, kurs materiallari.

Bugungi kunda texnologiya va texnologik yangiliklarsiz o'quv muhitini o'ylash mumkin emas. Darhaqiqat, texnologik vositalar va materiallar yarim asr davomida o'quv muhitida, xususan chet tillarini o'qitishda yordamchi elementlar sifatida ishlatilgan. Ayniqsa, internet bilan, o'quv muhiti endi faqat sinf bilan chegaralanmaydi va u yanada mustaqil bo'lib qoldi. Shu sababli, talabalar ko'proq mustaqil va ko'proq shaxsiylashtirilgan o'quv muhitida turli xil mashqlar va tadbirlar tufayli to'rtta asosiy til qobiliyatlari va grammatika, lug'at, fonetik kompetentsiyalarni sinf muhitidan tashqarida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Til muhitidagi texnologik yangiliklar tufayli bugungi kunda grammatikani o'qitish joyi chet tili ta'limida munozarali mavzu hisoblanadi. Yashirin grammatikani o'qitish ba'zi mutaxassislar tomonidan

ilgari surilsa va grammatikani o'qitish unchalik muhim emas deb hisoblansa, boshqa mutaxassislar grammatikani o'qitishning muhimligini ta'kidlaydilar va ular aniq grammatikani o'qitish chet tili ta'limida saqlanishi kerak deb ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, ushbu munozaralarning barchasi va hozirgi yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, grammatik o'qitish chet tillarini o'qitishning muhim bosqichi bo'lib, uni ushbu jarayonda o'rgatish kerak, chunki grammatik o'qitish talabalarning tushunish va talqin qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalarning o'qish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatiladigan eng samarali dars materiallaridan biri bu haqiqiy hujjatlar sifatida belgilangan badiiy matnlardir.

Chet tili sinfida badiiy matnlardan foydalanish chet tilining turli grammatik tuzilmalarini kontekstda o'rgatish va grammatik qoidalarni o'zlashtirish uchun imkoniyat bo'lishi mumkin. Biroq, chet tillarini o'qitishda adabiyot yoki badiiy matnlardan foydalanish har doim muhokama qilinib kelmoqda. Bugungi kunda mutaxassislar badiiy matnlardan dars materiali sifatida foydalanishni muhokama qilmoqdalar. Ammo hozirda muhokama qilingan bo'lsa ham, chet tillarini o'qitishda badiiy matnlardan foydalanish yangi emas; aslida, ular yigirmanchi asrning boshidan beri dars materiallari sifatida ishlatilgan.

Bundan tashqari, badiiy matnlar chet tili darsning eng muhim ajralmas qismi bo'lgan an'anaviy usul ma'lum grammartranslation usuli doirasida ishlatiladi. Uning nomidan ko'rinib turibdiki, badiiy matnlar bilan o'qish faoliyati va maqsadli tildan ona tiliga tarjima tadqiqotlari usulning asosiy nuqtasini tashkil etadi (Duff & Maley, 1990:3). Ushbu usul yordamida grammatik qoidalar va matndagi so'zlarni badiiy matnlar orqali o'rgatish maqsad qilingan.

Chet tillarni o'qitishda yangi o'zgarishlar bilan yuzaga keladigan yangi usullar oldida grammatik-tarjima usuli o'z ahamiyatini yo'qotdi. Shuning uchun badiiy matnlar ham ushbu usullar bilan chiqarib tashlanadi va bu jarayonda tan olinishni yo'qotdi. Natijada, chet tili darslarida dars materiallari sifatida badiiy

matnlardan foydalanish kamaydi. 1980-yillarda kommunikativ yondashuv bilan asosiy maqsad talabalarga chet tillarini o'qitishda muloqot qobiliyatlarini oshirish va shu maqsadda; har qanday hujjatdan foydalanish mumkin edi. Shu sababli, badiiy matnlar haqiqiy hujjat sifatida yana aloqa va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shish va talabalarning to'rtta asosiy til qobiliyatlari va pastki ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etardi.

Shu davr mobaynida chet tillarni o'qitishda adabiy matnlardan foydalanish bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borildi; Collie & Slater, 1987; Duff & Maley, 1990; Gauer & Pearson, 1986; Hill, 1986; Lazar, 1993; Maley & Duff, 1989; McRae, 1991; Karter & Burton, 1982; Maley & Molding, 1985; Brumfit & Karter, 1986; Uoker & Brumfit, 1989; Karter & Long, 1991; Bassnett & Grundy, 1993; Inan & Y Undakksel, 2013. Ushbu asarlarning umumiy nuqtasi chet tili darsida badiiy matnlardan dars materiallari sifatida foydalanish zarurati bo'lib, talabalar uchun asosiy va sub-til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali o'quv material bo'lishi mumkin. Shu sababli talabalar to'rtta asosiy til ko'nikmalaridan samarali foydalanish uchun yetarli grammatik malakaga ega bo'lishlari kerak. Krashen (1982) va Shang (2000) ma'lumotlariga ko'ra, tilni o'qitish asosiy til ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadiga erishish uchun haqiqiy va mazmunli ma'lumotlarga e'tibor qaratishi kerak. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, grammatikani yaxshi biladigan talabalar boshqa o'quvchilarga qaraganda yozish va gapirish qobiliyatlarida ko'proq muvaffaqiyat qozonishadi.

Hozirgi kunda chet tillarini o'qitishda faqat kitoblardan dars materiallari sifatida foydalaniladigan o'quv-o'qitish muhiti endi amal qilmaydi. Natijada, davr ehtiyojlari bilan texnologik yangiliklar, yangi usullar va texnikalar paydo bo'ldi, dars materiallari sifatida kitoblardan tashqari ko'plab matnlar, vizual, audiovizual hujjatlar va multimedia vositalaridan foydalanishga imkon berdi.

Ayniqsa, 1980-yillardan boshlab, keyingi yillarda chet tillarini o'qitishda kommunikativ yondashuv va harakatga yo'naltirilgan usul paydo bo'lishi bilan

romanlar, jurnallar, gazetalar, she'rlar, qo'shiqlar, postkartalar, gazetalar, jurnal maqolalari, poezdlar, samolyot chiptalari va boshqalar kabi haqiqiy hujjatlar, sinf uchun tayyorlanmagan va kurs kitoblaridan mustaqil bo'lgan, sinfda ishlatila boshlandi. Yuqorida aytib o'tilgan ushbu hujjatlar; "Vizual yoki eshitish, lekin sinf uchun emas, chunki ular aloqa, bilim va haqiqiy til tushunchasini ta'minlash uchun yaratilgan" (Ataseven, 1998:191) haqiqiy hujjat deb ataladi. Chet tili darsida badiiy matnlardan foydalanishni talab qiladigan omillarni quyidagicha sanab o'tish mumkin:

- * Haqiqiy va rag'batlantiruvchi material
- * Talabalarning ijodkorligini faollashtirish
- * Madaniy va lingvistik boylikka egaligi
- * Talabalarning faol ishtirokini ta'minlash
- * Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish
- * To'rt asosiy til ko'nikmalarini va sub-ko'nikmalarini rivojlantirish
- * Hissiy aqlning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash
- * Intensiv va keng tarqalgan o'qish odatlarini berish

Kolli va Slater til o'qituvchilarining chet tili darslarida badiiy matnlardan foydalanishining to'rtta asosiy sababini tavsiflaydilar:

- * Asl kurs materiallari
- * Madaniy boylikka ega bo'lish
- * Lisoniy boylikka ega bo'lish
- * Tadbirlarda talabalarning umumiy ishtirokini ta'minlash.

Grammatikani o'qitishda badiiy matnlardan foydalanish to'rtta asosiy til ko'nikmalarining eng muhim tarkibiy qismi sifatida, chet tilini o'qitish jarayonida grammatika mahorati har doim muhokama qilingan. Grammatikani o'qitish 1960-70 yillarda o'z ahamiyatini yo'qotdi, ammo 90-yillardan boshlab u yana kommunikativ usul bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Krashenning (1982) tilni egallash nazariyasidan boshlab ba'zi mutaxassislar grammatikani o'qitish unchalik muhim emas va uni yashirin tarzda o'rgatish kerak deb ta'kidlashdi. Aksincha, ba'zi boshqa mutaxassislar chet tilini o'qitish jarayonida

grammatikani o'qitish muhim ahamiyatga ega va uni aniq tarzda o'rgatish kerakligini ta'kidladilar (White, 1987). Larsenn-freeman (1995) grammatika tabiiy jarayonda o'rganilsa-da, uni takomillashtirish uchun grammatika qoidalarini tushuntirish zarurligini ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar orasida turli fikrlar hukmron.

Natijada grammatikani o'qitishda badiiy matnlardan foydalanish:

* Grammatik tuzilmalarni o'rganishni qo'llab-quvvatlaydigan mazmunli ma'lumot kiritish mumkin. Demak, ongli o'rganishni amalga oshirish mumkin.

* Maqsadli tilning til xabardorligini oshirish mumkin.

* Talabalar mazmunli muloqot qilishga undashlari mumkin.

* Talabalarning savodxonligini matnni o'qish qobiliyatlari va strategiyalari yaxshilanishi mumkin.

* O'quvchilarning tushunish, tushunish, tahlil qilish va talqin qilish qobiliyatini oshirish mumkin.

* Talabalarning tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

* Induktiv ta'lim berilishi mumkin.

* Avtonomiyani o'rganish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan natijalarga erishish uchun avval matnni tanlash mezonlari ko'rib chiqilishi kerak. O'qituvchilar maqsadli tilda juda yaxshi adabiy ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Chet tili bo'limlarida "adabiy matnlar bilan til o'rgatish, adabiyot va til o'rgatish" kabi darslar va boshqalar o'qitilishi kerak va agar shunga o'xshash kurslar mavjud bo'lsa, ularni yanada funktsional bajarish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bassnett, S., & Grundy, P. (1993). *Language Through Literature*. London: Longman.
2. Brumfit, C.J., & Carter, R. (1986). *Literature and Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press.

3. Carter, R. & Burton, D. (1982). *Literary Text and Language Study*. London: Edward Arnold.
4. Carter, R., Walker, R., & Brumfit, C. (1989). *Literature and The Learner: Methodological Approaches*. Modern English Press with The British Council.
5. Carter, R. & Long, M.N. (1991). *Teaching Literature*. Harlow, Essex: Longman. Collie, J., & Slater, S. (1987). *Literature in the Language Classroom*. Cambridge, UK: Cambridge University Press. Collie, J. &
6. S. Slater. (1990). *Literature in the Language Classroom: A Resource Book of Ideas and Activities*. Cambridge: CUP

ADDITIONAL REFERENCES

1. Turgunova, F. (2022). YANGLIK SARLAVHALARINING MATNI VA YANGLIK SARLAVHALARINING TASNIFI. Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими.
2. Ataboyev, I. M., & Turgunova, F. R. (2022). The concept of semantic field in linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(04), 378-383.
3. Turgunova, F. (2021). GAZETA VA JURNALISTIK USLUBNING XUSUSIYATLARI: GAZETA VA JURNALISTIK USLUBNING XUSUSIYATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(7).
4. Turgunova, F. (2021). TRANSLATIONAL STUDY OF ENGLISH AND UZBEK NEWS HEADLINES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
5. Ataboyev, I. (2022). INGLIZ TILIDA TA'NA-DASHNOM TUSHUNCHALARNI BILDIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK MAYDONI. Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими.
6. Rustamov, I. T., Atabaev, I. M., Muxtorova, X. I., & Yaxshilikova, N. X. (2021). DESCRIPTIONAL PRINCIPLES OF NOUN UNITS. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(11).
7. Ataboyev, I. (2021). GAZETA SARLAVHALARINI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).

8. Ataboev, I. (2020). COMPARATIVE STUDY OF THE FUNCTIONAL SEMANTIC FIELD IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1).

**JON GRISHAM DETEKTIV ROMANLARINING
LINGVOPOETIK TAHLILI**

Arzikulova Gulbahor Abdurasul qizi

Master's degree in the department of foreign languages

Jizzakh state pedagogical university

Annotatsiya: Maqola Jon Grishamning romanlarini detektiv janrdagi asarlar sifatida ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Maqolada Jon Grishamning trillerlari rasmiy va norasmiy huquqiy terminologiyaning kombinatsiyasi va amerikalik yozuvchiga uyda ham, chet elda ham ulkan mashhurlik keltirgan o'tkir syujet bilan ajralib turishi ta'kidlangan.

Tayanch soʻzlar: huquqiy triller, sud jarayoni, janrni shakllantiruvchi xususiyat

Yaqin vaqtgacha terminograflar va leksikograflarning sa'y-harakatlari bilimlarning tabiiy tarmoqlari: matematika, kimyo, fizika, biologiya va boshqalarning mazmunini ochib berish uchun mo'ljallangan terminologik ma'lumotnomalarni yaratishga qaratilgan edi. Madaniyatlararo aloqalarning jadal rivojlanishi munosabati bilan gumanitar bilimlar sohasiga qiziqish ortdi, bu ham leksikografik mahsulotlarda aks etdi: Ijtimoiy ish, biznes, iqtisodiyot, moliya, reklama, huquq va boshqalar kabi maxsus bilimlarning kichik tarmoqlarini tavsiflovchi lug'atlar paydo bo'la boshladi. Yozuvchi leksikografiyasining hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, so'nggi paytlarda nafaqat milliy tilda, balki taniqli yozuvchilar asarlarida ham turli mavzulardagi atamalarni ro'yxatdan o'tkazadigan va qayta ishlaydigan sifat jihatidan yangi ma'lumotnomalar paydo bo'ldi.

Ushbu maxsus bilim sohasiga bunday qiziqish huquqshunoslik din, fan, san'at va falsafa bilan bir qatorda madaniyatning ajralmas qismi ekanligi bilan izohlanadi, shuning uchun uni ishlatish doirasi huquqiy nutq bilan cheklanib qolmaydi, undan tashqarida faol foydalaniladi. Shu tufayli huquqshunoslik bu

sohadagi mutaxassislar bilan bir qatorda tilshunoslar va terminologlarning ham e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda. Ma'lumki, barcha rivojlangan mamlakatlarda huquqshunoslik sohasi katta rol o'ynaydi va zamonaviy jamiyat hayotida alohida o'rin tutadi. Bu haqiqatni ko'plab amerikalik yozuvchilarning huquq va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammolariga murojaat qilishlari tasdiqlaydi. T. Dreiser ("Amerika fojiasi"), H. Li ("Masxarabozni o'ldirish") va boshqalar kabi so'z ustalari o'z asarlarida sud va adolat mavzusiga murojaat qilganlar. Amerika haqiqatining bu xususiyati zamonaviy amerikalik yozuvchi J. Grishamning asarlarida aks ettirilgan bo'lib, ularning aksariyati huquq sohasida to'plangan. Jon Grisham, ehtimol boshqa hech bir yozuvchi singari, "klassik detektiv" unvoniga loyiqdir. Bundan tashqari, uning ishi dunyoning o'nlab mamlakatlaridagi muxlislarining sevgisidan zavqlanmoqda. Bu hali 58 yoshga to'lmagan va yiliga roman yozadigan odam uchun umuman yomon emas edi. Gollivud ustalari - Frensis Ford Koppola, Sidney Pollak, Joel Shumaxer asarlari asosida filmlar suratga olishadi. Film moslashuvlarida bosh rollarni ijro etuvchi aktyorlarning yulduzli aktyorlari esa eng nufuzli xalqaro kinofestivalni o'z ishtiroki bilan sharaflashardi. Jon Grisham o'zining birinchi, O'ldirish vaqtini romanini bir necha yil davomida o'z ishidan vaqt ajratib yozadi. Kitob birinchi marta 1988 yilda kichik hajmda nashr etilgan. Va bugungi kunda, ehtimol, Sandra Bullok va Metyu Makkonaxi ishtirokidagi romanning filmga moslashishini tomosha qilmaydigan ushbu janrning biron bir muxlisi yo'q emas. Zo'ravonlik va irqiy xurofotning noaniq mavzusi o'quvchilarning, keyin tomoshabinlarning keskin reaksiyasini keltirib chiqaradi. Jon Grisham juda tez vaqt orasida ko'pchilikning e'tiborini tortdi va bu "*Ikkinchi kitob*" sindromi deb nomlangan shuhratga da'vogar har qanday muallif uchun klassik sinov edi. Jon Grisham "*Imtihon*" bilan ajoyib tarzda kurashdi: uning 1991 yilda nashr etilgan "*Firma*" romani darhol bestsellerga aylandi va uning filmdagi ulushi huquqlari 600 ming dollarga sotildi. Grisham bir zumda dunyodagi eng ko'p nashr etilgan mualliflardan biriga aylandi va uning keyingi romani, *Pelikanlarning ishi*, 11 milliondan ortiq nusxada nashr etildi. Keyin "*Mijoz*", "*Kamera*", "*Oltin*

yomg'ir", *"Hukm"*, *"Sherik"*, *"Ko'cha huquqshunosi"*, *"Vasiyatnoma"*... va o'ndan ortiq romanlar yozdi, ularning har biri o'z kitobxonlari bilan mashhur.

Bugungi kunga qadar Jon Grishamning nashr etilgan asarlarining umumiy tiraji 225 million nusxadan oshadi; uning romanlari dunyoning 25 tiliga tarjima qilingan va hatto eng taniqli kino yulduzlari ham uning kitoblari asosida filmlarda suratga tushishga rozi bo'lishdan tortinmaydi. Buning ajablanarli joyi yo'q: zamonaviy kino dunyosida "Grisham" nomi avtomatik ravishda "Muvaffaqiyat" tushunchasi bilan tenglashtiriladi [4]. Grisham yozgan janr odatda "Sud detektivi" yoki "Huquqiy triller" deb nomlanadi. Huquqiy triller-bu ayblanuvchini ta'qib qilishni tavsiflovchi va dinamik, keskin rivoyat bilan ajralib turadigan janr. Huquqiy triller matnlarining janr xususiyatlari, shuningdek, boshqa barcha murakkab nutq janrlari mazmuniy, rasmiy va funktsional xususiyatlarga ega bo'ladi. Rasmiy belgilar – dinamizm va keskinlik, shuningdek funktsional belgilar-ko'ngilochar sarguzasht adabiyotining keng tarqalgan paradigmatic belgilaridir va shuning uchun u farqlanmaydi. Sudlanuvchini ta'qib qilish bilan bog'liq mohiyatli xususiyatlar janrni shakllantiradi, aniq ifoda usullarini tanlashni aniqlaydi va matn muallifi va o'quvchilari uchun umumiy bo'lgan haqiqatning ma'lum bir so'z boyligi bilan bog'liq bo'ladi [3]. Jon Grishamning asarlarida prokuratura, sud jarayoni romanning ixtiyoriy mezonlari bo'lgan holatlar mavjud. Shunday qilib, uning huquqiy detektivida "pelikan ishi" ("qisqasi Pelikan") biz qahramonlarni to'g'ridan-to'g'ri sud zalidan tomosha qilmaymiz. Biroq, bu haqiqat ishda ko'plab huquqiy atamalar mavjudligini istisno etmaydi. Birinchidan, matnning boshida u Tulane universitetida, yuridik fakultetida bo'lib o'tadi.

L. A. Vvedenskaya va L. G. Pavlova sudlovning quyidagi nutq janrlarini nomlaydilar: hakamlar hay'atiga rahbarlik qilish, ayblov nutqi, mudofaa nutqi, sud muhokamasi, hukm chiqarish [1]. Sud protsessining nutq janrlari tadqiqotchilari quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar: standartlashtirish va ekspresivlik, lingvistik jihatdan standart va hissiy ekspresiv ifoda vositalarining kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi. Sud jarayoni lingvistik va vaziyatli aloqaga

asoslangan lingvistik-vaziyatli aloqa bo'lib, sud jarayonining asosiy nutq janrlari bunday aloqaning asosiy shakllari sifatida ishlaydi va ularning belgilari huquqiy triller matnida ikkinchi darajali nutq janri sifatida saqlanib qoladi va uning mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

Jon Grishamning "Palata" huquqiy trillerining ko'rib chiqilayotgan matnida ushbu xususiyatlar lingvistik jihatdan quyidagicha taqdim etilgan. Huquqiy triller janri-shakllantirish xususiyatlari birinchi huquqiy atamalar (*witness, executor, dignitary*), uning holatiga yoki harakatlar (County advokat) [4], imperativ va passiv inshootlar asosida bir kishini ifodalaydi [3].

Ekspressivlikning janrni shakllantiruvchi belgisi matn parchalari obrazini yaratadigan metafora va matnning individual eng muhim qismlariga e'tibor qaratadigan, uning hissiy keskinligini oshiradigan takrorlashlar bilan ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

9. Vvedenskaya L.A., Pavlova L.G. Russkiy yazik i kultura rechi. – M.: Feniks, 2006. – 299 s.
10. Djon Grishem // KinoPoisk [elektron. resurs]. – Rejim dostupa: <http://www.kinopoisk.ru/name/33157/> (data obrasheniya: 17.01.2016).
11. Savochkina Ye.A. Lingvisticheskie osobennosti literaturno-xudojestvennogo janra yuridicheskogo trillera v yego otnoshenii k rechevim janram sudebnogo razbiratel'stva // Izvestiya Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta im. A.I. Gersena. – 2007. – № 32. – S. 193–196.
12. Grisham J. The Chamber. – New York: A Dell Book, 1994. – 426 p.

ADDITIONAL REFERENCES

13. Turg'unova, F. (2022). YANGLIK SARLAVHALARINING MATNI VA YANGLIK SARLAVHALARINING TASNIFI. Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими.
14. Ataboyev, I. M., & Turgunova, F. R. (2022). The concept of semantic field in linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(04), 378-383.

15. Turgunova, F. (2021). GAZETA VA JURNALISTIK USLUBNING XUSUSIYATLARI: GAZETA VA JURNALISTIK USLUBNING XUSUSIYATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(7).
16. Turgunova, F. (2021). TRANSLATIONAL STUDY OF ENGLISH AND UZBEK NEWS HEADLINES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
17. Ataboyev, I. (2022). INGLIZ TILIDA TA'NA-DASHNOM TUSHUNCHALARNI BILDIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK MAYDONI. Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими.
18. Rustamov, I. T., Atabaev, I. M., Muxtorova, X. I., & Yaxshilikova, N. X. (2021). DESCRIPTONAL PRINCIPLES OF NOUN UNITS. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(11).
19. Ataboyev, I. (2021). GAZETA SARLAVHALARINI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).
20. Ataboev, I. (2020). COMPARATIVE STUDY OF THE FUNCTIONAL SEMANTIC FIELD IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1).

**YUKSAK O'SIMLIKLAR SESTIMATIKASI HAMDA ULARNING YER
YUZIDA TARQALISHI**

Muhammadiyeva Nozima Adham qizi

Shoimova Shoxida Ro'zimurod qizi

Suyunova Nilufar Ismoil qizi

Raxmatov Jo'rabek Shuhrat o'g'li

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Aniq va tabiiy fanlar
fakulteti talabalari (Surxondaryo, Denov)*

Anotatsiya: Yuksak o'simliklar 3000 ga yaqin turdan iborat 9 bo'limni o'z ichiga oladi. Yuksak o'simliklar birorta dengiz Suvo'tlar kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Yuksak o'simliklarning qazilma qoldiqlari silur davridan ma'lum. Yuksak o'simliklar sestimatik jihatdan quyidagi bo'limlarga bo'linadi: rniotoifalar zoosterofiltoifalar, yo'sintoifalar, plauntoifalar, psilotoifalar, qirqbog'intoifalar, qirqquloqtoifalar, qarag'aytoifalar, magnoliyatoifalar . Yuksak o'simliklar tanasining murakkab tuzilganligi, yerda o'sishga moslashganligi, jinsiy va jinssiz ko'payishi bilan tuban o'simliklardan farq qiladi, jinsiy ko'payish hujayralari ko'p hujayrali tuzilgan. Ularning ayrim turlari suv muhitida ham yashaydi. Yuksak o'simliklar kelib chiqishi bo'yicha yashil suvo'tlarning eng qadimgilaridan hisoblanadi, Ularning kelib chiqishi va rivojlanishi ikki xil yo'nalishda, gametofit va sporofit nasl ustunligida bo'ladi. Yuksak o'simliklarning dastlabki ajdodlari tuban o'simliklar hisoblanadi

Kalit so'zlar: Tallom, rizoid, sporofit, gametofit, riniyatoifa, magnoliyatoia, plauntoifa, to'qima Systematics of higher plants and their distribution on earth

Abstract: Higher plants include 9 sections with about 3000 species. It is assumed that higher plants originated from some marine algae. Fossil remains of

higher plants are known from the Silurian period. The higher plants are systematically divided into the following sections: rhinotypes, zoosterophylls, lichens, plauntophyses, psilotophyses, sedges, sedges, pines, and magnolias. Higher plants differ from lower plants by the complex structure of their bodies, their adaptation to growth on the ground, sexual and asexual reproduction, the cells of sexual reproduction are multicellular. Some of their species also live in the water environment. Higher plants are among the oldest green algae by origin. Their origin and development are in two different directions, gametophyte and sporophyte. The first ancestors of higher plants are basal plants

Key words: Thallum, rhizoid, sporophyte, gametophyte, riniyatoyfa, magnoliatoia, plauntoifa, tissue

Yuksak o'simliklar evolyutsion taraqqiyot natijasida murakkab morfologik tuzilishga ega bo'lgan, tanasi poya va bargga differensiyalangan o'simliklar. Ularda ko'p hujayrali murtak (embirion hosil boladi. Yuksak o'simliklarga xos belgilardan biri jinsiy (gametofit) va jinssiz (sporofit) nasllarning gallanishidir. Yuksak o'simliklar 3000 ga yaqin turdan iborat 9 bo'limni o'z ichiga oladi. Bularga: riniotoifalar zoosterofilitoifalar, yo'sintoifalar, plauntoifalar, psilotoifalar, qirqbog'imtoifalar, qirqquloqtoifalar, qarag'aytoifalar, magnoliyatoifalar kiradi. Yuksak o'simliklar tanasining murakkab tuzilganligi, yerda o'sishga moslashganligi, jinsiy va jinssiz ko'payishi bilan tuban o'simliklardan farq qiladi. Yuksak o'simliklar sporofitida ko'p hujayrali sporangiylar hosil bolib, ularda harakatsiz sporalar yetishadi. Gametofitshxa jinsiy organlar paydo boladi. Sporofit, odatda, barg, poya va ildizga bo'lingan. Ko'pincha Yuksak o'simliklarda o'tkazuvchi to'qima — ksilema va floema rivojlangan. Epidermis, kutikula va bargida og'izchalar bo'lishi Yuksak o'simliklar uchun xos. Yuksak o'simliklar birorta dengiz Suvo'tlar kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Yuksak o'simliklarning qazilma qoldiqlari silur davridan ma'lum.

Yuksak o'simliklarni quyidagi bo'limlarga bo'linadi:

1. Riniyatoifalar –Rhyniophyta
2. Zoosteriofittoifalar Zoosterophyta
3. Yo`sintoifalar Bryophyta
4. Plauntoifalar Lycopodiophyta
5. Psilottoifalar - Psilotophyta
6. Qirqbo`g`imtoifalar Eqvisetophyta
7. Qirqquloqtoifalar - Polypodiophyta
8. Karag`aytoifalar yoki ochik urug`lilar Pinophyta
9. Magnoliyatoifalar yoki gulli o`simliklar Magnoliophyta, Anthophyta

Yuksak o`simliklar quruqlikka moslashar ekan, tuban o`simliklardan quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

1. Tanasining poya, barg va ildizga ajralganligidir. Ammo, bular ichida eng sodda vakillarida (yo`sinsimonlarda) ildiz o`rnida-rizoidlar, tanasi poya, bargga ajralmagan «tallom» tuzilishidagi vakillari xam uchraydi.

2. Yuksak o`simliklarda suv va havo almashinishini (transpiratsiya va fotosintez) boshqaruvchi barg og`izchalarining bo`lishi, o`tkazuvchi to`qimalar, traxeidlar, traxeya, ksilema, floema va yo`ldosh xujayralarning bo`lishi. Keyinchalik mexanik to`qimalarning rivojlanishidir. Morfologik tuzilishi jihatidan esa turli xil moslamalar vujudga kelgan.

3. Bularda jinsiy ko`payish a`zolarining ko`p xujayrali tuzilganligidir.

4. Jinsiy ko`payish azolari: erkakligi-anteridiy, urg`ochiligi-arxegoniydan iborat.

5. Yuksak o`simliklar hayotiy jarayonida doimo nasllar gallanishi-jinsiy nasl gametofitni, jinssiz nasl–sporofit bilan almashinishi kuzatiladi. Yuksak o`simliklardan faqat yo`sintoifalarida gametofit nasl ustunlik qilsa, qolganlarida esa sporofit nasl ustunlik qiladi. Gametofit-jinsiy nasl bo`lib, unda anteridiy va arxegoniy etiladi. Ularni gametalarini qo`shilishi natijasida jinsiy ko`payish amalga oshadi. Gametofit bir uyli ayrim jinsli yoki ikki uyli, bir jinsli bo`lishi mumkin.

Sporofit nasl- jinssiz nasl bo`lib, unda sporolar etiladi. Sporalar sporangiyalarda hosil bo`ladi. Sporalar hosil bo`lishida sporangiyalar ichida reduksion bo`linish yoki meyoza natijasida sporalar gaploid to`plamga ega bo`lgan xromosomalarni hosil qiladi.

6. Yuksak o`simliklarda zigotaning keyingi taraqqiyotida murtak (embrion)ning hosil bo`lishi va uning rivojlanish davomida sporofit hosil bo`lishi kuzatiladi.

7. Yuksak o`simliklardan ochiq urug`li va yopiq urug`li (guli o`simliklar) o`simliklarda spora o`rnida urug` hosil bo`ladi. Shuning uchun ham ularni «urug`li o`simliklar» deb ataladi.

Yuksak o`simliklarning kelib chiqishi.

Yuksak usimliklar kelib chiqishi bo`yicha yashil suvo`tlarning eng qadimgilaridan hisoblanadi, Ularning kelib chiqishi va rivojlanishi ikki xil yo`nalishda, gametofit va sporofit nasl ustunligida bo`ladi. Ularni dastlabki ajdodlari tuban o`simliklar hisoblanadi. Ko`pchilik olimlar, qadimgi (proterozoy erasidagi) yashil suvo`tlari ularni dastlabki ajdodlari deb hisoblashadi. Bunga sabab shuki, qadimgi proterozoy erasida yashab so`ng yo`qolib ketgan yashil suvo`tlarda 2 xivchinli spermatozoidlarning bo`lishi aniqlangan. Shuningdek ular xlorofill, xloroplastlar va boshqa pigmentlarning bo`lishidir. Ba`zi olimlar yuksak o`simliklarning qadimgi ajdodlari deb hozirda bir muncha taraqqiy etgan qo`ng`ir suvo`tlarini ham keltirib o`tadi, lekin uni tasdiqlovchi, dalillar hozircha yetarli emas.

Yer sharining umumiy maydoni 510 mln. km² bo`lsa, shundan 149 mln. km² quruqlik, 361 mln. km² suv muhitiga tug`ri keladi. Suv va quruqlikda hayvonlarning 1,5 mln. dan, o`simliklarning esa 500 mingdan ortiq turlari tarqalgan. Shulardan 200 minggi tuban o`simliklar, 300 minggi yuksak o`simliklardir. Demak, yuksak o`simliklar turlar sonining ko`pligi bilan birga, ularni turli xil geografik va ekologik muhitlarda eng issiq, sernam tropik hududlardan boshlab iqlimi sovuq bo`lgan joylarda ham uchratish mumkin. Bulardan tashqari tekislikdan tortib to tog` va yaylov mintaqalarigacha

tarqalgan. Yuksak o'simliklar asosan quruqlikda yashashga moslashgan. Ularning ayrim turlari suv muhitida ham yashaydi.

Xulosa: Yuksak o'simliklar — evolyutsion taraqqiyot natijasida murakkab morfologik tuzilishga ega bo'lgan, tanasi poya va bargga differensiyalangan o'simliklar. Ularda ko'p hujayrali murtak (embirion) hosil bo'ladi. Yuksak o'simliklarga xos belgilardan biri jinsiy (gametofit) va jinssiz (sporofit) nasllarning gallanishidir. Yuksak o'simliklar 3000 ga yaqin turdan iborat 9 bo'limni o'z ichiga oladi. Bularga: riniotoifalar zosterofilitoifalar, yo'sintoifalar, plauntoifalar, psilotoifalar, qirqbo'g'imtoifalar, qirqquloqtoifalar, qarag'aytoifalar, magnoliyatoifalar kiradi. Yuksak o'simliklar tanasining murakkab tuzilganligi, yerda o'sishga moslashganligi, jinsiy va jinssiz ko'payishi bilan tuban o'simliklardan farq qiladi. Yuksak o'simliklar sporofitida ko'p hujayrali sporangiylar hosil bo'lib, ularda harakatsiz sporalar yetishadi. Gametofitshxa jinsiy organlar paydo bo'ladi. Sporofit, odatda, barg, poya va ildizga bo'lingan. Ko'pincha Yuksak o'simliklarda o'tkazuvchi to'qima — ksilema va floema rivojlangan. Epidermis, kutikula va bargida og'izchalar bo'lishi Yuksak o'simliklar uchun xos. Yuksak o'simliklar birorta dengiz suvo'tlaridan kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Yuksak o'simliklarning qazilma qoldiqlari silur davridan ma'lum

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sahobiddinov S. S. , O'simliklar sistematikasi " O'qituvchi" 1976
2. BurginI. A. , Jonguzarov F. X. Botanika. Toshkent. " O'qituvchi" 1977
3. Jukovisky P. M. Botanika M. , 1982
4. Sag'iboyev G. "Ekologiya asoslari".1995 yil
5. Erofeev B.V. "O'zbekiston Respublikasining ekologiya qonuni", Almati 1995 y.
6. Brinchuk M.M. "Atrof-muhitni zaharli moddalar bilan ifloslanishdan huquqiy muhofaza qilish", 1990 yil
7. Buchholz S. E., D. E. Eveleigh. Genetic modification of Zymomonas

mobilis. Biotechnol. Adv. 1990. #8. -P.547-581

8. Ekologiya: Kognitiv entsiklopediya / L. Yaxnina tomonidan ingliz tilidan tarjima qilingan. M.: TIME-LIFE, 1994 yil.

9. Golub A., Strukova E. O'tish davri iqtisodiyotida ekologik faoliyat / Iqtisodiy masalalar, 1995. No 1.

10. Dunyoda atrof-muhit va barqaror rivojlanish. BMTTD Qozog'iston nashrlari to'plami. Olmaota, No UNDPKAZ 06, 2004 y

11. Shokamanov Yu., Makajanova A. Jahonda inson taraqqiyoti. BMTTD Jahon. Seminar. Olmaota. S-Print.2006

12 Shalinskiy A.M. "Atrof-muhitning ifloslanishi va O'zbekistonning ekologik siyosati" 2002 yil.

13. S. M. Mustafayev Botanika Toshkeny. "O'zbekiston" 2002

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN
SAMARALI FOYDALANISH**

Jo'raqulova Yulduz Jalolovna

Rahimova Madina Davronovna

Hamroyeva Hulkar Amonovna

Buxoro viloyati Kogon tumanidagi 10-maktabning

boshlang'ich sinf o'qituvchilari

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarni samarali qo'llash, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va foydalari haqida so'z yuritiladi

KALIT SO'ZLAR: zamonaviy texnologiyalar, intellektual qobiliyat, elektron qo'llanmalar, "Microsoft PowerPoint", "sanashni o'rganamiz"

KIRISH

Bugungi kun o'qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan ham nafas bo'lib, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari, hurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirib borishlari talab etiladi.

Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan birisi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan

foydalanib dars o'tishda mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan. Bundan kelib chiqqan holda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi.

ASOSIY QISM

O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan. Darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, o'qitilayotgan fanni o'zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang'ich ta'limni o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, boshlang'ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o'tish tavsiya qilindi. Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Elektron qo'llanmalarning "Macromedia Flash", "GIF Animation", "Microsoft Front Page", "Adobe Fotoshop", "3D Max", "Microsoft PowerPoint" kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi qulaylik tug'dirmoqda. Chunki ular harakatli, rangli, ovozli tasvirlar yaratish imkonini beradi. Bu esa

boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavzuni tez tushunib olishga, o'zlashtirish sifatini oshishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. O'qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan:

✓ o'qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so'zlarni bir-biriga qo'shib o'qish, so'ngra kichik ertak va hikoyalarni o'qish, harflarni to'g'ri va chiroyli yozish;

✓ matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o'yinlar tashkil qilish;

✓ tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin.

Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o'quvchining og'zaki nutqini rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga turtki bo'ladi. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Bunga misol qilib, 4-sinf ona tili darslarida foydalanish uchun yaratilgan "Kelishiklar" mavzusidagi elektron taqdimotni aytish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi. Kitob.uz saytida 1-4 sinf o'quvchilari uchun deyarli barcha

fanlarning elektron darsliklari mavjud. Ammo ular matn va ovoz shaklida taqdim etilmagan. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko‘rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o‘zaro birgalikda qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan “Sanashni o‘rganamiz”, “Alifbo saboqlari”, “Aljabr”, “5x5”, kabi elektron dasturlar o‘zining qiziqarliligi, o‘quvchilar yoshiga mosligi, foydalanish uchun soddaligi, intellektual salohiyatni rivojlantirish, mantiqiy mushohada yuritishga chorlashi bilan ahamiyatlidir.

“Sanashni o‘rganamiz” – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematika fanidan elektron o‘quv vositasi. Mazkur elektron dars ishlanma orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4 amalni bajarish ko‘nikmasini hosil qilish bilan birgalikda kompyuterning “sichqoncha” qurilmasidan foydalanish ko‘nikmasi shakllantiriladi. “Alifbo saboqlari” - 1-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Alifbeni o‘rgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning afzallik tomoni shundaki, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish (harfni talaffuz qilish va yozish, o‘sha harf bilan boshlanuvchi narsalarning nomlarini o‘rganish)ga yordam beradi. Shuningdek, harflar o‘rganilgandan so‘ng, mustahkamlash maqsadida rasm beriladi. Berilgan katakchaga rasmdagi narsaning nomini qo‘yib yozish tushiriladi. Shu yerda o‘quvchining kompyuter orqali yozuv malakalari shakllantirilib boriladi, test bilan ishlashga ham o‘rgatiladi. “Aljabr” - 1-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo‘ljallangan dastur hisoblanadi. Dastur orqali o‘quvchilar 10 ichida raqamlashni, tartiblashni, qo‘shish va ayirish amallarini bajarishni, taqqoslashni o‘rganadilar. Dastur o‘quvchiga og‘zaki misol yechishning avtomatik darajada o‘zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“5x5” - 2-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, karrali jadvalni o‘rgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning takrorlash qismida kompyuterning o‘zi tartib bilan 2 dan boshlab 9 gacha karrali jadvalni

o'rgatadi. Imtihon qismida esa o'quvchi mustaqil ravishda jadvalni ishlab chiqadi. Shunisi e'tiborliki, bir xonani bajarmasdan turib, ikkinchisiga o'tmasligi o'quvchini o'z ustida ishlashiga majbur etadi. Dasturni o'qituvchi uchun haqiqiy yordamchi desak bo'ladi. Chunki, sinfnig 30- 40% o'quvchisi karrali jadvalni o'rganishida qiyinchilikka duch keladi. Dastur o'sha o'quvchilarga karrali jadvalning avtomatik darajada o'rganishlarini kafolatlaydi.

XULOSA

Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llay olishi, o'quvchilarni komyuterdan erkin foydalanishga, zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma'nan yetuk shaxs bo'lib yetishiga o'rgatishdan iborat

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.

2. Qayumova N.A. O'qitishning axborot-ta'lim tizimi sharoiti va unda axborot kommunikatsiya texnologiyalari soxasi o'qituvchilarini tayyorlash. Monografiya-T.: "Fan va texnologiya", 2015. 192 b

3. Bakieva X., va b. "Savodga o'rgatish darslari". O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma 1-sinf.-T.: "Extremum-press", 2014. - 119 s.

4. BEST PRACTICE Today's Standards for Teaching and Learning in America's Schools Third Edition. Steven Zemelman, Harvey Daniels, and Arthur Hyde

MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI

Abduaxadova Dilnavoz Abdumajid qizi

*Toshkent viloyati Parkent tumani , 5-sonli maktabgacha
ta'lim tashkiloti tarbiyachisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqmizning ko'xna tarixi, boy merosiga ega shonli o'tmishi haqida so'z yuritilib, insoniyatning ma'naviy rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan ikki uyg'onish davriga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: global o'zgarishlar, yangicha talab, qadriyatlar, globallashuv, milliy uyg'onish.

Bugun dunyoda shiddat bilan kechayotgan global o'zgarishlar, jahon xalqlari va hayotiga daxldor bo'lib, turfa xil qarashlarni vujudga keltirmoqda. Insoniyat tamom-ila o'zgacha muhit, yangicha talab va xavf-xatarlar kuchaygan bir sharoitda yashashga to'g'ri kelmoqda. Bu kabi holatda uzoq vaqt davomida sinovdan o'tgan va hayotning turli qiyinchiliklarida toblangan har qaysi xalq va millat birligi, hamjihatligini yanada oshirib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan yurtimizdagi boy moddiy va madaniy meroslarning mavjudligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanganligi, shuningdek nomlari bashariat svilizatsiyasi tarixiga abadiy bitilgan olim-u fuzallolarni yetishtirgan bu ko'xna zamin azal-azaldan insoniyat tamaddunining beshigi bo'lib kelgan.

Markaziy Osiyo xalqlari o'tgan ming yillar mobaynida xitoy, yunon, arab, mug'ul, rus istilochilari tomonidan zabt etilgan. Istilochilar xilma-xil bo'lsa ham ularning maqsadi o'xshash, ya'ni ko'xna madaniyat va ma'naviyatga ega bo'lgan tub aholini milliy qadriyatlardan begonalashtirish, o'zligini anglashga yo'l qo'ymaslik, tarixini soxtalashtirishdan iborat edi. Shu bois, bizning hududimizdagi biron bir ko'xna shahrimiz, katta – kichik

daryomiz, baland – past tog'imiz yo'qki, u bir necha nom bilan atalmasin. Bu istilochilarning manfur siyosati, o'z xalqining tili va madaniyatini ustun qilib ko'rsatish, mahalliy xalqning tarixi va ma'naviyatini kamsitib, soxtalashtirib yoki inkor etish oqibati edi.

Xalqni o'z ma'naviyati va madaniyatidan judo qilib, xotirasiz manqurtlarga aylantirish, so'nggi qariyb bir yarim asr mobaynida chorizm va bolshevizm mustamlakachilarining ham bosh siyosati bo'lib kelganligi hammaga a'yon. Mazkur siyosat oqibatida biz tilimiz, madaniyatimiz, tariximizga bepisandlik bilan qaradik, o'tmishimizni zo'r berib qoralash va kamsitish yo'lini tutdik, bir necha ming yillik madaniy merosimizni, milliy tariximiz, milliy an'analar, urf odatlarimizni unuta boshladik, jahon xalqlari madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan islom ta'limotini ko'r- ko'rona inkor etdik. Dindorlar ma'naviy taxqirlandi, ularning huquqlari cheklab qo'yildi, bayramlar oyoqosti qilindi, tariximiz bir tomonlama va yuzaki o'rganildi.

Mustaqillik tufayli ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi. Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda, lekin shuni alohida qayd etishimiz kerakki, milliy o'z o'zini anglash, o'zbekchilik — millatchilik degan ma'noni bildirmaydi. Milliy uyg'onish, milliy g'urur, milliy tuyg'uning tiklanishi — bu milliy rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tabiiy qonuniy jarayondir.

Ota-bobolarimizdan bizga qoldirilgan boy ma'naviy merosni avaylab asrab, uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faolligini oshirish - mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir.

Hech bir xalq o'z o'zini anglamasdan milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini avaylab, asrab saqlamasdan turib boshqa xalqlarning

qadriyatlariga hurmat - izzat bilan qaray olmaydi. Shuning uchun milliy qadriyatlarning tiklanishi, umuminsoniy qadriyatlar sari rivojlanishning yakka-yu yagona yo'lidir.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy etishiga shu kadar keng imkoniyat ochiladi. Bu hayotiy haqiqatdir. Muxtasar qilib aytganda, milliy tiklanish millat taraqqiyoti tarixining birinchi bosqichida ma'lum bir obyektib va subyektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qayta millat taraqqiyotiga yo'naltirish bilan bog'liq jarayondir.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarmizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining yuksalishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi va tadqiq etilishi, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan bog'liqdir. Tafakkurning o'zgarishi va yuksalishi o'z navbatida milliy g'oyaning xalqmiz ongi va qalbidan qanchalik chuqur joy olayotganligi bilan o'z o'lchanadi.

O'zbekiston – ulkan tabiiy zahiralar, iqtisodiy va insoniy salohiyatga boy mamlakat. Shuning uchun milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari borishda iqtisodiyotni, butun mamlakatni innovatsion asosda rivojlantirish muhim rol uynaydi.

Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir. O'rta asrlar oralig'ida yurtimiz xududidan yetishib chiqqan ulug' alloma va mutafakkirlar jahon ilm-faniga, butun insoniyat tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g'oyaning

ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan.

Xulosa qilib aytganda, o'z oldiga ulug'vor maqsadlar qo'yib, innovatsion taraqqiyot yo'lga chiqqan O'zbekiston milliy taraqqiyot manzili sari yangi bosqichga qadam qo'ydi. Bugungi kunda yurtimizdagi tub o'zgarishlar, faol konstruktiv yangilanishlar jamiyatimiz hayoti, odamlarning ongu tafakkuri o'zgarishiga xizmat qilmoqda. Zotan , murakkab va serqirra jarayon bo'lmish hayot suratlarning tezlashishi har bir kishidan mustaqil fikirlash, mustahkam irodali bo'lish hamda qat'iy faol fuqarolik pozitsiyasini egallashni talab qilmoqda. Milliy yuksalish har bir fuqaroning shaxsiy rivojlanishi, ularning turmush-tarzi yaxshilanishi bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Ergashev, O.Muhammadiyeva, S.Berdiqulova, M.Safarov, Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari,©"MASHHUR-PRESS" 2018, 67-bet.
2. J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev, Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik.- Toshkent:2018,188-bet.
3. Orif Ayupov, Dunyo Siyosat Jamiyat, " Ziyo" -2019-191-193 b.
4. R.X. Ruziyeva , Milliy g'oya rivojida qadriyatlar tizimi, Toshkent-2020, 25,26-betlar.
5. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 1-tom 52-bet.

6. Турсунов, О. Б. (2022). Транспорт Инфратузилмасининг Назарий Асослари.

7. Турсунов, О. Б. (2022). Транспорт инфратузилмасининг мазмуни, таркиби ва минтақа иқтисодий ривожланишига таъсири. *so 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 1(2), 190-196.

8. Рахимова, К. Н., Турсунов, О., Мирзаев, Р. Б., Ахмадалиева, М. К., & Кодиров, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА «ЯШИЛ МОЛИЯ» ТИЗИМИНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 90-96.

9. Badalovich, T. O. (2022). Legal and institutional basis of development of transport services and transport infrastructure during the coronavirus pandemic. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(09), 55-61.

10. Badalovich, T. O. (2022). Indicators representing the level of provision of transport services and infrastructure of the region. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(09), 123-127.

11. Турсунов, О. Б. (2022). Иқтисодиётни эркинлаштириш даврида транспорт хизматлари ва инфратузилмасининг ривожланиш тенденциялари ва худудий хусусиятлари. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 196-204.

IMPORTANCE OF READING

Umirzokhova Fazilat Shavkat Kizi

*STUDENT OF KATTAKURGAN BRANCH OF SAMARKAND STATE
UNIVERSITY*

Annotatsiya: Ushbu maqola insonlarga o'qish mahoratlarini rivojlantirish, samarali o'rganish va o'z ustida ishlashni o'rgatishga qaratilgan. O'qish so'z boyligini kengaytirishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi. Ko'pchilik insonlar IELTS imtihonida yuqori bal olish mahoratini o'qish orqali o'rganadi. O'qish mahorati insonlar uchun juda muhim hisoblanadi, chunki u matnlarni oson tushunishga, turli uslublar bilan ishlashga va eng muhimi, IELTS imtihonidagi jummalarni to'g'ri ishlatishni o'rganishga yordam beradi. O'qish o'quvchilarning so'z boyligini va til ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar qanchalik ko'p o'qisa, shuncha ko'p so'z o'rganadilar. Ular bu yangi so'zlarni o'rganganliklari sababli, berilgan matnga qarab so'zlarning ma'nosini aniqlay oladi. Shuningdek, o'qish orqali gaplarning tuzilishi va undagi so'zlardan so'zlardan qanday foydalanishni bilib olish mumkin. Bundan tashqari, o'qish stressni kamaytiradi va dam olishni ta'minlaydi. U boshqa hikoyalar dunyosiga qochish va kundalik stresslardan qochish imkonini beradi. Shuningdek, o'qish aqliy jihatdan chiroqlarning nurlari va kompyuter yoki televizorlarning haddan tashqari baland shovqinidan qutulish imkonini beradi. O'qish faoliyati tinchlikda va tezlikda bajariladigan faoliyat.

Kalit so'zlar: O'qish malakasi, lug'at, matn, gap tuzilishi, skanerlash, ko'zdan kechirish, sarlavha, mazmun, sarlavha, tasnif, atoqli otlar, struktura, qism, umumiy ko'rinish, yo'naltirilgan amaliyot, tartib, paragraph, level, texnika.

Annotation: This article focuses on teaching students how to develop reading skills, study effectively, and work on themselves. Reading is one of the best way to expand vocabulary. Most people learn reading skill in order to get

high score in IELTS exam. Reading is considered as important for people the reason why it helps them to understand texts easily, working with different styles and the most importantly enables them to learn how to use different sentences accurately in IELTS exam. Reading improves learners' vocabulary and language skills. The more they read, the more they learn new words. As they learn these new words, they can identify them based on the context of material. They can also learn about sentence structure through reading, which can help improve their writing skills. In addition, it reduces stress and offers relaxation. Reading offers an escape into other story worlds and away from daily stressors. It also offers an escape from the mentally overstimulation of flashing lights and noise of the computer or television. It is an activity that can be done in silence and at pupil' own peace

Key words: Reading skill, vocabulary, context, sentence structure, scanning, skimming, title, contents, heading, classification, system, proper nouns, structure, passage, overview, guided practice, procedure, paragraph, level, technique.

Аннотация: Данная статья посвящена обучению студентов тому, как развивать навыки чтения, эффективно учиться и работать над собой. Чтение-один из лучших способов расширить словарный запас. Большинство людей учатся читать, чтобы получить высокой балл на экзамене ИЕЛТС. Чтение считается важным для людей, потому что оно помогает им понимать тексты, работать с разными стилями и, самое главное, позволяет им научиться правильно использовать разные предложения на экзамене ИЕЛТС. Чтение улучшает словарный запас учащихся и языковые навыки. Чем больше они читают, тем больше узнают новых слов. Когда они узнают эти новые слова, они могут идентифицировать их в зависимости контекста материала. Они также могут узнать о структуре предложения посредством чтения, что может помочь улучшить их навыки письма. Кроме того, он снижает стресс и предлагает расслабление. Чтение предлагает побег в другие миры историй

и подальше от ежедневных стрессов. Он также предлагает избавление от умственной чрезмерной стимуляции мигающими огнями и шумом компьютера или телевизора. Это деятельность. Которую можно выполнять и в собственном темпе учеников.

Ключевые слова: Навик чтения, словарный запас, контекст, структура предложения, просмотр, белгый просмотр, название, содержание, заголовок, классификация, система, имена собственные, структура, отрывок, обзор, управляемая практика, процедура, абзац, уровень, техника.

Firstly, reading activity is “ a complex cognitive process of decoding symbols in order to construct or derive meaning (reading comprehension). It is a means of language acquisition, of communication, and of sharing information and ideas”. A person may read in order to gain information or verify existing knowledge, to critique a writer’s ideas or writing style. A person may also read for enjoyment, or to enhance knowledge of the language being read.

Reading activity is one of the most important ways of learning, as it is connected with literacy and civilizational development as well. Especially, it is also essential to read to young children because their reading skills are extensive to their success in school and work. In addition, reading can be a fun and imaginative activity for children, which opens up all kinds of imaginary worlds. Also reading and writing are great ways we use language to communicate. Knowledge is the food for the mind and soul. It encourages pupils to think and helps to make greater their hunger for erudition and thirst to learn more.

Reading has been a great source of knowledge at all times. Today the ability to read is highly valued and very important for social and economic advancement. Knowledge and education are learned, understood by reading and different skills, competences are formed by reading. In ancient times, when people did not know how to read or write, their minds were not as developed as nowadays. Over time, this problem had been solved to a certain extent when

reading and writing appeared. Fortunately, people not only read, but also want to read more and more and catch up with the events taking place around them.

The most common importances of reading from a young are the following:

it is important for a child to look at books every day;

all the family should be involved in sharig books and chidren's reading;

reading to a child for a short time every day from infancy helps prepare a child to learn. They are never too young;

during the early years your child is remembering word patterns and learning the language of books;

shared enjoyment in reading between a parent and child deepens the child's interest in the world of stories and onformation and supports them learning to read;

promotes and teaches them key literacy skills and promotes early language development.

Finding time to read every night can be hard sometimes though. Children have soccer practice, dance practice, or family obligations. The list is endless when it come to reasons we cannot find " find time to read". There is one essential thing to remember though: there is always time to read. It may be 5 minutes in line at the drive-through, or 10 minutes while waiting to pick up pupils' sibling from practice: but we can always find some time to read. The following statistics show us why this is important. As we can see, reading 20 minutes a night is important in becoming a strong reader. We must make time for I and make it a priority.

Appendix

Skimming and scanning are reading techniques that use rapid eye movement and keywords to move quickly through text for slightly different

purposes. Skimming is reading rapidly in order to get a general overview of the material. Scanning is reading rapidly in order to find specific facts.

Guided practice is interactive instruction between the teacher and students. After the teacher introduces new learning, he/she begins the student practice process by engaging students in a similar task to what they will complete later in the lesson independently.

Overview is a short description of something that provides general information about it, but no details.

Procedure is the plan for how you will conduct your experiment.

A paragraph is a series of sentences that are organized and coherent, and are all related to a single topic.

A technique is a particular method of doing an activity, usually a method that involves practical

Used literatures:

1. Hurontario St Mississauga The importance of the habit of reading for IELTS candidates 500p 119-120

2. @wikipidea

3. Djaber Nacer Bouhedjam Importance of Reading Activity in Education

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kommunikativ faoliyatiga
rivojlantiruvchi texnologiyalarning ta'siri**

Abduraimova Saboxat Mamaraimovna

GulDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilarning kommunikativ faoliyatiga va maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya olayotgan bolalarga hozirgi zamonda rivojlanib borayotgan texnologiyalar ta'siri.

Kalit so'zlar: “Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturi”, qiziquvchanlik xususiyati, kompyuter o'yinlari, psixologik-pedagogik ta'sirlar, kompyuter savodxonligi, axloqiy madaniyatini shakllantirish.

YUNISEF tashkilotining “Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturi”da MTMlarining ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan.

MTM bolalarida kompyuter savodxonligini shakllantirish, ularni kompyuter bilan elementar tarzda muomala qilishga o'rgatish va maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqea va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo'ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishni yoqtiradilar.

Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

- 1) ekranda ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animasiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turishida;
- 2) tovushda;
- 3) musiqada;

- 4) animatsiyada;
- 5) multifikatsiyada.

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli" psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni MTMLarda samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. MTMLarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda q'shimcha vositalar – kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lim-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan, tarbiyachi A harfini an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita). Multimedia vositasida ko'rsatilganda A harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti. MTMLari ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTM tarbiyachilarining o'zlari tayyorlashi mumkin bo'lgan dasturli va rolly multimedia vositalarini (DVD-disk) qo'llash mumkin. DVD video diski multimedaning texnik vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega. Diskdan foydalanib, o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la, ba'zi

hollarda alohida elementlarini ko‘rish mumkin, zarur bo‘lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo‘ladi. Multimedia texnologiyasining didaktik vositalari ta‘limning didaktik talablariga to‘la mos keladi.

MTMlarida multimediali kompyuterli ta‘limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta‘minlashdan iborat.

Tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirishdan asosiy maqsad ta‘lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda kompyuterdan foydalanishga qaratilgani sababli, tarbiyachi o‘zining nazorati ostida "Sichqoncha" yordamida turli ta‘lim o‘yinlarini, matematik amallarni, ekologik topshiriqlarni va shularga o‘xshash vazifalarni bajartirishga o‘tadi. Tarbiyalanuvchilar "Sichqoncha"dan foydalanish bo‘yicha to‘la amaliy malaka va ko‘nikma hosil qilganlaridan so‘ng mustaqil ish bajara boshlaydilar. Bu holda ham tarbiyachi ularning ishini doimiy kuzatib turadi.

MTM tarbiyalanuvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirishning yana bir qulay tomoni shundan iboratki, multimedia texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilimini baholash ham kompyuter xotirasiga kiritilgan test savollari, rasmlar, o‘yinlar, mashqlar, taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Bu holda tarbiyalanuvchilar berilgan savollarga to‘g‘ri javob topishlari shart.

Xulosa qilib aytganda, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilanganidek: “Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta‘sirchan mehanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorlarni andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruchi kuchidir” deyiladi.

Ma‘lumki, maktabgacha ta‘limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan

kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozasidir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko'ra, tarbiyachi mashg'ulotlarda turli o'quv pedagogik dasturlardan, elektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalansa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi, bilimni ixtiyoriy qabul qilish orqali ijobiy natijaga erishadi. MTMLarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, 80-90 % bolalar kompyuter o'yinlarini o'ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki, yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi o'yinlar, mashg'ulotlar, rangli tasvirdagi chizmalarni ko'rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish mumkin ekan. Ushbu maqolada mazkur masalalarga oydinlik kiritildi va uning nazariy jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.HUSANBOYEVA, HAZRATQULOV, BERD ALIYEVA
“MAKTABGACHA TA'LIMDA BADIY MATN BILAN ISHLASH
METODIKASI”
- 2.“UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYANING ROLI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIYKONFERENSIYANING TASHKILY VA DASTURIY QO'MITASI

**O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHILAR
TAYYORGARLIGI VA SPORT AMALYOTIDAGI MUAMMOLAR**

O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va Sport Unversiteti

1-bosqich Magistranti

Sapayeva Asaljon Mirza qizi

Yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan yetuk bo'lib o'sishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada qabul qilingan qonunlar jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga keng yo'l ochib bermoqda. Sportchilarimiz Osiyo va Jaxon arenalarida yurtimiz bayrog'ini yuqori ko'tarib kelishmoqdalar. Yildan-yilga jismoniy tarbiya va sport sohasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilmoqda, sport turlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va texnikasi hamda o'rgatish uslubiyatlari takomillashmoqda. Boshqa sport turlari qatorida yengil atletikaning bosqon uloqtirish turi ham ancha rivojlanishga ega bo'ldi. Harakatga inson faoliyatining ma'lum usullari sifatida qarash kerak. Masalan, o'quv mashg'ulot guruhining bosqon uloqtirish mashg'ulotlaridagi o'quv faoliyati, ta'lim muassasalari dasturida nazarda tutilgan harakatlar tizimini o'zlashtirishdan tarkib topadi. Yuqori razryadli sportchilar mashg'ulotidagi vazifalar ham boshlang'ich mashg'ulot vazifalaridan iborat, lekin har jihatdan yuqoriroq darajada bo'ladi. Mashg'ulot rejaları yuguruvchilarning shaxsiy xususiyatlari aniqroq nazarda tutib tuziladi; sport natijalarining o'sishi yilma-yil emas, balki mashg'ulotdagi alohida davrlarga mo'ljallab rejalashtiriladi. Odatda haftada 5-6 ta mashg'ulotlari o'tkaziladi. Agarda dastlabki ixtisoslashgan mashg'ulotlar nazarda tutilsa, mashg'ulotlarning soni 10-12 martagacha oshadi. M.Olimov fikricha yuqori razryadli o'rta masofaga yuguruvchilar mashg'ulot yuklamasini ancha katta hajmda bajaradilar. Buning uchun har qaysi mashg'ulotning hajmi

va shu mashg'ulotlarning soni oshiriladi. Ayrim sportchilar bir kunda bemaolol 2 marta mashg'ulot qiladilar. Sportchilarning bir yilda yugurib o'tadigan masofalar yig'indisi hajmi: 800 m ga yuguruvchilarda o'rtacha 1500-2500 km; 1500 m ga yuguruvchilarda 2000-3000 km. Yugurib o'tadigan masofalarning umumiy miqdoridan 30-35 foizi musobaqa tezligida yoki oshiriladigan tezlikda yugurib o'tishlari mumkin. sportchining texnikasi jismoniy sifatlarning rivojlanishi darajasiga, ya'ni kuch, tezkrolik, egiluvchanlik va boshqalarga bevosita bog'liq. Yuguruvchilarning texnik tayyorgarlik darajasi uning harakatlarining samaradorligi va tejamkorligi bilan aniqlanadi. Yugurish texnikasini tahlil qilish asosida, harakatlanish birligi sifatida ikki qadam qo'yish yoki stikl qabul qilinadi. Har bir stikl ikkita tayanch (chap va o'ng oyoq yordamida) davri va ikkita uchish fazalaridan tashkil topadi. Yugurish davomida ichki va tashqi kuchlarning (tashqi kuchlarga muhitning qarshiligi, og'irlik kuchi va tayanch reakstiyasi kiritiladi) o'zaro ta'sirlashishlari natijasida yuguruvchining tanasi doimiy ravishda vertikal va gorizontal yo'nalishdagi tebranishlarni his qiladi. Bundan tashqari, yuguruvchining vazifalaridan biri – harakatlarning to'g'ri chiziqchilikini ta'minlashga qaratiladi, bunda tananing yonga va gorizontal yo'nalishda haddan ziyod tebranishlaridan qochish talab qilinadi. Yaxshi yugurish texnikasi sifatida shunday yugurishni ko'rsatish mumkinki, ya'ni bunda barcha harakatlanishlar samarali ko'rinishga ega bo'lishi, silliq va hotirjam holatda bo'lishi, oldinga intilishning hech qanday keskin tarzdagi shiddatli zo'riqishlarsiz, to'g'ri chiziq bo'ylab amalga oshirilishi qayd qilinadi. Bu holatga sezilarli darajada tizzadan bukilgan oyoqda o'tirish orqali erishiladi. Bunda oyoq kafti oyoq barmoqlarining asosi oldingi qismiga bosiladi va navbatdagi holatda butun oyoq kafti va barmoqlar birgalikda pasaytiriladi. Oyoq kaftlari iloji boricha to'g'ri chiziq bo'ylab qo'yilib, ular tashqariga aylanishlarsiz holatda joylashtiriladi, bunda yonlama tebranishlar sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin. Oldinga samarali tarzda harakatlanish uchun itarilish vaqtida barcha bo'g'imlar bo'yicha oqning to'liq rostlanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu holat erkin holatda oyoqning oldinga – yuqoriga siltanishi bilan

amalgamaga oshiriladi. Bu holatda son ushbu yugurish turi uchun chegaraviy darajadagi balandlikkacha ko'tariladi. Yugurish masofasi qanchlik uzoq bo'lsa, sonning ko'tarilishi balandligi qiymati shunchalik darajada pastroq bo'lishi talab qilinadi. Boldir sohasi bo'shashgan holatda bo'lishi ta'minlanadi. Yurish mashg'ulot vositasi sifatida ishlatilmaydi. Bir me'yorda yurish ham (tayyorlov davrida) yangi boshlanganlardagiga nisbatan kamroq bo'ladi. Malakali yuguruvchilar buning o'rniga o'zgaruvchan tezlikda yugurishni ma'qul ko'radilar. Haftalik sikllarni rejalashtirishda maxsus chidamlilikni o'stiradigan va tezlikni oshiradigan mashqlarni bir kunga qo'yish har doim ham yaxshi natija bermaydi. Mashg'ulot sharoitlari xilma-xil bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak, chunki mashg'ulot yuklamalari va mashg'ulot joyi har doim bir hil bo'laversa, yuguruvchi tezroq charchab qoladi. Yuguruvchining mashg'ulot yuklamasi asta-sekin orta borishi lozim. M.Olimov, F.P.Suslov, N.T.To'xtaboyev, N.Ozolin goh katta yuklamali mashg'ulot o'tkazilib, goho kichik yoki o'rta yuklamali mashg'ulot o'tkazilib turishning foydasi ko'proq bo'ladi. 2-3 hafta zo'r berib mashg'ulot qilgandan keyin, bir hafta kamroq yuklama bilan shug'ullanish yomon bo'lmaydi. Yuqori razryadli yuguruvchilar mashg'uloti o'tkaziladigan yer yumshoq bo'lishi, sport massaji, xilma-xil gigiyena tadbirlarining alohida ahamiyati bor. N.G.Ozolin fikriga ko'ra mashg'ulotlarni yakka tartibda ham, guruh bo'lib ham o'tkazsa bo'laveradi. Lekin guruh bo'lib shug'ullanish afzalroq hisoblaydi. Yuguruvchilarning musobaqalarda ishtirok etishining alohida ahamiyati bor. N.G.Ozolin fikricha o'rta masofaga yuguruvchilar necha marta startga chiqishilari lozim ekanligini ko'rsatgan:

a) 800-1500 m ga yuguruvchilar qishda - 3-4 marta, yozda – 15-20 marta;

b) undan qisqaroq masofalarga yuguruvchilar qishda – 2, yozda -10-12 marta.

Yuguruvchi mashg'ulotning barchi davrlarida 30-50 daq. davom etadigan ixtisoslashgan mashqlarni qo'llab turishi kerak. Mashqlardan sekin

yugurish, o'zgaruvchan tezlik bilan yugurish, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar va maxsus mashqlardan foydalanishni tavsiya etadi. Tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun quyidagi nazorat mashqlar natijasi ham hisobga olinadi:

1. Turgan joyidan uzunlikka yoki yuqoriga sakrash.
2. Turgan joyidan oyoqdan oyoqqa xatlab o'n marta sakrash.
3. Shtangani siltab ko'tarish.

Bu mashqlarni qanday bajarganiga qarab, yuguruvchining kuch jihatdan tayyorgarlik darajasi bilinadi. Yuguruvchining tezlik sifatini quyidagi mashqlardan foydalansa bo'ladi: 1. Startdan va start oldidan 100 m ga yugurish.

2. 400 m ga yugurish.

Maxsus chidamlilik to'g'risida quyidagi masofalarni qanday yugurib o'tganiga qarab fikr yuritish mumkin:

1. 600 m (800 m ga yuguruvchilar uchun).

2. 1200 m (1500 m ga yuguruvchilar uchun) nazorat mashqi hisoblanadi.

Musobaqalashuv davrining ikkinchi yarmida keskin va mas'uliyatli musobaqalar o'tkaziladi. Shuning uchun bu vaqtda haftalik mashg'ulot rejasi bir necha xilga o'zgarishi mumkin. Haftalik mashg'ulotlarning soni 3-4 martagacha kamaytiriladi. Tehnika takomillashtirish uchun yugurish deyarli o'tkazilmaydi. Maxsus yugurish mashqlari faqat URM vaqtida bajariladi. Bir haftadagi mashg'ulot kunlari sonini kamaytirmasdan sportchining mashg'ulot yuklamasini pasaytirish mumkin. Buning uchun mashg'ulot hajmi kamaytiriladi. Lekin mashg'ulot jadalligi aslicha qoladi. Yuklamani pasaytirish yuguruvchining kuchini to'liq tiklash va markaziy asab tizimining ish qobiliyatini oshirish uchun zarur. Bunda yuguruvchida yana ham "tetik tortib", musobaqaga qatnashish istagi paydo bo'lishi kerak. Mas'uliyatli musobaqalar davrida o'rta masofaga yuguruvchilar mashg'ulotining namunaviy rejasi (haftalik siklda). (8,45) Tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lgan o'rta masofaga yuguruvchilarning umumiy chidamliligini oshirish uchun yugurish masofalari 20-30 km gacha yetishi mumkin. Bunda tezlik katta bo'lmasligi kerak, albatta. Bunday mashg'ulotlar haftada 3 marta, eng kuchli stayerlarda esa tayyorlov davrining 3-

5 oyi davomida haftada 6-7 marta o'tkaziladi (Har kuni 20-30 km masofaga sekin va o'rta tezlikda yugurib, yugurish davomiyligini esa sekin asta oshira borish natijasida, o'rta masofalarga yuguradigan malakali yuguruvchilar uchun, umumiy chidamlilikni rivojlantirish tayyorlov davrining ikkinchi oyiga yaqin. Maxsus bazaviy tayyorgarlikka o'tish kerak. Yugurishni umumiy hajmi – haftasiga 130-160 km ni tashkil etadi. Bunday yugurish 3-4 davomida o'tkaziladi, undan ortiq bo'lgan mashg'ulotga o'tiladi). Umumiy yaidamlilik asosan tayyorlov davrida rivojlantiriladi, musobaqa davrida esa faqat saqlab boriladi. Umumiy chidamlilik o'rta masofaga yuguruvchilarning umumiy ish qobiliyati va ularning sog'lik darajasini belg'tlash bilan xizmat qiladi. (49, 56)O'rta masofaga yuguruvchilarning umumiy va maxsus chidamliligini rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos farq metodikada qo'llaniladi. U avvalo organlardagi, tizimlardagi va butun organizmdagi yugurish jadalligi va yugurish qancha davom etishiga bog'liq fiziologik xususiyatlar bilan belgilanadi. Bunda kislorodga bo'lgan talabning uni iste'mol qilinishiga nisbatini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Ma'lumki, organizmning va ayniqsa bosh miya asab to'qimalarining ish qobiliyatini kislorod bilan ta'minlanishga bog'liq. Kislorod yetishmasa (ayniqsa uzoq davom etadigan ish paytida), ish qobiliyati kamayib ketadi. Shuning uchun ham organizmni kislorod bilan ta'minlaydigan nafas olish va yurak-qontomir tizimlarining faoliyati bilan ifodalanadi. Mashg'ulot metodikasi ko'p jihatdan mana shu tizimlarni takomillashtirishga qaratilgandir. Fiziologlarning fikricha, tez yuruvchilar bilan o'rta masofalarga yuguruvchilarning maxsus chidamliligi ko'p jihatdan organizmning uzoq vaqtgacha kislorodga bo'lgan talab va uni iste'mol qilishda muvozanat saqlay olish imkoniyati ("turg'unlik holati") bilan belgilanadi. Bu yurish, o'rta masofalarga yugurish vaqtida kislorod iste'mol qilish, tomir urish tezligi, qonning minutlik hajmi uzoq vaqt davomida bir hil darajada saqlanishida ham ko'rinadi. Mana shunday "turg'unlik holati"ga qaramasdan, charchoq asta-sekin orta borib, sportchi masofani qattiq charchoq alomatlari bilan tugallaydi. Buning sabablari ko'p, lekin asosiy sabab bosh miyadagi yurish va yugurishni belgilab

beradigan asab to'qimalari faoliyatining vaqtincha susayishidir. Tabiiyki, sportchi yugurishni o'z imkoniyatidan ortiq tezlik bilan boshlasa, charchash tez sodir bo'lib. U tezlikni kamaytirishga yoki yugurishni to'xtatishga majbur bo'ladi. Bunda kislorodga bo'lgan talab iste'mol qilinayotganidan ortib ketadida, muskullargina emas, balki bosh miyaning asab to'qimalari ham kislorod bilan yetarli ta'minlanmaydi. Bu esa sportchining ish qobiliyatini susayishiga olib keladi. O'rta masofalarni yaxshi natijalar bilan yugurib o'tish uchun, sportchi nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarining funksional imkoniyatini oshirish kerak. Buning uchun mashg'ulot paytida organizmga ko'proq talab qo'yish va harakat tezligini oshirish natijasida kislorodga bo'lgan talab ortiqroq bo'lganda nisbatan "turg'un holat"ni qolishga erishish zarur. Bunday mashg'ulotga avvalo sportchi ayni vaqtda butun masofa oxirigacha hech kamaytirmay yeta oladigan tezlikka nisbatan 3-4 % ortiqroq tezlikda yugurishni kiritish kerak. Albatta, sportchi bunday tezlik bilan musobaqada yugurib o'tiladigan masofaning xammasini emas, balki bir qismini o'ta oladi. Shuning uchun mashg'ulotda tegishli organ va tizimlarga kuchliroq ta'sir ko'rsatish uchun, jadalligi ko'proq, lekin davom etadigan vaqti kamroq bo'lgan vositalarni takrorlamoq kerak. Bunday jadalroq ishning takror ta'sir ettirish metodlari harxil bo'lishi mumkin. Tayyorgarligi yaxshi o'rta masofaga yuguruvchilar uchun o'zgaruvchan metod foydaliroq. Bunda katta tezlikda qilishni takrorlash aktiv dam olish bilan (atlet kichik tezlikda harakat qilishni davom ettiradi) galma-gal almashtirilib turiladi (o'zgaruvchan metod chet ellarda interval metod sifatida ma'lum). Boshlang'ich davrda aktiv dam olish 1,5-2 daqiqa bo'lishi mumkin. Keyinchalik bu intervalni kamaytirish va unga aniq rioya qilish muhimdir. Bunday yugurishda kuch kelish to'lqinsimon harakterda ekani jami bo'lib, katta hajmdagi ishni yuqori jadallik bilan bajarishga imkon beradi (shiddati oshirilgan yugurishning oxirida pul'sning urish tezligi 3 marta ortadi) va ayni vaqtda yurak-qon tomir, nafas olish tizimlarining va sportchi ish qobiliyatini va harakterini belgilab beradigan asab to'qimalarining ish qobiliyatini ancha oshiradi. Chunki qisqa vaqt nisbiy dam olish paytida yurak-qon tomir va nafas

olish tizimlarining ish darajasi oz miqdorda kamayadi (Pulsning urish tezligi ikki martagacha sekinlashadi). Shunday qilib bu tizimlar yuqori funksional darajada musobaqadagidan ko‘ra ko‘proq ishlagan bo‘ladi. Shuning bilan birga sekin harakat qilish intervallarida markaziy asab tizimi yetarli dam oladi, bu esa yugurishni yuqori tezlikda ko‘p marta takrorlashga, yetarli ish qobiliyatini saqlab qolishga imkon beradi. O‘zgaruvchan metodning ijobiy ta‘sirining siri shundaki, unda yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari ishlashning to‘lqinsimonligi kam. Markaziy asab tizimi faoliyatining to‘lqinsimonligi ko‘p bo‘ladi. Maxsus chidamlilikni rivojlantirish uchun, o‘rta masofaga yuguruvchilar qo‘llaydigan yana bir metod – takrorlash metodidir. Sportchi 15-20 daqiqa dam olib takror yugurganda musobaqadagi masofalarga qaraganda qisqa masofalarni bosib o‘tadi. Bunda yugurib o‘tish tezligi musobaqadagiga qaraganda yuqori bo‘ladi. Takror yugurganda kislorod yetishmasligi yaqol kuzatiladi. Demak, organizmga kattaroq talablar qo‘yiladi, organizm esa bunga javoban organlar va tizimlarni takomillashtiriladi, keyin ish qobiliyatini ham oshiradi. O‘zgaruvchan va takroriy metod bilan organizmga yuqori talab qo‘yish asosida erishilgan mashq ko‘rganlik darajasi jadalligi kamroq ishni uzoqroq va osonroq bajara olishga imkon beradi. Lekin faqat shu ikki metod bilan o‘rta masofaga yuguruvchining maxsus chidamliligini to‘la rivoj ettirib bo‘lmaydi. U boshqacha, tezroq sur‘at bilan harakatlanishi ham zarur. Qariyb butun masofa davomida turg‘un holat saqlanib qolishi kerak . Buning uchun mashg‘ulotda nazorat metodidan, ya‘ni musobaqadagi masofadan bir chorak yoki beshdan biricha kam masofani musobaqa tezligida yugurib o‘tish metodidan foydalaniladi. Keyin musobaqada kerak bo‘ladigan tezlik bilan yuguriladigan masofaning uzoqligi sekin-asta ortib boradi-da, nihoyat, chamalab ko‘rishlar musobaqa masofalardagi chamalash mashqlarini qo‘llab boriladi, musobaqada esa to‘la bosib o‘tiladi. Nechog‘lik “turg‘un holat” bo‘lmasin, o‘rta masofaga yuguruvchi ko‘p o‘tmay charchoq asta-sekin ortayotganini seza boshlaydi. Lekin yuguruvchining irodasi, qiyin bo‘lsa ham, sur‘atni pasaytirmasdan, ba‘zan esa yana tezroq sur‘at bilan harakat qilishga intilishi charchoqqa qarshi

kurashning kuchli vositasi bo'lib. Sportda muvaffaqiyat qozonishning garovi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham maxsus chidamlilikning rivojlantirishda qiyinchiliklarni yengish uchun irodali bo'lishi, charchoq sekin-asta ortib borayotganda mashqni davom ettira bilishni o'rganish o'ra masofaga yuguruvchi uchun muhimdir. Bunga avvalo musobaqaga nisbatan uzoqroq davom etadigan, ammo kam jadalroq ish bajarish bilan erishiladi (surat metodi). Shu bilan birga asosiy masofaning $\frac{3}{4}$ - $\frac{4}{5}$ qismini musobaqa tezligida yoki undan sal ortiqroq tezlikda yugurib o'tish tavsiya qilinadi (nazorat metodi). Ammo sportchini uzoq yugurish vaqtida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarga bardosh bera olishga, bu qiyinchiliklarni iroda kuchi bilan yengishga o'g'gatishning eng yaxshi yo'li musobaqalarda ishtirok etishdir. O'rta masofalarga yugurish dastlabki 1-2 daqiqa ichida kislorod iste'mol qilinishi keskin ortishi bilan harakterlanadi (musobaqalarda bu start oldi razminkasida ortirilib olinadi). Ko'p o'tmay bu eng yuqori darajaga yetib, ozgina vaqt davomida o'zgarmay turadi. Lekin kislorod iste'mol qilishning miqdorining bunday turg'unlik holati organizm kislorod iste'mol qilishi nihoyasiga taqalib. Bundan ortiq iste'mol qilishning iloji bo'lmagani natijasidir. Shunday qilib, o'rta masofaga yugurishda kislorodga bo'lgan talab uni iste'mol qilish darajasidan ortadi (fiziologik nihoyaga yetgan bo'lsa ham), ya'ni kislorod qarzi hosil qilinadi. Yugurish tezligi qancha yuqori bo'lsa, qarz shuncha ko'payib, charchoq tezroq boshlanadi. Kislorod yetishmasligi bunga nisbatan eng sezgir bo'lgani uchun, birinchi galda markaziy nerv tizimiga salbiy ta'sir qiladi. Bosh miya qobig'ining tegishli markazlari kislorod sal yetishmay qolguday bo'lsa ham seziladi, bu faoliyatni o'zgartiradi va takomillashtiradi. Shuning uchun ham o'rta masofalarga yugurish mashg'ulotlari prosessida sportchinig yurak-qontomir va nafas olish tizimlarining faoliyati mustahkamlanib va yaxshilanibgina qolmasdan, balki modda almashinish prosessi takomillashadi. Kislorod iste'mol qilish koyeffisiyenti yaxshilanadi. Sportchi ataylab kattaroq tezlikda yugurib, organizm uchun yangi funksional qiyinchiliklar tug'diradi va organizmni talabga nisbatan kam kislorodga qanoat qilishga, lekin bor kisloroddan samaraliroq

foydalanishga o'rgatadi. Bundan tashqarib mashg'ulot paytida, kislorodni iste'mol qilish nihoyasidan ham ortib ketadi. O'rta masofalarga yuguruvchilarning asosiy vazifasi – maxsus chidamlilikni yaxshilash, shunga moslab organ va tizimlarni rivojlantirib. Ular funsiyalarini takomillashtirishdan, shuningdek, organizmni kisloroddan tejamli va samarali foydalanishga o'rgatishdir (kerakli darajadagi suratni topib olish, texnika va taktikani takomillashtirish, tezlik “zahirasi”ni oshirishdan iborat). Bunga esa qisqartirilgan masofaga musobaqada ko'rsatmoqchi bo'lgan tezlikdan ortiq tezlikda yugurishni takrorlash bilan erishiladi. Bunday takror yugurishlarda ancha ko'p “kislorod qarzi” hosil bo'ladi, organ va tizimlarga talab ortadi. Yetarli darajada uzoq vaqt mashg'ulot qilib yurgandan keyin, yugurish tezligi yuqori bo'lishi natijasida paydo bo'ladigan keskin charchay boshlashga qarshi kurash qobiliyatini o'stirgan yuguruvchi, mashg'ulotdagidan uzoqroq davom etsa ham, jadalligi kamroq ishni osonroq bajaradi. Tajribada ko'rilishicha, agar yugurish tezligi musobaqadagidan yuqori bo'lsa, o'zgaruvchan yurish 800-1500 m ga yugurish mashg'ulotida ham foydali ekan. Lekin o'rta masofaga yugurishda maxsus chidamlilikni oshirish uchun takroriy usul (masalan, 800 m ga yuguvchilar odatda 400 600 m ga yugurishni, 1500 m ga yuguruvchilar esa 800-1000 m ga yugurishni takrorlaydilar) qo'llaydilar. Takror yugurishlar o'rtasida 15-20 daqiqa dam olgan ma'qul, bu keyingi takror yugurishlarni ham yuqori tezlikda bajarish uchun kerak bo'ladi. O'rta masofalarga yuguruvchilar yugurish vaqtida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarga bardosh berishni o'rganishlari, iroda fazilatlarini tarbiyalashlari ham lozimdir(47,53).

REFERENCES

1. Abdukhamidov, R. N. (2021). IMPROVING PSYCHOPHYSIOLOGICAL TRAINING OF TEENAGE BOXERS WITH THE HELP OF IMPROVISED MEANS OF GAMES. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

2. Абдухамидов, Р. Н. (2021). САМАРАЛИ ВОСИТА ВА УСУЛЛАР ЁРДАМИДА ЎСМИР БОКСЧИЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).

3. Халмухамедов, Р. Д., Абдухамидов, Р. Н., Каримов, Ш. Қ., & Усмонхўжаев, С. Т. (2021).

**CUSTOMS AND TRADITIONS, SPORTS AND RECREATIONS OF THE
UK**

Kholmuminova Shakhrizoda Kholmumin kizi

Student of Samarkand State University (Kattakurgan branch)

Sattarova Feruza Rustam kizi

Assistant-teacher of Samarkand State University (Kattakurgan branch)

Annotation: This article describes the traditions and customs of Great Britain, which is considered one of the powerful countries with a very long and rich history, as well as great sports that are recognized in the world arena. Great Britain's values are very wonderful and strange, some are very funny and some are ancient. British people respect and follow their history, values and traditions very much.

Key words: *tradition, custom, respect, recognize, value, follow*

Annotatsiya: Ushbu maqolada juda katta va boy tarixga ega bo'lgan qudratli davlatlarda biri hisoblanadigan Buyuk Britaniyaning urf odatlari ananalari hamda jahon arenalarida tan olinayotgan buyuk sporti haqida bayon qilingan. Buyuk Britaniyaning qadryatlari juda ham ajoyib va g'aroyib ayrimlari juda kulguli ayrimlari qadimiy. Britaniyaliklar o'z tarixini qadryatlarini hamda urf odatlarini juda ham hurmat qilishadi va unga amal qilishadi.

Kalit soʻzlar: *urf-odat, an`ana, hurmat, tan olish, qadrlash, amal qilish*

Great Britain is such a wonderful city. England has a long and rich history. This place has its own customs and traditions. This country has come a long way before it got the name Great Britain. Currently, it is among the developed countries. Britain is a very modern city, where people work only for their future, aspire and of course achieve it. The government attaches great importance to education, culture and of course sports. Sport in the United Kingdom plays an important role in British culture. In the infancy of many sports, the Home Nations, England, Scotland, Wales, and Ireland formed among

the earliest separate governing bodies, national teams and domestic league competitions. After 1922, some sports formed separate bodies for Northern Ireland, though many continued to be organised on an all-Ireland basis. In a small number of sports, these teams are supplemented by high-profile events, featuring a combined team representing one or more nations. The most notable examples of such arrangements are the British and Irish Lions in rugby union, the Walker Cup golf team and Great Britain at the Olympics in relation to sports ordinarily organised on a home nations basis. Overall, association football attracts the most viewers and money, though the nation is notable for the diversity of its sporting interests, especially at the elite level. Great Britain has a special affinity with Olympic Sport as the only nation to win at least one gold medal at every Summer Games, and with Paralympics sport as the birthplace of the modern Paralympics movement in 1948. Major individual sports include athletics, cycling, motorsport, and horse racing. Tennis is the highest profile sport for the two weeks of the Wimbledon Championships, but otherwise struggles to hold its own in the country of its birth. Snooker and darts, too, enjoy period profile boosts in line with the holding of their largest events. Many other sports are also played and followed to a lesser degree. There is much debate over which sport has the most active participants with swimming, athletics, and cycling all found to have wider active participation than association football in the 2010 Sport England Active People survey.

British culture is influenced by a united history of nations; its historical Christian religious life, its interaction with European cultures, the traditions of England, Wales, Scotland and Ireland, and the influence of the British Empire. Although British culture is a distinct entity, the cultures of England, Scotland, Wales and Northern Ireland are diverse, with varying degrees of similarity and identity. British culture customs are so wonderful, some are strange, some are traditional, famous and great. I fell in love with British culture. All the funny, weird and unique traditions that this country celebrates and remembers are

worth sharing with the world. I will now explain to you some of the wonderful customs and traditions of Britain.

Cheese rolling is an unusual British tradition that involves a ball of Double Gloucester cheese and a crowd that is willing to chase it for fun. It takes place on Cooper's Hill in Gloucestershire, England, with a slope so steep the participants have no choice but to stumble their way down to the finish line where, hopefully, the cheese awaits. The cheese rolling event takes place every Spring Bank Holiday Monday of the year.

Morris Dancing. This type of dance is typically performed on specific occasions and seasons such as early summer for Oxfordshire and during Christmas and New Year for Yorkshire. However, Morris Dancing can still be performed in other instances.

Pub culture. The pub culture in the UK is an integral part of British culture. The term pub is a short term for "public house." True to its word origin, a British pub is a place in the neighborhood where people gather for drinks and discussions after the daily grind.

Afternoon Tea is probably one of the quintessentially British things to partake, afternoon tea has become a socially acceptable and rather a delightful excuse to meet people for 'some grub' from 2 until 4 o'clock in the afternoon. The common afternoon tea comprises select teas, traditional scones, simple sandwiches and petite cakes. Complementing the pastries is clotted cream and fruit jams, amongst others.

The Queen's Speech or in a lengthier title the Speech from the Throne, is a speech made by the reigning monarch at the state opening of the Parliament. Here, the queen addresses the legislature and speaks about the government agenda. The speech is usually penned by the monarch's advisors, with the queen having the final decision on its contents.

Boxing day is the day after Christmas, December 26th. It is counted as an official bank holiday in the UK and Ireland. A lot has been thought of to have birthed such unusual British tradition and celebration, one of which is the idea

that this day is allotted for gift-giving to the less fortunate or – simply put – people not of equal ranking. There have been instances that the queen will not be able to deliver her speech for some reason. In the United Kingdom, the reigning monarch can freely choose a delegate to represent her through the speech.

The UK has a rich culture that is influential not only in Britain but also in the international scene. Britain has its own customs, traditions, holidays and way of life. Knowing and appreciating the British culture will give you a deeper and meaningful sense of Britishness on how we do things around the British Isles. It is undeniable that British traditions and celebrations make this little nation worth visiting to experience the true British vibes. British country and British culture is amazing.

APPENDIX

Custom-a traditional and widely accepted way of behaving or doing something that is specific to a particular society, place, or time.

Supplement-a thing added to something else in order to complete or enhance it.

Attached-joined, fastened, or connected to something.

Legislature-the legislative body of a country or state.

Quintessential-representing the most perfect or typical example of a quality or class.

Complement--a thing that contributes extra features to something else in such a way as to improve or emphasize its quality.

USED LITERATURES:

1. .”*British Folklore, MYTHS, Legends*” Mark Alexander. 2002
2. “*Political Traditions and UK Politics*” Honorary Fellow, POLSIS,
University of Birmingham, UK. 2011
3. ” *Sport in the UK*” Leone Trimble, Babatunde Buraimo, Clint
Godfrey, David Grecic, Sue Minten. 2010
4. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Sport_in_the_United_Kingdom
5. [https://everythingzany.com/british-culture-traditions-and-
celebrations-in-the-uk/](https://everythingzany.com/british-culture-traditions-and-celebrations-in-the-uk/)

UCH YOSH INQIROZI

SOLIYEVA KOMILA G'AYRAT QIZI

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uch yosh inqirozi sabablari, oqibatlarini, bolada bo'ladigan o'zgarishlar va krizisga yechimlar ochib berilgan.

Tayanch tushunchalar: Inqiroz, negativizm, o'jarlik, o'zboshimchalik, agressivlik.

Аннотация: В данной статье раскрываются причины, последствия, изменения в ребенке и пути выхода из кризиса.

Основные понятия: Кризис, негативизм, упрямство, самоуправство, агрессивность.

Abstract: This article reveals the causes, consequences, changes in the child and solutions to the crisis.

Basic concepts: Crisis, negativism, stubbornness, arbitrariness, aggressiveness.

Inqiroz-bolaning ma'lum bir rivojlanish bosqichidan boshqa bir yangi bosqichga o'tish oralig'ida vujudga keluvchi omil. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, ushbu holat 2 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan vaqt oralig'ida davom etishi bilan bir qatorda, bir necha hafta yoxud 2-2,5 yil bola psixikasini qamrab oladi. Albatta, bu farzandimizning asab tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Bola 3 yoshga qadam qo'yganida undagi eng muhim sifatlar: fe'l-atvori, atrof-muhitga, o'zgalarga bo'lgan munosabati, xulqi, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi farzandimiz ongida qarama-qarshiliklar kurashi asosida namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning hissiyotlari nihoyatda kuchli bo'ladi, ammo ularda shu hissiyotlarini nazorat qilish, boshqarish ko'nikmasi hali shakllanmagan bo'ladi. Agar farzandingizni qandaydir hissiyot qamrab olsa yoki biron narsaga nisbatan

xohish paydo bo'lsa, u shu istagiga erishmaguniga qadar tinchlana olmaydi. Masalan, bolangiz chanqadi va u sizning oldingizga kelguniga qadar sariq stakanda sut ichishni tasavvur qilib keladi, lekin siz unga oq stakanda sharbat quyib berdingiz. Mana shu paytda bolaning hissiyotlari jumbushga keladi va o'zini nomunosib tuta boshlaydi.

Bu tabiiy holat va bolaning ruhiy rivojlanishi uchun juda ham zarurdir. Bolada krizis 1 yoshda, 3 yoshda, 7 yoshda va o'smirlilikda bo'ladi. 3 yoshli bolalardagi krizis paytida nima qilish kerakligini hamma ota-onalar ham bilavermaydi. Xo'sh, bu krizisning belgilari qanday?

1. Negativizm. Ya'ni farzandingiz hamma narsaga negativ reaksiya qiladi, hattoki o'zi yaxshi ko'rgan taomni taklif qilsangiz ham rad javobini eshitishingiz mumkin.

2. O'jarlik. Farzandingiz o'z aytganida oxirigacha turib oladi. Salqin kunda yupqa kiyim kiyish uchun yoki siz xohlamagan biror ishni qilish uchun jon-jahdi bilan kurashishi mumkin. Bu o'jarlikni qat'iylik bilan aralastirmasligimiz kerak. Qat'iylik yaxshi xulq, ya'ni qat'iyatli bola o'z xohlaganini talab qilishi bilan birga kattalarning fikrini inobatga oladi. O'jarlik esa shunchaki o'zi xohlagan narsa bo'lishini talab qilishdir, tushuntirishlar befoyda.

3. O'zboshimchalik. Bola hamma narsani o'zi bajarishga, o'zi hal qilishga mustaqil bo'lishga intiladi.

4. Agressivlik. Agar farzandingiz bog'chaga borsa, bolalar bilan urishishi, ularni xafa qilishi mumkin. Agar farzandingizni aka-opalari bo'lsa, ularni boshqarishga, aytganini qildirishga urinishi mumkin.

Krizisni boshidan kechirayotgan bola o'z harakatlaridan o'zi aziyat chekadi, lekin o'zini boshqara olmaydi. Bu davr uzoq davom etmaydi. Psixologlarning aksari bu bola rivojlanishi uchun zarur davr deb ta'kidlashadi. Chunki bu davrda bolalar o'z fikrlarini o'tkazishni o'rganishadi. Uzoq davom etmaydigan ushbu davrdan asablarimizni asragan holda, bola

ruhiyatiga zarar bermasdan o'tib olishimiz uchun quyidagilarga amal qilishni tavsiya etamiz:

1. Bu krizis aksar bolalarda uchraydigan **tabiiy holat ekanini tushuning**. Ya'ni, muloyim farzandingizning tarbiyasizligi yuragingizni g'ash qilmasin, farzandingizni to'g'ri yo'lga solaman deb juda ham qattiq qo'l bo'lmang, asabiylashmang, ularni qattiq jazolamang.

2. Farzandingiz **mustaqil nimadir qilishini qo'llab-quvvatlang** va bu ishi uchun uni maqtab qo'ying. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu davrda bola mustaqillikka o'rganadi. Shuning uchun farzandingiz qilmoqchi bo'lgan ishlarda imkon boricha, xavfsiz sharoit yaratib bering. **Natija siz xohlagandek bo'lmasa ham, ishiga aralashmaslikka harakat qiling**. Qayerdir ifloslanar, balki idishlar sinar, eng asosiysi, bola sog'ligi va xavfsizligidir.

3. **O'zingizni xotirjam tutishga** harakat qiling. Halovatingizni yo'qotganingizni ko'rgan farzandingiz sizga yoqmagan ishida davom etadi, agar siz imkoni boricha, uning qilgan ishlariga xotirjam munosabat bildirsangiz, bola ishini takrorlashga qiziqmaydi ham.

4. **Bolaga tanlash imkonini bering**. Bu davrda farzandingiz o'zi xohlaganini qilishga harakat qiladi, ba'zida qilmoqchi bo'lgan ishi imkonsiz bo'lishi ham mumkin. Bunday **hollarda tanlovni oldindan tayyorlab qo'yishingiz mumkin**. Masalan, qizingiz sovuq kunda bog'chaga yupqa ko'ylakchasini kiyishni xohlab qolmasligi uchun, 2 ta qalinroq kiyimni avvaldan tayyorlab qo'ying va undan qaysi birini kiyishni xohlashishini so'rang. Bu davrda **uning fikri bilan hisoblashishingiz** krizis davrini osonroq o'tishiga yordam beradi.

5. **Farzandingizni tinchlantirish yo'lini toping**. Bolalar xarakteri turlicha bo'lgani uchun bu borada umumiy maslahat berish qiyin. Shuning uchun farzandingiz g'alva qilgan vaqtda har xil usullarni sinab koring. Fikrni chalg'itish ham ko'p bolalarda yordam berishi mumkin. Masalan, qayergadir borishni xohlamagan farzandingizga – mehmonga qanday kiyim kiyib borishni xohlashi haqida tanlov berishingiz asosiy masaladan chalg'itishi mumkin. Yoki

qo'lini yuvishni xohlamaganida, qaysi sovun bilan yuvishni xohlashi kabi tanlovlar.

6. Yo'q deyishni ham biling. Yig'lab, o'jarlik qilayotgan bolaga odatda faqat jim bo'lishi uchun hamma narsaga ruxsat berib yuboramiz. Lekin, hatto krizis davrini boshidan kechirayotgan farzandimizga ham asosiy qoidalarni buzmasliklarida qat'iy turganimiz ma'qul, toki u yoshligidan oilaviy qoidalarimizni bilsin.

7. Farzandingizga ko'proq mehr va e'tibor bering. Bizning madaniyatda 3 yosh krizisi davri bolaning aka yoki opa bo'lgan davriga to'g'ri kelib qoladi, natijada ota-ona mehri va e'tibori yetishmasligi krizis davrini o'tishini sekinlashtiradi yoki bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar sizning tug'ruqdan keyingi depressiya davringiz katta farzandingiz krizis davriga to'g'ri kelsa, o'zingizni qo'lga olib, sokin bo'lishga harakat qiling.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Farzandingiz **o'jar va boshqarib bo'lmas yoki**, aksincha, o'zi **hech narsaga intilmaydigan bo'lib qolmasligi uchun uning fikri va xohishi ahamiyatli ekanini** ko'rsating. Kichkintoyning mustaqillikka bo'lgan harakatini baqirish, so'kish, urish orqali to'xtatishga harakat qilmang. Bu tarzda uning o'jarligini sindirmoqchi bo'lishingiz farzandingiz sizni eshitmay qo'yishiga yoki o'ziga ishonchi sinishiga olib kelishi mumkin. Bu o'tkinchi davr farzandingizning alohida shaxs sifatida rivojlanishining birinchi bosqichi. Ota-onalar bu davrda o'zlarini qo'lga olib, har qanday holatda ham ularni yaxshi ko'rishini amalda ko'rsatishi juda muhim deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv metodik qo'llanma. Toshkent, 2004.
2. Petrovskiy A.V.tahriri ostida. Yosh davrlari va pedagogik psixologiyasi Toshkent,1989.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik.1-2-kitob.Toshkent,
4. www.google.com

ILK BOLALIK DAVRI

QURBANAZAROVA DINORA MUZAFFAR QIZI

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada go‘daklik davridan so‘ng ilk bolalik davrida bolaning psixologiyasi, ong osti faoliyati, xatti-xarakatlari, nutq va taffakkurning rivojlanishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, senzitiv davr, idrok, tafakkur, “men” rivojlanish davri.

Аннотация: В данной статье раскрывается развитие детской психологии, подсознательной деятельности, поведения, речи и мышления в раннем детстве после младенчества.

Ключевые слова: Речь, сензитивный период, восприятие, мышление, период развития «Я».

Abstract: This article reveals the development of the child's psychology, subconscious activity, behavior, speech and thinking in early childhood after infancy.

Key words: Speech, sensitive period, perception, thinking, period of "I" development.

Go‘daklik davridan so‘ng rivojlanishning yangi davri ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola xayotidagi eng ahamiyatli, uning kelgusi psixologik rivojini belgilab beruvchi davr xisoblanadi. Bu rivojlanish asosini bolaning to‘g‘ri yurishini, muloqotga kirishini va predmetli faoliyatni egallagani tashkil etadi. Tikka va to‘g‘ri tik yura olish imkoni bolani doimiy ravishda yangi ma’lumotlarni egallashga olib keladi. Bu yoshdagi bola o‘z xatti-xarakatlari jixatdan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishish uchun intiluvchan bo‘ladi. 1-3 yosh bola shakllanishda psixik rivojlanishning nixoyatda ahamiyati kattaligini inobatga olgan xolda ayrim psixologlar inson tug‘ilganidan to etuklik davrigacha bo‘lgan psixik rivojining taxminan o‘rtalari

3 yoshga to'g'ri keladi degan muloxazani beradilar. Bu yoshdan boshlab bolalar predmetlarni o'rganish olamiga kadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo'la oladi va elementar axloq qoidalariga amal qila oladi. Kattalar bilan bo'ladigan muloqot orqali bola atrof xayot xaqida boshqa yo'nalishlarga qaraganda 10 xissa ko'proq ma'lumot oladi. Nutq bu yoshda nafaqat muloqot balki tafakkurning rivojlanishi va o'z-o'zini shuningdek, bilish jarayonlarni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ilk davridagi bolalarning yetakchi faoliyati predmetlarni o'rganish xisoblanadi. Go'daklik davridagi bolalarga nisbatan ilk bolalik davridagi bolalar narsalarga ko'proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar go'dak bola qo'lga ushlagan narsani oddiy xarakatlantirib ko'rsa, 2-3yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina o'z amaliy faoliyatida ishlatadi. Bolani avvalo shu predmetning ishlatish vazifasi qiziqtiradi va u o'z savoliga javob olish uchun ko'pincha kattalarga «Bu nima?» degan savolni beradi. Predmetli faoliyatga kirishishi bolaning turli layoqatlari va qo'l xarakatlarini rivojlantiradi. Bolaning nutqi u to 1,5 yoshga yetgungacha ancha sekin rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 so'zdan to 100 tagacha so'zni bila oladi, lekin ularni juda kam qo'llaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa uning nutqi jadal rivojlanadi. Endi u nafaqat predmetlarning nomini aytishlarini so'rabgina qolmay bu so'zlarni talaffuz etishga ham xarakat qiladi. Nutqning rivojlanish darajasi juda jadallashadi. 2 yoshning oxirlariga borib bola 300 tagacha, 3 yoshning oxirlagiga borib esa 500 dan to 1500 tagacha so'zni ishlata oladi. Shuningdek so'zlarni ham aniq talaffuz etib, jummlarni to'g'ri tuza oladilar.

Shuni aloxida ko'rsatish joizki 1,6-3 yosh bu nutq rivojlanishi uchun senzitiv davr xisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanish asosini idrok va tafakkur xarakatlarining yangi ko'rinishlari tashkil etadi. 1 yoshli bola xali predmetlarni ketma-ket, sistemali ravishda ko'rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok xarakatlarini egallanishi bolaning predmetli xarakatlarini bajarishdan ko'z bilan chamalab

xarakat qilishiga o'tishda namoyon bo'ladi endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 yoshli bola kattalarning bergan namunasi rangi, shakli va kattaligiga ko'ra aynan shunday predmetlarni chamalab idrok etgan xolda to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va shundan so'ngina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jaraenda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar borligini tushuna boshlaydi. Lekin bola rasm chizishni boshlaganida predmetlarni rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishiga 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, qovoq sariq, sariq yashil, ko'k, siexrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning ishlatilishi jixatidan turli xil narsalarda turlicha bo'lishi sababli bu yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan nomlarini aniq bilishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari noto'g'ri bo'lib, buning uchun mos davr bu 4-5 yosh xisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar so'zlardagi barcha tovushlarni idrok eta oladilar. Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va xarakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning funksiyasini anglatib bu predmet yoki xarakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funksiyalariga bog'lagan xolda tez o'zlashtiradi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni biz biron bir predmetni olishga xarakat qila olganidan so'ng esa uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari asosan ko'rgazmali xarakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola endi mustakil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni kaltak erdamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi. Umumlashtirishda nutq asos xisoblanadi. Masalan, soat deyilishi bola

qo'1 soati, osma soat, shuningdek budilnikni ham tushunishi kerak. Lekin ular turlicha bo'lgani sabab ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq xisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi. 2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb xisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan krovat yoki mashina o'rniga foydalanishi mumkin. Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini bilish bola atrof olamni bilishi, o'rganishidagi ahamiyatli burilish xisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea, hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qaxramonlarini kimgadir o'xshatishga xarakat qiladi, u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin. Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy funktsiya xisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi. Bolaning xayotiy tajribalarni o'zlashtirishida avvalo xarakatli, emotsional va obrazli xotira ishtirok etadi. Bu borada xarakatli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular uzun ertak va she'r hikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv sistemasining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof xayot xaqidagi voqea va xodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni xali to'liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

Bu davrdagi bolalar asosan o'z xatti xarakatlarini o'ylab o'tirmaydilar. Bu xatti-xarakatlar ularning xoxish va xissiyotlari asosida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning xatti-xarakatlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan: bolaning yiglashi ham, yig'idan to'xtashi ham juda oson. Ilk bolalik davrda bolada o'z yaqinlariga onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muxabbat

shakllanadi. Ilk bolalik davrida bu muxabbat boshqa shaklga o'tadi. Endi bola o'z yaqinlaridan maqtov, erkalash olishga xarakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-xarakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baxolari ularda o'ziga nisbatan o'z layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchni shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq xarakat qiladilar va atrof muxitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini ximoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kattalarning bola bilan qiladigan muomala munosabati uni o'zini aloxida shaxs sifatida anglashining boshlanishiga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab o'z «Men»ini anglay boshlashi vaqtliroq yoki bir muncha kechroq yuzaga kelishi mumkin deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do'stmuxammedova S.A "O'quvchilar o'quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi" Toshkent, 2000-yil
2. Nishonova Z.T. "Oliy maktab psixologiyasi" Toshkent, 2003-yil
3. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv metodik qo'llanma. Toshkent, 2004-yil
4. www.tdpu.uz
5. www.pedagog.uz

SIFAT SO‘Z TURKUMI

*Ibodullayeva Zubayda Sherzadovna,
Qadamova Sabina Dilshodbek Qizi
Urganch davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifat so‘z turkumining ma’no xususiyatlari, yasalishi va tahlil qilish tartibi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Asliy sifat, nisbiy sifat, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, morfologik usul, sintaktik usul.

Аннотация: В данной статье описываются семантические признаки, конструкция и порядок анализа прилагательного словосочетания.

Ключевые слова: Исходное качество, относительное качество, простая степень, сравнительная степень, аккретивная степень, морфологический метод, синтаксический метод.

Abstract: This article describes the semantic features, construction and analysis procedure of the adjective phrase.

Key words: Original quality, relative quality, simple degree, comparative degree, accretive degree, morphological method, syntactic method.

Predmetlaming belgi-xususiyati (rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, holati, vazni, hidi, o‘rin yoki vaqtga munosabati)ni ifodalaydigan so‘zlar turkumi sifat deyiladi. Sifatlar ot yoki fe‘lga bog‘lanib qanday?, qanaqa?, qaysi?, qachongi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi: yashil qalam, mitti yulduz, kunbotar tomon, kuzgi tufli, afsonaviy qush, tajang odam, yaxshi o‘qimoq, chiroyli yozmoq. Sifatlar gapda aniqlovchi, kesim, hol bo‘lib keladi: Uning moviy ko‘zlari onasi- Safurani eslatib turardi (F.Azimova). Non aziz, uning ushog‘i ham aziz (Maqol). Chaqmoq telpagini qiyshiq qo‘ndirib olgan (O‘.Hoshimov). Sifatlar otlashganda ko‘plik, egalik, kelishik qo‘shimchalarini

qabul qiladi va otning soʻroqlariga javob boʻladi, ot kabi sintaktik vazifalarni bajaradi. Masalan, ega: Egri ozadi, toʻgʻri oʻzadi (Maqol); toʻldiruvchi: Vafosizda hayo yoʻq, hayosizda vafo yoʻq (Maqol); qaratqich aniqlovchi: Yaxshining soʻzi - qaymoq, yomonning soʻzi – toʻqmoq (Maqol).

Sifatlar maʼno xususiyatiga koʻra ikki xil boʻladi: a) asliy sifatlar; v) nisbiy sifatlar. Predmet belgisini bevosita ifodalaydigan, belgini darajalab koʻrsata oladigan, -roq qoʻshimchasini erkin qabul qiladigan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: shirin qovun - shirinroq qovun - eng shirin qovun; katta baliq - kattaroq baliq - juda katta baliq. Predmet belgisini oʻrin yoki paytga nisbatlab, boshqa predmetga oʻxshatish orqali ifodalaydigan, -roq qoʻshimchasini qabul qilmaydigan sifatlar nisbiy sifatlar deyiladi: Nisbiy sifatlar -li, -iy (-viy), -simon, -uk, -gi (-ki, qi), -dagi qoʻshimchalari yordamida hosil qilinadi: mevali daraxt, tibbiy maʼlumotnoma, zamonaviy libos, sharsimon jism, margʻilonlik savdogar, yozgi yumush, qishki kiyim, tashqi hovli, uydagi gap. Nisbiy sifatlar belgini darajalab koʻrsatmaydi. Faqat -ili qoʻshimchasi bilan hosil qilingan nisbiy sifatlarda darajalab koʻrsatish xususiyati mavjud: kuchli - kuchliroq - juda kuchli, aqlli - aqlliroq - juda aqlli. Asliy sifatlarda belgining kuchaytirma va ozaytirma shakllari bor: yashil - yam-yashil, sariq - sap-sariq, qizil - qizgʻish, qora-qoramtir. Nisbiy sifatlarda bunday xususiyat yoʻq. Asliy sifatlarda modal maʼno ifodalanadi: yoshgina, ziyakkina, doʻmboqqina. Nisbiy sifatlarda bunday xususiyat yoʻq. Faqat qoʻshimchasi bilan hosil qilingan nisbiy sifatlardagina modal maʼnolami ifodalash imkoniyati mavjud: aqlligina, chiroyligina kabi. Asliy sifatlar feʼlga bogʻlana oladi: Qiyshiq oʻtirsang ham, toʻgʻri gapir (Maqol). Nisbiy sifatlar feʼlga birika olmaydi. Faqat -iy bilan hosil qilingan nisbiy sifatlar juda kam miqdordagi feʼllar bilan (masalan: zamonaviy kiyinmoq) birikishi mumkin.

Bir predmetdagi belgini boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajalari deyiladi. Sifatlarda uch xil daraja mavjud: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja. Oddiy daraja sifatleri bir predmetgagina xos belgini ifodalaydi. Ular belgini boshqa belgiga qiyoslamagan

holda anglatadi. Oddiy daraja sifatlarida hech qanday qo‘shimcha yoki yordamchi so‘z bo‘lmaydi. Masalan, katta hovli, chaqqon qiz, yashil durracha, qirmizi olma. Qiyosiy darajada bir predmetning belgisi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanadi. Qiyosiy daraja -roq qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi. Bu qo‘shimcha belgining ortiq yoki kamligini ko‘rsatadi. Masalan: Belgining ortiqligi: Alining kitobi Valining kitobidan qiziqroq. Oltin kumushdan og‘irroq. Belgining kamligi: Bu xona avvalgisidan ham kichikroq. Orttirma daraja shakli yordamchi so‘zlar vositasida hosil qilinadi va belgining me‘yordan ortiqligini ifodalaydi. Orttirma daraja ma‘nosini ifodalovchi yordamchi so‘zlarga quyidagilar kiradi: eng, juda, g‘oyat, g‘oyatda, bag‘oyat, o‘ta, benihoyat, nihoyat, nihoyatda kabilar.

Sifatlar morfologik va sintaktik usulda yasaladi. Morfologik usulda so‘z o‘zak, negiziga maxsus qo‘shimchalar qo‘shish orqali sifat yasaladi. O‘zbek tilida sifatlar quyidagi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi: -il ot, sifatdosh va ravishdoshlarga qo‘shilib, nisbiy sifat hosil qiladi: aqlli bola, qiziqarli kitob, yeyishli somsa. –siz, otlarga qo‘shiladi va undan anglashilgan ma‘noning mavjud emasligini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: tuzsiz taom, suvsiz quduq. –chan, ot, harakat nomi va ravishdoshlarga qo‘shilib, negiz anglatgan ma‘noning ortiqligini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: talabchan rahbar, ishchan kayfiyat. –chil, otlarga qo‘shilib, belgining ortiqligini anglatuvchi sifatlar hosil qiladi: izchil g‘oya, dardchil odam. -dek, -day, otga qo‘shilib, o‘xshatish ma‘nosini ifodalovchi sifat yasaydi: kundek, oyday, tog‘day. –mand, otga qo‘shilib, belgining ortiqligini ifodalovchi sifat yasaydi: davlatmand, ixlosmand. –simon, otga qo‘shilib, o‘xshashlik ma‘nosini ifodalovchi sifatlar yasaydi: tuxumsimon, odamsimon, sharsimon. Sifatning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, o‘zakdan oldin kelib, yangi ma‘noli sifat hosil qiladigan qo‘shimchalarga egaligidir. Ular quyidagilar: ser-, be-, ba-, no-. ser-, otga qo‘shilib, ortqlik ma‘nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: serunum, serfarzand. be-, otga qo‘shilib, mavjud emaslik ma‘nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: bexabar, besabr. ba-, otga qo‘shilib, belgining ortiqligini ifodalovchi sifat yasaydi:

badavlaty basavlat. no-, otga yoki sifatga qo'shib, negiz anglatgan belgiga ega emaslik ma'nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: noinsof, notinch. Sintaktik usul bilan qo'shma, murakkab va juft sifatlar yasaladi. Qo'shma sifatlar birdan ortiq so'z yoki so'z shakllaridan tarkib topib, bir urg'u bilan aytiladi va bir belgini ifodalaydi. Qo'shma sifat qismlari yozuvda qo'shib yoziladi: orombaxsh, rahmdil, tinchliksevar, tezoqar, ertapishar. Murakkab sifatlar bitta murakkab belgini ifodalaydigan, alohida urg'u bilan aytiladigan, birdan ortiq so'z yoki so'z shakllarining birikuvidan hosil bo'ladi. Ayrim murakkab sifat qismlari orasidagi munosabat o'ta zich bo'lmaganligi uchun, ularning o'rnini almashtirib qo'llash mumkin bo'ladi: oq ko'ngil- ko'ngli oq, sochi uzun-uzun sochli, ko'ngli tor-tor ko'ngilli. Juft sifatlar bir umumiy belgi ifodalovchi ikki sifatning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: ochiq-sochiq, qing'ir-qiyshiq, itzun-qisqa, yaxshi - yomon, kattayu kichik, sog'u salomat. Sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, murakkab, juft va takror holda qo'llanuvchi shakllarga ega. Sodda sifatlar bir o'zak morfemadan tuzilgan bo'ladi: go'zal, xunuk, sariq, yashil. Qo'shma sifatlar bir urg'u bilan aytiladigan ikki so'z shaklining qo'shilishidan hosil bo'ladi: ertapishar, sheryurak. Murakkab sifatlar alohida urg'u bilan aytiladigan, bitta murakkab belgini ifodalovchi ikki so'zning birikishidan hosil bo'ladi: to'q qizil, o'tkirzehnli. Juft va takror sifatlar bir umumiy belgi ifodalovchi ikki sifatning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: oq-qora, uzuq-yuluq, kattayu-kichik, pastu-baland, uzun-uzun, og'ir-og'ir, chuqur-chuqur. Sifatni tahlil qilish tartibi:

1. Ma'no turi.
2. Darajasi: oddiy, qiyosiy, orttirma.
3. Tuzilishiga ko'ra turi: sodda, qo'shma, murakkab, juft, takror.
4. Yasama sifatning yasalish usuli.
5. Qaysi so'z bilan bog'lanishi.
6. Gapdagi vazifasi. Masalan, Salima darslarini chala-chulpa tayyorlagan edi. Chala-chulpa—sifat, belgining me'yordan kamligi ma'nosini ifodalaydi, oddiy daraja, juft, chala-chulpa tayyorlamoq, gapda hol vazifasida kelgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sifatlar ma'no xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) asliy sifatlar; 2) nisbiy sifatlarga bo'linadi. Sifatlar gapda 6 tur bo'yicha tahlil qilinarkan. Sifatlar morfologik va sintaktik usulda yasaladi. Morfologik usulda so'z o'zak, negiziga maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali sifat yasaladi. Sintaktik usul bilan qo'shma, murakkab va juft sifatlar yasaladi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Niyozova R., Mavlonova K. Ona tili va adabiyot darslarini o'zarointegrallash. // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. –T.: 2016.
2. Nurmonova A., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylarning III bosqich talabalari uchun darslik) T.: 2011-yil
3. www.google.com

МЕДИА ТИЛИНИНГ ЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

АРЕПБАЕВА Н.М.

Қорақалпоқ давлат университети таянч докторанти

Илмий раҳбар: Оразимбетова З.Қ., филология фанлари доктори

Медиада тилидан фойдаланишнинг асосий хусусиятлари ҳақида гап кетганда, тадқиқотчилар оммавий коммуникациянинг замонавий нутқга таъсири жуда катта ва тизимли равишда синчковлик билан ўрганишни талаб қилади деб ҳисоблашади. Медиа тили тараққиётидаги принцип ва ҳодисаларни таҳлил этишда олимлар баҳоси бой манба бўлиб хизмат қилади. Медиа матнларида келтирилган маълумотлар асосида тадқиқотчилар ундаги ижтимоий ҳодиса қай даражада реал акс эттирилганлиги ҳақида тўғри хулоса чиқариши мумкин.

Миллий тилнинг ривожланишида медиа тилининг роли юқори даражада бўлиб, бу куйидаги жиҳатларни ўз ичига олади:

Биринчидан, жамият тараққиётига ҳисса қўшаётган янгилишларга медиа тили биринчи бўлиб муносабат билдиради, ваҳоланки бу янгилишлар шунчалик тезлашганидан билим хажми ҳар ўн йилда икки баробар ортиб боради.

Иккинчидан, медиа янги ҳодисалар, тушунчалар, номлар ва ҳ.к. ларни кенг фойдаланишга (тиражга) киритмаганда тараққиётнинг қандай боришини тасаввур қилиш қийин бўлар эди.

Учинчидан, аввало, медиа тили орқали тилнинг луғат бойлиги ортиб боради. Луғат бойлиги баъзан шу даражада тез ортиб борадикки, тилнинг ҳар бир грамматик тузилиши, маъжозий маънода айтганда, янги юкламаларга бардош бера олмайди ва бу ҳолат лексика ва грамматика ўртасида зиддиятларга олиб келиши мумкин.

Тўртинчидан, юқорида таъкидланганидек, тилни

демократлаштириш жараёнида (жамиятни демократлаштириш жараёни билан бирга келган ҳолда) унинг таркибига янги тушунчалар билан бирга янгича ахборот етказиш усули, тилдан фойдаланишдаги эркинликнинг ўзига хослигини тилнинг менталлиги билан боғлиқлиги кузатилади.

“Медиа тили” тушунчасининг контекстуал қўлланилишини таҳлил қилиш унинг учта энг кенг тарқалган жиҳатини ажратиб беради. Дарҳақиқат, ОАВ тилини ёзма ва аудиовизуал кодларини ўзида мужассам этган “аралаш турдаги белгилар тизими сифатида кўриб чиқиш, ўз навбатида тилининг ўзига хослигини аниқроқ аниқлаш имконини беради”.

Профессор Д.М.Тешабаева газета материаллари ёзма манба тариқасида ҳар қандай тилнинг ривожланишини ўрганиш, адабий тил имкониятларини, унинг бойлигини юзага чиқариш ва намоёниш этиш, ундан тарғибот-ташвиқот мақсадларида фойдаланиш ҳамда нутқ маданияти ва саводхонликни оширишда муҳим аҳамиятга эгаллигини таъкидлайди.

А.Абдусаидов газета тили ва услуби борасида қуйидаги фикрни билдирган: “ОАВ орасида газета информативлик (ахборот бериш), тарғибот, ташвиқот, тарбиявийлик, ташкилотчилик, реютмалилик, таъсирчанлик вазифаларини ўзига хослик билан бажаради. Бу вазифаларнинг самарадорлиги ва таъсирчанлигини ошириш учун оммавийлик, образлшшк, экспрессивлик, эмоционаллик, аниқлик, ихчамлик, услубий мувофиқлик каби мезонларга амал қилиш муҳим” [1].

Шуни таъкидлаш жоизки, замонавий медиа орасида газетанинг ўрни беқиесдир. Чунки газета матнлари албатта нутқ қоидаларига биноан яратилади. Албатта, бунда медиа нутқи ортида идиологик ғоя ётганини кўпчилик тадқиқотчилар томонидан тан олинади. Зеро, “Медиа ичида газета – янги сўз, термин, ибора, бирикмаларнинг энг сезгир кўзгусидир. У жамият ҳаётининг барча соҳаларида содир бўлаётган ўзгаришларни бошқа ҳар қандай воситалардан тезроқ акс эттиради ...газета жамоатчилик учун

қизиқарли бўлган ва тарбиявий аҳамиятга эга барча мавзулар ҳақида ёзади. Мақолалар мазмун- моҳиятини баҳолаш воситаларига бўлган эҳтиёж ҳам кам эмас, чунки бизда газета янгиликларни хабар қилишнинг ҳиссиз механизми эмас, балки жамият манфаатларини ифодаловчи нашр саналади. Айнан шу позициядан газета ўқувчига ахборот етказди, тарғибот-ташвиқот олиб боради” [2].

Ҳар бир халқ, ўз тилидан ўзича фойдаланади. Тил - маълумот бериш, нарсаларни номлашда алоқа воситасидир. Шу хусусиятига кўра у ўзида миллийликни акс эттиради. Турли миллатларда менталитет ва маданий анъаналарга кўра, сўз ва иборалар мулоқот мақсади ва ҳолатига қараб турлича қўлланилади, тушунилади ва коммуникатив мақсадга йўналганлик ноанъанавий тарзда англашилади. Бундан ташқари, муайян мамлакат, географик ҳудудга қараб аудиторияни ҳам ҳисобга олиш лозим. Турли миллат вакиллари билан мулоқотида исботлаш ҳамда ишонтиришнинг ўзига хосликлари бор.

Медиада тилдан фойдаланиш жамоанинг фаолиятида хулқ ва хатти-ҳаракатлар бирлигини акс эттиради. Миллат менталитети унинг вакиллари нутқида тил воситалари, ўзига хос усулларидан фойдаланиш орқали намоён бўлади.

Миллий жиҳатларнинг яқин узвий боғланиши ҳар бир халқнинг паремияларида ўзгача намоён бўлади. Бу боғланиш турини англаш доимо мураккаб, лекин қизиқ жараёндир, чунки у нафақат ҳар бир халқ учун ўзига хос бўлган анъаналарни, балки ўзаро таъсир натижасида паремияларнинг ғоявий мазмуни ва шаклининг ўзигагина хослигини белгилаб берган этнографик мажмуаларни ҳам ўрганишни талаб этади.

Адабиётлар рўйхати

1. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. д-ри... автореф. – Тошкент, 2005. – Б.
2. Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф. д-ри... дисс. – Тошкент, 2012.
3. Сафармахматова З.Н “Paremiology in media text as a means of expressiveness” EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) Peer Reviewed Journal. May, 2021

КУЛЬТУРА РЕЧИ И ЯЗЫКОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ

Пердебаева Ш.

*Магистрант Каракалпакского государственного
университети, кафедра Журналистика
Научный руководитель доктор филол.наук*

Оразымбетова З.К.

Культура речи является продуктом человеческого мышления и является важным признаком культурного развития общества и духовной зрелости народа. Сегодня, когда духовно-образовательные реформы объявлены приоритетным направлением государственной политики Узбекистана, вопросы культуры речи актуальны как никогда.

Литературный язык и связанные с ним проблемы, как и все области, постепенно находят свое решение. В частности, похвалы заслуживает работа и исследования наших лингвистов в решении вопросов, связанных с культурой речи. Яркими примерами исследований в этой области являются труды известного языковеда Н.Махмудова «Тил», «Маърифат манзиллари» и Н.Джумаходжи «Истиклол ва она тилимиз».

Каракалпакский народ имеет богатое наследие в области образования с давних времен и воспитал общечеловеческие качества, такие как человечность, смирение, трудолюбие, дружба, доброта, братство, уважение к старшим, уважение к детям. Образовательные труды восточных мыслителей также составляют основу этого богатого наследия. Произведение Юсуфа Хос Хаджиба «Кутудгу билик» («Знание, приносящее счастье») было замечательным памятником XII века. Книга Кайковуса «Кабуснама» может быть ярким примером нашего мнения.

В Законе «О государственном языке», Законе «Об образовании», «Национальной программе подготовки кадров» и других документах нашей республики особое внимание уделяется вопросам духовно-

просветительского воспитания и языка. Потому что любой специалист, прежде всего, должен быть знатоком родного языка. Язык, как и характер, входит в кровь человека и распространяется по его телу и душе, и пренебрежение им всегда вызывает большие трагедии.

Культура речи тесно связана с фонетикой, грамматикой, лексикологией, психологией, логикой, эстетикой, литературоведением и искусствоведением. Слово является одним из главных орудий говорящего, то есть в интеллектуальных конфликтах между говорящим и слушающим, в борьбе за судьбу других и, наконец, в достижении цели. А так же, зеркалом сокровищницы мысли и является для говорящего не только средством выражения мысли, но и главным фактором, активно выражающим предмет. Чем яснее и конкретнее значение слова, тем оно эффективнее и тем легче достичь намеченной цели. Именно поэтому от оратора и от тележурналиста требуется ответственно относиться к слову.

Придание каракалпакскому языку статуса государственного создало большие возможности для ведения государственных дел, образования, обучения, пропаганды в нашей республике на этом языке. Отношение к языку изменилось. Сейчас в больших масштабах ведется изучение всех его возможностей. Но следует помнить и о том, что, к сожалению, недостаточно развита речевая культура, которая является одним из факторов, определяющих уровень социальной функции языка. Поэтому более глубокое изучение области культуры речи считается одним из важных вопросов, стоящих перед нами.

Одним из политических и социальных вопросов, имеющих большое значение, является устранение недостатков в нашей речи, развитие речевой культуры. На этот вопрос должны обратить внимание не только лингвисты, но и представители всех специальностей и проживающих в нашей республике. Потому что, прежде всего, культура речи является составной частью общечеловеческой культуры и определяет высококультурность людей. Во-вторых, мы живем в такое время, когда

идеологическая борьба между социальными группами стала чрезвычайно острой. По этому требуется, чтобы язык, являющийся главным оружием идеологической борьбы, был острее.

Когда говорят о культуре речи, естественно возникает спор об употреблении уместных или неуместных слов, употребляемых в речи. Когда используемая языковая единица называется правильной или неправильной, то несомненно, что она основывается на определенной мере (критерии). Эта мера (критерий) называется нормам литературного языка в языкознании.

Так же, как каждый разговорный язык, каждый медиа текст имеет свои нормы, жаргоны, являющиеся особыми формами речи, также имеют свои нормы.

Конкретные нормы указаны следующим образом:

1. Диалектическая;
2. Норма разговорной речи;
3. Норма жаргонов;
4. Норма литературного языка.

В свою очередь, нормы литературного языка в медиа текстах, в том числе в текстах телепередачей классифицируются следующим образом:

1. Лексико-семантические;
2. Произносительный (орфоэпический);
3. Письменный (орфографический);
4. Фонетический;
5. Акцентологическая (правильное ударение);
6. Грамматическая (морфологическая, синтаксическая);
7. Правила словообразования;

Различают устную и письменную формы литературной нормы языка. Большой вклад в развитие устной литературной нормы внесли пародисты, юмористы, просвещенные народные поэты, а в формировании

письменной литературной нормы была несравнима заслуга письменной литературы.

Что касается нормализации литературного языка, то некоторые ученые считают, что добиться единого, единообразного произношения внутри литературного языка невозможно, что в литературном языке нет единой модели произношения. Такие комментарии напоминают мнение некоторых исследователей о том, что не существует единого направления (рецепта) культуры публичного выступления, конкретные условия определяют, каким будет выступление. Мышление таким образом однозначно односторонне и вредит работе по совершенствованию культуры устной речи.

Для того чтобы требовать от людей речевой культуры, то есть правильно говорить и писать, необходимо определить инструмент, который может быть образцом в устной и письменной речи. Таким инструментом является литературный язык. Невозможно представить речевую культуру без литературного языка. Литературный язык является критерием правильной устной и письменной культуры речи. Но литературный язык не возник откуда-то в готовом виде. По сути, это составная часть национальной культуры, культурный феномен. Именно поэтому языковеды, представляющие научную школу под названием «Пражский лингвистический кружок», называют культуру речи культурой языка, культурой литературного языка. Когда говорят о культуре речи, то понимают прежде всего культуру литературного языка.

Следует также подчеркнуть, что некоторые дефекты и ситуации в нормах литературного языка должны периодически пересматриваться и подвергаться научной оценке.

Итак, культура литературного языка включает в себя три концепта:

- 1) сознательная обработка (нормализация) литературного языка;
- 2) переработанное, т. е. окультуренное, состояние литературного языка;

3) критическая оценка и устранение некоторых негативных ситуаций в нормах культурно-литературного языка.

Из вышеизложенного становится ясно, что есть два явления:

1. Языковая культура, то есть культура литературного языка.
2. Культура речи, связанная с правильным употреблением культурного литературного языка.

Подводя итог, можно сказать, что культура речи – явление, требующее создания литературного языка и соблюдения языковых норм языка в речевой деятельности.

Литературы:

1. Скворцов Л.И. Теоретические основы культуры речи. – М.: Наука, 1980. – 352 с.
2. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.:1988. – 320 с.
3. Винокур Г.О. Культура языка. – М., 2006. – 249с.
4. Формановская Н.И. Речевой этикет в русском общении. Теория и практика. – М., 2009. – 160 с.

**ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКА В КАРАКАЛПАКСКОМ ПЕРИОДИЧЕСКОМ
ПЕЧАТЕ**

Оразымбетова Злиха Кдырбаевна

Нукус, Узбекистан

Состояние развития литературного языка на сегодняшний день находит большое отражение в печатных СМИ. Сохранение норм литературного языка, в том числе орфографических, лексических, грамматических и стилистических, наблюдаются в нынешнем газетном языке. Вместе с тем, язык печати обладает свойственными только ему отличительными особенностями:

1. Язык печатных СМИ – это один из видов публицистического стиля письменного литературного языка. Однако своей внешней формой он отличается от других функциональных стилей литературного языка.

2. Печатный язык – свободно функционирующее, энергично меняющееся лингвистическое явление, связанное с происходящими в обществе изменениями.

3. Язык печатных СМИ, помимо ряда родственных признаков в отношении к письменному литературному языку, имеет и некоторые нейтральные свойства. Это видно по разнообразным стилям и формам описания в материалах, опубликованных в газете.

4. Язык печатных СМИ обладает своей грамматической и стилистической экспрессивностью.

5. И в печатном, и в письменном литературном языке, и в устной разговорной речи встречаются характерные особенности стиля

официальных документов, художественного литературного и научного стилей.

6. В печати публикуются главная статья, материалы различного содержания и характера, хроника, постановления и телеграммы и иная информация. Однако они по своему стилистическому, грамматическому и особенностям освещения событий принципиально отличаются друг от друга. Эта особенность обогащает структуру и содержание языка печатных СМИ, создает основу его разнообразия.

7. Главный отличительный признак языка печатных СМИ – использование в нем стандартных словосочетаний и штампов.

8. Если на страницах печатных СМИ дается беллетристический материал, то начинает возрастать его эмоциональность, экспрессивность и образность, в данном случае это считается отличительным признаком языка печатных СМИ [1].

Поэтому, в первую очередь, изучение и научное исследование языка печатных СМИ имеет большое значение для языкознания. В нашем государстве печать рассматривается как средство воздействия на сознание населения, мощное орудие воспитания народа в духе идеи национальной независимости, как организация, объединяющая представителей всех наций и народностей. И поэтому язык печатных СМИ должен быть простым и понятным для всех слоев населения и, по мере возможности, избегать высокопарных слов.

Конечно, язык – это национальная ценность народа, определяющая его неповторимые особенности и духовный мир, он является не только средством общения людей, но, вместе с тем, считается важным орудием воспитания личности человека. Претворить в жизнь уникальные возможности языка, принять участие по развитию, обогащению и его совершенствованию должен каждый сын своего народа и быть

ответственен за его будущее и не оставаться в этом деле равнодушным. Каракалпакский язык, оставаясь национальным литературным языком нашего народа, в то же время является основным средством формирования высокой духовности и культуры, вестником гордости за наши достижения. А это значит, что мы должны его ценить и поддерживать. Если нашей задачей является повышение авторитета литературного языка, то мы должны четко следовать его правилам и нормам.

В обеспечении места каракалпакского литературного языка как языка государственного, пользование им на высоком культурном уровне в печатных СМИ, в общественно-политической, духовно-культурной и экономической жизни нашей республики прослеживается тесная взаимосвязь развития литературного языка с повышением уровня жизни народа и культуры общения людей друг с другом.

Литературный язык – тонкий, чувствительный инструмент и, вместе с тем, он является мощным орудием воздействия на умы и сознание людей. Поэтому его богатыми возможностями необходимо пользоваться правильно к месту. Ответом на этого вопрос стали произведения поэтов и писателей, выступления ученых, преподавателей и журналистов по радио, телевидению, на страницах газет и журналов. В своих многочисленных выступлениях, диспутах, встречах с трудовыми коллективами, студентами и учащимися они излагали свою точку зрения на то, как правильнее использовать художественное слово, грамматические формы языка, новые слова и термины. Особое внимание было уделено языку печатных СМИ, потому что язык печати – это светоч нации, окно духовности и просветительства, важнейшее средство воспитания молодого поколения. Реализации целей и задач по пропаганде возможностей языка, обозначение его места и роли в будущем, строгого соблюдения законов и правил литературного языка, поднятие на более высокий уровень грамотности,

культуры речи и письма большое значение придается средствам массовой информации.

Каракалпакский литературный язык, строго придерживаясь в письме и устной речи своих законов и правил, тем саамам соблюдает нормы литературного языка. Тем самым мы проявляем глубокое уважение к родному языку, языку каракалпакского народа. На работников СМИ, журналистов возлагается большая ответственность в следовании нормам литературного языка, т.к. язык печати – это зеркало культуры каракалпакского языка. В освоении правил литературного языка и четком соблюдении их на практике особое место отводится образовательным учреждениям, печатным СМИ, радио и телевидению. Как мы отмечали выше, печатные СМИ оказывают большое влияние на усвоение норм литературного языка, соблюдению его правил в письме и устной речи. Таким образом, язык печати исполняет роль образца при овладении правилами литературного языка. Поэтому язык печати для всех членов общества является примером при совершенствовании своего письма и устной речи.

Развитие жизни в обществе невозможно без противоречий и преобразований в той или иной сфере. Наряду с вышеперечисленными достижениями в современном языке печати, встречаются некоторые недостатки, создающие проблемы при использовании литературного языка в печатных изданиях. В первую очередь, это орфографические, пунктуационные и грамматические ошибки, а также стилистические недостатки. Особенно много таких недостатков встречаются в районных, ведомственных, а также в некоторых республиканских газетах. Все эти недостатки становятся причиной отставания в развитии культуры письма и разговорной речи. Остановимся на некоторых из них:

1. Недостатки, встречающиеся при замене русских и других заимствованных слов на турецкий, каракалпакский, а также персидско-

арабские языки. В результате этого в наш язык, язык печати вошли слова и термины, ранее не известные населению. Например, вместо «автономная республика» - «мухтар жумхурият», «самолет» - «отарба». Тем не менее, в большинстве случаев были даны разъяснения об ошибочности замены одних слов на другие. В результате многие подобные слова и термины так и не прижились в нашем языке. Однако, в своей работе журналисты до сих пор используют новые слова и термины из других языков. В некоторых случаях они применяются как варианты других слов: *программист – дастурлеуши, секретарь – хаткер, программа – дастур, багдарлама, проект – жойбар* и т.д.

2. При использовании слов в письме встречаются и случаи повтора, и случаи излишеств. Такие ошибки влияют на содержание текста и на его восприятие. Например: *окыу, уйрениу, исеним, сарпланган куш, елдин халыктын, ары ушын умтылыулар, сарпланган мийнет кем-кемнен козге корине баслады.*

3. Иногда применение в газете непонятных слов требуют их разъяснения. Применение таких слов в газете нежелательно: *баклаушылар теракт акыбетлерин турлише баян етпекте. Феромон туткыш койып шыгылып, трихограмма жиберилди.*

4. Неправильное, или излишнее использование синонимов: *тийкаргы Нызамымызга таянып хам суйенип жумыс алып бармактамыз.*

5. Стилистические ошибки в предложении. Например, излишне растянутый текст и из-за этого теряется смысловая связь между предложениями: *Бизлер апамыз корсеткен гилем-курак корпеше, дийуалдагы илдерилген гилем-апамыздын 78ге шыккандагы кол онери ушын керек болар деген дамеди нагыслардын атын сорап жазып алыуға тырыстык.*

7. Язык печати требует точности и конкретики, каждый предмет должен быть назван своими именем. В некоторых случаях в материалах газет допускаются подобные ошибки: *Озбекстан косыклар байрам танлаўынын республикалык баскышында бул жамаат 2-орынды ийеледи.*

8. В результате технических ошибок тексты выходят из печати без смысловой связки: *«Омиринизди калайынша алып барыў, шолкемлестириў, ой-пикиринизди баскарыў сизин ... ңызда!»* В этом примере не пропечатан слог –кол - (колыңызда).

Не следует оставаться равнодушным к ошибкам, перечисленным выше. Безусловно, если мы будем относиться к этим недостаткам равнодушно, то это негативно повлияет на молодое поколение журналистов, их рост как профессионалов, на общую образованность общества и развитие языка печатных СМИ. Среди вышеуказанных ошибок чаще всего встречаются неправильное использование слов, составление текста, стилистическая погрешность предложений. К сожалению, для некоторых газет эти явления становятся обычным, т.к. с каждым днем их становится все больше. Иногда только в одном номере газеты встречаются более десяти ошибок разного вида. Это создает большую проблему для развития языка печатного СМИ.

Язык печатных СМИ – это неотъемлемая часть одного из главных наследий нашего народа – каракалпакского языка, его зеркало, образец грамотности и культуры речи. Вышеназванные недостатки в одних газетах встречаются больше, в других – меньше. Только подлинно творческий подход журналиста к своим обязанностям, искреннее стремление исполнить высокое предназначение профессии может послужить развитию языка печатных СМИ. По нашему мнению, большая ответственность, возложенная на журналистов – это создание таких условий, при которых язык периодической печати всегда оставался бы образцом правильной письменности и разговорной речи.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Солганик Г.Я. О языке газеты. – М.: 1968. – С.89.
2. Айымбетов М. Опыт лингвистического анализа лексики и морфологии каракалпакского публицистического текста. Автореф. дисс...канд.филол наук. – Н.: Билим, 1991. – С. 28;
3. Оразымбетова З.К. Развитие языка каракалпакской периодической печати (На основе материалов печати 1924-1940-х годов). Автореф. дисс. ...канд.фил.наук – Н.: 2006. – Б.22.
3. Егорова Т.В. Словарь иностранных слов современного русского языка. – М.: Аделант. 2014. – С.157.

SHAXMAT SPORT TURINING TARIXI VA RIVOJLANISHI.

Muzaffar Sodiqov Odiljonovich

O'zbekiston tumani 68-umumiy o'rta ta'lim maktabi Jismoniy tarbiya

Annontatsiya: Mazkur maqola, Shaxmat sport turining tarixi va rivojlanishi va umimiy ma'lumotlari qisqacha mazmunda keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro musobaqalar tizimi, hukmdordan mukofot, zamonaviy shaxmat.

Shaxmat tarixi bir yarim ming yillik tarixga ega. Farazlarga ko'ra shaxmat hindlarning Chaturanga o'yini bo'lib bu forslar tomonidan o'zlashtirilib o'zgartirishlar kiritilib shatranj deb atalgan! 7-asrda arablar Eronni egallagandan so'ng,shatranj Arab xalifaligiga tarqaldi.Arablar esa shatranjni Yevropaga tarqatishdi. XV-asr oxirlarigacha shaxmatdagi Farzin va Filning o'yindagi xarakatlari cheklangan edi,shu paytdan boshlab esa zamonaviy ko'rinishga ega bo'ldi. O'yin sezilarli darajada o'zgardi,tezlashdi,oqlar o'yinni boshlab bergani uchun o'yinning ilk bosqichidayoq hujumda va joylarni egallashda ustunlikka ega bo'lishdi.



1984-1990-yillarda shaxmat bo'yicha o'n ikkinchi va o'n uchinchi jahon chempionlari **Anatoliy Karpov** va **Garri Kasparov** jahon chempioni unvoni uchun 5 ta o'yin o'tkazishdi.

XIX-asr o'rtalarida dastlab turli shahar va davlatlarning eng kuchli shaxmatchilari o'rtasida o'yinlar shaklida asrning ikkinchi yarmidan esa xalqaro turnirlar ko'rinishida xalqaro musobaqalar tizimi paydo bo'ldi. 1886-yil Vilgelm Steynis Iogann Sukertortni mag'lub etdi va shaxmat bo'yicha 1-jahon chempioni deb e'lon qilindi. Shu musobaqadan keyin shaxmat bo'yicha jahon chempionatlari tarixi boshlandi. 1924-yil Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tashkil etildi. 1946-yili to'rtinchi jahon chempioni Aleksandr Alyoxin vafotidan keyin keyingi unvon egalari FIDE tomonidan tasdiqlangan qoidalar asosida sportcha tanlov tizimi tomonidan tasdiqlanardi. XX-asr oxirida shaxmatda bo'linish yuz berdi: Jahon chempioni Garri Kasparov va raqibi Naydjel Short FIDE homiyligida bo'lmagan yana bir o'yin o'tkazdilar va 1993-2006-yillarda bir vaqtning o'zida FIDE bo'yicha jahon chempionlari va "Klassik" yo'nalish bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. 2006-yildan jahon chempionati qur'a tashlash marosimi birlashtirildi va 2013-yildan beri uni norvegiyalik Magnus Karlsen o'tkazmoqda.

XX-asrning ikkinchi yarmida dunyoda kompyuter shaxmati rivojlana boshladi. 1979-yillarda dasturlar juda zaif darajada o'ynagan bo'lsa, 1997-yilda IBM tomonidan ishlab chiqilgan "Deep Blue" kompyuteri o'sha vaqtda amaldagi jahon chempioni Garri Kasparovni 3,5:2,5 hisobda mag'lub etdi. 20-asrning ikkinchi yarmida dunyoda kompyuter shaxmati rivojlana boshladi. XXI-asr boshlariga kelib shaxmat dasturlarini kuchliligi insoniyat tomonidan tan olina boshlandi.

Hindiston shaxmatning vatani hisoblanadi, chunki miloddan avvalgi VI-asr oxirlarida paydo bo'lgan Chaturanga o'yini (санскр. चतुरङ्ग) shaxmatning to'g'ridan-to'g'ri qadimiy o'xshashidir. Chaturanga 8x8 o'lchadagi taxtada shaxmat donalariga o'xshash donalarda o'ynaladi va o'yindan maqsad raqib shoxini mot qilish edi. Arxeologik va yozma ma'lumotlarga ko'ra shaxmatning kelib chiqishini qadimgi Xitoy va Sosoniy hukmdorligidagi fors davlatiga bog'lovchi ayrim dalillar bor lekin bu dalillar yetarli emas. [1][2][3]

Chaturanga xaqidagi ilk yozma ma'lumotlar qirol Xarshi Bano (VII asr)[4][1] davrida sanskrit tilida yozilgan "Xarchasharita" tarixiy solnomasida yozilgan. Eski fors tilida yozilgan "Chatrang-Namak" ("Shaxmat haqidagi") risolasida shaxmat Hindiston hukmdori shaxanshox Xisrav 1 (531-579) tomonidan sovg'a qilingani hikoya qilinadi. Bu afsona tarixiy asosga ega va Xisrav 1 hukmdorligi vaqtida forslaning chaturanga bilan tanishishi aniqlanadi. Arab tarixchilari shaxmat Hindistonda paydo bo'lgani u yerdan forslarga berilgani haqida tarixiy ma'lumotlar kam berilgan.[4] Bir qator arab tarixchilari shaxmatning paydo bo'lishi haqida har xil afsonalarni yozib qoldirishgan. Afsonaga ko'ra podshox shaxmatni yaratgan odamdan tilagini so'rganda u hukmdordan mukofot o'rniga shaxmat taxtasining har bir keyingi katagida donalarni ikki barobarga ko'paytirganda olinadigan don miqdorini talab qilgan. Ko'p o'tmay podshox bu so'ralgan miqdordagi bug'doy sayyorada yo'qligini tushunadi. ($2^{64} - 1 = 18\,446\,744\,073\,709\,551\,615 \approx 1,845 \times 10^{19}$ ga teng). Bir vaqtning o'zida bir nechta tarixchilar shaxmat kashfiyotchisining ismini Sassa yoki Sissa deb aytishadi. Bu afsona al-Adli, al-Yakubi, al-Beruniy va boshqalarning asarlarida uchraydi.

Chaturangada donalarning ba'zi harakatlari IX-asrda shoir Rudratining "Kavyalankara" dostonida keltiriladi. Asarda yozilishicha butun taxta bo'ylab otning yurishi, farzinning xarakatlari zamonaviy shaxmatda xam bor. Biroq Chaturanganing to'liq qoidalari aniq ma'lum emas.[4][5]

Beruniyning "Hindiston" asarida (taxminan 1030-yil) 8x8 o'lchamdagi taxtada quyidagi donalar bo'lgan ekan: shox, fil, farzin va to'rtta piyodadan iborat to'rtta to'plam bo'lgan.[6] XVIII-asrda ingliz tadqiqotchisi Xayrem Koks 4 kishilik chaturanga 2 kishilik zamonaviy shaxmatning paydo bo'lishiga zamin yaratgan degan. Dulkan Forbes "Shaxmat tarixi" (1860) asarida keltirilgan farazda jon borday. Farazga ko'ra zamonaviy shaxmatning kelib chiqishiga zar o'ynashning din tomonidan taqiqlanishi tufayli kelib chiqqan deyiladi. Garold Myurrey o'zining "Shaxmat tarixi" (1913) asarida keltirishicha Koks-Forbes farazi bir necha ming yillik hind matnlarining noto'g'ri tarjimasini tufayli

chaturanga 4 kishidan iborat o'yin deya atalishiga sabab bo'lgan deydi.[4] Lekin chaturanga 4 kishi tomonidan o'ynalgani xali ham mashxur adabiyotlarda uchraydi.[1][2]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Cazaux, J.-L., Knowlton, R.. A World of Chess: Its Development and Variations through Centuries and Civilizations. McFarland, 2017. ISBN 9781476629018.
- 2.Golombek, H.. Chess: A History. New York: G. P. Putnam's Sons, 1976. ISBN 9780399115752.
- 3.Hooper, D., Whyld, K.. The Oxford Companion to Chess, 1st, Oxford, New York: Oxford University Press, 1984. ISBN 0-19-217540-8.
- 4.H.J.R. Murray. A History of Chess. Oxford University Press, 1913.
- 5.Шахматы: энциклопедический словарь / гл. ред. А. Е. Карпов. М.: Советская энциклопедия, 1990. — 621 с. — 100 000 экз. — ISBN 5-85270-005-3.

**MARKAZIY FARG‘ONA TUPROQLARI VA ULARNING
MELIORATIV HOLATI**

*B.f.d., dosent Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich,
Farg‘ona davlat universiteti,
magistrant, Obidjonov Xasanboy Odiljon o‘g‘li,
magistrant, Aktamov Muxammadno‘monjon Iqrorjon o‘g‘li.*

Annotatsiya Maqolada Markaziy Farg‘ona hududida tarqalgan sug‘oriladigan shox-arzikli o‘tloqi saz tuproqlarning unumdorligi va meliorativ holati tadqiq etilgan bo‘lib, sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarning agrokimyoviy ko‘rsatkichlari va tuproq eritmasi tarkibi tahlillari natijalari keltirilgan.

Аннотация В статье изучено плодородие и мелиоративное состояние орошаемых лугово-сазовых почв, распространенных в Центральной Фергане, представлены результаты анализов агрохимических показателей и состава почвенного раствора орошаемых лугово-сазовых почв.

Annotation In the article, the productivity and melioration status of irrigated meadow sedge soils distributed in the Central Fergana area were studied, and the results of analyzes of agrochemical parameters and soil solution composition of irrigated meadow sedge soils were presented.

Tayanch so‘z va iboralar: gidromorf, meliorativ, shox-arzik, sho‘rlanish, akkumulyasiya, gips, gumus.

Ключевые слова и выражения: гидроморф, мелиоратив, шох-арзык, засоление, аккумуляция, гипс, гумус.

Keywords and wordexpressions: hydromorph, ameliorative, shokh-arzyk, salinization, accumulation, gypsum, humus.

Kirish. Markaziy Farg‘onada karbonatli, gipsli, shox-arzikli, arzik-shoxli tuproqlar katta maydonlarni egallaydi. Bu hududda tuproqlardagi relik

qoldiqlar, gorizontlar ham landshaftga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Sug'oriladigan maydonlardagi sho'rlangan va har xil chuqurliklarida suv va havo o'tkazuvchanligi yomon bo'lgan tuproqlar xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb geokimyoviy masalalar qatoridan joy oladi.

Markaziy Farg'onaning tuproq-iqlimiy sharoitlari o'ziga xos bo'lib, unda asosan gidromorf tuproqlar, qumli dahalar va barxanlar shakllangan.

Bunday holatlar Markaziy Farg'onada shakllangan sug'oriladigan, sho'rlangan va har xil chuqurlikda arzik-shoxli qatlamga ega bo'lgan tuproqlarni agroekologik nuqtai nazardan tizimli o'rganishni taqazo etadi.

O'zlashtirilgan yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligi ortishi o'rniga hamon kamayib bormoqda, yoki bir xil ko'rsatkichda to'xtab qolgan. Bu yo'nalishda ham ko'p tadqiqotlar [1], [2], [3] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Karbonatli, gipsli, arzik-shoxli, shox-arzikli tuproqlar aksariyat hollarda cho'l mintaqasiga va bo'z tuproqlar kamariga to'g'ri keladi. Bunday tuproqlar, yana dunyoning ko'p joylarida, masalan, Amerika cho'llarida (Int.2001. Lile Leland), Zarafshon vohasida, Turkmaniston va Qozog'istonda tarqalgan. N.D.Kiseleva, O.G.Lopatovskayalar yozishicha Angara daryosining yuqori oqimlarida kembriy davrining nuragan mahsulotlari ustida shakllangan gipsli tuproqlarning alohida guruhi mavjud. Ular adir-tekislik sharoitida hosil bo'lgan, litogen va pedogen negizga ega. Gipsni mavjudligi tuproqqa yuqori zichlik beradi.

Tadqiqot ob'yekti va metodlari. Tadqiqot ob'yektida Markaziy Farg'onaning allyuvial va allyuvial-prolyuvial yotqiziqlari ustida shakllangan, pedolitli qatlamlarga ega bo'lgan, sho'rlangan yangidan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar tarqalgan.

Tadqiqotlarning asosiy usuli V.V.Dokuchayev tomonidan ishlab chiqilgan tuproq-genetik, solishtirma geografik usullar bo'lib, bulardan tashqari M.A.Glazovskaya va A.I.Perelmanlarning tizimli pedogeokimyoviy usullaridan foydalanildi.

Tuproq-kimyoviy tahlillar “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных районах” (СоюзНИХИ Т. 1963, 1977) ва E.B.Аринушкинанинг “Руководство по химическому анализу почв” (1971) asosida olib boriladi. Tuproq va o‘simliklarni element tahlili O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Yadro Fizikasi ilmiy-tadqiqot institutida neytron-aktivatsion analiz usulida olib borildi.

Tadqiqot natijalari. Markaziy Farg‘onada asosan, unumdorligi past bo‘lgan qumli cho‘l, taqirsimon, o‘tloqi saz va boshqa tuproqlar tarqalgan.

“O‘zdaverloyiha” institutining Farg‘ona filiali ma’lumotlariga ko‘ra, bu hududga Farg‘ona viloyatining jami 33,380 ming gektar yer maydonlari kiradi. Shundan 27,627 ming gektari ekin yeri, 1,139 ming gektari ko‘p yillik daraxtzorlar, 454 gektari yaylovlar, 478 gektari o‘rmonzorlar, 2,195 ming gektari suv osti va yo‘llar o‘rni va 1,487 ming gektari qishloq ho‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlariga to‘g‘ri keladi.

Bundan tashqari, Andijon viloyatining Ulug‘nor, Namangan viloyatining Mingbuloq tumanlarining qisman yer maydonlari ham Markaziy Farg‘ona hududiga kiritiladi.

Ushbu hudud tuproqlarining ball boniteti 39-42 ball atrofida bo‘lib, bu yerlarda yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini yetarli darajada qoniqarli deb bo‘lmaydi.

Mintaqaning tabiiy va antropogen omillar ta’siridagi tuproqlarida qator tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanganidek, gumus miqdori ko‘p emas.

Gumus o‘zgaruvchan tarkibli murakkab tizimli modda bo‘lib, uning tarkibi doimiy ravishda o‘zgarib, yangilanib turadi. Bu dinamik holat avvalo, gumussimon moddalar, uglevodlar, organik kislotalar, spirtlar, ulevodorodlar, efirlar, aldegidlar, azotli moddalar va boshqalar bilan birga bevosita gumus moddalari, ya’ni gumin va ulmin kislotalari, fulvokislotalar, gimatomelan kislotasi va boshqalarga tegishli.

Tuproq gumusi va agrokimyoviy ko'rsatkichlarining bunday o'zgarib turishi natijasida yerlarning agroekologik holati ma'lum darajada o'zgarishga uchraydi.

Tuproq hosil bo'lishi dinamikasi uning o'ziga, onalik jinslariga, organik moddalarning har xil darajadagi ta'siri orqali o'tadi, bu jarayon biogeokimyoviy hisoblanadi.

Bu jarayonda birinchi o'rinni mikroorganizmlar egallashi endilikda hech kimga sir emas. Elementlarni, xususan P, S, Fe, Ca, Si, N va boshqalarni aylanma harakatida mikroorganizmlarni buyuk roli qator sobiq sovet va chet el olimlari tomonidan e'tirof etilgan.

Litosferaning eng ustki qatlamini o'zgarishida mikroorganizmlar rolini benihoya katta ekanligi to'g'risidagi g'oyalar ham ilgari surilgan [4]. Litofil organizmlar ta'sirida sodir bo'ladigan nurashni alohida yoritgan.

Organik moddalar tuproqda qanday miqdor va sifatda bo'lmasin, ular o'simliklar uchun karbonat angidridi, oziqa elementlari, energiya manbai rolini o'taydi. Gumus tuproqda bo'ladigan dehqonchilikni turg'unligini oshiradi, tuproqni shakllanishida ko'pchilik funksiyalarni bajaradi. Uning, ya'ni gumusning tuproqdagi optimal miqdori issiqlik tartibotini boshqaradi, qimmatli strukturani vujudga keltiradi, energiya zahirasi rolini ijro etadi.

Markaziy Farg'ona tuproqlarida tabiiy va madaniy o'simliklarning ildiz tizimi tuproqning ustki qatlamlarida joylashadi, shu bois gumus qatlami bu tuproqlarda kichik. Uning zahirasi ham boshqa tuproqlarga nisbatan kam.

Qo'riq yerlarni o'zlashtirish natijasida hamda o'zlashtirilgan yerlarni madaniylashganlik darajasini ortib borishida tuproqdagi gumus miqdori va sifatini o'zgarishi ko'pchilik olimlar [4], [5], [6], [7], [8, 11, 12], [13] tomonidan o'rganilgan va tuproqni madaniylashganlik darajasi ortishi bilan gumus miqdorini dastlab kamayib so'ng ortib borishi aniqlangan. Bu holat har xil chuqurliklarda shox-arzikli qatlama ega bo'lgan tuproqlarda ham o'z kuchini saqlab qolgan [9, 10] (1-jadval).

1-jadval

Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarining
agrokimyoviy xossalari

Kesma t/r	Chuqur- ligi, sm	Gumus , %	C:N	Yalpi, %			Harakatchan, mg/kg		
				Azot	Fosfor	Kaliy	Azot (NH ₄)	Fosfor	Kaliy
8A	0-18	0,810	5,5	0,095	0,110	1,75	14,20	16,20	135,0
	18-33 izlar	-	-	-	0,023	0,91	yo‘q	8,10	55,0
	33-83	0,620	5,6	0,071	0,100	1,65	-	-	-
	83-121	0,310	5,7	0,035	0,050	1,60	-	-	-
	121-157	0,320	6,0	0,035	0,035	1,57	-	-	-
	157-202	0,225	7,9	0,019	0,036	1,50	-	-	-
9A	0-40	1,520	5,5	0,179	0,173	2,45	20,80	27,70	231,0
	40-55	1,410	5,9	0,155	0,155	2,20	9,60	13,40	143,0
	55-89	0,620	5,8	0,071	0,121	1,91	-	-	-
	89-143	0,303	4,9	0,040	0,104	1,65	-	-	-
	143-212	0,200	4,8	0,027	0,030	1,57	-	-	-

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, eskidan sug‘oriladigan (9A) tuproq kesmasining haydov va haydov osti qatlamlarida gumus miqdori 1,52-1,41 % atrofida tebranadi. Bu tuproqlarning keyingi qatlamlaridagi gumus miqdori ham yangi o‘zlashtirilgan yangidan sug‘oriladigan (8A) tuproqlarning o‘xshash qatlamlariga nisbatan yuqori.

Yangidan o‘zlashtirilgan yuza qatlamli shox-arzikli tuproqlarning ustki haydov qatlamlarida gumus 0,81 % dan iborat, shox-arzikli qatlamlarida esa gumusning izlari seziladi holos. Bu qatlamdan keyin yana gumus oz miqdorda bo‘lsada paydo bo‘ladi.

Tuproq gumusi bilan yalpi azot miqdori o‘zaro bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun o‘rganilgan tuproqlarda azot miqdorining kesma bo‘ylab o‘zgarish qonuniyati gumusni eslatadi. Tuproqlardagi C:N nisbati esa gumusni azotga boyligini ko‘rsatuvchi nisbiy kattalik bo‘lib, ko‘pchilik sug‘oriladigan tuproqlar uchun xos xususiyat hisoblanadi. Tadqiqotlarga tortilgan tuproqlarda C:N nisbat 4,8-7,9 ni tashkil qiladi.

Yalpi fosfor va kaliy miqdori ham bu tuproqlarda yuqori ko‘rsatkichlarga ega emas. Yalpi fosfor tuproq kesmalarida 0,023-0,179 % atrofida tebranadi.

Yalpi kaliy miqdori 0,91-2,45 % atrofida tebranadi, tabiiyki 0,91 % shox-arzikli qatlamlarga to‘g‘ri kelsa 2,45 % eskidan sug‘oriladigan tuproqlarni

haydov qatlamiga to'g'ri keladi. Harakatchan oziqa elementlarining miqdorlariga ko'ra bu tuproqlar kam ta'minlangan guruhga kiradi.

Bu borada xulosa qiladigan bo'lsak, sayoz shox-arzikli kesma 8A (18-33 sm.) tuproqlarida yalpi fosfor va kaliy miqdorlari ham gumus kabi keskin kamayganligini ko'rish qiyin emas. Bu kabi qatlamlarga ega bo'lmagan 9A kesmaning o'xshash chuqurliklarida yalpi fosfor va kaliy miqdori yuqorida keltirilgan maxsus qatlamlarga nisbatan keskin ko'plikni tashkil etadi.

Cho'l mintaqasida shakllangan tuproqlarni sho'rlanishida, sho'rxoklanishida ishqoriy va ishqoriy yer metallarining tuzlari muhim rol o'ynaydi.

Bizning sharoitimizda, ya'ni arid iqlim mintaqasida, xususan tabiiy zovurlanganlik darajasi juda past tuproqlarda, juda kam hosil bo'layotgan tuzlar ham sekinlik bilan akkumulyasiyalanib boradi va oxir oqibatda katta miqdorlarni tashkil qiladi. Ayniqsa, sug'oriladigan yer bo'lsa unga qo'shimcha ravishda har bir litr sug'orma suv bilan 1-1,5 g. atrofida tuz kelib qo'shib tursa, natijada suvda eruvchi tuzlar akkumulyasiyasi miqdor va sifat jihatidan yanada kuchayadi.

2-jadval

Tuproq eritmasi tarkibi dinamikasi, g/l.

Kesma t/r	Chuqurligi, sm	Na ₂ CO ₃	Ca(HCO ₃) ₂	CaSO ₄	MgSO ₄	Na ₂ SO ₄	NaCl	Jami tuzlar	Jami	
									zararli	zararsiz
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
8A	Yangidan o'zlashtirilgan yuza shox-arzikli tuproqlar									
	0-18	0,018	0,013	0,225	0,211	0,021	0,015	0,504	0,265	0,239
	18-33	0,020	0,026	0,391	0,245	0,035	0,013	0,730	0,313	0,417
	33-83	yo'q	0,014	0,327	0,215	0,013	0,013	0,582	0,241	0,341
	83-121	yo'q	0,015	0,341	0,216	0,023	0,016	0,611	0,255	0,356
	121-157	yo'q	0,018	0,401	0,235	0,021	0,014	0,755	0,270	0,419
	157-202	0,031	0,027	0,413	0,245	0,024	0,018	0,689	0,318	0,440
Sizot suvi, g/l	0,410	0,380	4,150	2,685	0,701	0,708	9,034	4,504	4,53	
9A	Eskidan sug'oriladigan suv o'tkazuvchanligi yomon qatlamlari ifodalanmagan									
	0-40	yo'q	0,013	0,220	0,124	0,018	0,015	0,390	0,157	0,233
	40-55	yo'q	0,011	0,251	0,110	0,019	0,015	0,406	0,144	0,262
	55-89	yo'q	0,010	0,331	0,100	0,018	0,015	0,474	0,133	0,341
	89-143	yo'q	0,011	0,276	0,091	0,015	0,021	0,414	0,127	0,287
	143-212	yo'q	0,011	0,220	0,087	0,020	0,031	0,369	0,138	0,231

	Sizot suvi, g/l	0,240	0,080	2,603	2,674	0,104	0,195	5,896	3,213	2,683
--	-----------------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------

Tuproq eritmasi tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, yangidan sug'oriladigan va eskidan sug'oriladigan tuproqlar turli darajada sho'rlangan, lekin tuzlarning umumiy miqdori yangidan o'zlashtirilgan → eskidan sug'oriladigan tuproqlar yo'nalishda kamayib boradi (2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tuproqni madaniylashganlik darajasi ortishi bilan undagi zararli, zaharli (toksik) tuzlar miqdori kamayib borgan.

Sug'orish davri ortishi bilan tuproqda soda hosil bo'lish jarayoni pasayib boradi, gidrokarbonatli tuzlar, Na_2SO_4 va $MgSO_4$ miqdori ham kamayib boradi. O'rganilgan tuproqlarda $MgSO_4$ miqdorining ko'pligi, ayrim hollarda $CaSO_4$ miqdoriga yaqinligi va hatto ortiqligi sizot suvlaridagi bu tuzlarning yuqori miqdorlari va ning mavjudligi bilan belgilanadi.

Xulosa. Markaziy Farg'ona xududidagi sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar maydoni qishloq xo'jaligida salmoqli o'rin tutadi. Ushbu yerlarning agroekologik va meliorativ holati past darajada bo'lib, bir qator tuproq unumdorligini, meliorativ holatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga muhtoj, ya'ni tuproq tarkibidagi gumus miqdori, agrokimyoviy tarkibini boyitish, sho'rlanish darajasini va sizot suvlari sathini kamaytirish, bu hududga xar tomonlama mos keladigan, tuproq sho'rini kamayishiga va uning unumdorligini ortishiga xizmat qiluvchi madaniy ekinlar va mevali, manzarali daraxt turlarini ekib ko'paytirish va shu kabi bajarilayotgan tadbirlarni yanada rivojlantirishni taqazo etadi. Shu bilan birga, ushbu hudud tuproq-iqlim sharoitlariga mos keluvchi dorivor o'simliklar hamda asal-shiraga boy o'simlik turlarini ekish va plantasiyalarini yaratish xalq xo'jaligini rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Maxsudov A. Pochvy Syentralnoy Fergаны i ix izmeneniye v svyazi s orosheniye.: Avtoref.dis....kand.selxoz.nauk - T., 1977. -24 s.
2. Mirzajonov K.M. va bosh. Tuproq muhofazasi. -T., 2004.-139 b. 52-89 b.
3. Isakov V.Yu., Mirzayev U.B., Yusupova M.A. Osobennosti xarakteristiki pochv pesчаных massivov Ferganskoy doliny // Nauchnoye obozreniye. Biologicheskiye nauki. – 2020. – № 1. – S. 15-19.
4. Isaqov V.Yu., Mirzayev U. Markaziy Farg‘onada shakllangan arziqli tuproqlarning xossalari va ularning inson omili ta’sirida o‘zgarishi. Toshkent 2009. 227 b.
5. Isaqov V.Yu., Yusupova M.A. Farg‘ona vodiysi qum dahalariga inson omilining ta’siri // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. –Т. №9. S 60-67.
6. Полюнов В.В. Ucheniye o landshaftax. - L., 1985. T.XIII. -493-511 s.
7. Turdaliyev A.T., **Asqarov K.A.**, Xodjibolayeva N.M. Sug‘oriladigan gidromorf tuproqlardan samarali foydalanish // Scientific Bulletin of Namangan State University. –Т. –2021. №7. S. 140-145.
8. Turdaliyev A., Asqarov K., Xodjibolayeva N. Geoenergetic features of lanthanoids and radioactive elements in irrigated soils // Scientific journal of the Fergana State University. – 2019. – Т. 2. – №. 4. – S. 53-57.
9. Turdaliyev A.T., Askarov K.A., Mirzayev F.A.U. Morfologicheskiye osobennosti oroshayemyx pochv Syentralnoy Fergаны //Pochvy i okrujayushchaya sreda. – 2019. – Т. 2. №3. S. 56-61.
10. Turdaliyev A., Yuldashev G‘. Pedolitli tuproqlar geokimyosi. Monografiya. -T. “Fan”. 2015. 41-48 b.
11. Turdaliev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., & Abdurakhmonova, M. A. (2022, July). Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1068, No. 1, p. 012047). IOP Publishing.

12. Хайдаров М.М., Турдалиев А.Т., Саминов А.А.У. Energeticheskiye osobennosti aminokislot v svetlykh serozemax // Tendensii razvitiya nauki i obrazovaniya. – 2021. – № 80-3. – S. 45-47. – DOI 10.18411/trnio-12-2021-121.

13. Eshpulatov, Sh. Ya., Turdaliyev, A. T., & Mirzayev, F. (2017). Pochvenno-arxeologicheskiy metod dlya opredeleniya vozrasta drevnix oqoshayemykh paleopochv. *Aktualnyye voprosy sovremennoy nauki*, (2), 63-67.

**Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi darslarida didaktik
usullardan foydalanishning ahamiyati**

Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang`ich ta`lim fakulteti v/b dotsenti, PhD

Almanova Dilafruz Tojinorovna

Termiz davlat Pedagogika instituti

Ta`lim tarbiya nazariyasi(Boshlang`ich ta`lim)

2- kurs magistranti

Annotatsiya Maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarida ona tili va o`qish savodxonligi darslarida ta`lim texnologiyalardan unumli foydalanish va uning ahamiyati, “Ajoyib maktub”, “Xatolarni belgilayman” usullarini qo`llanilish tartibi, usulning tahlili natijasida o`quvchilarning fikr va g`oyalarini erkin bildirishi to`qrisida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar. Ona tili va o`qish savodxonligi, didaktik usullar va ularning ahamiyati, erkin fikrlash.

Bugungi kunda ta`limning sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Milliy o`quv dasturi ta`lim tizimini keng isloh qilish, fanga doir bo`lgan kompetensiyalarni rivojlantirish, ta`lim mazmunini tubdan yangilash va ta`lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, o`quvchiga tilni o`qitish orqali shu til bo`yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to`rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o`qish va yozish amallari bo`yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko`nikmalar me`yorini rivojlantirish, bunda o`qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni

o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish ham nazarda tutilgan.

2020 yil 20 oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi farmonda o'zbek tili nufuzini oshirish va yozma savodxonlikni oshirish bo'yicha alohida e'tibor qaratilgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi fani o'quvchilarda fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirishdan iborat. Ona tili va o'qish savodxonligi nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tili va o'qish savodxonligini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi.

Aynan nutqiy kompetensiyani shakllantirishda yozma nutq malakasini oshirishda quyidagilar:

-o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish;

-turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish,

xususan, ma'lum narsa-hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish;

-materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan

asoslab yoza olish;

-yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni

o'rinli qo'llay olish;

-matnning izchilligini ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va

grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish;

-imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish ta'kidlab o'tilgan.

Ona tilining jamiyatdagi o'z qadri, mavqeyi hamda maqomiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish maqsadida o'rganish va o'rgatishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj yanada oshirildi. Natijada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning diqqati kerak-kerak emas mavzular bilan chalg'itish emas balki, ona tili ta'limining hayotiy zaruratni oshirish va uni targ'ib qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu bois o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatli jihatlarini yoritishni maqsad qildik.

Ta'lim texnologiyaga asoslangan darslarining an'anaviy darslardan farqi nimada? Bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib, unga o'z fikrini erkin bayon etish va yozishga imkoniyat berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratiladi? Dastlab, boshlang'ich sinf o'quvchilariga yozma savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi. Masalan:

1. Qaysi fasllarni yo`qtirasiz?
2. Oy nomlarini ayting.
3. Gullar nomini bilasizmi?

Ushbu savollar orqali o'quvchilarning qiziqishi va ularning e'tibori jalb qilinadi. So'ngra dars jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi. "Ajoyib maktub", "Xatolarni belgilayman" deb nomlangan usullar o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish va ta'lim jarayonining sermahsul, tartibli o'tishiga ko'mak beradi. Darsning mazkur bosqichida o'quvchilarni g'oyalar va takliflar bilan chiqishga chorlash va shu vaqtning o'zida barcha g'oya hamda takliflarni

yoziq borish lozim.”Ajoyib maktub” usulida o`qituvchi o`quvchilarga o`z fikrini oq qog`ozga tushirib borishda namuna sifatida doskada keltirilgan so`zlarni shoshilmasdan, bo`g`in ko`chirish qoidalariga amal qilgan holda tartib bilan yozishni eslatib o`tadi.

So`z	<i>Vatan,men, qadr, va, ko`z, qorachiq, asra. Onajon, men, qadrli, inson</i>
Gap	<i>Men Vatanimni qadrlayman va ko`z qorachig`imdek asrayman. Onajonim, men uchun eng qadrli inson.</i>
Bo`g`inga ajratish	<i>Men, va-ta-nim-ni ,qadr-lay-man, va ko`z qo-ra-chi-g`im-dek, as-ray-man Ona-jo-nim, men, uchun eng, qadr-li in-son.</i>

Ta`lim jarayoni ta`lim beruvchi bilan ta`lim oluvchi o`rtasidagi ma`lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko`nikmalarni tarkib toptirishga yo`naltirilgan o`zaro ta`sirlashuv jarayonidir. Bu jarayon bir tizim deb qaraladigan bo`lsa, uni tashkil etuvchi elementlaridan biri baholashdir. Har bir dars jarayonida o`quvchi faoliyatining to`g`ri va adolatli baholanishi uning darsga bo`lgan qiziqishini orttiradi, o`z ustida ishlashga undaydi.

“Xatolarni belgilayman” deb nomlangan usul orqali o`quvchilarning zukkoligi, so`zlar tartibini to`g`ri qo`llay olishi e`tiborga olinadi. Bir necha xato so`zlar ekranda namoyish etiladi. Ularning to`g`ri variantlari o`quvchilar tomonidan doskada bajariladi; **Kitop – kitob, soat- sog`at, daftar – daptar, tabiat –tabiyat, ayna – oyna, stol – ustol, kata - katta, maktab- maktab**

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, o`quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda usullardan foydalanish va bu orqali o`quvchilar bilan do`stona munosabatda bo`lish ularning erkin fikrlashini ta`minlash e`tiborga olinadi. Shuning uchun dars jarayonida qay usulda o`qitish, nima asosida ta`lim berish, ta`lim jarayonida qanday vositalardan foydalanish, bu jarayonda o`qituvchi va o`quvchilarning ishtiroki e`tiborga olinadi. Darsda o`quvchining o`zi o`rganishi, o`zi izlanishi, o`zi mushohada yuritishi, mazkur jarayonning

bevosita tashkilotchisi, o'qituvchi esa ushbu murakkab jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni // qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 21.10.2020 y. 06//20//6084//1398-son.

2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi. Toshkent.2020.

3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2017 yil 14 (774)-son, 230-modda. – 233 b.

4. O'quv dasturi. Davlat ta'lim standarti va ona tili o'quv dasturi //2017. 13-b.ona tili

5. Ishmuhamedov.R, M.Mirsoliyeva. "O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari". "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent - 2014. - B.74

**НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ - СТАРТОВАЯ ПЛОЩАДКА В
МИРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Набиева Азиза Гайбилловна

учитель начальных классов,

Школа № 10

Аннотация: в статье определены роль и значение начального звена обучения детей в системе дошкольного, школьного и последующего образования, проведен анализ позитивных и негативных факторов влияния на его качество, методику оценивания достижений, на выбор критериев определения готовности дошкольника учиться в начальной школе. Данные приведены из материалов, относящихся к различным европейским странам.

Ключевые слова: образование, начальная школа, методы оценки достижений.

Начальное образование как объект изучения, исследования и эксперимента занимает особое место; это образовательное пространство, которое принадлежит феномену детства, самоценному периоду жизни, времени неисчерпаемых потребностей ребенка в познании, которые при допущении в раннем возрасте потерь оказываются невосполнимы в полной мере в дальнейшем образовании.

По своим целям современное начальное образование призвано заложить основы знаний, развивать умственно, нравственно, эстетически и физически с учетом индивидуальных и возрастных особенностей детей, позитивной самооценки и ответственности в целях успешного обучения на последующих ступенях общеобразовательной средней школы.

Из целого блока общих проблем развития современного начального образования выделим следующие:

- выбор «правильного» возраста для начала обучения;
- определение критериев готовности к школе будущего первоклассника;
- второгодничество на дошкольной ступени и в начальной школе как способ «выравнивания» показателей успеваемости;
- пути решения проблемы адаптации детей в детском саду и школе;
- формы сотрудничества педагогов детских садов и начальных школ;
- факторы влияния на реализацию права «равенства шансов в образовании» как социально-экономическая и педагогическая проблема.

В подходах к определению целей начального образования и решению проблемы выбора «правильного» возраста начала обучения детей среди специалистов есть серьезные разногласия, заслуживающие внимания.

Сторонники более раннего начала обучения детей выдвигают различные доводы, ссылаясь на новые исследования ученых, на практический опыт воспитания детей в семье и в дошкольных учреждениях, но прежде всего на глобальные перемены в социуме и их отражение в жизни современного поколения.

Изменился облик, интересы и потребности завтрашних первоклассников. Они значительно обогнали своих сверстников прошлых лет объемом и уровнем получаемой информации, владением электронными средствами связи, живут в условиях повышенных требований к образованию. Эти особенности привели к сокращению времени, принадлежавшего ранее беззаботному детству; началу обучения

детей более раннего возраста (малышей 3-5 лет); к попыткам сокращения срока обязательного обучения (от 9 до 13 лет) за счет дошкольного.

Их оппоненты утверждают, что наступление на законные права детей, на «сокращение» времени, принадлежащего детству, происходит:

- во-первых, из-за определения возраста малыша как дошкольного, априори ориентированного на школу, как и на закрепление за ним социального статуса «дошкольника», а не, например, «играющего» или «растущего» («развивающегося») ребенка;
- во-вторых, за счет сокращения в ряде европейских стран возраста начала подготовки к школе на 2 года по сравнению с традиционным возрастом в 6-7 лет;
- в-третьих, из-за более серьезной учебной нагрузки на 5-6-летних детей, что является фактическим переключением на дошкольную ступень прямых образовательных обязанностей начальной школы.

Существенными потерями для развития ребенка оборачивается ограничение или реальное сокращение времени, которое традиционно принадлежало игре, «детской забаве», как специфически детского вида деятельности, признанного во все времена и всеми народами ценнейшим даром. Педагоги констатируют сокращение у детей «свободного» времени, то есть на детские игры, и критически относятся к тому, что все чаще профессионализм воспитателей и учителей начальных школ оценивается не с точки зрения их умения играть с детьми, а умения проводить занятия, приближенные к школьным урокам.

Приводятся следующие доводы: «Читающий и даже пишущий дошкольник становится "моделью" выпускника детского сада»; «Сегодня, стремясь быстрее формировать у ребят предметные знания, школа пытается искусственно стимулировать акселерацию ребенка, его "взросление" путем дошкольного образования, нарушая преемственность в содержании и формах».

В книге «Кризис в детских садах» ученый Е. Миллер рассуждает о кризисе в американских детских садах, вызванном сокращением до минимума игровой деятельности воспитателей с детьми, в чем усматривается угроза их физическому развитию, здоровью и, как следствие, успешному обучению в дальнейшем. [1]

Доминирование подготовительной к школе функции за счет игровой объективно привело к созданию специального связующего звена между дошкольным и школьным образованием, призванного выполнять следующие задачи:

- создать условия для обеспечения детей соответствующим уровнем подготовки для достижения «равного старта»;
- подготовить их на уровне «школьной зрелости» к усвоению первоначальных базовых знаний, умений и навыков для последующего их закрепления и продолжения в начальной школе;
- помочь адаптироваться к новым условиям при переходе из семьи в более регламентированную среду обитания.

Подготовительная ступень в разных странах создавалась в соответствующих им национальных формах. В США функцию дошкольной ступени осуществляют дневные центры по присмотру за детьми, дошкольные классы, детские сады или «школы нянь». В ФРГ, Австрии и Швейцарии «подготовительные группы или классы» располагаются при детских садах или начальных школах в зависимости от степени готовности ребенка к школе. Во Франции используются разные формы интеграции детских и начальных классов, например, детские сады, так называемые «материнские школы», рассчитанные на малышей 2-5 лет, работают в режиме начальной школы. Старшая группа малышей детского сада (4-5 лет), слитая с первым годом обучения начальной школы, является «подготовительным классом». В Финляндии дошкольные группы рассчитаны на детей 6 лет, в Италии - «подготовительный к школе год» в

детском саду («детская школа»), в Польше - нулевые классы при школах или подготовительные группы в детских садах, в Чехии - «материнские школы».

В отличие от зарубежного опыта Министерство народного образования и науки для реализации конституционных прав граждан ставит цель повысить общедоступность дошкольного образования, а не заменять его предшкольным образованием и не предусматривает подобной замены.

Функционирующие в различных странах дошкольные учреждения отличаются многообразием видов, целевой направленности, методик воспитания и обучения, включая альтернативные системы воспитания, соответствующие педагогическим концепциям Дьюи, Пиаже, Монтессори, Френе, Штайнера.

Вальдорфские детские сады (модель Р. Штайнера), нашедшие распространение во многих странах мира, при определении основных задач воспитания исходят из принципа природосообразности, отказываясь от искусственного ускорения развития ребенка и более раннего начала обучения для подготовки к школе.

В Германии и в Австрии подготовительная ступень призвана использовать игровые формы обучения, развивать учебные (речевые и моторные) умения и навыки для последующего обучения в школе чтению, письму, счёту, а также навыки социального поведения.

Имеются также детские сады, где приоритетны какие-либо основные задачи, например, достижение «равного старта» (аспект выравнивания уровня подготовки к школе); ориентация на максимально высокие учебные результаты (образовательный аспект) или акцент на выравнивание (коррекцию) социального поведения и адаптивность к определенным условиям (социализирующий аспект). В Дании

аналогичные задачи осуществляются в рамках концепции «свободного воспитания» с акцентом на развитие самостоятельности и ответственности, что входит в традиции национальной образовательной модели, где в центре внимания - ребенок, его ориентация на детский коллектив, на эмоциональное и социальное развитие.

Продолжительное время педагоги и психологи считали, что критерием определения уровня развития детей 5-6 лет и начала их обучения является природная способность (готовность) к обучению. Позже этот уровень «измерялся» объемом тех знаний и представлений, которые ребенок смог или успел приобрести перед поступлением в школу. Исследовательская мысль была направлена на изучение «круга представлений» детей об окружающей действительности и на определение тех требований, которые предъявлялись им как будущим первоклассникам.

Фактором укрепления преемственных связей путем сближения целей и задач, организационных форм и методов работы на разных ступенях начального образования, а также ускорения процесса их интеграции, становится формирование неоднородных по возрасту и развитию гетерогенных групп. Они проявили себя на практике более эффективно, чем гомогенные группы, как для общего развития детей, так и для их способности адаптироваться к новой среде.

Значительно сложнее, чем определение «правильного» возраста для начала обучения, решается проблема выбора критериев готовности (способности) дошкольника к обучению в начальной школе, «школьной зрелости».

В настоящее время программы подготовительных групп в большинстве стран ориентированы на развитие у детей представлений и

навыков самопознания окружающего их вещественного мира и социального поведения в среде их обитания.

По-разному выбираются приоритеты при определении показателя готовности к школе. В центре внимания может быть изучение родного языка и развитие речевых навыков (Австрия), или развитие интеллекта, наблюдательности, быстроты запоминания, точности выражения мысли, творческого воображения (Болгария).

В ряде скандинавских стран способность детей к обучению коле рассматривается как результат самого обучения, независимо от проявленного ими общего уровня развития ко времени поступления в 1-й класс.

Финляндия находится в числе лидирующих стран по успеваемости (качеству подготовки) учащихся, выявленных в ходе международных исследований (PIZA, TIMSS, PIRLS). В стране не признается дифференцированный подход к детям при определении их способностей при зачислении в школу, а также деление на «слабых»

и «сильных». Принимаются все, включая детей с нарушениями в развитии, и добиваются «равенства результатов».

Список литературы

1. *Косенко Сергей Михайлович*. О франко-американских противоречиях в области культуры. [Электронный ресурс]. Режим доступа:

<https://cyberleninka.ru/article/n/ofranko-amerikanskih-protivorechiah-v-oblasti-kultury/> (дата обращения: 27.05.2020).

**ICHAKBAKTERIYALARI OILASIGAMANSUB MIKROBLAR QORIN
TIFI VA PARATIF QO'ZG'ATUVCHILARI**

Baxtiyorov Asadbek Bobur og'li .

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Tibbiy biologiya fakulteti. 4-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirda insonlar o'rtasida juda ko'p uchraydigan Ichakbakteriyalari haqida ma'lumot ularning organizmda turli kasalliklarni keltrib chiqaradi va bu oshqozon ichak sistemasidagi turli organlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi bulardan qorin tifi va paratiflar haqida ularning ta'siri yuqush yo'llari va antigenligi haqida maqolada yoritilgan.

Kalit so'zlar: Antropoonoz, Salmonella, laktoza, toksin, virulentlik, fenol, dezinfeksiya, parenximatoz, gem okulturani ajratib olish, identifikatsiya, Vidal reaksiyasi.

Qorin tifi (ich terlama) - og'ir yuqumli antropoonoz kasallik. Tif va paratiflar guruhiga mansub kasalliklar qadimdan ma'lum-Gippokrat (miloddan avvalgi 460-377-yillar) qorin tifini o'z asarlarida bayon etadi. Tif so'zi lotincha «typhos» so'zidan olingan bo'lib, «tutun», «tuman», «alahlash» degan ma'nolarni anglatadi. Qorin tifi qo'zg'atuvchisi (Salmonella-typhi) K.Ebert tomonidan 1880-yili qorin tifidan o'lgan odamning tomog'idan ajratib olgan. Sh.Ashar va R.Bensodlar 1896-yili paratif B qo'zg'atuvchisining sof kulturasini ajratib oldilar. G.Shotmyuller bu qo'zg'atuvchini to'liq o'rganadi. Shuning uchun paratif B ni Salmonella schottmulleri ham deb ataladi. 1898-yili N.Gvin va X.ICayzerlar S.paratyphi A ni kashfetishdi. Turkiyada P.Neukirch 1914-1918-yillarda Salmonella paratyphi C ni ajratib oldi

Xalqaro terminlar qo'mitasi bo'yicha salmonella urug'i 5 ta kenja urug' gabo'linadi. Birinchi kenja urug'ga odamlarda kasallik qo'zg'atuvchi salmonellalarning katta qismi, ya'ni A, B, C, D, E serogruhlari kiradi

Morfologiyasi. Qorin tifi va paratif bakteriyalari morfologiyasi, kattaligi, xivchinlari, bo'yalishiga ko'ra bir-biridan farq qilmaydi. Ular mayda (0,5-1,5 mkm) tayoqchasimon, uchlari birm uncha to'm toq, harakatchan, spora va kapsula hosil qilm aydi, xivchinlari peretrix joylashgan grammanfiy bakteriyalar. Xivchinlar 8 dan 20 tagacha bo'lishi mumkin. Nukleoid DNKsida G+S 50-53%ni tashkil etadi. O'sishi. Tif va paratif bakteriyalari fakultativ anaeroblar, pH 6,8-7,2 bo'lg'an oddiy oziq muhitlarda ko'payadi. Tarkibida safro (o't) bo'lg'an muhit ular uchun optimal hisoblanadi. 37°C ularning o'sishi uchun qulay, biroq 15-^H"Cda ham o'sishi mumkin. Ploskirev, Endo vaG PA muhitlarida o'rtacha kattalikdagi rangsiz, yaltiroq, chetlari tekis, tiniq S-shakldagi koloniyalar hosil qiladi, vismut-sulfit agarda esa qora rangli, yaltiroq, ch etlari tekis koloniyalar hosil bo'ladi. Qiyalatilgan agarli probirkalarda 18-20 soatdan so'ng nam, yaltiroq, rangsiz parda, go'sht-peptonli bulonda esa b ix xil quyqa hosil qilib o'sadi. Salm onella, paratif A Ploskirev, Endo kabi m uhitlarda qorin tifi bakteriyalarining koloniyalariga o'xshash koloniyalar hosil qiladi. Ularni bir kun termostatda o'stirilgandan so'ng uy haroratida bir necha kun saqlaresa koloniya chetlarida shilliq halqachaiar paydo bo'ladi, bu uning asosiy belgisi hisoblanadi. Fermentativ xususiyati. Qorin tifi bakteriyalari glyukoza, mannit, altozalami faqat kislota hosil qilib parchalaydi. Ammo saxaroza, laktoza va mochevinalarni parchalamaydi. Indol, vodorod sulfid hosil qilmaydi. Paratif bakteriyalari esa biokimyoviy xususiyatlariga ko'ra faolroq, shuning uchun barcha uglevodlarni kislota va gaz hosil qilib parchalaydi.

Toksin hosil qilishi. Qorin tifi va paratif salm onellalari asosan endotoksin hosil qiladi. Bu toksin haroratga chidamli, 120°C d a 30 daqiqa qaynatilganda ham o 'z xususiyatlarini o'zgartirmaydi. Antigen tuzilishi. Tif va paratif salmonellalarida uch xil antigen bor. B ulardan birinchisi somatik O-antigen bo'lib, haroratga chidamli, glyusido-lipido-protein kompleksidan iborat, ikkinchisi H-an tig en (yoki xivchin antigeni) - oqsildan tashkil topgan, haroratga chidam siz, uchinchisi V i-antigen bo'lib, bakteriyaning yuza qismida

joylashgan, u faqat virulent mikroblarda bo'lganligi uchun virulentlik antigeni deb ham ataladi. Bu antigeni Feliks va Pittlar 1934-yili virulentli qorin tifi salmonellalaridan topishgan. Seroguruh ichidagi salmonellalarni differentsiatsiya qilishda N -antigenlarning maxsusligidan foydalaniladi. Birinchi yoki maxsus fazada maxsus turga xos zardoblar qo'lanilsa, ikkinchi yoki nomaxsus fazada turga xos zardoblar bilan bir qatorda maxsus guruh zardoblari ham qo'lash mumkin, ya'ni H-antigen ikki fazadagi birfazali maxsus va ikki fazali ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bunda birinchi faza lotin alifbosida (a,b,c,d va hk.) belgilansa, ikkinchisi arabo harflarida belgilanadi. Qorin tifi va paratif salmonellalarining antigenlari fizik-kimyoviy omillar ta'siriga chidamliligi bilan bir-biridan farq qiladi. M asalan; O—antigen formalin ta'sirida parchalanadi, ammo fenolga chidamli. H—antigen esa formalin ta'sirida o'zgarmaydi, lekin fenol ta'sirida parchalanadi.

Toksin hosil qilishi. Qorin tifi va paratif salmonellalari asosan endotoksin hosil qiladi. Bu toksin haroratga chidamli, 120°C da 30 daqiqa qaynatilganda ham o'z xususiyatlarini o'zgartirmaydi. Antigen tuzilishi. Tif va paratif salmonellalarida uch xil antigen bor. Bulardan birinchisi somatik O - antigen bo'lib, haroratga chidamli, glyusido-lipido-protein kompleksidan iborat, ikkinchisi H-antigen (yoki xivchin antigeni) - oqsildan tashkil topgan, haroratga chidamli, uchinchi V i-antigen bo'lib, bakteriyaning yuza qismida joylashgan, u faqat virulent mikroblarda bo'lganligi uchun virulentlik antigeni deb ham ataladi. Bu antigeni Feliks va Pittlar 1934-yili virulentli qorin tifi salmonellalaridan topishgan. Seroguruh ichidagi salmonellalarni differentsiatsiya qilishda N -antigenlarning maxsusligidan foydalaniladi. Birinchi yoki maxsus fazada maxsus turga xos zardoblar qo'lanilsa, ikkinchi yoki nomaxsus fazada turga xos zardoblar bilan bir qatorda maxsus guruh zardoblari ham qo'lash mumkin, ya'ni H-antigen ikki fazadagi birfazali maxsus va ikki fazali ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bunda birinchi faza lotin alifbosida (a, b, c, d va hk.) belgilansa, ikkinchisi arabo harflarida belgilanadi. Qorin tifi va paratif salmonellalarining antigenlari fizik-kimyoviy omillar ta'siriga chidamliligi

bilan bir-biridan farq qiladi. M asalan; O—antigen formalin ta'sirida parchalanadi, ammo fenolga chidamli. H—antigen esa form alin ta'sirida o'zgarmaydi, lekin fenol ta'sirida parchalatuadi. Qorintifi, paratif salmonellalari yuqori harorat ta'siriga chidamsiz. Shuning uchun 60°C da 30 daqiqa qizdirilganda, qaynatilganda esa bir necha soniyada o'ladi. Dezinfeksiya vositalari 5% li fenol, 3% li lizol va xloramin, xlorli ohak eritmalari ta'sirida 2-3 daqiqada nobud bo'ladi.

Kasallikning odamlardagi patogenezini. Bemor, bakteriya tashuvchi va rekonvalessentlar infeksiya manbai hisoblanadi. Kasallik og'iz orqali yuqadi. Kasallikning yashirin (inkubatsion) davri o'rtacha 10-14 kun. Infeksiya patogenezida 7 davr tafovut qilinadi: 1)organizm ga tushish davri qo'zg'atuvchi og'iz orqali odam organizmiga kirib me'daga tushadi, so'ng 12 barmoq ichakka, keyin ingichka ichakning pastki bo'l im iga yetib boradi va epiteliy hujayralariga birikadi. Bu yerda mikrobu qulay sharoit boiganligi sababli ular ichak devoridagi limfa bezlari ga, so'ngra limfa follikulalariga kirib tezda ko'paya boshlaydi, 2) invaziya davri (kirib olish davri). Bu davrda (7-28 kun) ingichka ichakning p astk i qismidagi solitar follikula va Peyer pilakchalarida yallig'lanishjarayoni rivojlanadi. Bu ikki davr kasallikning inkubatsion davrini tashkil qilib, b u davming oxirida mikrobu ingichka ichakning limfa sistemasidan qonga o'tadi. Bunda bemorda kasallikning klinik belgilari paydo bo'la boshlaydi. Bu davrda qonda juda ko'p miqdorda bakteriya bo'ladi, shuning uchun b u bosqichni bakteremiya davri (3-davr) deyiladi. Qondagi salmonellalar qon bilan butun organizmga tarqaladi. Ular ko'p a'zo va retikuloendotelial to'qimalarda limfa bezlari, talo , jigar, ilik, buyrak va boshqa a 'zolarida ko'payadi. Bu davr 7 kun dav- ometib, kasallikning birinchi haftasiga to 'g 'ri keladi va bu davr a'zolarga tarqalish davri (4-davr) deyiladi. Tif va paratif salmonellalari qonda. Tif va paratif salmonellalari qonda ko'payadi va qonning bakteriotsid ta'sirida bakteriyalar parchalanadi, natijada qonga ko'p miqdorda endotoksin tushadi, u o'z navbatida bemor organizmini zararlaysadi, shuning uchun buni zaharlanish

